

**Q. X. ABDURAHMONOV, X. X. ABDURAMANOV,
I. R. QURBONIYOZOV**

AHOLINI IJTIMOIY MUHOFAZA QILISH



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Q. X. ABDURAHMONOV, X. X. ABDURAMANOV,
I. R. QURBONIYOZOV**

**AHOLINI IJTIMOIIY
MUHOFAZA
QILISH**

O'QUV QO'LLANMA

Toshkent - 2010

56(07)


36.1

A-12 Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X., Qurboniyozov I.R. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010. – 268 b. — ✓

Ushbu o'quv qo'llanmada aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasining ob'yektlari, tamoyillari, mexanizmlari va yo'nalishlari, kam ta'minlangan oilalar, ishsizlar, yolg'iz keksalar, nog'imonlar va xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimlari, aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning xususiyatlari, aholining turmush darajasi va daromadlari, ularni davlat tomonidan tartibga solish usullari, ijtimoiy sug'urtaning mohiyati, shakllari va milliy tizimlari, ijtimoiy ta'minot tizimining shakllanishi va rivojlanishi, pensiya tizimining mohiyati va uni isloh qilish yo'llari yoritilgan.

Qo'llanma oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalari, magistrarlari, shuningdek, aholini ijtimoiy muhofaza qilish masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar va ilmiy xodimlarga hamda ushbu sohaga qiziquvchilarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar: i.f.d., professor **Rahimova D.N.**
i.f.d. **Umurzakov B.X.**



**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

**АБДУРАХМОНОВ К. Х., АБДУРАМАНОВ Х. Х.,
КУРБАНИЯЗОВ И. Р.**

СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА НАСЕЛЕНИЯ

УЧЕБНОЕ ПОСОБИЕ

Ташкент - 2010

Абдурахманов К.Х., Абдураманов Х.Х., Курбониязов И.Р. **Социальная защита населения. Учебное пособие.** – Т.: ТГЭУ, 2010. – 268 с.

В этом учебном пособии освещаются объекты, принципы, механизмы и направления сферы социальной защиты населения, системы социальной защиты малообеспеченных семей, безработных, одиноких престарелых, инвалидов и работников, особенности социального обслуживания населения, уровень жизни и доходы населения, методы их государственного регулирования, сущность социального страхования, его формы и национальные системы, формирование и развитие системы социального обеспечения, суть пенсионной системы и пути ее реформирования.

Учебное пособие предназначено студентам, магистрам экономических образовательных направлений высших учебных заведений, а также специалистам и научным работникам, занимающимся вопросами социальной защиты населения и всем интересующимся данной сферой.

Рецензенты: д.э.н., профессор Рахимова Д. Н.
д.э.н. Умурзаков Б. Х.

**THE MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBERISTAN**

TASHKENT STATE ECONOMIC UNIVERSITY

**K. KH. ABDURAKHMONOV, KH. KH. ABDURAMANOV,
I. R. QURBONIYOZOV**

SOCIAL PROTECTION OF POPULATION

MANUAL

Tashkent - 2010

K.KH. Abdurakhmonov, KH. KH. Abduramanov, I.R. Kurboniyazov. Social protection of the population. Manual. – T.: TSEU, 2010. – 268 p.

This tutorial enlightens the objects, principles, mechanisms and directions in the sphere of the population social protection, the systems of the social protection of needy families, the unemployed, lonely aged, disabled and workers, the peculiarities of the social service of population, the standard of life and the incomes of population, the methods of their state regulation, the essence of the social insurance, its forms and national systems, formation and development of the social security system, the essence of the pension system and ways of its reforming.

The tutorial is meant for the students, master degree students of economic educational directions of higher educational establishments, and also for the specialists and scientific workers, engaged in the problems of the social protection of population and for everyone interested in this sphere.

References: **doctor of economic science, prof. Rahimova D.N.**
 doctor of economic science. Umurzakov B.X.

KIRISH

⌈ Kuchli ijtimoiy siyosat respublikada amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning eng muhim tamoyillaridan biridir. Ijtimoiy siyosat orqaligina shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari ro'yobga chiqishini ta'minlashga, oilalarning, har bir insonning farovonligini oshirishga oid tadbirlarni keng miqyosda amalga oshirish mumkin. ✓

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada uning samaradorligi, ijtimoiy yordamga muhtoj aholi qatlamining turmush farovonligi pasayadi. Biroq, O'zbekistonda olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida aholining turmush farovonligi yil sayin oshib bormoqda. Jumladan, o'tgan yili 2000 yilga nisbatan o'rtacha ish haqi 28,5 barobar, pensiyalarning o'rtacha miqdori qariyb 18 barobar, aholi jon boshiga nisbatan pul daromadlari esa 12 barobar oshdi ¹.

Albatta, aholi va jamiyat har bir a'zoning turmush sharoitlarini oshirish, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, salomatligini mustahkamlash, ishchi kuchi sifatida ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etish salohiyatini yuksaltirish davlatimiz ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Ana shu ma'noda aholi muhofazasini ta'minlashdagi birinchi va asosiy vazifa ham insonni kamol toptirish, uning oila va jamiyatdagi o'rni hamda nufuzini ko'tarish bilan bog'liq. Binobarin, jamiyatning insonparvarligi mamlakat iqtisodiy salohiyatining qanchalik yuksakligi bilan emas, balki bu salohiyat har bir kishining farovon yashashi va har tomonlama rivojlanishi uchun yo'naltirilganligi bilan baholanadi. ✓

✓ Buguni kunda Prezident I.A.Karimov ko'rsatmalari asosida olib borilayotgan islohotlar aholining keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlangan yagona to'g'ri yo'l ekanligi amalda o'z isbotini topdi. Shu bilan birga, mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilishning mavjud barqaror mexanizmi jamiyatning muhtoj a'zolari, ayniqsa, ko'p bolali oilalarni aniqlash va ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish bilan izohlanadi.

✓ Hozirgi kunda ijtimoiy ^{muho} muhofaza tizimini takomillashtirish bozor munosabatlari sharoitida eng dolzarb ^{muho} masalalaridan biridir. Chunki, mamlakatda olib borilayotgan barcha iqtisodiy islohot va tadbirlarning hammasi inson uchundir. Shuning uchun aholining kam ta'minlangan, mehnat bozorida raqobatlasha olmaydigan qatlamini: kam ta'minlangan oilalar, ishsizlar, nogironlar, bolalar, talabalar, qariyalar, nogironlar, boquvchisini yo'qotganlarni ijtimoiy muhofaza qilishni maqsad qilib qo'yadi. ✓ K

✓ Mamlakatda manzilli ijtimoiy himoya kengroq joriy etila borgani sayin uning aniq va haqiqatdan ham shunga muhtoj kishilarga, oilalarga yetib borishi ta'minlanmoqda. Chunki, bozor iqtisodiyotining birinchi talabi aniqlik va mablag'ni to'g'ri taqsimlay bilishdir.

Ijtimoiy ~~muho~~ muhofaza tizimini isloh qilgan davlatlar tajribasiga ko'ra, manzilli ijtimoiy himoyani amalga tadbiriq etilishi davlat hisobiga katta miqdorda mablag'lar tejalishiga imkon yaratadi. Bu esa, hukumatning ijtimoiy himoya uchun zarur

¹ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiati va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir // Xalq s'zi. 2010 Yil 30 yanvar.

mablag'larni me'yordagi darajada ajratilishini ta'minlash uchun zarur choratadbirlarni ko'rayotganidan dalolat beradi. Shunday ekan, talabalarning "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish" fanini o'rganishi muhim iqtisodiy ahamiyat egadir.

Mazkur fan "aholini ijtimoiy muhofaza qilish" tushunchasining mazmun-mohiyatini, aholini ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy shakllari, uslublari, tamoyillari va yo'nalishlarini, ijtimoiy muhofaza ob'yektlarini, aholini ijtimoiy muhofaza qilishning tashkiliy tuzilmasini, aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlari hisoblangan kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan oilalar, ishsizlar, yolg'iz keksalar, nogironlarni, shuningdek, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimini, aholining bu toifasini ijtimoiy muhofaza qilishda davlat va nodavlat jamg'armalarining o'rni, ular tomonidan beriladigan ijtimoiy transfertlar, pensiya ta'minotining shakllanishi va sarflanishini o'rganadi.

I BOB. “AHOLINI IJTIMOY MUHOFAZA QILISH” FANINING PREDMETI VA MAZMUNI

1.1. “Aholini ijtimoiy muhofaza qilish” tushunchasining mohiyati

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish taraqqiy etgan barcha mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi zaruriy unsur hisoblanadi. “Ijtimoiy muhofaza” atamasi birinchi marta 1935 yilda AQShning “Ijtimoiy xavfsizlik bo'yicha Qonun” deb nomlangan huquqiy hujjatida qo'llanilgan. Mazkur qonunga ko'ra, mamlakatning har bir fuqarosining ishsizlik yoki daromadni yo'qotish, shuningdek, uning keskin kamayib ketishi (kasallik tufayli, farzand tug'ilishi natijasida, ishlab chiqarish jarohati oqibatida, nogironlik sababli) bois iqtisodiy va ijtimoiy ne'matlardan mahrum bo'lishdan himoya qiluvchi chora-tadbirlar tizimi ijtimoiy himoya deb e'tirof etilgan. Bandan keyin bu atama 1938 yili Yangi Zelandiyaning qonuniy hujjatida qo'llanilgan va turli mamlakat aholi qatlamlarining bu sohadagi jiddiy muammo va orzu-umidlari mazmunini oddiy va tushunarli ifodalab, tezda Xalqaro Mehnat Tashkilotida o'z o'rnini topdi.

“Aholini ijtimoiy muhofaza qilish” fani aholini ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy shakllari, uslublari, tamoyillari va yo'nalishlarini, aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlari ijtimoiy muhofaza qilish tizimini, aholining bu toifasini ijtimoiy muhofaza qilishda davlat va nodavlat jamg'armalarining o'rnini, ular tomonidan beriladigan ijtimoiy transfertlar, pensiya ta'minotining shakllanishi va sarflanishini o'rganadi.

Fanning predmeti aholiga munosib turmush sharoitini yaratish, aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilish bilan jamiyatda yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bo'lib, ular aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan.

Mazkur munosabatlarning **sub'yektlari** quyidagilar hisoblanadi:

- davlat hokimiyati organlari;
- ish beruvchilar vakillari;
- yollanma ishchilar birlashmalari;
- mehnatga layoqatsiz va ishlamaydigan fuqarolar.

Fanning asosiy maqsadi aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yaxlit, murakkab, muayyan tarixiy, nisbatan mustaqil hodisa sifatida tushunish, ijtimoiy muhofaza shakllari, yo'nalishlari va qonuniyatlarini aniqlash hamda uni takomillashtirish yo'llarini belgilash hisoblanadi.

Fanning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'rganilayotgan sohadagi tushunchalarning mazmun-mohiyatini anglash;
- aholining kam ta'minlangan qatlamini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini o'rganish;
- xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmini tadqiq qilish;
- ijtimoiy ta'minot tizimining shakllanishi va rivojlanishini o'rganish;
- aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning xususiyatlari va turlarini aniqlash;
- aholi turmush darajasi va daromadlarining mohiyatini anglash;

– pensiya tizimi va uni isloh qilishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish.
Shuningdek, fanning vazifasi iqtisodiy imkoniyatlarni e'tiborga olgan holda aholining kam ta'minlangan toifalarini ijtimoiy muhofaza qilish borasidagi muammolarning mazmuni va chegaralarini tavsiflashdan ham iborat.

Olingan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar soha mutaxassislariga aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini to'g'ri tashkil qilish imkonini beradi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitidagi eng muhim masalalardan biridir. "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish" tushunchasi bugungi davrda jamiyatda pishib yetilgan ijtimoiy muammolarni o'zida aks ettiruvchi kategoriya sifatida namoyon bo'ladi.

Endi avval "ijtimoiy" so'zining ma'nosini aniqlashtirib olsak. "Ijtimoiy" so'zi arabcha "jam'" so'zidan olingan bo'lib, "ko'pchilik", "to'planish" degan ma'nolarni anglatadi. Shunday ekan, "ijtimoiy muhofaza" tushunchasi "ko'pchilikni muhofaza qilish" ma'nosini bildiradi.

Bozor islohotlarini amalga oshirayotgan mamlakatlar iqtisodiy adabiyotlarida, ayniqsa iqtisodchi olimlar mulohazalarida "ijtimoiy himoya" atamasining turlicha talqinini uchratish mumkin. Masalan, ayrim mualliflar ijtimoiy himoya deganda, "xodimlarga shaxsiy mehnat ulushi, iqtisodiy erkinligi va tadbirkorligi hisobiga o'z farovonligini oshirishga teng imkoniyatlar taqdim etuvchi qonuniy, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik kafolatlar tizimini" tushunadilar². Boshqa qator iqtisodchi olimlar fikriga ko'ra, "bozor iqtisodiyotida ijtimoiy himoya jamiyatning xo'jalik va ijtimoiy hayotini tashkil etishning tabiiy komponenti sifatida namoyon bo'ladi, uning tashkiliy-huquqiy shakllari esa mehnat jarayonining va ishchi kuchi qayta ishlab chiqarishning beto'xtovligini ta'minlashga xizmat qiladi"³.

Yuqorida bayon qilingan qarashlarga quyidagi talqinni hamoxang deyish mumkin: "umumiy holda ijtimoiy himoya ostida jamiyat tomonidan shaxsning asosiy huquqlari, shu jumladan, iqtisodiy huquqlari – mol-mulkka, mehnatga, daromad olishga va ijtimoiy xizmatlarga kafolatlanganligi tushuniladi. Torroq ma'noda ijtimoiy himoya – bu inflyatsiya va tovar taqchilligi sharoitida aholi, ayniqsa, uning muhtoj qatlamlari uchun kun kechirishga imkon beruvchi kafolatlardir"⁴. Mazkur fikrning ijobiy xususiyati shundan iboratki, bunday talqin "ijtimoiy himoya" ma'nosini ham tor, ham keng doirada talqin qilib bergan.

Iqtisodiyotga oid adabiyotlarda boshqa mazmundagi, ya'ni "ijtimoiy himoya – bu mehnatga layoqatsiz fuqarolarga: o'z shaxsiy mehnat hissiasi, iqtisodiy mustaqilligi va tadbirkorligi hisobiga o'z farovonligini oshirishga teng sharoitlarni yaratuvchi, mehnatga layoqatsizlar va aholining ijtimoiy zaif qismiga ijtimoiy iste'mol fondlaridan foydalanishda imtiyoz, pensiya, nafaqa va stipendiya sifatidagi bevosita moddiy yordamni ta'minlovchi qonuniy, ijtimoiy, iqtisodiy kafolatlar tizimidir"⁵ degan ta'rif ham berilgan.

¹ Аверин А.Н. Государственная система социальной защиты населения. – М.: РАГС, 2007. – С.14.

² Римащевская Н.М. Социальная защита населения. – М.: РИЦ ИСЭП РАН, 2005. – С.5.

³ Шелелева О.Б., Михайлов В.В. Направления системного совершенствования социальной защиты населения в регионе. – Кемерово: КузГТУ, 2004. – С.19.

⁴ Кукушина В.С. Социальная защита населения: опыт организационно-административной работы. – Москва, 2007. – С. 4-5.

Shunday qilib, "ijtimoiy himoya" tushunchasi tor ma'noda talqil etilganda insonning yashash darajasi sohasidagi huquq va kafolatlarni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini anglatadi. Ayni vaqtda, ijtimoiy himoya konsepsiyasiga kengroq talqin nuqtai nazaridan yondashganda ushbu masalada davlat siyosati bilanigina cheklanib qolmaslik lozim.

Aholining ijtimoiy himoyalanganlik darajasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va jamg'arilgan milliy boylik hajmi, shuningdek, himoyani ta'minlovchi mexanizm bilan belgilanadi. Shu tarzdgai talqinda aholini ijtimoiy himoya qilishning barcha asosiy jabhalari qamrab olinadi.

"Aholini ijtimoiy himoya qilish" atamasining iqtisodiy mazmunini aniqlash ikki yo'nalishda olib boriladi. Keng ma'noda – iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan, tor ma'noda – aniq iqtisodiy fan yo'nalishi doirasida. Iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan ushbu hodisaning eng asosiy, eng e'tiborli xususiyatlari ta'riflanadi. Ikkinchi tomondan aholini ijtimoiy himoya qilishga aniq iqtisodiy fan nuqtai nazardan ta'rif berilishi uni barcha qonunchilik va ijroiya qarorlari bilan bog'liq holdagi inson huquqlariga rioya etilishining iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi tizim sifatida baholanishini taqozo etadi.

Mehnatga layoqatli aholi uchun – bu mehnat qilish huquqi, o'z faoliyatidan keluvchi hayot kechirishning munosib darajasini, mehnat va dam olish sharoitlarini ta'minlab beruvchi daromad olish huquqidir. Mazkur tushunchaning bunday ta'rifida xodimlarning ijtimoiy kafolatlari va haq-huquqlariga urg'u beriladi, shuningdek, mehnatga layoqatli va mehnatga layoqatsiz aholining ijtimoiy himoyasi borasida aniq farq belgilanadi.

Tizimli nuqtai nazardan olib qaralganda, aholining ijtimoiy himoyasi – bu qonun yo'li bilan mustahkamlangan huquq va ijtimoiy kafolatlarni ta'minlovchi tizimlar majmuasidan tashkil topgan ijtimoiy munosabatlarning yaxlit yig'indisidir. Bunday ijtimoiy himoya xodimlarga o'z mehnat hissasi evaziga, iqtisodiy mustaqillik va tadbirkorlik hisobiga shaxsiy turmush darajasini yuksaltirishga teng sharoitlar yaratadi, mehnatga layoqatsizlarga va ijtimoiy zaif aholiga esa – nafaqa, stipendiya, soliq miqdorini kamaytirish sifatidagi bevosita moddiy yordam shaklidagi ma'lum imtiyoz va madad taqdim etadi. Mazkur ta'rif doirasida aholining ijtimoiy himoyasini davlat tomonidan aholiga kun kechirish va faoliyat ko'rsatishni hamda turmush, shuningdek, iste'mol darajasini ta'minlovchi bevosita maqsadli kafolatlar tizimi sifatida tasvirlash mumkin.

"Aholini ijtimoiy himoya qilish" tushunchasining iqtisodiy mazmunini aniqlashda Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) va Xalqaro Mehnat Byurosi (XMB) mutaxassislarining alohida nuqtai nazari mavjudligini ta'kidlash joiz. O'z tajribasida ular ijtimoiy himoya masalasini hal qilishda ikki asosiy yo'ldan boradilar. "Keng ma'nodagi, ya'ni inson hayoti va faoliyatining deyarli barcha sohalarini qamrab oluvchi (ijtimoiy himoya predmeti), va tor ma'nodagi, ya'ni ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy yordamni (ijtimoiy himoya mexanizmi sifatidagi) nazarda tutuvchi XMT tomonidan asoslab byerilgan xususiyatlarni inobatga oladigan bo'lsak, ijtimoiy himoya tarkibini aniqlashda bu anchagina kyeng ko'lam kasb etadi". XMT mutaxassislari tor doiradagi ijtimoiy himoya qatoriga ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy yordam choralari kiritadilar. Ayni damda ijtimoiy

himoyaning bu ikki turi o'rtasida aniq farq kuzatilmaydi.

Iqtisodiy adabiyotlar tahlili "ijtimoiy himoya" kategoriyasini "xavf-xatar omillari" kabi ta'riflar bilan to'ldirishga moyillik mavjudligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan yondashganda, "xodimlarning ijtimoiy himoyasi – bu mehnat hissasi, iqtisodiy mustaqillik va tadbirkorlik evaziga shaxsiy va ijtimoiy farovonlikni ta'minlovchi, ijtimoiy xavf-xatar omillarini yumshatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy kafolatlar tizimidir"⁶. Ta'kidlash joizki, ijtimoiy himoya ijtimoiy xavf-xatarni keltirib chiqaradigan sabablarni aniqlash, ularga ta'sir o'tkazish imkoniyatlarini baholash, iqtisodiy rivojlanishning mazkur bosqichida o'rinni bo'lgan xavf-xatar darajasidagi ijtimoiy kafolatlar tizimini shakllantirish va tadbiriq etishga xizmat qiladi.

Amaldagi qonunchilikda "ijtimoiy himoya" tushunchasi nisbatan tor ma'noda ishlatilib, u turmush darajasi sohasida insonning huquq va kafolatlarini ta'minlashga yo'naltirilgan siyosatni anglatadi.

Shu bilan birga, xalqaro amaliyotga murojaat etadigan bo'lsak, aholini ijtimoiy himoyalash kontsepsiyasi mehnat staji, sug'urta badallari miqdoridan qat'iy nazar, murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan har qanday fuqaroga davlat tomonidan (yoki uning nazorati ostida) ta'minlanadigan minimal kafolatlarining qonunchilik yo'li bilan mustahkamlab qo'yilgan bo'ladi. Demak, aholining ijtimoiy himoyasi – bu davlat tomonidan munosib turmushni, ya'ni jamiyat rivojining zamonaviy bosqichidagi standartlarga mos moddiy ta'minotni va insonning erkin rivojlanishini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan kafolatlanadigan va amalga oshiriladigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy tavsifdagi chora-tadbirlar majmuasidir. ✓)

1.2. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish ob'yektlari va tamoyillari

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish aholining ehtiyojmand qatlamlariga pensiya, nafaqa, imtiyozlar, xizmatlar va nomuntazam beriladigan moddiy yordam orqali byeriladi.

Ijtimoiy muhofaza ob'yektlariga quyidagi guruhlar kiradi:

– pensionerlar. Aholining bu guruhi pul ta'minoti huquqiga ega fuqarolar bo'lib, ularning bu huquqi tegishli qonunchilik hujjatlarida asosida amalga oshiriladi. Muayyan pensiya yoshiga yetgan fuqarolar pensionerlar bo'lib hisoblanadi (erkaklar 60 yosh, ayollar 55 yosh, ayollarga nisbatan ayrim hollar bundan istisno); nogironlikning tegishli guruhi belgilangan shaxslar. Oila boquvchisini qaramog'idagi mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari, shuningdek, boquvchisidan ajragan bolalarga qarash bilan mashg'ul shaxslar (14 yoshgacha bo'lgan bolalarga) uzoq vaqt muayyan kasbiy faoliyatni bajarib kelgan xodimlarning ayrim toifasi; ichki ishlar idoralarida harbiy xizmatni o'taganlar, ularning oilalari. Shu bilan birga, aholining bu toifasiga korxonalar, muassasa, tashkilotda ishlayotgan pensiya oluvchi fuqarolar ham kiradi. Ishlayotgan pensionerlarga keksalik bo'yicha pensiya

⁶ Дулясова М.В., Хаинанова Т.Р. Социальная защита работника: жизнь, здоровья, деловая репутация. – М.: Экономика, 2008. – С. 17.

50 foiz miqdorida to'lanadi.

– nogironlar. Aholining bu toifasiga jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi, turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar kiradi. Bunga uning hayot faoliyatini cheklashga olib kelgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qilib qo'ygan jarohat yoki nuqsonlar, kasalliklar sabab bo'ladi. Organizm funksiyasining buzilish darajasiga bog'liq holda va hayot faoliyati cheklanganligiga ko'ra birinchi, ikkinchi va uchinchi guruh nogironligi belgilanadi. Nogiron bolalar jismoniy yoki aqliy, sezgi nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj 18 yoshgacha bo'lgan shaxslardir. 16 yoshgacha bo'lgan bolalarni nogiron deb topish tibbiy-maslahat komissiyalari tomonidan, 16 yoshdan 18 yoshgacha esa – tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

– kam ta'minlangan oilalar. Bular daromadi yashash minimumidan yuqori bo'lmagan oilalardir. Kam ta'minlanganlik (kambag'allik) chegarasi mutaxassislar tomonidan me'yoriy iste'mol savatchasidan kelib chiqib belgilanadi. 1975 yilda sobiq ittifoqda kambag'allik chegarasining me'yoriy darajasi aholi jon boshiga 50 so'm oylik daromadga teng bo'lgan. Hozirgi kunda yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimga o'tish munosabati bilan bu chegarani belgilash ancha murakkab masala. Kam ta'minlangan oilalarga ko'p bolali, boquvchisini yo'qotgan, nafaqaxo'r oilalar kiradi.

– ishsizlar. Aholining bu toifasiga ishi va pul topish uchun biror yumushi bo'lmagan mehnatga layoqatli fuqarolar kiradi. Bundaylar aholi bandligi xizmatida ro'yxatda o'zi uchun mos ish/izlash maqsadida turgan bo'lishi va topilganda ishlab keta olishi lozim. Bunda bandlik xizmati yo'nalishi bo'yicha jamoatchilik ishlarini bajarganlik uchun to'langan haq, shuningdek, ishdan ketayotgandagi va korxonadan, muassasadan, tashkilotdan ularning tugatilishi, qayta tashkil etilishi, ishchilar sonini yoki ish o'rinlarini qisqartirish bilan bog'liq holda bo'shagan fuqarolar ishsizlar deb tan olinadi. Qachonki qaror bandlik xizmati tomonidan fuqaroning turar-joyi bo'yicha bandlik xizmatiga pasport, mehnat daftarchasi yoki ularning o'mini bosuvchi hujjatlar, shuningdek, kasbiy malakasini tasdiqlovchi, so'nggi ish joyidan ikki oy mobaynida olgan o'rtacha maoshi haqida ma'lumotnoma, birinchi marta ish izlayotgan hamda kasbga ega bo'lmaganlar pasport yoki ma'lumoti to'g'risidagi hujjatni o'n bir kundan kechikmay taqdim etsalar, bunday holda fuqarolar ishsiz deb tan olinadi.

Yuqoridagi aholi guruhlari qatori aholining ijtimoiy muhofaza ob'yektlariga:

– homilador va yosh bolalarga qarash bilan bandligi tufayli ishlamayotgan ayollar;

– kasallik tufayli vaqtincha ishlamayotgan fuqarolar;

– o'quvchi yoshlar;

– mehnatga layoqatsizlarga qarash bilan band bo'lgan ishlamayotgan mehnatga layoqatli fuqarolar ham kiradi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tamoyillari muhtoj fuqarolarga ijtimoiy yordam ko'rsatilishi chog'ida xalqaro huquq va umuminsoniy me'yorlariga, shuningdek, milliy qadriyatlarga qat'iy amal qiladi. Ijtimoiy yordam ko'rsatish

chog'ida quyidagi tamoyillarga tayaniladi:

- ijtimoiy yordam ko'rsatishda insonparvarlik qoidalariga amal qilish;
- ijtimoiy adolat;
- ijtimoiy yordam ko'rsatishni muntazam takomillashtirib borish;
- ijtimoiy yordamning umumiyligi va hech kimni kamsitishga yo'l qo'ymaslik;
- yordamdan foydalanishning fxtiyoriyligi;
- ko'rsatiladigan yordamning turmush kechirish minimumidan kam bo'lmasligi;
- ijtimoiy yordam ko'rsatuvchi organlarning o'z faoliyatlarini oshkoralik va qonuniylik asosida amalga oshirishi;
- ijtimoiy yordam ko'rsatish maqsadida xususiy va homiylik mablag'larining keng jalb etilishi;
- ijtimoiy yordam ko'rsatishga fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini keng jalb etish.

Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishda tenglik tamoyiliga alohida e'tibor berilishi lozim. Ya'ni, ijtimoiy yordam ko'rsatish chog'ida fuqaroning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, yashash joyi, shuningdek, boshqa holatlari e'tiborga olingan holda, huquqlarining har qanday cheklanishi yoki qonunda bevosita nazarda tutilmagan hollarda afzalliklar berilishi taqiqlanadi. Fuqaro o'z huquqlari kamsitilgani yuzasidan tegishli davlat idoralariga yoki bevosita sudga belgilangan muddat va tartiblarda murojaat qilishga haqli.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishi va muhim tarkibiy qismi sifatida yuqoridan quyiga tomon yagona tamoyillar asosida tashkil etiladi hamda boshqariladi.

1.3. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi va yo'nalishlari

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi – bu moddiy yordam ko'rsatish maqsadida aholining turli ijtimoiy-demografik va kasb guruhleri, shuningdek, davlat uchun alohida xizmat ko'rsatgan fuqarolarga taqdim etiladigan ijtimoiy pensiya, nafaqa, kompensatsiya, subsidiya (pul ko'rinishida beriladigan yordam) va imtiyozlar tizimidir.

Ijtimoiy nafaqalar – bu beg'araz tarzda vaqtinchalik yoki doimiy ravishda aniq shaxs yoki shaxslar guruhiga ma'lum miqdorda pul shaklida beriladigan to'lovdur. Imtiyoz bir shaxs yoki shaxslar guruhiga vaqtinchalik yoki doimiy tarzda ma'lum pul yoki natura shaklida taqdim etiladi. Kompensatsiya aniq shaxs yoki shaxslar guruhiga qonunchilikda qayd etilgan maqsadlarga sarflagan harajatlarini to'liq yoki qisman qoplashdir. Subsidiya esa fuqarolarga taqdim etiladigan moddiy qulaylik va sharoitlar uchun (to'liq yoki qisman) ma'lum maqsaddagi to'lovlardir.

Ijtimoiy yordam ham ijtimoiy, ham kasbiy ko'rsatkichlarga ko'ra taqdim etiladi. Hozirgi davrda ijtimoiy ko'rsatkichlarga ko'ra, urush qatnashchilari, nogironlarning turli toifalari, ko'p bolali oilalar, yolg'iz keksalar, yosh oilalar, kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan oilalar, surunkali kasalliklarga chalingan

fuqarolarga yordam ko'rsatiladi. Kasb ko'rsatkichlariga ko'ra imtiyozlar huquqi og'ir jismoniy va sanitar-gigienik me'yorlarga javob bermaydigan hamda shunga o'xshash mehnat sharoitida band bo'lgan fuqarolarga taqdim etiladi.

Ijtimoiy nafaqa, kompensatsiya, subsidiya va imtiyozlar qo'llanilish yo'nalishlariga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

– turar-joy maishiy xizmat: turar-joy kommunal xizmatlari, telefon o'rnatish va undan foydalanish, qurilish, uy-joy sotib olish va ta'mirlash, yoqilg'i bilan ta'minlash va boshqalar uchun imtiyozlar;

– transport xizmatlari: shahar, shahar atrofi va shaharlararo transportda yurish, transport vositalari bilan ta'minlash bo'yicha imtiyozlar hamda benzin sarfining kompensatsiyalanishi va boshqalar;

– tibbiy xizmat: tibbiy asbob, dorilar bilan bepul ta'minlash, sihatgoh-kurort xizmati;

– bolalarni ta'minlash: ovqatlanishini (nonushta, tushlik) tashkil etish, maktab va sport kiyimi bilan ta'minlash, maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiya muassasalari, yozgi ta'til oromgohlari va boshqalarga pul to'lashdagi imtiyozlar;

– davlat ijtimoiy xizmati tizimida keksalar, nogironlar, kasallik tufayli mehnatga layoqatsizlar, shuningdek, qiyin ahvolda qolgan fuqarolar va voyaga yetmaganlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish.

Aholiga ijtimoiy yordamni taqdim etish quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

– pul to'lovlari (ijtimoiy pensiya, nafaqa, kompensatsiya, subsidiya va boshqa);

– natural yordam (oziq-ovqat mahsulotlari, zarur sanoat tovarlari, yoqilg'i va boshqa);

– imtiyozlar (turar-joy, kommunal, transport va boshqa xizmatlarida). ✓

Aytish joizki, aholini ijtimoiy muhofaza qilishning samarali tizimini faqatgina uning turlari hamda ko'p sub'ektkli tashkiliy-huquqiy shakllarni uyg'unlashtirish, undagi ishchi, ish beruvchi va fuqarolar (fuqarolik jamiyatidagi o'zini-o'zi boshqarish tuzilmalarini tashkil etgan), shuningdek, davlat xokimiyati organlarining faol va ma'suliyatli ishtiroklari asosida shakllantirish mumkin (1.1-jadval).

1.1-jadvaldan ko'rinib turganidek, ijtimoiy muhofazaning shaxsiy o'zini-o'zi himoyalash, ijtimoiy xayriya tadbirlari, ijtimoiy hamjihatlik, davlat ijtimoiy ta'minoti va yordami, ijtimoiy himoyaning firma tizimlari kabi shakllari mavjud. Bu shakllar tashkillashtirish tamoyillari, to'lov va xizmat turlari, moliyaviy manbalari hamda huquqiy ta'minoti bo'yicha farqlanadi.

Tabiiyki, aksariyat fuqarolarga ijtimoiy to'lovlar va imtiyozlar ularning moddiy holatlarini yaxshilash maqsadida taqdim etiladi. Amaldagi aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimi turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar ta'sirida shakllanib kelgan.

Oldingi yillardagi kam miqdordagi oylik maoshi turli ijtimoiy to'lov va imtiyozlar ko'rinishidagi qo'shimcha kompensatsiyalar kiritilishini taqozo etardi va ular aholiga ijtimoiy iste'mol jam'armalari hisobidan asosan bir xil tarzda to'lanishi nazarda tutilgan.

Ijtimoiy muhofazaning asosiy shakllari

Tashkiliy-huquqiy shakllar tavsifi	Ijtimoiy muhofazaning asosiy shakllari				
	Shaxsiy o'zini-o'zi himoyalash	Ijtimoiy xayriya tadbirlari	Ijtimoiy hamjihatlik	Davlat ijtimoiy ta'minoti va yordami	Ijtimoiy himoyaning firma (korxonalar) tizimlari
Tashkilashtirish tamoyillari	Fuqarolarning o'zining moddiy farovonligi uchun javobgarligi	Jamiyatning muhtoj qatlamlariga yordam ko'rsatishda ishtirok etish	Hamjihatlikda o'z-o'zini himoyalashda ijtimoiy hamkorlik	Davlatning davlat xizmatchilari va aholining kam ta'minlangan qatlamlari oldidagi javobgarligi	Korxonalar ishchilarini ijtimoiy himoyalashda ishchi va ish beruvchilarning ijtimoiy hamkorligi
Tashkilashtirish shakllari	Shaxsiy daromad va jamg'armalar, shu jumladan, ko'chmas mulk sotib olish, shaxsiy sug'urta	Xayriya tashkilot va muassasalari	Majburiy va ixtiyoriy ijtimoiy (jamoa) sug'urta	Ijtimoiy kam daromadli toifalar uchun davlat yordami shakllari	Korxonalar xodimlari uchun firma yordami shakllari
To'lov va xizmat turlari	Turar-joy, tibbiy xizmat, ovqatlanish va boshqa kundalik ehtiyoj uchun to'lovlar	Tekin ovqatlanish, qariyalarni parvarishlash	Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik davrida yordam puli, nafaqalar, tibbiy yordam	Nafaqa, pensiya, tibbiy davolanish	Ishga borish uchun transportda yurish, davolanish va reabilitatsiya xizmatlari uchun haq to'lash
Moliyaviy manbalar	Oylik maosh, xizmat puli, shaxsiy jamg'armalar, tadbirkorlik faoliyatidagi daromadlar, qimmatbaho qog'oz va ko'chmas mulkdan olinadigan foyda	Jismoniy va yuridik shaxslarning ehsoslari, fuqarolarning xayriya tadbirlari	Ijtimoiy sug'urta jamg'armalariga majburiy sug'urta to'lovlari (badallari)	Budjet, shu jumladan, munitsipal manbalar (o'zini-o'zi boshqarish organlari manbalari)	Korxonalar va tashkilotlarning daromadlari
Huquqiy ta'minot	Fuqarolik-huquqiy qonunchilik		Ijtimoiy himoya sohasidagi qonunlar		

Tenglashtirish tamoyiliga asoslangan ijtimoiy to'lov va imtiyozlar tizimi iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida garchi aholi daromadlari keskin pasaygani sababli ijtimoiy yordamga ehtiyoj ko'paygan bo'lsa ham samarasiz bo'lib qoldi.

Natijada shakllangan ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini pasaytiruvchi omillariga quyidagilar kirgan:

- to'lov va imtiyozlarning aholining ko'p toifasiga berilishi, moddiy ta'minlanganlikning deyarli e'tiborga olinmaganligi;
- moddiy yordam oluvchilarning farovonlikka o'z kuchlari bilan erishish imkoniyatlarini to'la inobatga olmaslik. Ma'lumki, buning oqibatida ijtimoiy boqimandalik, nafaollik, jamiyat marginalizatsiyasi kelib chiqadi;
- hududiy va munisipal xokimiyat organlari o'rtasida ijtimoiy yordam ko'rsatish vakolatlari va javobgarligining aniq taqsimlanmaganligi. Bu esa, ijtimoiy to'lov va imtiyozlarni taqdim etish va moliyalashtirishda javobgarlikdan bosh tortishga olib keladi;
- aholining an'anaviy kam ta'minlangan guruhlari: pensionerlar, nogironlar, yolg'izlar, ko'p bolali oilalarga e'tibor berilishi, aksariyat hollarda "yangi nochor"larning chetda qolishi.

Hozirgi sharoitda ijtimoiy muhofaza tizimining samaradorlik mezonini sifatida uning kam ta'minlanganlik muammosini hal qilishga qaratilganligini va bu muammoning ijtimoiy siyosatning eng muhim yo'nalishlari orasida birinchi o'ringa qo'yilganligini alohida e'tirof etish lozim. Biroq, amaldagi ijtimoiy muhofaza tizimi ko'proq tenglashtirish tamoyillariga asoslangan bo'lib, resurslarni aholining eng kam ta'minlangan guruhlarida berilishida ba'zi cheklanishlarga ega. Ijtimoiy yordamga ajratilgan harajatlarning umumiy yig'indisidan faqat uchdan bir qismigina kam ta'minlanganlarga ajratilib, qolgan uchdan ikki qismi jamiyatning ushbu yordamisiz ham o'zlarini ta'minlay olishlari mumkin bo'lgan aholiga berilgan.

Moliya tanqisligi sharoitlarida ijtimoiy yordam kam miqdorda ajratilishi va vaqtida yetkazilib bermasligi bilan sharhlanadi. Hozirgi vaqtda yordam oluvchilarning daromad miqdori faqat turar-joy subsidiyasi, bolalar uchun har oy beriladigan pul va kam ta'minlangan fuqarolarga ijtimoiy yordam ko'rsatilishi belgilanayotganda e'tiborga olinmoqda. Qonunga ko'ra, kam ta'minlanganlarga yordam ularning ariza asosida o'sha vaqtdanoq yoki uch oygacha muddatdan kam bo'lmagan davrda berilishi lozim. Arizada oila tarkibi, daromadi va mulki haqidagi ma'lumotlar yashash minimumi ko'rsatkichlari yig'indisi va oila a'zolarining umumiy daromadlari o'rtasidagi farqdan kelib chiqib, mazkur farq doirasida belgilanadi. Yordam pul to'lovlari shaklida (ijtimoiy nafaqa, subsidiya, kompensatsiya) hamda natural shaklda (yoqilg'i, oziq-ovqat, kiyim, poyabzal, tibbiy vositalar) bo'ladi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining asosini umumiy ijtimoiy transfertlar, mahsulot va tovarlarga bo'lgan subsidiya va xizmatlar, shuningdek, toifalarga doir imtiyozlar tashkil etsada, u eng kam ta'minlangan aholi qatlamlariga resurslar ajratilishini ta'minlay olmayotgani kuzatilib, buning sababi – aniq manzillik yo'qligidadir.

Manzillik tamoyiliga ko'ra, ijtimoiy to'lov va imtiyozlar ijtimoiy siyosat nuqtai nazaridan ularga muhtoj aholi guruhiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Hozirgi davrda ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadi nochorlikka qarshi kurashish ekani bois, manzil guruhi – bu kam ta'minlangan aholi tabaqalaridir.

Shu o'rinda aholini manzilli ijtimoiy muhofaza qilish tizimining mohiyatini tushunib o'tsak. **Aholini manzilli ijtimoiy muhofaza qilish** – bu aholining, asosan, muhtoj va nochor qatlamlarini ijtimoiy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimdir.

Baho berish usullariga ko'ra, nochorlik mutlaq va nisbiy nochorlikka ajratiladi. Nochorlikning umume'tirof etilgan tamoyili sifatida jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromad hamda yashash minimumi o'rtasidagi mutanosiblik olinadi. O'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan daromad yashash minimumidan kam bo'lgan oila kam ta'minlangan hisoblanadi va davlat ijtimoiy yordamini olishga haqli.

Nochorlikni baholashga bo'lgan nisbiy yondoshuv nochorlik chegarasini ma'lum iste'mol darajasida belgilashni nazarda tutadi. Nisbiy yondoshuvda sub'ektiv baholash usuli ham qo'llaniladi, unga ko'ra, o'zining avvaligi yoki daromadi ko'proq bo'lgan boshqa guruhlar holati bilan taqqoslash olib boriladi. Nochorlikda yashash davomiyligiga ko'ra, nochorlikning turg'unlik va vaqtinchalik shakllari mavjud.

Vaqtinchalik nochorlik unda faqat ma'lum davrlar davomida bo'lib, uning natijasida turmush darajasi hamda moddiy holatini yaxshilanishi sodir bo'lmaydi. Uzoq nochorlik ko'pincha hayot tarzidagi og'ir o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, nochorlikning anchaga saqlanib qolishi, hatto keyingi avlodlarga o'tishi mumkinligini anglatadi.

Mamlakatda nochorlik darajasining asosiy ko'rsatkichlari sifatida yashash minimumidan past darajada yashovchi aholi soni va salmog'i olinadi.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar davrlarida, odatda turmush darajasining pasayishi va nochorlikning tarqalishi yuz beradi. Dunyoning qator mamlakatlarida nochorlarning yangi toifalari mavjud. Bular ishchan, biroq o'zi va oilasi uchun normal jamiyatda qabul qilingan farovonlik darajasini ta'minlay olmaydigan ishchilar. Xususan, hozirgi davrda korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning taxminan 40,0 foizida oylik maoshi miqdori yashash minimumidan kam. Budget sohasida ishlovchilarning aksariyati ham kam ta'minlangan. Bu guruhga noto'liq band bo'lib ishlashga majbur hamda muntazam ravishda maosh to'lamaydigan korxonalar ishchilari, ishsizlar ham kiradi.

Va nihoyat, bugungi kunda nochorlik guruhiga kirmagan, biroq unga tushish ehtimoli katta bo'lgan aholi guruhining shakllanishi kengaymoqda. Bu ishsiz qolish xavfi baland bo'lgan, shuningdek, ba'zan uchrab turadigan qo'shimcha ishlar yoki qarindoshlari yordami tufayli nochorlikka tushib qolmayotgan shaxslar.

Mehnatga layoqatli aholi nochorligini bartaraf etish konsepsiyasi eng avvalo faol uslublardan foydalanish, jumladan, daromadlarini oylik maoshini oshirish, uni muntazam to'lab borish, aholi bandligi dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun sharoitlar yaratishga qaratilgan.


Shuningdek, iqtisodiy faol aholi nochorligini bartaraf etish uchun

bandlikning faol siyosatini olib borish, ishsizlikni bartaraf etish, mehnat bozorida raqobatga bardosh bo'lmagan aholi guruhini ish bilan ta'minlash, korxonalardan bo'shatib yuborilgan ishchilarning qayta o'qishi, ular va boshqa fuqarolarga kasbiy yo'nalishini o'zgartirishga imkoniyatlar yaratish lozimdir. Nochorlik ko'lamini qisqartirishning zarur shartlaridan biri – bu mazkur toifadagi aholiga yordam pulini to'lash sharoitlari va tartibini aniqlashtirishdir.

— Aholining ijtimoiy jihatdan sust bo'lgan ob'ektiv sabablarga ko'ra, o'zini o'zi ta'minlay olmaydigan qatlamlariga aniq yordam kerak, ya'ni bu borada ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning manzilli tizimini yaratish zarur. Qo'yilgan masalani muvaffaqiyatli hal etish uchun ijtimoiy yordam puli, kompensatsiya va imtiyozlarni bosqichma-bosqich tarzda aholiga manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimiga o'tkazish lozim.

— Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ma'lum bir iqtisodiy mexanizm orqali amalga oshiriladi. Bu mexanizm qiyin iqtisodiy ahvolga tushib qolgan aholi qatlamini normal turmush darajasi bilan ta'minlashni nazarda tutadi. **Aholini ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi** – bu me'yoriy hujjatlar asosida aholini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashni tashkil etishda qo'llaniladigan usullar majmuidir.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishni tizim ko'rinishida tasavvur etish o'rganilayotgan ob'ektning ko'p qismli, bir-biri bilan o'zaro aloqadorlikda ekanligini ko'rish imkonini beradi (1.1-rasm).




1.1-rasm. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizim sifatida

Ijtimoiy muhofaza qilish jarayonida tutgan o'rimga qarab individ (har bir mustaqil tirik organizm)ning ikki xil tabiatligini, bir tomondan, uni himoya ob'yekti, ikkinchi tomondan esa himoya sub'yekti sifatida ko'ramiz. Agar individ himoyani passiv qabul qiluvchi sifatida ishtirok etsa, unga himoyaning ob'yekti sifatida qaraymiz, agar individ faol ishtirokchisi bo'lsa, masalan: bozorning salbiy ta'sirlaridan himoyalalanish uchun inson tomonidan muayyan harakatlar qilinsa, u

to'laqonli ravishda ijtimoiy himoya sub'yekti hisoblanadi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi to'rtta mustaqil turga bo'linadi (1.2-rasm).



1.2-rasm. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining tarkibi

Aholining samarali ijtimoiy himoyasi davlatning tartibga solish funksiyasi bilan bevosita bog'liq. Davlatning tartibga solish funksiyasi deganda, jamiyatning har bir fuqarosi uchun o'z qobiliyatlarini rivojlantirish va namoyon etish (mehnat, tadbirkorlik, shaxs sifatidagi qobiliyati) uchun zarur bo'lgan minimal sharoitlarni yaratish, bu kabi qobiliyat yo'qotilganda esa munosib turmush darajasini ta'minlab beruvchi davlat tomonidan amalga oshiriluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimi tushuniladi.

Aholining manzilli ijtimoiy muhofaza qilish tizimiga o'tish ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va imtiyozlar tizimini isloh qilishni taqozo etadi. Undan ko'zlangan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

- jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadi yashash minimumidan past bo'lgan kam ta'minlangan oilalami manzilli tarzda qo'llab-quvvatlash;
- mablag'lardan samarali foydalanishga kam ta'minlanganlar hisobiga mablag'larni qayta taqsimlash yo'li bilan erishish;
- ijtimoiy to'lov va imtiyozlar tizimini rivojlanib borayotgan bozor munosabatlariga moslashtirish;
- jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash.

Yuqorida qayd etilgan maqsadlardan kelib chiqib, ijtimoiy yordam puli, kompensatsiya va imtiyozlar tizimi islohoti quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

- imtiyozlar aholining ma'lum ijtimoiy guruhiga rasmiy ravishda mansubligiga ko'ra to'lanishini nazarda tutgan an'anaviy yondoshuvdan asta-sekin voz kechish;
- ijtimoiy nafaqa va imtiyozlarni berishda manzillilikni kuchaytirish, bunda jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromad miqdori va o'rnatilgan yashash minimumi o'rtasidagi mutanosiblik e'tiborga olinishi zarur;
- nochor fuqarolarning arizalari asosida imtiyozlar taqdim etish.

Kam ta'minlangan fuqarolarning ayrim toifalari uchun arizaga muvofiq yordam ko'rsatish usulini nochorlarni aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari tomonidan topib aniqlash va ularga muvofiq tarzda ijtimoiy yordam ko'rsatish usuli bilan almashtirish; aks holda o'zini idora qila olmaydigan pensiya yoshidagi qariyalar va nogironlar, shuningdek, qiynalgan oilalardagi bolalar va aholining ba'zi boshqa qatlamlari ijtimoiy yordamsiz qolishi mumkin. Bunda nochorlik holatini muntazam tasdiqlab turuvchi axborot hamda ijtimoiy yordamning kafolati zarur bo'ladi.

Qisqacha xulosalar

Ijtimoiy muhofaza har bir fuqaroning ishsizlik yoki daromadni yo'qotish, shuningdek, uning keskin kamayib ketishi (kasallik tufayli, farzand tug'ilishi natijasida, ishlab chiqarish jarohati oqibatida, nogironlik sababli) bois iqtisodiy va ijtimoiy ne'matlardan mahrum bo'lishdan himoya qiluvchi chora-tadbirlar tizimidir. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi – bu moddiy yordam ko'rsatish maqsadida aholining turli ijtimoiy-demografik va kasb guruhleri, shuningdek, davlat uchun alohida xizmat ko'rsatgan fuqarolarga taqdim etiladigan ijtimoiy pensiya, nafaqa, kompensatsiya, subsidiya va imtiyozlar tizimidir. Aholining ijtimoiy muhofaza ob'yektlariga pensionerlar nafaqaxo'rlar, kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, ishsizlar, homilador va yosh bolalarga qarash bilan bandligi tufayli ishlamayotgan ayollar; kasallik tufayli vaqtincha ishlamayotgan fuqarolar; o'quvchi yoshlar; mehnatga layoqatsizlarga qarash bilan band bo'lgan ishlamayotgan mehnatga layoqatli fuqarolar ham kiradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "Aholining ijtimoiy muhofaza qilish" tushunchasi birinchi marta qachon, qayerda va qaysi hujjatda qo'llanilgan?
2. "Aholining ijtimoiy muhofaza qilish" tushunchasining mohiyatini tushuntirib bering.
3. Ijtimoiy muhofaza ob'yektlariga aholining qaysi qatlamlari kiradi?
4. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning qanday tamoyillari mavjud?
5. Aholini manzilli ijtimoiy muhofaza qilish tizimining mohiyatini tushuntirib bering.
6. Aholining samarali ijtimoiy himoyasi deganda nimani tushunasiz?
7. Ijtimoiy muhofazaning asosiy shakllarini aytib bering.
8. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlarini sanab bering.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараккиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир // Халқ сўзи. 30 январь 2010 йил.
2. Абдурахмонов Қ.Х., Тоҳирова Х.Т., Шафипов Б.М. Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш. – Тошкент, 2006.
3. Аверин А.Н. Государственная система социальной защиты населения. – М.: РАГС, 2007.

4. Дулясова М.В., Ханнанова Т.Р. Социальная защита работника: жизнь, здоровья, деловая репутация. – М.: Экономика, 2008.
5. Зокирова Н.К., Абдурахмонов О.К. Инкироз: окибатлар, бартараф этиш, меҳнат муаммолари ва янги марраларга чиқиш. Монография. – Т.: Fan va technologya, 2009.
6. Ижтимоий ҳимоя йили: мазмун ва моҳият / М.Ҳожиматов, Ш.Жумаев, У.Олтинов. – Т.: Алишер* Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.
7. Римашевская Н.М. Социальная защита населения. – М.: РИЦ ИСЭП РАН, 2005.
8. Социальная защита населения в Республике Узбекистан. – Т.: Top Image Media, 2007.
9. Усмонова М.А., Муродова Г. Ижтимоий ҳимоя нима? – Т.: ТДЮИ, 2009.
10. Шевелева О.Б., Михайлов В.В. Направления системного совершенствования социальной защиты населения в регионе. – Кемерово: КузГТУ, 2004.
11. Цимбалист А.В. Социальная защита населения региона в условиях демографического кризиса: монография. – М.: Палеотип, 2005.

II BOB. AHOLINI IJTIMOY MUHOFAZA QILISH DAVLAT IJTIMOY SIYOSATINING ASOSIY YO'NALISHI SIFATIDA

2.1. Davlat ijtimoiy siyosatining mohiyati, mazmuni va maqsadlari

Siyoosat – bu jamiyat tarkibiy unsurlarining o'zaro munosabatidir. Tarkibiy deganda, jamiyatning tuzilishini, uning rivojlanishda barqarorligini (ishonchli takror ishlab chiqarishni, qayta tiklashni, yashash qobiliyatini) ta'minlash tushuniladi. Jamiyatning tarkibiy unsurlari esa ijtimoiy guruhlar, sinflardir. Aynan ularning o'zaro birgalikdagi harakati siyosiy o'zaro aloqa yoki siyosat deb ataladi.

Siyosiy o'zaro aloqalar aniq bir maqsadga qaratilgan bo'ladi va sub'ektlarning har biri maqsadlarga erishish uchun harakat qiladi. Agar siyosiy o'zaro aloqalarning sub'ektlarini maqsadlariga ko'ra guruhlariga ajratsak, unda iqtisodiy siyosat, demografik siyosat, soliq siyosati, migratsiya siyosati, madaniy siyosat kabi maqsadli sohalarga ega bo'lamiz.

Hozirgi demokratik jamiyatda har bir insonning munosib turmush kechirishiga hech kim tahdid solmaslik huquqini davlat o'z zimmasiga oladi hamda qayta taqsimlash tizimi orqali iste'mol sohasiga aralashadi. Aslini olganda, davlat ijtimoiy tengsizlikni qisqartirish, iqtisodiy samaradorlikka erishish maqsadida adolat tamoyiliga asoslangan holda faoliyat olib boradi. Shuningdek, bozor iqtisodiyotida fuqarolar barcha guruhlarining mo'tadil iste'mol darajasini ta'minlash maqsadida daromadlarni taqsimlashda davlatning o'rni katta. Davlat o'ziga huquqiy munosabatlarning me'yorlarini belgilash, turli xil tavsiyalar ishlab chiqish vazifasini oladi va unga amal qilinishining doimiy nazoratini amalga oshiradi. Jumladan, ish kuni, ish haftasining davom etish muddati, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori kabi asosiy ijtimoiy me'yorlarni ishlab chiqadi va belgilaydi. Shu munosabat bilan davlatning bu jarayonda ishtirokining o'lchovlari haqidagi masala yuzaga keladi. Rivojlangan bozor munosabatlariga asoslangan aksariyat mamlakatlarda davlat tomonidan o'tkaziluvchi ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishi faol mehnat faoliyatiga layoqatli ijtimoiy boqimandalarning sonini kamaytirishdan iboratdir. Shu bilan birga, iste'molda tenglikka intilish va iqtisodiy o'sishning yuksak sur'atlarini saqlab qolish o'rtasida muvozanat saqlanishini ta'minlash muhimdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "ijtimoiy siyosat" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Ijtimoiy siyosat – bu jamiyatning faqat barcha ne'matlardan mahrum qilingan qismininggina emas, balki uning hamma fuqarolarining daromadlari va turmush darajasini tartibga solishga, tuzatishga qaratilgan siyosatdir.

Davlat har bir insonning mo'tadil turmush darajasini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi hamda bu uning barcha fuqarolariga daxl qiladi, chunki daromadlarning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi masalasining hal qilinishi nafaqat "muhtojlarga", balki "boylarga" ham taalluqlidir. Ijtimoiy

Социальная политика. Учебник / И. П. Денисова, П. Р. Клиньваненко – Ростов-на-Дону: Феникс, 2007. С. 32

siyosat uning "muhtoj" qatlamlarining nafaqat "mo'tadil" turmush darajasini ta'minlash va saqlashdan iborat bo'lmasdan, balki birinchi navbatda, muttasil rivojlanib borayotgan jamiyatda uning turli iste'mol darajasiga va shunga muvofiq turli turmush darajasiga ega guruhlar o'rtasida barqaror muvozanatni saqlab turishning amaliy va samarali mexanizmini ishlab chiqadi.

Shunday qilib, ijtimoiy siyosat – bu, eng avvalo, turli iste'mol va turmush darajasiga ega insonlar jamiyatining muvozanatlangan ahvolini ta'minlash va saqlab turishdir. Aynan ijtimoiy siyosat jamiyatni va uning har bir a'zosini barqarorlik va farovonlik bilan ta'minlashga qodirdir.

Ijtimoiy siyosat quyidagilarga yo'naltirilgan:

- birinchidan, aholining turli daromadlarga ega guruhleri o'rtasida muvozanatni o'rnatishga;
- ikkinchidan, daromadlarni qayta taqsimlash hisobiga har bir insonga "mo'tadil" turmush darajasini ta'minlashga;
- uchinchidan, aholining "zaif", ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand guruhlarini, alohida oilalar va shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralarini amalga oshirishga.

Ijtimoiy siyosat mohiyatini kategoriya sifatida tadqiq va tahlil qilish uning vazifalarini baholashni talab qiladi. Ushbu kategoriya mazmunini tahlil qilish esa quyidagi jihatlarni o'z ichiga olishini ko'rsatadi:

- sub'ektlar va ob'ektlar doirasini belgilash;
- ijtimoiy siyosatdagi davlatning rolini belgilash;
- maqsadlar va ustuvorliklarni ajratish;
- amalga oshirish mexanizmlari va parametrlarini belgilash.

Ijtimoiy siyosatning asosiy, dastlabki qoidalari uning tamoyillaridir.

Ijtimoiy siyosat tamoyillari – bu eng yuqori darajadagi asosiy qoidalar bo'lib, ularga davlat ijtimoiy siyosatining yuzaga kelgan sharoitlari va maqsadlariga muvofiq intilish lozim.

Ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlanish. Eng avvalo, insonning o'zi shaxsiy va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda ehtiyojlarini qondiradi. Unga insonning ijtimoiy xavfsizligi uchun zarur unsurlar: haqiqiy jon boshiga to'g'ri keladigan daromad miqdori; iste'mol qilinuvchi boyliklar va foydalaniluvchi xizmatlar; tovarlar va xizmatlarga belgilangan narxlar; uy-joy bilan ta'minlanganlik; ta'lim, tibbiy, madaniy xizmat ko'rsatishning ommabopligi; ekologik xavfsizlik va boshqalardan hosil bo'luvchi moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish darajasini aks ettiruvchi mo'tadil turmush darajasining ta'minlanganligi kiradi.

2. Hokimiyatning siyosiy barqarorligini ta'minlanish. Bunday barqarorlikka turli jamiyatlarda va tarixiy bosqichlarda turlicha erishilgan, lekin uning mohiyati har doim ijtimoiy guruhlarining siyosiy qarorlarida ishtirokining, hukmron sinfning hukmronlikdagi ustunlik qiluvchi ta'sirini ushlab turishi mumkin bo'lgan taqsimlashga borib taqaladi.

3. Xo'jalikda hukmronlik taqsimotini ta'minlash.

4. Iqtisodiy boyliklar va iqtisodiy samarani taqsimlash tizimini yaxshilash. Bu tizim aholining aksariyat qismini ozmi-ko'pmi qoniqtirishi lozim. ۛ

5. Jamiyat va davlat tomonidan ekologik havfsizlikning zarur va yetarli darajasini ta'minlash.

6. Jamiyat va davlat tomonidan aholining hamda uning a'zolarining har biri uchun ijtimoiy himoyaning zarur va yetarli darajasini ta'minlash.

Ijtimoiy siyosatning ob'yektiv munosabat sifatidagi mohiyatining tahlili ijtimoiy guruhlarning o'zaro birgalikdagi harakatlanish jarayonini ta'riflab berish, ya'ni haqiqatan harakat qiluvchi va passiv sub'ektlar doirasini ajratish zaruriyatini talab qiladi. Yuqorida qayd qilingandek, ijtimoiy siyosatning belgisi "ko'p sub'yektlilik" va "ko'p ob'yektlilikdir". Bu sub'yekt-ob'yekt munosabatlari nuqtai nazaridan "ijtimoiy siyosat" atamasi ko'p qirrali xususiyatga ega ekanligi to'g'risida guvohlik beradi. Ko'p qirralik iqtisodiy adabi yotlarda ijtimoiy siyosat ob'yektlari va sub'yektlarining tarkibi va tuzilishi borasidagi munozaralarga sabab bo'ladi.

Ijtimoiy siyosat sub'yektlari – bu ijtimoiy guruhlarning jamiyatdagi o'rni borasidagi o'zaro birgalikdagi harakatlarining haqiqiy ishtirokchilari, ya'ni ijtimoiy siyosat ishtirokchilaridir. Ijtimoiy siyosat sub'ektlari haqiqatan mustaqil va haqiqiy harakatlanuvchi ijtimoiy guruhlar va ularning vakil qilingan organlari: tashkilotlar, institutlar, tarkiblardir.

So'nggi yillarda, ayniqsa, amaliyotchilar "ijtimoiy-mehnat sohasi" tushunchasini ancha tez-tez qo'llamoqda. Bu tushuncha ijtimoiy siyosatning sub'yekt va ob'yektini aks ettiradi, ijtimoiy rivojlanish darajasini tavsiflaydi. Ijtimoiy-mehnat sohasi ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning barcha davrini va uning ijtimoiy kuzatuvchilarini yetarlicha to'liq aks ettiradi. Bu sohaning asosiy bloklari ishchi kuchini takror barpo bo'lish davrlarini aks ettiruvchi va ta'minlovchi komponentlardir, ya'ni ularga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy soha, ya'ni ijtimoiy-madaniy kompleks tarmoqlari (ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash);
- mehnat bozori, bandlik xizmatlari;
- mehnat unumdorligiga asos bo'luvchi sohalar (mehnatga haq to'lashni tashkil qilish, aholi turmush darajasini barqarorlashtirish).

Ijtimoiy-mehnat sohasining keyingi blokiga ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va xodimning mehnat vositalari hamda predmetlari bilan birgalikdagi harakati uchun sharoitlar yaratish jarayonida yuzaga keluvchi quyidagi munosabatlar va tarkibiy qism guruhlari kiradi:

- aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi;
- ijtimoiy sherikchilik tizimi;
- ijtimoiy sug'urtalash tizimi;
- mehnatni muhofaza qilish.

Bundan tashqari, ijtimoiy siyosatning passiv sub'yektlari guruhi ham mavjud. Bularga bank, kredit muassasalari, sug'urta kompaniyalari kirib, ular o'zlarining aktivlari to'planishiga qarab, o'z iqtisodiy foydasi haqidagi mulohazalarga tayangan holda ijtimoiy siyosat sohasida faol rol o'ynaydi. Aholi mablag'larini depozitlar bo'yicha oshirilgan foizlar o'rnatish bilan jalb qilishga

intiluvchi banklar faoliyati, uy-joy, nogironlarni qo'llab-quvvatlash dasturlarining va boshqa ijtimoiy tashabbuslarning rivojlanishi bunga misol bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy siyosat inson turmushini ta'minlashni shakllantirish va boshqarish bo'yicha davlat hokimiyati hamda shaxs o'zining faoliyati ekanligidan kelib chiqilsa, unda inson ijtimoiy siyosatning, bir tomondan, ob'yekti sifatida, ikkinchi tomondan esa sub'yekti sifatida qaraladi. Agar ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismlari ijtimoiy himoya ob'yektlari (aholi bandligi, pensiya ta'minoti, ijtimoiy sug'urta, majburiy tibbiy sug'urta) tashkil etsa, unda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillarini (tizim inson uchun, inson "tizim" uchun emas) tashkil qilish va boshqarishni o'zgartirish zarurligining paydo bo'lishi shubhasizdir.

Makroiqtisodiy darajada olib qaraganda, davlatning soliq, pul-kredit va moliyaviy siyosatini jiddiy isloh qilish talab qilinadi. Davlatning bu siyosati ikkita asosiy vazifani hal qilishga: ishlab chiqarishning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish va ishchi o'rinlarini ta'minlashga qaratilishi kerak. Buning uchun eng avvalo: tovarlar, bank kreditlari; jihozlar lizingi; oilalarga uzoq muddatli ssudalar berish tajribasidan foydalaniladi. Shunday qilib, davlatning makrodarajadagi asosiy vazifasi mehnatga layoqatli aholini bozor iqtisodiyotiga "qabul qilish" bo'lib, bu "o'rta sinf"ni shakllantirishga, soliq to'lovchilar sonini kengaytirishga va ijtimoiy siyosat masalalarining hal qilinishini soddalashtirishga imkon beradi.

Davlatdan tashqari tarkibiy tuzilmalar (xayriya tashkilotlari, cherkov. jamoatchilik jamg'armalari) xodimlarni, shuningdek korxonalarining boshqa nodavlat tashkiliy shakllarini jiddiy kuchlar deb qabul qilib, davlat xizmati uchun kadrlar zahirasini shakllantirish tajribasiga qaytish zarur. Shunday qilib, ijtimoiy siyosatning sub'yekti ijtimoiy ta'sir jo'natuvchisiga, ob'yekt esa ta'sirning nimaga va kimga qaratilganidir.

Bozor iqtisodiyoti aholi daromadlarining tabaqalanishiga, tengsizlikning kuchayishiga, muhtojlik muammosiga muqarrar ravishda olib borishi shubhasizdir. Nima uchun masala iqtisodiy o'sish sur'atlarini emas, balki millat farovonligini o'stirish, mamlakatning barcha fuqarolari uchun bir xil boshlang'ich imkoniyatlar yaratishni birinchi o'ringa qo'yadigan, ijtimoiy maqsadga qaratilgan bozor iqtisodiyotini yaratish haqida bo'lishi kerak? Bu holda davlatning faol aralashuvi, jamiyat ijtimoiy tarkibining asosiy elementlari munosabatlarini tartibga solishga, ijtimoiy guruhlarning bir-birlari bilan, xususan, jamiyat bilan uzoq muddatli manfaatlarini muvofiqlashtirishga qaratilishi kerak bo'lgan samarali ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish talab qilinadi.

Ijtimoiy siyosat umumiy strategiyasining asosiy g'oyasi – ijtimoiy siyosat yo'nalishlarini faollashtirish va qo'llash yo'li bilan ishlab chiqarishning mavjud sektorini ko'tarish asosida iqtisodiy o'sishni ta'minlashdir. Barqaror iqtisodiy o'sish strategiyasiga o'tishning boshlanishi bir paytning o'zida davlat ijtimoiy siyosati kontsepsiyasini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Ijtimoiy siyosat, bir tomondan, iqtisodiy o'sishning maqsadi, ikkinchi tomondan, iqtisodiy o'sish strategiyasi yo'nalishlaridan har birining ajralmas qismi bo'lib qoladi. Islohotlar strategiyasida azaldan islohotlashtirish maqsadini belgilashda iqtisodiyotning rivojlanish darajasi va aholi turmush darajasi o'rtasidagi aloqa aslida e'tiborsiz

qoldirilgan. Shunga ko'ra, iqtisodiyotni isloh qilishning aniq sharoitlari va variantlarini har tomonlama tahlil qilmasdan va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarining bashoratisiz xususiyashtirish, narxlarini erkinlashtirish, keskin pul-kredit siyosati o'tkazilgan.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotga asoslangan mamlakatlarning tajribasi guvohlik berishicha, ijtimoiy siyosatning mazmunida ham, uning ta'sir ob'ektlarining kengayishida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Uning ta'siri endi aholining alohida guruhleri (xodimlar, mehnatga layoqatsizlar) bilan chegaralanmaydi, balki bevosita ob'ekt sifatida deyarli barcha demografik va ijtimoiy guruhlarning turmush sharoitlari chiqa boshlaydi. Ijtimoiy siyosat iqtisodiy rivojlanishning salbiy oqibatlarini tuzatish chegaralaridan tashqariga chiqdi, chunki u iqtisodiy tizimning profilaktikasiga va ijobiy takomillashtirishga qaratiladi. Nafaqat daromadlarning qayta taqsimlanishi, balki aholini ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlashning yangi yo'nalishlarini amalga oshirish ham, bandlik, ish haqini boshqarish ham katta o'rin egallaydi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy siyosat yordamida davlat uy xo'jaliklarining ishchi kuchini sotuvchilari, iste'molchilar, jamg'arma agentlari sifatidagi xulqiga ta'sir ko'rsatishga intiladi. Bunday ijtimoiy siyosatning o'ziga xos xususiyati uning alohida yo'nalishlarining qat'iy o'zaro aloqasidir. Ya'ni, bu aloqadorlik quyidagilarda o'z aksini topadi:

- mehnat faolligi uchun sharoitlar yaratish, bandlik va ish haqlarini tartibga solish, xodimlarning mehnatga oid xislatlarini takomillashtirish;

- ijtimoiy ta'minot tizimi orqali daromadlarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlash;

- inson shaxsini rivojlantirish, sog'liqni saqlash, madaniy saviyani oshirish, ijtimoiy infratuzilma tizimi orqali tabiiy xizmatlarni taqdim qilish.

Ijtimoiy sohani isloh qilish davomida amalga oshiriluvchi siyosat nafaqat ijtimoiy boyliklar taqdim qilishning yangi modelini, balki bu boyliklar iste'molchilari xulqining modelini ham yuzaga keltirishga safarbar qilingan. Insonga sarmoya sarflash ijtimoiy siyosat sohasida ustuvor hisoblanib, uning strategik maqsadlari: fuqarolar tomonidan ta'limga, salomatligini yaxshilashga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, madaniy kuchlarni saqlash va rivojlantirish, samarali taraqqiy topgan mehnat bozorini yaratish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning manzilligini kuchaytirish, pensiya tizimining mustahkamligini ta'minlash va pensiyalarning mavjud miqdorini oshirish.

Ijtimoiy siyosatning kichik tizimi pensiya ta'minotining yangi modelidir. Davlat pensiya ta'minotining bu modeli daromadlarning balanslanganligini va pensiya jamg'armasi majburiyatlarini, o'tish davri davomida bu jamg'armaga sug'urta badallarining asosiy me'yorini oshirmasdan, balki uni ta'minlashga qaratilgan. Pensiya tizimining o'tish davridagi moliyaviy ahvoli barqarorligini ta'minlash maqsadida ijtimoiy siyosat quyidagi yo'nalishlarni amalga oshirishi mumkin:

- imtiyozli pensiyani professional pensiya tizimi bilan almashtirish;
- pensiya jamg'armasi imkoniyatlaridan kelib chiqib, pensiyaga kechroq chiqishni rag'batlantirish;
- pensiyani mablag' bilan ta'minlash bo'yicha davlat budjeti va budjetdan

tashqari jamg'armalar o'rtasidagi majburiyatlarni chegaralash;

– davlat pensiya sug'urtasi bo'yicha sug'urta stajiga qo'shiluvchi sug'urtalanmagan davr ro'yxatini qonuniy asosda mustahkamlab qo'yish va shu munosabat bilan yuzaga keluvchi majburiyatlarni davlat budjet hisobiga mablag' bilan ta'minlash tamoyillari va o'lchamlarini belgilash;

– pensiya jamg'armasi imkoniyatlaridan kelib chiqib sug'urta badallari to'planishini oshirish;

– jamg'arish asosida yangidan tayinlanuvchi mehnat pensiyasini mablag' bilan qisman ta'minlash.

Davlat tomonidan ijtimoiy sohadagi majburiyatlarni amalga oshirish ijtimoiy va siyosiy samara beradi. Biroq, bunday siyosatda zarar budjetga va umuman moliya tizimiga haddan tashqari og'irlik tushishi, aholida ortiqcha umidlarning paydo bo'lishi, buning asosida ijtimoiy va siyosiy keskinlikning yuzaga kelishi mumkin. Bunday sharoitda ijtimoiy sohadagi tub o'zgarishlar quyidagi asosiy maqsadlarga erishishga qaratilgan bo'lishi kerak:

– ijtimoiy jihatdan yaxshi himoya qilinmagan uy xo'jaliklarining eng yuqori darajadagi samarali himoyasini ta'minlash, chunki ular ijtimoiy muammolarni mustaqil hal qilish imkoniyatlariga ega emaslar va shuning uchun davlatning qo'llab-quvvatlashiga ob'ektiv ravishda muhtojdirlar;

– asosiy ijtimoiy boyliklarning yalpi ommabopligini va ijtimoiy jihatdan maqbul sifatini ta'minlash, ular qatoriga eng avvalo tibbiy xizmat va umumiy ta'lim kiradi;

– mehnatga layoqatli aholi uchun, fuqarolarga xususiy daromadlari hisobiga ijtimoiy istye'molning yuksakroq darajasini, jumladan, qulay uy-joy, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning yuqori sifatini, keksa yoshda munosib turmush darajasini ta'minlashga imkon beruvchi iqtisodiy sharoitlarni yaratish;

– ijtimoiy-madaniy sohada aholi va korxonalarining mablag'larini eng yuqori darajada to'la ishga solishga, bu mablag'lardan samarali foydalanishga imkon beruvchi institutlarni shakllantirish va shu asosda taqdim qilinuvchi ijtimoiy boyliklar va xizmatlarning yuksak sifatini va aholining ularning keng turlari imkoniyatlaridan tanlab foydalanishini ta'minlash.

Ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishi uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga va balanslangan ijtimoiy tarkiblarni ta'minlashga qaratilgan. Shuning uchun ayrim chora-tadbirlarga alohida ahamiyat beriladiki, ular quyidagilarga yordam beradi:

– jamiyatning mehnat imkoniyatlarini rivojlantirishga va undan oqilona foydalanishga;

– iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga, uning haqiqatan beradigan foydasining aholi turli guruhlari, shu jumladan, budjet sohasi xodimlari daromadlarida nisbatan bir xil aks etishiga;

– zamonaviy ta'limning, malakali va munosib to'lanuvchi mehnatning, shuningdek, tadbirkorlikning ommabopligi hisobiga iqtisodiy imkoniyatlarni tenglashtirishga va ijtimoiy mobillikni kuchaytirishga;

– mehnatga layoqatsizlar, nuroniylar va boshqa ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlashni, o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tub o'zgarishlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning zarur sharti sifatida jiddiy

ravishda kuchaytirishga;

– ijtimoiy xizmatlarni taqdim qilish va ularni mablag' bilan ta'minlashda, ularning sifatini nazorat qilishda, ijtimoiy zaif himoyalangan fuqarolarni alohida qo'llab-quvvatlashni ta'minlashda fuqarolik jamiyatlari tarkiblari bilan o'zaro birgalikdagi harakatga.

Ijtimoiy islohotlar dasturi davlatda haqiqatan mavjud zahiralari va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, ijtimoiy siyosatni barpo qilishga imkon beruvchi yordamni berishga qaratilgan. Faqat bu o'rinda faol ijtimoiy siyosat iqtisodiy o'sishning cheklavchisi emas, balki katalizatori (kuchaytirgichi) bo'lib maydonga chiqadi. Ko'rsatilgan yo'nalishga asoslanuvchi siyosatni izchil amalga oshirish ijtimoiy siyosatning "subsidiar-sug'urtali" modeliga o'tishni taqozo qiladi, u aholining eng himoyaga muhtoj guruhlari foydasiga ijtimoiy harajatlarni qayta taqsimlash imkoniyatini ta'minlaydi. "Subsidiar-sug'urtali" model davlat, notijorat sektor va tadbirkorlar o'rtasida ijtimoiy javobgarlikni qayta taqsimlashni talab qiladi. Bu modelning asosiy elementlari:

1. Aniq ijtimoiy muammolarni hal qilish sohasidagi asosiy ijtimoiy guruhlar o'rtasida sherikchilikning yaxshilanishi, davlat, notijorat tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikdagi harakatlarning rivojlantirilishi, ijtimoiy sohaning demopollashtirilishi, nodavlat sektorni faol jalb qilish asosida xizmatlar taqdim qilish shakllarining diversifikatsiyalanishi;

2. Bir paytning o'zida ta'minlangan oilalarga ijtimoiy transfertlarni qisqartirish asosida ijtimoiy harajatlarning kam ta'minlangan oilalar foydasiga qayta taqsimlanishi. Bunday yondoshuv chog'ida ijtimoiy ehtiyojlarni mablag' bilan ta'minlashning mustaqil manbalariga ega fuqarolar uy-joy va kommunal to'lovlari bo'yicha deyarli barcha harajatlarni, shuningdek, tibbiy xizmat, ta'lim, pensiya sug'urtasiga harajatlarning bir qismini o'zlari, o'z daromadlari hisobiga to'lashlari kerak.

Samarali ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishning asosiy sharti mamlakatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyatning amaliy va kompleks ravishdagi tahlili bo'lib, unda aholi ko'z oldida u yoki bu siyosiy kuchning jozibasini oshirish emas, balki mamlakatning kelajagi uchun zarur bo'lgan tub o'zgarishlarni to'xtatishga olib boruvchi ijtimoiy muammolarni hal qilish maqsadi ko'zlanadi. Ijtimoiy siyosat sohasidagi chora-tadbirlar barcha turdagi imkoniyatlardan samaraliroq foydalanish asosida iqtisodiy o'sishni yangidan boshlash va bir maromda saqlash jarayonlariga ko'p jihatdan bevosita yoki bilvosita xizmat ko'rsatishi kerak. Ijtimoiy siyosatning jamiyat iqtisodiy faoliyatiga ta'sirini hisobga olish zarur va bu ta'sirni kuchaytirish uchun ijtimoiy boyliklarni taqdim qilishning mavjud zahiralarni nafaqat tejashga, balki ulardan samaraliroq foydalanishga, xodimlarni rag'batlantirish masalasini ko'proq hisobga olishga imkon beruvchi yangi tamoyil va mexanizmlarni joriy qilish borasida tadbirlar avj olmoqda. Natijada ijtimoiy siyosatning turli vazifalari mazmuni va ularning o'zaro nisbati yangilanishi kerak. Bu bilan jamiyat iqtisodiy o'sishning mustahkam daliliy asosi bo'lib xizmat qilishga qodir hamda aholining turli ijtimoiy guruhlari manfaatlarining yangi, bozor iqtisodiga mos tizimini shakllantirish yo'lidan muvaffaqiyatli ilgariyladi. Uzoq muddatli istiqbolda ijtimoiy

rivojlanishning eng muhim muammolarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimini yaratishga, turmush darajasini o'lchashda faqatgina iste'mol qilingan boyliklar yig'indisini aks ettiruvchi oqimlarni mo'ljallab ish tutish va ijtimoiy jihatdan muhim naqd boyliklarning butun majmui zahiralarning harakatini o'rganishga qoniqarli yondoshuvlarning yo'qligi to'sqinlik qiladi.

Ma'lumki, ijtimoiy kafolatlar qonun tomonidan iste'molchining u yoki bu ijtimoiy boyliklar bilan ta'minlanishining miqdoriy ko'rsatkichlarida ifodalanadi. Aholiga pensiya, nafaqa, moddiy yordam, stipendiyalar ko'rinishdagi pul to'lovlarni taqdim etish davlat kafolatlari hisoblanadi. Biroq, bu kafolatlarning ikkita asosiy turlari: eng kam ish haqi va eng kam pensiya miqdori amaliy jihatdan hisob ko'rsatkichlaridir. Bu davlat budjetidan tashqari fondlarning barcha darajalarini va budjetdan moliyalash miqdoriga qo'yiluvchi mablag'larni hisoblash uchun asosdir.

Davlatning minimal ijtimoiy standartlar tizimi o'z iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, foydalanish budjet tashkilotlari tomonidan hududlar miqyosida ko'rsatiladigan xizmatlar sohasining rivojlanishini rejalashtirish chog'ida zarur bo'lgan ko'rsatkichlar ro'yxatidan iboratdir. Ular aholining ijtimoiy xizmatlarning har xil turlariga ehtiyojlarini qondirishning davlat tomonidan kafolatlangan darajasini ta'minlash maqsadida budjet muassasalarini rivojlantirish uchun mo'ljaldir. Shu munosabat bilan xodimlarning alohida guruhlari, ayniqsa fan, maorif, loyihaviy-tadqiqotchilik faoliyat sohasida, shuningdek, muhandis-texnik xodim va iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan boshqa guruhlarning ish haqlari nisbatida oqilona o'zaro nisbatlarni saqlab turishning maqsadga qaratilgan siyosati alohida ahamiyatga ega. Oqilona budjet uzoq, maqsadga qaratilgan mo'ljal sifatida, ijtimoiy mulohazalardan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotga ma'lum ma'noda chetdan aralashadi. Oqilona me'yorlar esa ishlab chiqarishdan tashqarida o'matiladi va asosan ijtimoiy kafolatlar mafkurasini aks ettiradi.

Ijtimoiy ko'rsatkichlarni butun mamlakat, yirik ma'muriy hududlar bo'yicha ham hisoblab chiqish mumkin. Bu mamlakat mintaqalari bo'yicha aholi turmush darajasidagi katta tabaqalashuv bilan bog'liqdir. Ijtimoiy tahlilda ijtimoiy standartlardan foydalanish nafaqat ijtimoiy jarayonlarni boshqarishga, balki ijtimoiy taraqqiyotning barcha tomonlarini rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlashga va ularning salbiy xususiyatini yengib o'tish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilashga ham imkon beradi. Shu munosabat bilan ijtimoiy me'yorlash kontsepsiyasini o'zgartirish, ijtimoiy siyosatning eng muhim yo'nalishi sifatida davlat ijtimoiy standartlashga yondoshuvlarni o'zgartirish zarur. Ijtimoiy standartlashga "xukumat" yondoshuvi ushbu tizimning, markazlashgan zahiralari hisobiga majburiy bajarilishini talab qiluvchi ijtimoiy kafolatlarning eng kam darajasini belgilash sifatidagi vazifasinigina ifodalaydi. Ijtimoiy jarayonlarni davlat boshqaruvining ushbu darajasini ajratib ko'rsatish zarurligini, umuman olganda inkor qilmasdan, qayd qilish mumkinki, bu o'rinda davlatning ta'sir sohasidan amalga oshirilishi me'yoriy tamoyillarda mumkin bo'lgan juda ko'p muammolarning yechimlari tushib qoladi. Masalan, hozirgi paytda xo'jalik amaliyotida ijtimoiy standartlash vazifalarini amalga oshirishda uchta yondoshuv qo'llanadi:

1) ijtimoiy standartlar – mamlakat fuqarolarining ehtiyojlarini amalga oshirish mexanizmi sifatida;

2) ijtimoiy standartlar – davlatning iqtisodiy xavfsizligini amalga oshirish mexanizmi sifatida;

3) ijtimoiy standartlar – jamiyatning barqaror rivojlanish mexanizmi sifatida.

Ijtimoiy standartlashning “kengaytiruvchi” kontsepsiyasining asosiy kamchiligi aynan bir xil ko‘lamda ijtimoiy me‘yorlash ob‘ektni kengaytirish moliyaviy zahiralarga ehtiyojlarning oshishiga olib kelishidir. Biroq, bu yerda quyidagi asosiy jihatlar, ya‘ni: birinchidan, ijtimoiy standartlarning ayrim turlari u yoki boshqa me‘yorlarni joriy moliyalash rivoji va darajasining strategik maqsadlari, ikkinchidan, standartlarga erishish, ayniqsa, munosib yashash darajasidagi standartlarga erishish, davlatdan birinchi navbatda moliyaviy emas, balki tashkiliy kuchlarni talab qilishi, uchinchidan, ijtimoiy standartlarning ko‘pchilik turlari (ekologik, sanitar-gigienik, huquqiy) joriy moliyaviy vaziyat doiralarida allaqachon qo‘llanilmoqda, biroq, ularning tarqoqligi va tartibga solinmaganligi boshqaruv organlariga ijtimoiy standartlashdan mintaqaviy darajada to‘lig‘icha foydalanishga imkon bermasligi inobatga olinmagan.

Ijtimoiy jarayonlarni standartlash muammosiga muvofiq ravishda davlatning roli quyidagi yo‘nalishlar bilan ta‘riflanishi mumkin: eng kam standartlar darajasida ijtimoiy boyliklar bilan ta‘minlashning eng kam darajalari tizimining ishlab chiqilishi va davlat ijtimoiy standartlar tizimining shakllantirilishi; me‘yorlarning davlat kafolatlari sifatida qonun rasmilashtirilishi.

Tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish, jamiyatning barcha a‘zolariga kafolatlangan darajadagi moliyaviy ta‘minot tizimini yaratish, eng kam standartlarni budget jarayonining birinchi navbatdagi yo‘nalishi sifatida ishga solish lozim. Ijtimoiy siyosatning bu yo‘nalishiga sarflanadigan harajatlarni kamaytirish maqsadida davlat boshqaruvining turli darajalari o‘rtasida javobgarlikning bo‘lib berilishi va zahiralarni qayta taqsimlash mexanizmlarining yaratilishi; munosib yashash standartlari darajasida ijtimoiy xizmatlarning ishlab chiqaruvchilari va iste‘molchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning qoidalari va mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Bundan tashqari, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish uchun jalb qilinuvchi aholi mablag‘larining butunligi uchun davlat kafolatlari tizimining yaratilish, ijtimoiy sohaga investisiyalarni jalb qilish va himoyalash mexanizmlarining joriy etilish, xizmatlar taqdim qilinishidagi takror ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilarining tashkiliy va moliyaviy o‘zaro birgalikdagi harakati muammosini hal qilish maqsadga muvofiq. Zahiralarni ijtimoiy sohaning tarmoq va muassasalari o‘rtasida qayta taqsimlashga va ularni ushbu paytdagi eng muhim yo‘nalishlarda to‘planishiga imkon beruvchi mexanizmlarning yaratilishi; mamlakat iqtisodiy xavfsizligi standartlari darajasidagi qiymatlar jamiyat xavfsizlik darajasini belgilashda asosiy bo‘lgan ko‘rsatkichlarni (iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy-iqtisodiy, biologik, ekologik) tarkiblash; iste‘mol standartlari darajasida, – ijtimoiy sohaning tijorat muassasalarini asosli soliqqa tortish mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy qilish; antimonopoliya mexanizmlarini joriy qilish, shuningdek, ijtimoiy soha muassasalarida iste‘molchilarni nohalol tijorat hodisalaridan himoya qilish ijtimoiy

siyosatning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Hozirgi paytda davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi muassasalar samaradorligini, ularning o'zaro aloqasi va bog'liqligini belgilash masalalari muammolidir. Ularni hal qilish uchun, eng avvalo, samaradorlik ko'rsatkichining davlat xizmatlari samaradorligi mezonlarini va ularni hisoblash usullarini belgilash lozim. Xizmat sohasining ba'zi bir tarmoqlari bu ishni muvaffaqiyatli o'tkazmoqda va ma'lum tajribaga ega (sog'liqni saqlash). Davlat xizmatlarining samaradorlik ko'rsatkichlari va statistik o'zaro aloqasi hisobisiz eng kam davlat ijtimoiy standartlarini ishlab chiqish va undan foydalanish jarayoni tugallanmaydi.

Ijtimoiy ko'rsatkichlarning iqtisodiy tub o'zgarishlar dasturiga qo'shilishi iqtisodiyot rivojlanishining eng muhim shartidir. Ijtimoiy kafolatlarni amalga oshirish mezonini ijtimoiy samara, ijtimoiy "renta" bo'lishi mumkin, ular quyidagilar kabi ko'rsatkichlarni ifodalaydi:

- aholi keng qatlamlarining iqtisodiy transformasiyaga aynan mos manfaatlari, asoslari va ahloqiy qadriyatlar tizimi;
- aholining iqtisodiy faolligi va xo'jalik faoliyati uchun shaxsiy javobgarligi darajasi;
- ijtimoiy maqsadga qaratilgan bozor jamiyatining asosi sifatida o'rta sinfning shakllanishi;
- turmush sifati (aholi daromadlari, ijtimoiy kafolatlar, mehnatning iqtisodiy jihatdan adolatli bahosi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash);
- to'plangan noashyoviy milliy boylik (ilmiy-texnik, maorif, ma'naviy-ahloqiy imkoniyatlar va salomatlik imkoniyatlari);
- ijtimoiy ziddiyatlarni hal qilish uchun sharoitlar yaratuvchi mexanizmlar.

Shunday qilib, aholini ijtimoiy muhofaza qilishda ijtimoiy siyosatning o'rnini katta. Bu siyosat mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lami iqtisodiy islohotlar natijasida aholi boshiga tushishi muqarrar bo'lgan mushkulliklarni yengillashtirishga yordam berishi shuhbasizdir.

2.2. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishda davlatning o'rnini

3. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish – davlatning aholiga normal hayot faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan bevosita maqsadli kafolatlar tizimi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosati quyidagi asosiy qonun-qoidalarga asoslanadi:

- barcha ijtimoiy-demografik guruhlar (bolalar, yoshlar, ishlaydigan fuqarolar, nogironlar, keksalar va mehnatga yaroqsizlar, qaramoqda yashovchi shaxslar) huquq va ehtiyojlarini hayotning hamma sohasida himoya qilish;
- aholining turli guruhlariga, mehnatga yaroqlilik darajasi, daromad topish usullariga bog'liq holda tanlab olish usullari, shakllari, moliyaviy ta'minlash usullari va ijtimoiy himoyalash mexanizmiga muvofiq tarzda tabaqalab shart-sharoitlarni ta'minlash;

Davlat siyosati aholining iqtisodiy jihatdan faol, mehnatga yaroqli guruhiga,

avvalo, shaxsiy mehnat jamg'armalarini oshirish va mehnat faolliklarining o'sib borishi asosida o'zlarining moddiy boyliklari oshib borishidan kelib chiqishi va amalga oshirilishi lozim.

Demak, ijtimoiy muhofaza - davlatning inson hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoit yaratishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va huquqiy kafolatlar yig'indisini tashkil etadi.

Ijtimoiy muhofaza tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- mehnatga layoqatlilar uchun ish joylarini tashkil etish (ishsizlikdan muhofaza qilish);
- mehnatga layoqatsiz bo'lib qolganlar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy zaif guruhlarini nafaqalar bilan ta'minlash;
- mehnat faoliyatidan olingan daromad yoki nafaqa asosida normal turmush darajasini ta'minlash (bunga asosiy moddiy boyliklar, eng avvalo, oziq-ovqat mahsuloti iste'moli ham kiritiladi);
- turar-joy, madaniy va sog'liqni saqlash xizmatlarini minimal teng me'yorda ta'minlash;
- zamonaviy malakali ishchi kuchini shakllantirish uchun zarur bo'ladigan ma'lumot olish.

Davlat va uning tuzilmalari yana ko'p masalalar hal etilishini ham ta'minlaydi. Birinchidan, fuqarolarning mehnat qilish huquqini kafolatlaydi, bunga ish joyiga zarur resurslarga ega bo'lish va mehnatga yarasha haq to'lash kafolati ham kiritiladi. Ikkinchidan, aholini ijtimoiy muhofaza qilish keksalik, mehnat qobiliyatini yoki boquvchisini yo'qotishdan sug'urta tizimi (pensiya ta'minoti, shu jumladan, xususiy pensiya ta'minoti), kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy to'lovlar (bolalarga nafaqa), vaqtincha ishlamayotganlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash (ishsizlik bo'yicha nafaqa), aholining ayrim toifalariga ularning moddiy ta'minoti va xizmatlarini hisobga olib imtiyoz va afzalliklar berish (patronaj xizmatlar shaklidagi ijtimoiy yordam, oziq-ovqat, yoqilg'i berish va boshqalar), onalikni muhofaza qilish (tug'ishdan oldingi va tug'ishdan keyingi ta'tillar berish), sog'liqni sug'urta qildirish (tibbiy sug'urta, vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotganlar uchun) ham davlat zimmasidagi vazifalar sirasiga kiradi.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning markazida ijtimoiy siyosat masalasi turadi. Bu siyosatning zarurati mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida aholi boshiga tushishi muqarrar mushkulliklarni yengillashtirish bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, har qanday jamiyatda doimo shunday shaxslar toifasi mavjudki, ular ob'ektiv sabablarga ko'ra (yoshi, sog'ligining yomonligi, mamlakatdagi ishsizlik darajasi va boshqalar) ishlab chiqarishda ishtirok eta olishmaydi. Shuning uchun ular to'g'risida qayg'urishni davlat o'z zimmasiga oladi, ya'ni yaratilgan milliy daromadning bir qismini ular foydasiga qayta taqsimlanadi.

Mustaqillikka erishilganidan so'ng o'tgan yillar mobaynida respublikada aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan (2.1-jadval).

O'zbekistonda aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining rivojlanish bosqichlari

Bosqich (yillar)	Makroiqtisodiy sharoit	Ijtimoiy siyosatning maqsadi	Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining tavsifi
1-bosqich (1991-1994 yy.)	Iqtisodiy pasayish	Aholi turmush darajasining pasayishini oldini olish	Aholini yalpi ijtimoiy muhofaza qilish
2-bosqich (1994-1997 yy)	Iqtisodiy barqarorlik	Aholi daromadlarini barqarorlashtirish	Aholini manzilli ijtimoiy muhofaza qilishga o'tish
3-bosqich (1998 yildan hozirgi davrgacha)	Iqtisodiy o'sish	Aholining turmush farovonligi va daromadlarini oshirish	Aholini manzilli ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmini kengaytirish, ijtimoiy muhofaza tizimini institutsional rivojlantirish

Манба: Человеческое развитие. Учебник. – Т.: Университета мировой экономики и дипломатии, 2008. – С.192.

Ma'lumki, kambag'allik va aholi o'rtasida kuchli iqtisodiy tengsizlikning oldini olish maqsadida daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash bo'yicha davlat chora-tadbirlari tizimi ijtimoiy siyosat deb yuritiladi. Keng ma'noda, ijtimoiy siyosat deganda, shaxs hayot faoliyatining shunday sharoitlarini yaratish va tub turish bo'yicha ko'rilgan barcha chora-tadbirlar tushuniladiki, u shaxsning rivojlanishiga yordam beradi va uning ijodiy imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishini rag'batlantiradi. Bu dastur o'tkazilayotgan barcha islohotlarning pirovard maqsadi – inson hayoti va faoliyati uchun munosib shart-sharoit yaratish bilan chambarchas bog'langan. "Islohot inson uchun" degan tub qoida O'zbekistonda islohotning "jazava" usullarini qo'llashni istisno etdi va bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichidayoq kishilarni ijtimoiy muhofaza qilish yuzasidan kuchli, ogohlantiruvchi choralarni ko'rish zarurligini taqozo qildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning ilk bosqichlaridagi ijtimoiy muhofaza tadbirlari butun aholiga nisbatan qo'llanildi, bu esa mamlakatda barqarorlikni saqlashning muhim omili bo'ldi. Muntazam ravishda ko'rib chiqilayotgan turli miqdordagi ish haqi, pensiya, stipendiya va har xil nafaqa, tovon puli ko'rinishidagi bevosita pul to'lovlari keng qo'llanildi, imtiyozlar hamda turli qo'shimcha to'lovlar tizimi aholini ijtimoiy muhofazalash darajasini birmuncha oshirdi. Eng kam miqdordagi mehnat haqi va pensiyalarning soliqqa tortilmasligi belgilab qo'yildi. Korxonalarining o'z xodimlariga ijtimoiy yordam ko'rsatish borasidagi harajatlari qisman budjet mablag'lari hisobidan to'ldirildi. Ommaviy ravishda talab qilinadigan ko'pgina tovar va xizmatlar turlarining narxlari o'rtasidagi tafavutning o'rimi qoplandi.

Murakkab iqtisodiy ahvol yuzaga kelganiga qaramay, O'zbekistonda aholi uchun eng muhim ijtimoiy vazifalarni hal etish maqsadida zarur mablag'lar izlab topildi. Islohotlarning dastlabki bosqichida ijtimoiy muhofazaga ajratilgan davlat harajatlari respublika budjetining uchdan bir qismini tashkil etdi. O'sha davrda ishlab chiqilgan ijtimoiy siyosat o'z oldida turgan vazifalarni amalga oshirdi va ayni payt bozor iqtisodiyotiga xos zaruriyatni – ijtimoiy yordam choralari va vositalarini o'zgarib turgan sharoitga muvofiq tarzda doimo moslash zaruratini yuzaga keltirdi.

Barcha aholiga mo'ljallangan ijtimoiy siyosat yordamga ehtiyojning ko'proq va kamroq darajasi kabi juda muhim omilga nisbatan sezgirlikni qo'ldan boy berdi. Shunday bo'lib chiqdiki, kam ta'minlangan fuqarolar ham, to'la ta'minlangan fuqarolar ham bir xilda madad olardi. Buning ustiga, dotasiya joriy etilgan asosiy tovar va xizmat turlari haqiqatan iste'mol etilishiga nisbatan ulardan ayni shunday yordamga kamroq muhtoj bo'lgan kishilar ko'proq foydalanib qolishdi. Haqiqatan ham, muhtoj kishilar uchun kam samara bergan behuda sarf-harajat mablag'larning sochilib yuborilishiga sabab bo'ldi. Shuni aytish kifoyaki, faqat respublika budjeti orqali 30 xil turli yo'nalishlar bo'yicha yordam ko'rsatilgan. Ob'ektiv ravishda ijtimoiy muhofaza qilish vositalarini qayta yo'naltirish zarurati, yalpi ijtimoiy madad berish yo'lidan chindan ham madadga muhtoj kishilarga yordam ko'rsatishning tabaqalashgan, manzilli tizimiga o'tish zarurati tug'ildi.

Respublikada chindan ham muhtoj odamlarga manzilli, tabaqalashgan yordam berishga adolat g'oyasiga og'ishmay amal qilish qoidasi asos qilib olindi. Ijtimoiy yordam tizimining adolat mezoniga bo'ysundirilishi aholi uchun g'oyat oddiy va ravshan bo'lgan taqsimot vositalarini talab qildi va ular ishlab chiqildi. Mustaqillik yillari aholini ijtimoiy muhofaza etish tizimi tubdan o'zgartirildi (2.2-jadval). Mazkur o'zgarish islohotlar ijtimoiy dasturini amalga oshirishning birinchi bosqichining eng muhim yakuni bo'ldi hamda bozor munosabatlari rivojlanishiga mos yangi ustuvor yo'nalishlarga o'tilganligidan dalolat berdi. Yangi tizim ijtimoiy yordamdan aniq foydalanuvchilarga puxtaroq yo'naltirilgan. Bular, avvalo, mamlakat kelajagi – bolalar, shuningdek, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalardir. Ijtimoiy o'zaro yordam tizimida oila asosiy bo'g'inga aylandiki, bu esa dunyoviy asosiy insoniylik qoidalariga, milliy an'analar va xususiyatlarga, jamiyatda oila mavqeiga muvofiqdir.

O'zbekistonning o'ziga xosligi shundaki, bu yerda bir uyda birgalikda yashashni afzal ko'radigan, umumiy xo'jalikka ega bo'lgan, umumiy oilaviy budjet sarflaydigan murakkab oilalar ko'p uchraydi. Bunday sharoitda esa oilani yordamga muhtoj, kam ta'minlangan oilalar toifasiga kiritish mezonini tanlash juda murakkab ish bo'lib chiqdi. Daromadlarni deklaratsiya qilishdan iborat ma'lum usul respublika uchun juda kam darajada maqbul ekan. Ma'lumotnomalardagi rasmiy aloqatlarga qarab oilalarga nafaqa berilish adolat ustuvor mezonidan muqarrar chekinishlarga sabab bo'lar edi. Boisi shundaki, respublikaning ko'pchilik aholisi qishloq joyda yashab, tomorqa xo'jaligidan hisobga olish mushkul bo'lgan daromadlar ko'radi. Undan tashqari, daromad hisobini yaratish kishilarni yordamchi daromadni yashirishga undar, boqimandachilikni rag'batlantirar edi. Barcha daromad manbalarini to'la va aniq

hisobga olish imkonini beruvchi uy xo'jaliklarini tekshirish vositasi esa hozircha ishlab chiqilmagan.

jadval

O'zbekistonda aholini manzilli ijtimoiy muhofaza qilish tizimi

Ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlash shakli	Oluvchilarning toifasi	To'lovlar va xizmatlarning turlari
Imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiy himoyalash	Nogironlar, nogiron bolalar	Tibbiy-ijtimoiy va mehnat reabilitatsiya markazlari orqali protez-ortopedik buyumlari, eshitish apparatlari, kitoblar, darsliklar bilan ta'minlash
O'zgaral yordamiga muhtoj yolg'iz keksa fuqarolarni ijtimoiy himoyalash	Yolg'iz keksa fuqarolar	Patronaj xizmatlari ko'rsatish, eng zarur oziq-ovqat to'plami bilan bepul ta'minlash, uy-joylarini bepul ta'minlash
Ota-onalar qarovisiz qolgan va yetim bolalarni ijtimoiy himoyalash	Yetim va ota-onalar qarovisiz qolgan bolalar	Yetim bolalar uchun "Mehribonlik" uylari, ijtimoiy-ruhiy qayta tiklash markazlari
Ishsizlarni ijtimoiy himoyalash	Ishsiz fuqarolar	Ishga joylashtirish va nafaqalar berish shaklida yordam ko'rsatish
Kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarni ijtimoiy himoyalash	Kam ta'minlangan oilalar, 16 va 2 yoshgacha bolalari bor oilalar	Pul nafaqalari berish shaklida moddiy yordam ko'rsatish
Nogironlarni va nogiron bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash	Nogironlar, nogiron bolalar	Pul nafaqalari berish shaklida moddiy yordam ko'rsatish
Pensiya tizimi bilan qamrab olinmagan fuqarolarni ijtimoiy himoyalash	Keksalar fuqarolar	Nafaqa shaklida moddiy qo'llab-quvvatlash
Pensionerlarni ijtimoiy himoyalash	Pensionerlar	Pensiya shaklida moddiy qo'llab-quvvatlash
Imtiyozlar va yengilliklar	I- va II-guruh nogironlari, yolg'iz keksalar, yetim bolalar va kam ta'minlangan oilalarning bolalari	Uy-joy haqini to'lashga qoplovchi to'lovlar, transport xizmatlariga imtiyozli to'lovlar, davolash-profilaktika muassasalarida bepul dori-darmonlar va oziq-ovqatlar, sanatoriya-turort muassasalarida sog'lomlashtirish uchun yo'llanmalar, protez-ortopedik buyumlar, o'quv anjomlari bilan ta'minlash, soliqlarning ayrim turlaridan ozod qilish

O'zbekistonda muhtojlarga ijtimoiy yordam ko'rsatishning eng sodda, samarali va oshkora vositasi qilib mahalla orqali yordam berilishi maqbul, deb topildi. Aholi demokratik asosda saylab qo'yadigan oqsoqollar (raislar), ularning maslahatgo'ylari va mahalla faollari, fuqarolar yig'inlari (ularga qonun yo'li bilan mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organi maqomi berilgan) har bir oilaning moddiy ahvolini, daromad manbalarini yaxshi biladi. Mamlakatda joriy etilgan ijtimoiy

o'zaro yordam tizimiga binoan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash masalasi mahalla fuqarolari yig'ilishida hal qilinadi. Muhtojlarni aniqlash, hisobga olish va ro'yhatdan o'tkazish, ularga manzilli yordam berish ishiga bunday mutlaqo yangicha yondashuvda qo'ni-qo'shnilarga yordam ko'rsatish, unga hamdardlik bildirish, shuningdek, tekinxo'r va boqimandalarga nisbatan murosasiz bo'lish kabi qadimiy xalq an'analari namoyon bo'ladi. Endilikda kam ta'minlangan oilaga oylik moddiy yordam tayinlash va uning miqdorini belgilash shaharcha, qishloq, ovul va shaharlarda mahalla fuqarolari vakillarining yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Bozor munosabatlarining imkoniyati keng, ammo ayni vaqtda ular g'oyat talabchandir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har kimning taqdiri ko'p jihatdan kasb mahoratiga, o'zgarib turgan muhitga moslasha olishiga, tavakkal qilishi, hatto o'z shaxsiy mol-mulkini xavf ostiga qo'yishdan ham qo'rqmay, oilaviy farovonligini ta'minlay olish bilan bog'liqdir. Davlat esa bunday sharoitda ijtimoiy totuvlik va barqarorlik kafili bo'lib, manzilli ijtimoiy sayosatni mazkur maqsadga yo'naltirib turadi. Bunday yordam ko'rsatish uchun o'zini-o'zi boshqarish organlari zarur resurslar bilan ta'minlanadi. Mahallalarda respublika va mahalliy budjetlar, shuningdek, korxonalar hamda tashkilotlar, tadbirkorlik tuzilmalari va ayrim fuqarolar ko'ngilli ravishda o'tkazgan pullar hisobidan maxsus jamg'armalar tashkil qilingan.

Vakolatli va ijroiya hokimiyat mahalliy organlari o'zlariga qarashli hududda aholining birinchi navbatdagi ehtiyojlariga binoan ijtimoiy yordam tadbirlariga aniqlik kirita boradi. Ularning asosiy tashvishlaridan biri – ijtimoiy ishlab chiqarish ko'makchi tuzilmalarini rivojlantirishdan, ya'ni gaz, suv quvurlarini, elektr va telefon tarmoqlarini o'tkazishdan iborat. Faqat shunday sharoitdagina ish o'rinlarini vujudga keltirish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, binobarin, ijtimoiy muammolarning keng majmuini hal etish maqsadida eng chekka qishloqlarga zarur sarmoyani jalb etish mumkin. Hokimiyat va o'zini o'zi boshqarish organlari aholining nochor toifalari uchun umumdavlat yordam dasturlari amalga oshirilishini ta'minlab, mintaqa imkoniyatlarini hisobga olgan holda shu qatlamlarga madad berish yuzasidan qo'shimcha choralar ko'rish huquqini olgan. Shu tariqa O'zbekistonda aholini ijtimoiy muhofaza qilishning noyob va betakror manzilli tizimi amal qilmoqdaki, u xalq an'analari va axloqiy qoidalariga asoslangan hamda bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitiga moslangan.

Ijtimoiy muhofaza qilishni amalga oshirish, ijtimoiy muhofaza mexanizmini takomillashtirishda sifat jihatidan yangi bosqich zarurligi ob'ektiv jihatdan yetildi. Shu munosabat bilan endi umumiy ijtimoiy muhofaza tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimiga izchil o'tish maqsadga muvofiq bo'lib qoldi. Bir iqtisodiy tizimdan ikkinchi tizimga o'tish oson ish emas va u jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy murakkabliklarga olib kelishi mumkin.

Yo'nalish va sohalaridan qat'iy nazar, bozor tartibotlarini joriy etish bilan bog'liq har qanday islohotlar kishilar manfaatlariga daxldor bo'lib, aholi turmush darajasining u yoki bu ko'rsatkichlarining o'zgarishiga (dastlabki bosqichda – jiddiy tarzda pasayib ketishiga) sabab bo'ladi. Shuning uchun ham bozor

iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishning O'zbekiston modelida kuchli ijtimoiy siyosat asosiy bo'g'in qilib belgilangan. Bu esa, bozor iqtisodiyotiga o'tish birdan bir maqsad emasligini, barcha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy islohotlar inson hayoti va faoliyati uchun munosib sharoitlar yaratishga qaratilishini bildiradi.

Ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

– fuqarolarning iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, kasb va mehnat sohasini erkin tanlash bo'yicha kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, Mehnatga layoqatli aholining o'z mehnat faoliyati shaklini erkin tanlash huquqidan foydalana borib, o'zini va o'z oilasini moddiy jihatdan zarur darajada ta'minlashi, oilasining farovonligi uchun, sog'lom avlodni kamol toptirish uchun javobgar bo'lishi kerak;

– ijtimoiy muhofaza aniq va maqsadli yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Aholining turli qatlamlariga alohida-alohida yondashish – yangi ijtimoiy muhofaza tizimining o'ziga xos xususiyati bo'lib qolmog'i lozim;

– aholini ijtimoiy muhofaza qilish chora-tadbirlari tizimida real mehnat bozorini shakllantirish, mehnatga layoqatli har bir kishiga o'z mehnati bilan oilasining turmush darajasini yaxshilash imkonini beradigan sharoit yaratish asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Jamiyat taraqqiyoti mamlakat iqtisodiy salohiyatining qanchalik yuksakligi bilan emas, balki bu salohiyat har bir kishining har tomonlama rivojlanishi uchun yo'naltirilganligi bilan baholanadi. Xalqaro aloqalarda O'zbekiston malakali ishchi kuchiga, ulkan tabiiy resurslarga ega bo'lgan siyosiy jihatdan barqaror davlat sifatida qaralmoqda, bu esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun juda qulay imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Ijtimoiy islohotlarni o'tkazishning taktik jihatlari quyidagilarni nazarda tutadi:

– bozor mexanizmlarini joriy etishdan oldin aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va muhofaza qilish bo'yicha qat'iy chora-tadbirlar ko'rish;

– ijtimoiy soha ahvolini davlat tomonidan nazorat qilish va qo'llab-quvvatlash;

– bozor iqtisodiyotiga kirib borgan sari yuzaga keladigan vaziyat va yangi imkoniyatlarni hisobga olgan holda aholini ijtimoiy muhofaza qilish ustuvorliklari va mexanizmlarining o'zgarishi.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'tkazish, ko'rilayotgan chora-tadbirlarning o'zaro bir-biriga bog'liqligi va ta'sirini ta'minlash natijasida:

– kishilarning turmush darajasi keskin pasayib ketishining oldini olishga, respublikada osoyishtalik va barqarorlikni saqlashga muvaffaq bo'lindi;

– aholini manzilli ijtimoiy muhofaza qilishning qat'iy tizimi yaratildi;

– aholi bozor iqtisodiyoti sharoitlariga ko'niktirildi;

– iqtisodiy faollik oshdi, tadbirkorlik rivojlanmoqda, aholining ish bilan bandlik tizimi bozor tizimiga yaqinlashmoqda;

– inson manfaatlarini yanada kengroq ro'yobga chiqarishni ta'minlash uchun yangi sharoit va imkoniyatlar yaratildi;

– mutlaq yangicha yondashuvlar asosida zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlash milliy dasturi ishlab chiqildi.

O'zbekistonda aholini ijtimoiy muhofaza qilish masalalari bilan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi shug'ullanadi. Joylarda mehnat, aholini ijtimoiy muhofaza qilish va ta'minlash bo'yicha boshqarmalar (viloyat, shahar) va tuman bo'limlari faoliyat yuritadi. Mazkur idoralarga ayrim aholi guruhlari uchun imtiyoz va kafolatlar belgilash hamda to'lash, aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish vazifalari yuklatilgan.

Pensiya ta'minoti Pensiya jamg'armasi va quyi ijtimoiy ta'minot idoralari zimmasida. Nafaqalar to'lash tizimi biroz murakkabroq tuzilgan. Aholi nafaqalarni ish joyidan, ijtimoiy ta'minot bo'limlari yoki mahallalardan olish imkoniyatiga ega.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikning xilma-xilligi tufayli aholini ijtimoiy muhofaza qilish uchun ajratiladigan mablag'lar ham turli shakldagi davlat, korxonalar, muassasalar daromadlarining bir qismidan rasmiy ravishda belgilangan me'yorlarda shakllanadi. Undan tashqari, ijtimoiy muhofaza jamg'armalariga mamlakatdagi korxonalar va tashkilotlar, xorijiy davlatlardan keladigan homiylik va insonparvarlik yordamlari ham qo'shiladi. Lekin, ijtimoiy ta'minot jamg'armasining asosiy hajmi davlat tomonidan belgilangan me'yorlarga muvofiq milliy daromadning bir qismidan shakllanadi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish jarayonida shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar mamlakatning umumiy moliyaviy-iqtisodiy holatiga muvofiq takomillasha boradi. Ijtimoiy muhofazaning mablag' bilan ta'minlanganligi mamlakatda joriy etilayotgan davlat dasturlari va ijtimoiy siyosatning samaradorligiga bog'liq. O'zbekistonda islohotlarning evolyusion, ya'ni bozor munosabatlariga o'tishning bosqichma-bosqich yo'lining tanlab olinishi tarixiy saboqlardan to'g'ri xulosa qilish, jamiyatning ob'ektiv qonunlarini e'tirof etish asosida bormoqda. Yo'limiz ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirish, aholining kam ta'minlangan qismini kuchli muhofaza qilish bilan bosqichma-bosqich o'tishdir. Taraqqiyotning hamma bosqichlarida odamlarning ijtimoiy kayfiyatlarini, ijtimoiy muammolarini nazar-pisand qilmaslik barqarorlikka katta xavf tug'diradi. Odamlarni da'vat etuvchi ijtimoiy sabablarning ruyobga chiqishi muhim ahamiyatga molik.

Yangi ijtimoiy muhofaza tizimining eng muhim xususiyati aholining turli qatlamlariga qat'iy tabaqalashtirilgan tarzda yondashish xususiyati bilan ajralib turadi. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishni yaxshilash, uning samarasini ko'tarish quyidagi muhim vazifalarni hal etishga bog'liq:

- ishlab chiqarishni barqarorlashtirish;
- davlat mablag'lari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamoat, xayriya tashkilotlari va jamg'armalarning mablag'larini keng jalb etish.

Shu bilan birga, aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining huquqlari quyidagilarga asoslangan holda ancha kengaytirilishi lozim:

- odamlarning kuchi va qobiliyatlarini to'la-to'kis faollashuvini ta'minlashga qodir bo'lgan kuchli mexanizmlarni vujudga keltirish (har bir kishining iqtisodiy erkinligini shakllantirish);

– aholining daromadlariga va turmush darajasida asossiz katta farqlarga yo'l qo'ymaslik. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan qatlamlarni shakllantirish;

– qashshoqliqqa qarshi kurash. Eng muhtoj aholi qatlamining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirish.

Shunday qilib, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti yo'lini vujudga keltirish aholini ijtimoiy muhofaza qilishning shunga mos keladigan yaxlit tizimini barpo etishni talab qiladi. Bu tizim fuqarolarning erkinliklari va huquqlarini ta'minlashning iqtisodiy va ijtimoiy kafolatlarini o'z ichiga oladi. ✓ 3

2.3. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidagi institutlar

Har qanday davlatda fuqarolarni ijtimoiy muhofaza qilishni amalga oshirish bilan shug'ullanadigan ijtimoiy institutlarning butun bir tizimi mavjud. **Ijtimoiy institut** – bu odamlarning birgalikdagi faoliyatini tashkiliy tuzilma tarzida tashkil etishning barqaror shakli yoki me'yoriy jihatdan tartibga solinadigan qoidalar tizimidan iborat. Mazkur tartib doirasida tegishli institutlar faoliyati bilan qamrab olingan insonlarning ijtimoiy vazifalarini taqsimlash ro'y beradi.

Bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan mamlakatlarda kasallik, baxtsiz hodisalar ro'y berganda yoki kasallik davrida qarorlar qabul qilishdagi shaxsiy erkinlik va javobgarlik ijtimoiy himoya tizimining tashkil qilinishida asosiy ustunlardan hisoblanadi. Biroq, insonning bir o'zi barcha hayot qiyinchiliklarini yengishga qodir emas. Moddiy ta'minlanmaganlikning ijtimoiy xatari ba'zi hollarda yengilmas kuch tusiga ega bo'ladi, bu nogironlikning erta shakllari, kasalliklarning og'ir va bedavo turlariga chalinganligidir. Shu sababdan aksariyat rivojlangan mamlakatlar XIX-asr oxirlaridayoq ijtimoiy xatar hollari boshlanganda yordam tashkil qilish zaruratini anglashgan. Odatda, ijtimoiy himoyaning ikkita instituti quyidagi shakllarda qo'llaniladi: davlat ijtimoiy himoyasi (beg'araz, pulsiz shakli) va ijtimoiy sug'urta (ijtimoiy himoyaning pullik shakli). Bunda quyidagi sug'urta turlari mavjud:

– shaxsiy (hayotni sug'urtalash, pensiya ta'minoti). Unga individning shaxsiy javobgarligi xosdir;

– ijtimoiy. U ommaviy-huquqiy maqomga ega bo'lib, iqtisodiy jihatdan shaxsiy, shuningdek, jamoa-guruh va ijtimoiy javobgarlik uyg'unligini anglatadi;

– ijtimoiy-kasbiy. Uning o'ziga xos tomoni – ijtimoiy-guruh (kasbiy) hamjihatlik va shaxsiy javobgarlikning uyg'unlashuvi.

Sug'urtaning turli shakllari mavjudligi tasodifiy holat emas. Bandlik shakllaridagi farqlar, mehnat sharoitlarining tamozqlar bo'yicha kasbiy-guruh va hududiy o'ziga xosligi, ijtimoiy xatar darajalaridagi katta farqlar ijtimoiy himoyaning turli institutlarini shakllantirishda ushbu sug'urta shakllarini to'g'ri tanlanishi va qayd etib borilishini taqozo etadi. Bunda ham butun aholi manfaatlari, ham ma'lum kasb guruhga xos manfaatlarni e'tiborga olish zarur. Masalan, kasb xatari darajasi baland bo'lgan ishlab chiqarish sohasi ishchilari qo'shimcha, ma'lum kasb guruhlariga xos ijtimoiy kasbiy sug'urtaga muhtojdirlar.

Jahon tajribasiga ko'ra, ijtimoiy himoyaning quyidagi beshta asosiy instituti

mavjud (2.3-jadval):

1. Davlat ijtimoiy yordami. Mehnatga layoqatligining yo'qligi, ishsizligi, daromad manbai mavjud bo'lmaganligi sababli mustaqil ravishda o'zini moddiy ta'minlay olmagan shaxslarga davlat tomonidan beriladigan ijtimoiy yordami hisoblanadi. Bu yordam turining hajmi o'tmishdagi shaxs daromadi yoki aholining umumiy turmush darajasi bilan bog'liq emas. Ijtimoiy yordam xayrixohlik tusiga egadir. Ijtimoiy yordam doirasidagi nafaqa va yordam pullari faqatgina qonunchilikda qayd etilgan fuqarolar toifalariga beriladi. Mazkur himoya institutining asosiy jihati – bu kam ta'minlangan aholi guruhlariga davlatning ijtimoiy-alimentli shartnomasiz yordam ko'rsatish munosabatlari (bolalikdan nogiron, boshqa erta nogiron bo'lgan shaxs, pensiya olish uchun zarur sug'urta maqomiga ega bo'lmagan fuqarolarga). Jismoniy shaxs tomonidan ijtimoiy yordam olishida uning ijtimoiy mehnat faoliyatidagi ishtiroki ahamiyatsizdir. Ushbu tizim yordam pullariga muhtoj shaxsning daromadi tekshirilganidan keyin, unga daromadning minimal darajasini ta'minlash maqsadida beriladi. Asosiy sabab – yashash minimumi hajmida mablag'ning mavjud emasligidir.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimida nafaqa va moddiy yordamning miqdori oila a'zolarining daromadlarini hisobga olgan holda, umumiy daromad miqdori tirikchilik minimumiga yetishi uchun tayinlanadi. Ijtimoiy yordam institutining huquqiy asosi insonning ijtimoiy ta'minot sohasidagi huquqlaridan kelib chiqadi va insonning konstitusiyaga ko'ra yashash huquqiga egaligiga asoslanadi.

Ijtimoiy himoyaning ushbu institutining moliyaviy manbai sifatida hududiy va municipal budjetlar olinadi, ular umumiy soliq tizimi va maxsus maqsadda yig'iladigan soliq hisobidan shakllanadi.

2. Davlat ijtimoiy ta'minoti. Ushbu himoya shaklida avvaldan ma'lum to'lovlar bajarilganmi yoki yo'qmi, shuningdek, shaxslarning moddiy holati (muhtojligi) e'tiborga olinmagan holda davlat tomonidan ijtimoiy ta'minot taqdim etiladi. Mazkur ijtimoiy himoyaning moliyaviy manbalari – umumiy va maxsus soliqlar hisobidan shakllanadigan davlat budjetidan to'g'ridan-to'g'ri olinadigan mablag'lar.

3. Majburiy ijtimoiy sug'urta. Bu iqtisodiy faol aholini o'z daromadini mehnatga layoqatsizligi tufayli (kasallik, baxtsiz hodisa, keksalik) yoki ishsiz qolgani sababli yo'qotish xavfidan ijtimoiy himoyalash institutidir. Mazkur institutning moliyaviy manbalari – ish beruvchilar, ishchilar (ba'zan davlat)ning o'zaro yordam va o'z-o'zi uchun ma'sul bo'lish, hamjihatlikning omillariga asoslangan sug'urta to'lovlari (badallari) hisoblanadi. Ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisalarni sug'urtalash tizimlari bundan istisno, ular faqatgina ishchilarning badallari hisobidan ta'minlanadi.

Majburiy sug'urta to'lovlari miqdori jamiyatda shakllangan ijtimoiy kafolat darajalari bilan bog'liq hamda ular ishchi va ish beruvchi o'rtasidagi (davlat ishtirokidagi) shartnomalar natijasida shakllanadi,

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidagi institutlarning taqqoslama tavsiflari

Ijtimoiy himoya institutlarining tavsifi va mexanizmlari	Ijtimoiy himoya tizimining asosiy institutlari				
	Davlat ijtimoiy yordami	Davlat ijtimoiy ta'minoti	Majburiy ijtimoiy sug'urta	Ixtiyoriy qo'shimcha ijtimoiy sug'urta	Ixtiyoriy shaxsiy sug'urta
1	2	3	4	5	6
Ijtimoiy kafolat va huquqlar vujudga kelishi asoslarini tartibga solish uslublari	Qonunga ko'ra, mehnat layoqatini yo'qotgan yoki unga ega bo'lmagan va muhtoj fuqarolarga ijtimoiy-alimentli yordam, agar ular muhtoj deb topilsa	Qonunga ko'ra: davlat xizmatida band bo'lgan ma'lum mehnat stajiga ega shaxslariga	Qonunga ko'ra: majburiy sug'urta staji yoki nogironlik, boquvchisini yo'qotgan hollarda	Kelishuv munosabatlari asosida: ma'lum sug'urta staji va jamoa (tarmoq) shartnomasi mavjudligida	Shaxsiy sug'urta shartnomasi va sug'urta to'lovlari to'laganligi asosida
Tashkil etish tamoyillari	Butun jamiyatning mehnatga layoqatsiz va muhtojlar uchun minimal daromadini hosil qilishning hamjihatli ma'suliyati	Davlatning ish beruvchi sifatidagi o'z yollanma ishchilarini pensiya bilan ta'minlash uchun javobgarlik	Ish beruvchi va ish bajaruvchilarning ma'suliyati, o'zaro hamjihatlik yordami, ishchilarning o'z ma'suliyatini his etishi	Ish beruvchilar kasbiy guruhlarining ishchilarni kasb mehnati xataridan muhofaza qilish bo'yicha hamjihatlik o'zaro yordami	Fuqarolarning ma'suliyatlilik, to'lov pullari va beriladigan mablag'lar ekvivalentligiga to'lagigicha rioya qilish
Moliyaviy manbalari	Soliqlar yordamida shakllanadigan budget manbalari	Soliqlar yordamida shakllanadigan budget manbalari	Ish beruvchi va ish bajaruvchilarning majburiy sug'urta to'lovlari	Ish beruvchilarning (bajaruvchi) ixtiyoriy sug'urta to'lovlari	Fuqarolarning ixtiyoriy sug'urta to'lovlari
Amal qilish mexanizmlari	Muhtojlik bahosi – barcha oila a'zolari daromadi va mulki miqdorini, shuningdek, davlat imkoniyatlarini aniqlash	Davlat budgetining moliyaviy mablag'larini baholash, pensionerlar, pensiya miqdorini aniqlash	Mehnatga layoqatlilikni yo'qotish, keksalik, kasallik, boquvchidan judo bo'lish tufayli ish haqidan mahrum bo'lish, ijtimoiy xavf-xatar turlarini baholash	Kasb xatari tufayli mehnatga layoqatlilikni yo'qotish munosabati bilan yoki nafaqaxo'rlarning yoshini yashab yetish davri bilan bog'liq holda ish haqini yo'qotish xavfiga baho berish	Individual kasallanish xatariga baho berish, mehnatga layoqatlilikni yo'qotish

1	2	3	4	5	6
Pensiya va nafaqa miqdorini hisoblash tartibi	Ijtimoiy pensiyalar miqdori yashash minimumiga teng (o'rtacha ish haqining taxminan 20 foizi).	Pensiya va nafaqa miqdori davlat xizmatidagi ish staji va davomiyligi bilan bog'liq va o'rtacha ish haqining 55-70 foizni tashkil qiladi.	Pensiya va nafaqa miqdori sug'urta staji davomiyligi, ish haqi hajmi, pensiyaga chiqish yoshi bilan bog'liq va o'rtacha ish haqining 40-60 foizini tashkil qiladi.	Pensiya va nafaqa miqdori korxonadagi (tarmoq) ish staji bilan bog'liq va o'rtacha ish haqining 20-30 foizini tashkil qiladi.	Sug'urta to'lovlari miqdori sug'urta badallari hajmi va muddati davomiyligi bilan bog'liq.
Boshqaruv shakllari	Davlat boshqaruvi	Davlat boshqaruvi	Ish beruvchi va ish bajaruvchi ta'xis etuvchilarning o'zini-o'zi boshqarish organlari	Ish beruvchi va ish bajaruvchilarning o'zini-o'zi boshqarish organlari	Xususiy sug'urta kompaniyalari
Amal qilish uchun zarur shart-sharoitlar	Davlat budgetidan ajratiladigan mablag'lar	Davlat budgetidan ajratiladigan mablag'lar	Majburiy ijtimoiy sug'urtaning huquqiy, moliyaviy va tashkiliy mexanizmlarining mavjudligi	Korxonalarning barqaror va samarali faoliyati	Aholida zahira uchun mablag'larning mavjudligi, mamlakatda iqtisodiy barqarorlikning ta'minlanganligi, huquqiy davlat mavjudligi, shaxsiy sug'urta institutlarining rivojlanganligi
Ijtimoiy himoya institutining kuchli jihati	Mehnatga layoqatsiz va muhtoj aholining keksalik davridagi ijtimoiy kafolatlari	Pensiyaning yuqori va barqaror darajada bo'lishi	Pensiya miqdorini belgilashda sug'urta staji davomiyligi va ish haqi hajmi hisobga olgan holda ish olib borish	Keksalik va nogironlikdagi himoyaning qo'shimcha mexanizmi	Individual moliyaviy imkoniyatlar va qo'shimcha moddiy ta'minot ehtimoli
Ijtimoiy himoya institutlarining zaif jihatlari	Pensiyaning past, ma'muriy harajatlarning esa yuqori darajasi	Moliylashning budget manbai, kengayishga intilish	Zarur sug'urta stajiga ega bo'lgan shaxslarning yetishmasligi	Alohida korxonalarning moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi	Taqsimlanish fuqarolarning moliyaviy imkoniyatlari bilan cheklangan, o'rtacha va yuqori daromadga ega tabaqalar tomonidan foydalaniladi.

4. Ixtiyoriy qo'shimcha (kasbiy) ijtimoiy sug'urta. Sug'urtaning bu turi iqtisodiyotning alohida tarmoqlari doirasida yollanma ishchilar uchun uzoq muddatli tarmoqli va jamoa shartnomalari asosida tashkil etiladi. Odatda, ixtiyoriy qo'shimcha ijtimoiy sug'urta tizimi xususiy tusga ega bo'ladi, biroq ularning faoliyati maxsus qonunchilik bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, sug'urtalanuvchilar uchun ijtimoiy kafolatlar tizimi yaratiladi, jumladan: bir ish beruvchida ishlashning minimal muddati, ushbu muddat tugagach, ishchida qo'shimcha himoya turlariga huquqi paydo bo'ladi. Masalan, pensiya ta'minoti huquqi; sug'urtalanuvchi o'z ish joyini o'zgartirgan holda sug'urta bo'yicha qo'lga kiritgan huquqlari saqlanib qoladi.

5. Fuqarolarning shaxsiy (xususiy) sug'urtasi. Sug'urtaning bu turi shartnoma asosida tuziladi va shu bois uning doiralari hamda amal qilinishi vaqt davrlari, ma'lum jismoniy shaxslarning moliyaviy imkoniyatlari, xatar turlari bilan cheklangan bo'ladi. Ushbu shakl uchun sug'urta shartnoma mavjudligi fuqarolarning o'zi uchun ma'sulligi xosdir.

Shunday qilib, yuqorida sanab o'tilgan ijtimoiy himoyaning beshta institutidan har biri o'ziga xos jihat, vazifa va qo'llanilish sohalariga egadir. Bunda eng asosiysi (moliyaviy mablag'i, keng qamrovliligi, xizmatlar xilma-xilligi va sifatiga ko'ra) – bu majburiy ijtimoiy sug'urtadir. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda mavjud ijtimoiy sug'urta turlari salmog'iga barcha ijtimoiy himoya harajatlarining 60-70 foizi, YAIMning 15-25 foizi to'g'ri keladi. Nobudjet ijtimoiy jamg'armalar salmog'iga ijtimoiy himoya harajatlarining 45 foiz, YAIMning 8,0 foizi to'g'ri keladi.

Majburiy ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy yordam tavsiflarining mutanosibligi 2.4-jadvalda berilgan.

Sug'urtani (shaxsiy va majburiy sug'urtalarni) ijtimoiy himoyaning boshqa institutlaridan farqlovchi tomoni shundaki, bu shaklda sug'urtalangan shaxs faqatgina avval sug'urta qilingan va sug'urta zarurati tasdiqlangan shart bilan mablag' olishi mumkin. Umuman olganda, boshqa shartlar qo'yilmaydi. Mazkur holat muhtojlikni tekshirish zaruratidan ozod qiladi.

Ijtimoiy sug'urta tizimi boshqa ijtimoiy himoya tizimlaridan (ijtimoiy yordam, shaxsiy sug'urta) uning asosini kelgusida paydo bo'lishi ehtimoli mavjud ehtiyojlarning turlari tashkil qilganligi (ish haqining o'rmini qoplash, kasallik, baxtsiz hodisa, keksalik tufayli) bilan farqlanadi, shuningdek, u mehnat munosabatlari (ish bilan band aholining majburiy sug'urtalanishi), sug'urtalanganlarning o'z huquqlarini amalga oshirishlarining ijtimoiy kafolatlari bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Shaxsiy sug'urta hamda ijtimoiy yordam institutlari bunday masalalarni yechishga qodir emas. Shaxsiy sug'urta aholi katta qismining sug'urta badallarini to'lashga imkoni yo'q. Davlat budjeti tomonidan ta'minlanadigan ijtimoiy yordamning ham moliyaviy imkoniyatlari cheklangan va u faqatgina jamiyatning mehnatga layoqatsiz a'zolari uchun mo'ljallangan.

Majburiy ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy yordam tavsiflarining mutanosibligi

Ijtimoiy sug'urta	Ijtimoiy yordam
Moliyalash odatda ishchi va ish beruvchilarning sug'urta badallari hisobiga davlat aralashuvi ehtimoli bilan amalga oshiriladi.	Davlat budjeti hisobidan moliyalanadi.
Ishtirok etish majburiy. To'lovlar badallardan shakllangan sug'urta jamg'armalaridan to'lanadi.	Qonunchilikka ko'ra, to'lovlar muhtojlarning ma'lum toifalariga beriladi.
Aksariyat hollarda qo'shimcha mablag' talab qilinmaydi. chunki jamg'armalarning bir qismi daromad olish maqsadida sarmoya qilinadi.	Muhtojlikka baho berilishda shaxslarning mulki miqdori aniqlanadi. Ba'zida ma'lum jihatlar qayd etilmaydi (katta miqdorda bo'lmagan shaxsiy mablag').
Shaxsning nafaqa puli olish huquqi; uning muhtojligi qayd etilmagan tarzda olishi mumkinligini tasdiqlovchi hujjatlar asos bo'ladi.	Nafaqa berishdan maqsad – shaxsning daromadlari miqdorini ma'lum minimumgacha yetkazish, bunda boshqa omillar ham inobatga olinadi (oila kattaligi, majburiy to'lovlar).
To'lov va nafaqalar miqdori shaxs kimligi (beva, nogiron va h.k.) yoki qancha daromad topishi bilan bog'liq.	Nafaqa miqdori oldingi ish haqi yoki hayot darajasi bilan bog'liq emas.
Ishlab chiqarishda sodir bo'lgan baxtsiz hodisalarni sug'urtalash sxemalari odatda to'raligicha ish beruvchi tomonidan moliyalanadi.	Ijtimoiy yordamning farovon turmush tarzi bilan umumiy jihatlar mavjud. biroq ijtimoiy yordam nochorlikning keskin shakllari va ijtimoiy kamsitilishga yo'l qo'ymaslik muammosini hal etishga qaratilgan.

Shaxsiy sug'urtada sug'urta to'lovlari miqdori individual ravishda shartnoma asosida belgilansa, ijtimoiy sug'urtada bu hol qonunlar asosida ijtimoiy xavf-xatar mexanizmlari va usullari yordamida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy sug'urta tizimlarini moliyalashtirish amaliyoti shaxsiy sug'urta omillaridan xoli tarzda shakllantiriladi. Shaxsiy sug'urtada shaxsning sug'urta badallari sug'urtalanuvchilarga berilayotgan mablag' bilan ekvivalent bo'lishi lozim. Ijtimoiy sug'urtada yig'ilgan mablag'lar hamjihatlik tamoyilidan kelib chiqqan holda, ya'ni moddiy jihatdan yaxshiroq ta'minlanganlar kam ta'minlanganlarni qo'llab-quvvatlashlarini ham nazarda tutgan holda taqsimlanadi.

Milliy ijtimoiy himoya tizimlarining turli usullarda shakllanishini bir qator omillar bilan izohlash mumkin. Jumladan: mamlakatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanish darajasi, ularning geografik joylashuvidagi xususiyatlar, davlat tuzilishi shakli, madaniy va tarixiy an'analari, fuqarolik jamiyatining mavjudligi va boshqalar. Bunda ijtimoiy himoyaning milliy tizimlarining evolyusion rivojlanishi davomida ularning turli shakllari o'ziga xos uslublarda bir-birlarini to'ldirib kelgan, shuning natijasida xususiy, jamoa-guruhl, davlat himoyasi shakllarining turli kombinatsiyasi hosil bo'lib, u ijtimoiy himoya modelini shakllantirgan. Ijtimoiy himoya modellarining o'ziga xos xususiyatlarini belgilovchi eng muhim omil – bu mablag'larni ijtimoiy himoya maqsadlariga qayta taqsimlash

mexanizmlari bo'lib, o'z navbatida ular ishchi kuchining takror barpo etilishi mexanizmlari bilan belgilanadi.

Taniqli shvesiyalik iqtisodchi olim Esping-Andersen ijtimoiy himoya tizimini quyidagi guruhlariga ajratishni taklif qilgan:

– **liberal.** Ijtimoiy yordam ko'rsatilishidagi mezon – muhtojlik darajasini aniqlash, davlatning ijtimoiy himoyani erkin bozordan ajratish, "manzilli" yordamga moyilligini ko'rsatadi. Mazkur guruhda asosiy maqsad – nochorlikka barham berishdir. Bunday turga Buyuk Britaniya va Yaponiya mamlakatlari kiradi.

– **konservativ.** Ijtimoiy himoyaning bu turida asosiy mezon majburiyatlarni bajarib kelinganligini tekshirish, ijtimoiy sug'urtaning klassik bismark tizimlaridan foydalanish, ko'rsatilgan xizmatlari evaziga yordam berishga intilishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, mazkur turning maqsadi mehnatga layoqatli bo'lgan davrda erishgan turmush tarzi darajasini saqlab qolish bo'lib, bunday tizim G'arbiy Yevropa mamlakatlarining katta qismiga (ko'proq german yo'nalishidagi) xos;

– **ijtimoiy-demokratik.** Bu turning asosiy mezoni aholining ma'lum toifasiga mansubligini aniqlash, standart pul va natural mablag'lari yoki ma'lum harajatlarni taqdim etilish, yordamni tenglashtirishga intilish bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy himoyaning bu turining maqsadi aholi daromadini qayta taqsimlash bo'lib, u asosan Skandinaviya mamlakatlariga xos.

Ijtimoiy himoya va pensiya ta'minoti tizimlarining tasniflanishiga doir shunga o'xshash yondoshuvni iqtisodchi olim Ye.V.Tishinda ham ko'rishimiz mumkin. U ijtimoiy himoya dasturlarini rivojlantirish nuqtai nazaridan ishlab chiqqan:

- neokonservativ tizim (AQSH, Angliya, Kanada);
- ijtimoiy-demokratik tizim (Shvetsiya, Daniya, Shvetsariya, Lyuksemburg);
- ijtimoiy jamiyat nazariyasiga asoslangan tizim (Germaniya va Avstriya);
- umumiy farovonlik davlat nazariyasiga asoslangan tizim (Fransiya, Belgiya va Yaponiya);
- noaniq tizim (Italiya).

Beshinchi toifaning ajratilishi ijtimoiy himoyaning birgalikda milliy tizimni hosil qilgan turli shakl va usullari mavjudligiga qaramay, barcha tizimlarni to'liq tasniflash mushkulligini ko'rsatadi.

2.4. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidagi jang'armalar faoliyati

Ijtimoiy muhofazani ro'yobga chiqarish doimo muayyan miqdordagi moddiy mablag'lardan maqsadli foydalanishni taqozo etadi. Shuning uchun ijtimoiy jang'armalar har qanday iqtisodiy mexanizmning ajralmas elementi bo'ladi.

Ma'lumki, aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida daromadlarni muayyan tartibda qayta taqsimlash zaruriyati kelib chiqadi. Bunday qayta taqsimlashning moliyaviy vositasi ijtimoiy jang'armalar

orqali amal qiladi. Ijtimoiy jamg'armalarning shakllari o'rtasidagi nisbat ko'p omillarga, eng avvalo iqtisodiy rivojlanishning milliy modeliga bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy jamg'armalar ham har qanday pul mablag'lari jamg'armasi singari moliyaviy munosabatlar tizimiga kiradi va muayyan moliyaviy mazmunga ega bo'ladi. Aytish joizki, jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichida moliyaviy tizimni ijtimoiy jamg'armalar majmuisiz tavsiflab bo'lmaydi, ularning aksariyati ustuvor yo'nalishlarda muhim o'rin tutadi. Boshqa tomondan esa, ularning tashkil etilishidan asosiy maqsad foyda olishdan iborat bo'lmaydi.

Ijtimoiy jamg'armalar real sektorda yaratilgani holda qayta taqsimlash jarayonida qatnashadi va pul-qiymat shaklida namoyon bo'ladi. Shuningdek, jamg'armalar moliya munosabatlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, moliyaviy munosabatlarning alohida guruhlarini bo'lib, qayta taqsimlash jarayonida bozor ekvivalenti tamoyilidan foydalanmasdan adolat va maqsadga muvofiqlikning ijtimoiy mezonlaridan foydalaniladi. Shunday qilib, ijtimoiy jamg'armalarning o'ziga xos xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin: daromad manbalarining aniq belgilanganligi; mablag'larning qat'iy maqsadli ishlatilishi; mablag'larning shakllanish va ishlatilish muddatlarining mos kelmaslik. Shuning uchun, ijtimoiy jamg'armalar jamiyat moliyaviy resurslarining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Hozirgi davrda iqtisodiy adabiyotlarda ijtimoiy jamg'armalarga nisbatan hududiy va budjetdan tashqari maxsus davlat jamg'armalariga ko'proq e'tibor berilmoqda. Budjetdan tashqari jamg'armalar milliy daromadni aholining muayyan ijtimoiy guruhlarini foydasiga qayta taqsimlash usullaridan biridir. Davlat o'z tadbirlarini mablag' bilan ta'minlash uchun aholi daromadlarining bir qismini shu tariqa safarbar qiladi. Bunday jamg'armalar tarixiy nuqta nazardan davlatning umumiy markaziy pul jamg'armasi – budjetning yuzaga kelishidan ancha ilgari ijtimoiy jamg'armalar va alohida hisoblar tarzida yuzaga kelgan. Davlatning faoliyati kengayib borgan sari u tobora yangi harajatlarga ehtiyoj sezgan. Bu harajatlarni qoplashi lozim bo'lgan mablag'lar alohida jamg'armalarga markazlashtirilgan va maxsus maqsadlarga mo'ljallangan.

Budjetdan tashqari jamg'armalar ikki xil yo'l bilan yaratilishi mumkin: budjetdan alohida muhim ahamiyatga ega bo'lgan muayyan harajatlarni ajratish va o'z daromad manbaidan budjetdan tashqari jamg'armalarni shakllantirish.

Budjetdan tashqari hududiy jamg'armalar:

- jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy badallari;
- atrof-muhitni ifloslantirganlik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik va tabiatni muhofaza qilish qonunlarini, sanitariya me'yorlarini va qoidalarini buzganlik uchun solinadigan jarimalardan, shuningdek yetkazilgan zararni qoplash to'lovlardan;
- munisipal mulk bo'lgan tarixiy va madaniy obidalarini buzganlik va yo'qotganlik jarimalaridan, ularga yetkazilgan zararni qoplash uchun to'lovlardan;
- ma'muriy va boshqa huquqbuzarliklar uchun mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan amaldagi qonunlar asosida

soladigan jarimalardan shakllantirilishi mumkin.


Budjetdan tashqari munisipal jamg'armalar mahalliy hokimiyatning vakolatli organlari qarorlari asosida tuziladi va ijro organlari, jamg'armaga kelib tushayotgan mablag'ni saqlash uchun banklarda maxsus hisob raqamlari ochiladi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidagi jamg'armalar mulkchilik shakliga bog'liq holda davlat va hodavlat jamg'armalardan iborat. **Davlat ijtimoiy jamg'armalari** umummilliy tavsifga ega bo'lib, ulardan umumiy ijtimoiy muammolarni hal etishda foydalaniladi.

Davlatning maqsadli ijtimoiy jamg'armalariga funksional vazifalariga muvofiq quyidagilar kiradi: pensiya jamg'armasi; bandlikka ko'maklashish jamg'armasi; kasaba uyushmalari federatsiyasi jamg'armasi. Bu jamg'armalar mohiyatan sof davlat jamg'armalari emas, chunki ular aralash xususiyatga ega. Ular shakllanish manbalariga ko'ra, korxonalar va muassasalar ajratadigan mablag'lardan iborat bo'lib, markazlashgan holda va davlat nazorati ostida jamg'ariladi, davlat tomonidan o'rnatilgan qoidalarga muvofiq taqsimlanadi va foydalaniladi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishda davlat ijtimoiy jamg'armalari tarkibida salmoqli o'rinni pensiya jamg'armasi egallaydi.

Ta'kidlash joizki, **pensiya jamg'armasi** pensiya bilan ta'minlovchi davlat moliya boshqaruvining organidir. Bu jamg'arma mustaqil moliya instituti hisoblanib, uning mablag'lari davlat budjeti tarkibiga kirmaydi.



2.1-rasm. Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlarning tarkibi

Pensiya jamg'armasi bilan davlat budjetining farqli tomoni shundan iboratki, o'z resurslarining hissasi balandligi va markazlashtirilgan manbalardan

katta mablag' va dotasiyalarni rad etadi. Maxsus pensiya to'lovlari ijtimoiy sug'urta doirasida shaxsiy funksional vazifaga ega bo'lib, tushumlar va mablag'lar bilan qo'shilmagan holda pensiya jamg'armasida to'planadi.

Pensiya jamg'armasining tashkil etish manbalari quyidagilar:

- ish haqi fondining 37,3% miqdoridagi sug'urta badallari;
- mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning sotilgan mahsulotlarning amaldagi hajmining 0,5% miqdoridagi majburiy ajratmalari summasi;
- fuqarolar ish haqining 4,0 % miqdoridagi majburiy sug'urta badallari;
- belgilangan tartibda sug'urta badallari hisobiga qabul qilinmagan pensiya ta'minoti va ijtimoiy sug'urtaga doir nafaqalarni to'lash bo'yicha harajatlar summasi;
- badallarning belgilangan muddatda to'lanmaganligi hollarida hisoblangan peniyalar va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga solinadigan jarimalar summalari va boshqalar.

Sug'urta badallarini hisoblash ijtimoiy sug'urta joriy qilingan ishlovchilarining barcha kategoriyalarini ish haqi fondiga belgilangan tarifdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yuqorida aytib o'tilgan bandlar pensiya jamg'armasini tashkil etish manbalari bo'lib hisoblanadi va ular sug'urta badallari orqali to'lanadi.

Sug'urta badallari to'lovlarning quyidagi turlariga hisoblanmaydi:

- foydalanilmagan ta'til uchun tovon;
- ishdan bo'shshdagi olinadigan pul;
- moddiy yordam sifatida beriladigan nafaqa turlari;
- tovon to'lovlarini (xizmat safari bo'yicha sutkalik pullari va sutkalik pullar o'miga to'lovlar, xodimlarga ularning ishi bilan bog'lik holdagi shikastlanishi yoki salomatligiga boshqacha zarar yetishi natijasida ko'rsatilgan zararni qoplash to'lovlari);
- berilgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyafzal va boshqalar himoya vositalari, sovun, sut va davolash-profilaktika ovqatlar qiymati;
- bepul ovqalanish qiymati;
- tushlik ovqatlar uchun dotasiyalar, sanatoriy-kurortlarda davolanish, dam olish uylariga yo'llanmalar qiymati, stasionarlarda va ambulatoriyalarda davolanish uchun haq to'lash;
- boshqa joyga ishga o'tishdan yoki ko'chib o'tishdan yo'lda yurish, mol mulkni tashish va xonalarni yollashga doir harajatlarning qoplanishi;
- doimiy ish yo'lda o'tadigan yoki yo'lda yurish tusiga ega bo'lgan yoxud xizmat safarlari bilan bog'liq hollarda sutkalik pullarni o'miga ish haqiga qo'shimchalar va ustamalar;
- tegishli budjetga yoki xayriya jamg'armalarni o'tkaziladigan, mehnatga haq olinmasdan ishlangan kunlar uchun ish haqi;
- ish haqi fondidan amalga oshiriladigan yubiley sanalari, tug'ilgan kunlar munosabati bilan, uzoq muddatli va benuqson mehnat faoliyati, faol ishtimoiy ishi

uchun va boshqa shunga o'xshagan hollarda beriladigan rag'batlantirish to'lovlari (mukofotlar);

– musobaqalarda, ko'riklarda, tanlovlarda va shu kabilarda yutuqli o'rinlar uchun beriladigan pul mukofotlari;

– korxonalar va tashkilotlar ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish uchun yuborilgan o'quvchilarga to'lanadigan stipendiyalar;

– korxonalar, muassalar va tashkilotlar hisobidan yosh mutaxassislariga o'quv yurtini (oliy yoki o'rta) tugatgandan so'ng ta'til davri uchun to'lanadigan nafaqalar;

– davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalari, ishsizlik bo'yicha nafaqalar, ijtimoiy nafaqalar va pensiyalar.

Sug'urta qildiruvchilar hisoblangan sug'urta badallarini naqd pulsiz hisob-kitoblar tegishli summalarini o'zlarining bank muassasalaridagi joriy hisob varaqalaridan pensiya jamg'armasi bo'limlari hisob varaqalariga o'tkazish yo'li bilan to'laydilar. Bunda pensiya jamg'armasiga budjetdan mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlar badallarini oyda bir marta – o'ning ikkinchi yarmi uchun ish haqini to'lash uchun belgilangan muddatda to'lashi lozim. Mulkdilik shakllaridan qat'iy nazar boshqa tashkilotlar badallarini o'ning birinchi va ikkinchi yarmi uchun ish haqini to'lash uchun belgilangan muddatda to'lashi lozim.

Diniy tashkilotlar va ayrim fuqarolarni yollovchi shaxslar badallarni naqd pulsiz hisob-kitoblar yo'li bilan yoki jamg'arma banklari orqali ish haqi (daromad) to'lagan oyidan keyingi oyining 6 kundan kechiktirmasdan to'laydilar. Ular sug'urta badallarini naqd pulsiz yoki naqd pulli to'lov shaklida ro'yxatdan o'tgan pensiya jamg'armasining shahar, tuman bo'limlarining hisob varaqalariga to'lashi mumkin.

Pensiya jamg'armasi, uning hududiy bo'limlari va bo'linmalari amaldagi qonunlarga muvofiq badallar bo'yicha qarzning undirishdan soliq va moliya daromadiga o'z muddatiga to'lanmagan soliqlar va soliq bo'lmagan to'lovlarni undirib olishdagi huquqlaridan foydalanadilar.

Sug'urta badallari soliqlarni ushlashni hisobga olmagan holda, moliyalashtirish manbalaridan qat'iy nazar amaldagi qonunchilikka muvofiq chiqarilgan nizomlar, qarorlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga ko'ra mazkur korxonaga tomonidan aniqlanadigan ish haqlarining barcha turlariga hisoblanadi.

Pensiya jamg'armasining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

– davlat ijtimoiy sug'urtaning badallar miqdorini aniqlashda qatnashadi;

– sug'urta badallarini o'z vaqtida va to'liq kelib tushishini hamda to'g'ri sarflanishini nazoratini ta'minlaydi;

– nafaqa ta'minotini rivojlantirish va ijtimoiy rejalarni ishlab chiqish bo'yicha takliflarni tayyorlashda qatnashadi;

– jamg'armaga qarashli vazifalar kompensatsiyasiga xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi migratsiyasi tendensiyasi tez oshib bormoqda. Shuning munosabati bilan mablag'larni tez orada aniq bir hududga

o'tkazish zarur bo'ladi. Tijorat faoliyatining hisobida jamg'armaga qo'shimcha mablag' topishga ham ruxsat beriladi. Maoshlarning o'sib borishi va yashash sharoiti qimmatlashib borayotganligi munosabati bilan pensiyalarning miqdori ham o'zgarib turadi. Pensiya jamg'armasining mablag'lari mahalliy banklar hisoblarida to'planadi, markazdan esa faqatgina kerakli to'lov topshiriqnomalari beriladi.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi huzuridagi pensiya jamg'armasining mablag'lari bank muassasalaridagi joriy hisob varaqalarida saqlanadi. Hisob varaqalar Markaziy bankning pensiya jamg'armasi bilan kelishilgan holda belgilaydigan tartibda ochiladi. Pensiya jamg'armasining mablag'laridan pensiyalar, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va farzandni tug'ish, farzandning tug'ilishidagi va dafn qilish marosimi uchun nafaqalarning to'lanishi harajatlari mablag' bilan ta'minlanadi.

Pensiya jamg'armasi idoralari pensiya jamg'armasi budjetining ijro etilishi bo'yicha Moliya vazirligi tasdiqlagan budjetdagi korxonalar va tashkilotlar uchun buxgalterlik hisobining hisob varaqlari rejasini qo'llagan holda hisob yuritadilar va yilning har choragida pensiya jamg'armasi budjetining ijro etilishi haqida moliyaviy hisobotlarni tuzadilar.

Ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilishda, aholini ish o'rinlari bilan ta'minlashda **Bandlikka ko'maklashish jamg'armasining** o'rni katta.

2.5-jadval

O'zbekistonda Bandlikka ko'maklashuvchi jamg'armaning daromadlari va xarajatlarning tarkibi

Daromadlari	Xarajatlari
Ish haqi fondidan majburiy ajratmalar	Ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lash
Tijorat faoliyatidan olinadigan daromad	Mehnat organlarini ta'minlash
Ixtiyoriy badallar	Ish o'rinlarini yaratish va saqlab turish
Respublika va mahalliy byudjetlarning dotatsiyalari	Ishsizlarni kasbiy tayyorlash va qayta o'qitishga
Jarima va peniyalar	Biznes fondiga ajratmalar

2.5-jadvaldan ko'rinib turganidek, ijtimoiy jamg'armaning daromadlari ish haqi fondidan ajratmalar, tijorat faoliyatidan olingan va boshqa daromadlardan iborat. Shu o'rinda jamg'armani ta'minlash asosan korxonalar va muassasalar zimmasiga tushishini ta'kidlab o'tish zarur. Bandlikka ko'maklashish jamg'armasining daromadlari asosan ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lash, ishsizlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, jamoat ishlarini mablag' bilan ta'minlash, mehnat organlarini ta'minlash, ish o'rinlarini yaratish va saqlab turish, uy-joy qurilishini rivojlantirish, biznes fondiga mablag' ajratish va boshqalarga sarflanadi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishda **kasaba uyushmalari jamg'armasi** ham salmoqli o'rinni egallaydi. Jamg'armaning asosiy vazifasi aholining sanatoriya-kurortlarda davolanishini va sog'lomlashtirish lagerlarini ta'minlashdir. Kasaba uyushmalari jamg'armasining daromadlari deyarli sug'urta badallari hisobidan shakllantiriladi. Ta'kidlash joizki, jamg'armaning daromadlari asosan sanatoriya-kurortlarda davolanish, sanatoriyalar, profilaktoriyalarni ta'minlash, bolalar lagerlari va boshqa sog'lomlashtirish lagerlarini ta'minlash, kapital qo'yilmalarga sarflanadi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidagi davlat jamg'armalari qatori nodavlat ijtimoiy jamg'armalarning ham mavqei oshib bormoqda. Aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam ancha turli-tuman bo'lib, bu ayniqsa, nodavlat ijtimoiy jamg'armalarga xosdir. Jamg'armalar pul mablag'larini maqsadli taqsimlashda aholining milliy mentaliteti va ijtimoiy-demografik tarkibi hisobga olinadi hamda u aniq ijtimoiy guruhlariga yo'naltirilgan. Nodavlat jamg'armalarda yordam quyidagi yo'nalishlarda ko'rsatiladi:

– fuqarolar va ularning oilalariga ko'rsatiladigan yordam: kam ta'minlangan oilalarga pul yordami berish, kambag'al oilalarning bolalariga kiyim-kechak, o'quv qurollari va pul berish, keksalar va nogironlarga qimmatbaho sovg'alar taqdim qilish, to'y va boshqa marosimlar uchun mablag' berish, iqtidorli talabalar va o'quvchilarga maxsus xayriya nafaqalari berish, ekskursiyalar, tibbiy-profilaktika, ta'lim xizmatlarini uyushtirish, bemorlarga moliyaviy yordam ko'rsatish, ular uchun dori-darmon sotib olish, tabiiy ofatlardan ko'rilgan zararlarni qoplashda yordam ko'rsatish, oziq-ovqat mahsulotlarini tekin tarqatish, yolg'iz onalar, yetimlar, yolg'iz qariyalarga yordam ko'rsatish va hokazolar;

– tashkilotlar va muassasalarga ko'rsatiladigan yordam: kasalxonalar, poliklinikalar, bolalar uylari, qariyalar uylari, maktablarga pul mablag'i ajratish, ular uchun tibbiy jihozlar, dori-darmon sotib olish, internat-maktablarni, tug'ruqxonalarni, qariyalar va bolalar uylarini moddiy jihozlash, ijtimoiy ahamiyatga ega tadbirlarni mablag' bilan ta'minlash.

Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand qatlamlarini muhofaza qilish bilan shug'ullanadigan nodavlat jamg'armalarga "Nuroni", "Mahalla" va "Navro'z" xayriya jamg'armalari kiradi.

Faxriylarni ijtimoiy muhofaza qilishda "Nuroni" nodavlat xayriya jamg'armasining o'rni beqiyos. O'zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroni" jamg'armasi respublika faxriylarining ixtiyoriy, o'z-o'zini boshqaruvchi, muassislarning ixtiyoriy mulkiy badallari asosida ta'sis etilgan, ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zolari bo'lmagan jamoat tashkilotidir.

Jamg'arma o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Nodavlat-notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun hamda respublikada amal qiladigan boshqa qonunlar, me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiradi. Shuningdek, jamg'arma qonunda belgilangan tartibda ishlab chiqarish hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi, boshqa xorijiy birlashmalar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.


“Nuroniylar” jamg'armasi quyidagi yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadi:

- faxriylarning ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etishlarini ta'minlash;
- faxriylarning manfaatiga taaluqli bo'lgan qonun va qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;
- faxriylarning moddiy sharoitini yaxshilash, ularga savdo, maishiy, tibbiy xizmat ko'rsatishning boshqa sohalarini yaxshilash maqsadida, nafaqa to'g'risidagi qonunchilikning hamda faxriylarga belgilangan imtiyozlarning amalga oshirilishi yuzasidan mutasaddi davlat organlari bilan hamkorlik qilish;
- qariyalarning salomatligini yaxshilash, nogironlarga, yotib qolgan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish, kam ta'minlangan va yordamga muhtoj kishilarni shifoxona va sihatgohlarda bepul davolanishini tashkil etish, yakka-yolg'iz, qarovchisiz qolgan keksalarning uy-joylarini ta'mirlash.

Jamg'arma qoshida tashkil etilgan korxonalar va fermer xo'jaliklari daromadidan olingan foydaning 10 foizidan iborat ajratma mablag'lari hamda “Nuroniylar” pul-buyum loteriya biletlari sotuvidan tushgan foydaning asosiy qismi faxriylarni ijtimoiy muhofaza qilishga sarflanadi.

Aholini manzilli ijtimoiy muhofaza qilishda “Mahalla” nodavlat xayriya jamg'armasining o'zining katta. Jamg'arma o'z Nizomiga muvofiq kam ta'minlangan, ko'p bolali, nogiron va boquvchisini yo'qotgan oilalar, yetim-yesirlar, tabiiy ofatlardan talofat ko'rgan fuqarolar, yakka-yolg'iz keksalar, xulosa qilib aytganda, aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand deb e'tirof etilgan qatlamiga moddiy va ma'naviy yordam berish, aholining mana shu qismini ijtimoiy himoya qilish ishlarini amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, jamg'arma yolg'iz oilalar, urush va mehnat faxriylarini, nogironlar, kamxarj oilalarga doimiy muruvvat yordami ko'rsatib borilishini ta'minlash, bayramlar va shonli sanalar munosabati bilan alohida muruvvat tadbirlarini tashkil qilib borish, kommunal xizmatlarga to'lanadigan harajatlariga ko'maklashish, muhtoj yolg'iz keksalar fuqarolar va nogironlarning uylari va maishiy xonalarini ta'mirlash, homiy tashkilotlarning qo'llab-quvvatlashini kengaytirish asosida boquvchisiz qolgan oilalarga aniq yo'naltirilgan muruvvat yordamini ko'rsatadi. Yuqoridagi tadbirlar bilan bir qatorda, jamg'arma kam ta'minlangan va 16 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, 2 yoshgacha bolasi bo'lgan ishlamaydigan onalarga nafaqa tayinlash, yolg'iz nafaqaxo'rlarni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash ishlarini olib boradi hamda homiy va tadbirkorlarning xayriya-ehsonlarini, o'tkazilgan umumxalq hasharlaridan tushgan mablag'larni aholini ijtimoiy muhofaza qilish ishlariga safarbar etadi. “Mahalla” xayriya jamg'armasining moliya mablag'larining shakllanishi va sarflanishi quyidagi rasmda o'z aksini topgan.

Aholining muhtoj qatamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda “Navro'z” nodavlat jamg'armasining salmoqli ulushi mavjud. Jamg'arma xayriya loteriyalarini ishlab chiqaradi, ulardan kelgan mablag' jamg'arma tadbirlarini o'z mablag'i bilan ta'minlash manbai bo'ladi. Jamg'arma nochorlarga moddiy va pul yordami ko'rsatadi.



2.2-rasm. "Mahalla" xayriya jamg'armasi moliya mablag'larining shakllanishi va sarflanish sxemasi

Yordam alohida fuqarolarga, kam ta'minlangan oilalarga, pensionerlarga, ko'rlar jamiyatiga, nogironlar jamiyatiga, qariyalar uylariga, kasalxonalar va boshqa davolash-profilaktika muassasalariga ko'rsatiladi.

Qisqacha xulosalar

Ijtimoiy siyosat – bu jamiyatning faqat barcha ne'matlardan mahrum qilingan qismininggina emas, balki uning hamma fuqarolarining daromadlari va turmush darajasini tartibga solishga, tuzatishga qaratilgan siyosatdir. Davlat har bir insonning mo'tadil turmush darajasini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi hamda bu uning barcha fuqarolariga daxl qiladi, chunki daromadlarning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi masalasining hal qilinishi nafaqat "muhtojlarga", balki "boylarga" ham taalluqlidir. Ijtimoiy siyosat uning "muhtoj" qatlamlarining nafaqat "mo'tadil" turmush darajasini ta'minlash va saqlashdan iborat bo'lmasdan, balki birinchi navbatda, muttasil rivojlanib borayotgan jamiyatda uning turli iste'mol darajasiga va shunga muvofiq turli turmush darajasiga ega guruhlar o'rtasida barqaror muvozanatni saqlab turishning amaliy va samarali mexanizmini ishlab chiqadi. Bunda aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidagi institutlar va jamg'armalarning o'rni katta.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ijtimoiy siyosat deganda nimani tushunasiz?
2. Ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlarini aytib bering.
3. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishda davlatning o'rini tushuntirib bering.
4. Ijtimoiy institut deganda nimani tushunasiz?
5. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidagi institutlarni sanab bering.
6. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidagi davlat jamg'armalari faoliyatini

nimalardan iborat?

7. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish bilan shug'ullanadigan qanday nodavlat jamg'armalarni bilasiz?
8. Mahalla va Nuroniy nodavlat jamg'armalari moliyaviy mablag'larining shakllanish manbalari nimalardan iborat?

Adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанамиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. // Халқ сўзи, 2010 йил 30 январь.
2. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иктисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2008.
4. Аверин А.Н. Государственная система социальной защиты населения. – М.: РАГС, 2007.
5. Гейц И.В. Новые условия назначения и выплаты пособий по социальному страхованию. – М.: Дело и сервис, 2007. – 240 с.
6. Кукушина В.С. Социальная защита населения: опыт организационно-административной работы. – Москва, 2007.
7. Сайдов К.С., Сеймуратов Р.А., Асломова Д.Х. Социал иктисодиёт. Ўқув кўлланма. – Т.: Ўзбекистон, 2006.
8. Социальная защита населения в Республике Узбекистан. – Т.: Top Image Media, 2007.
9. Социальная политика. Учебник / И.П.Денисова, П.Р.Климавенко. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2007.

III BOB. KAM TA'MINLANGAN OILALARNI IJTIMOY MUHOFAZA QILISH TIZIMI

3.1. Kam ta'minlanganlik: tushunchasi, mezoni va shakllari

Kam ta'minlanganlik – bu jamiyatning katta qismi uchun xos bo'lgan mo'tadil turmush tarzini olib borish uchun moddiy boyliklarning yetishmasligi sababli yuzaga keladigan holatdir. Bu holat tuzilish, shakllari va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'iy nazar, barcha jamiyat uchun xosdir.

Kam ta'minlanganlikning sabablari, hajmi va shakllari har xil bo'lib, ular quyidagicha:

- kam ta'minlanganlikning (tirikchilik minimumining, ayniqsa bozor munosabatlari sharoitlarida) belgilangan chegarasining doimiy oshib borishi;
- aholining turli qatlamlari uchun iste'mol narxlarini o'sishi tovonini to'lash mexanizmining takomillashmaganligi;
- aholining yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashuvi jarayonining o'ziga xos xususiyatlari;
- shaxsning jamiyat ijtimoiy tarkibidagi o'ri – insonning jamiyatning u yoki bu guruhiga (yoshi, ma'lumoti, kasbi, yashash joyi) mansubligi.

Kam ta'minlanganlikning qator mezonlari va ko'rsatkichlari mavjud. Kam ta'minlanganlikning ko'pchilik tashkilot va olimlar tomonidan qabul qilingan mezoni – bu o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va tirikchilik minimumining o'zaro nisbatidir (kamroq, teng, birmuncha yuqoriroq). Shuningdek, mamlakat bo'yicha o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va o'rtacha ish haqining o'zaro nisbati ham mezon bo'lishi mumkin. Kam ta'minlanganlarga o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan daromadi mamlakat bo'yicha o'rtacha ish haqining $\frac{1}{3}$ qismidan kam bo'lganlar kiritiladi. Bundan tashqari, "kam ta'minlanganlik" tushunchasiga oila harajatlarida oziq-ovqat mahsulotlariga sarflanadigan harajatlar ulushi bo'yicha ham aniqlik kiritish mumkin. Agar oziq-ovqatga harajatlar 50 foizdan ortiqroq bo'lsa, oilani kam ta'minlanganlar qatoriga kiritiladi (boy oilalarda bu miqdor 5-6 foizni tashkil qiladi).

Shuningdek, kam ta'minlanganlik darajasini daromadlarning aholi orasida taqsimlanishi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot miqdori, o'lim, balog'at yoshidagi aholining savodxonlik darajasi va kutilayotgan umming davomiyligini tahlil qilib ko'rish orqali ham aniqlash mumkin.

Mamlakatdagi kam ta'minlanganlik darajasining asosiy ko'rsatkichi tirikchilik minimumidan past darajaga ega bo'lgan aholining ulushi bilan hisoblanadi. Bu ko'rsatkich iste'mol tovarlari va xizmatlariga bo'lgan narxlarning o'sishi, inflyatsiyaning umumiy darajasi, aholi daromadlari va harajatlari tarkibining o'zgarishi, majburiy to'lovlar ulushining oshishiga bog'liq holda o'zgaradi. Masalan, kommunal xizmatlarining to'liq to'loviga o'tish oila budjetida to'lovlar ulushining o'sishiga, aksincha oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini

so'tib olishga sarf qilinuvchi mablag'lar ulushining pasayishiga olib keladi.

Kam ta'minlanganlikning asosiy sabablaridan biri shaxsning jamiyat ijtimoiy tarkibidagi o'rnidir. Gap shundaki, aholining qator guruhlari ijtimoiy jihatdan zaif himoyalangan hisoblanadi va kam ta'minlanganlikning asosini tashkil qiladi. Bular nafaqaxo'rlar, pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali oilalar, yolg'iz onalar, bevalar, yetim bolalar va ota-onalar qarovisiz qolgan bolalar, qochoqlar va majburiy migrantlardir. Ulardan tashqari, kam ta'minlanganlarning katta qismini ishsizlar, to'liqsiz ish kunida band bo'lganlar yoki majburiy ta'tildagi xodimlar, ish haqi bo'yicha qarzi bor, moliyaviy jihatdan nochor korxonalar va singan korxonalarning ishchilari va xizmatchilari kabi guruhlar tashkil qiladi. O'quvchi yoshlar ham qisman kam ta'minlanganlar guruhiga kiradi.

Kam ta'minlanganlikning tabiiy holatini ko'p bolali, tugalmas oilalar, uzoqqa cho'zilgan kasallik sababli kambag'allashgan, tabiiy ofatlar tufayli mulkini yo'qotgan shaxslar, moslashuvi qiyinlashgan shaxslar (piyanistlar, narkomanlar, qamoqdagilar va jazo muddatini o'tab bo'lganlar) guruhi tashkil qiladi.

Kambag'al bo'lib qolishning eng kam xavfi oilada jon boshiga to'g'ri keladigan yuqori daromadga ega shaxslarda, poytaxt markazida yashovchi guruhlarda, rahbarlarda, xususiy sektorda ishlovchilarda, mehnat bozorida talabga ega ixtisosliklar bo'yicha oliy yoki tugallanmagan oliy ma'lumotga ega shaxslarda va mehnatga kirishayotgan 29 yoshgacha bo'lgan yoshlarda (katta yoshdagi xodimlarga qaraganda joy topish osonroq) kuzatiladi.

Kam ta'minlanganlik ko'p darajali hodisa hisoblanib, uning mohiyati faqatgina daromadlar yoki iste'moldan iborat bo'lib qolmaydi. Agar inson taraqqiyoti uning munosib va sog'lom turmush kechirish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat bo'lsa, unda bu ma'noda kam ta'minlanganlik bunday imkoniyatlarning yo'qligi yoki jiddiy cheklanganligidir.

Kam ta'minlanganlik insondagi uchta asosiy yo'nalish, ya'ni sog'liq (uzoq umr ko'rish orqali), bilim va yashash sharoitlari bo'yicha yetishmovchiliklarning turli jihatlarida aks etadi va bu maxsus ko'rsatkich kambag'allik indeksi orqali topiladi. Qayd qilish kerakki, kambag'allik indeksi daromadlarning iste'molga nisbati bo'yicha aniqlanadi. BMT sutkasiga 1 yoki 2 dollardan kam daromad bilan yashovchi aholini kambag'allar guruhiga kiritadi.

Bundan tashqari, kam ta'minlanganlikni baholashda uy xo'jaliklarini tekshiruv ma'lumotlariga ham asoslaniladi. Bu tekshiruvlar har yili o'tkazilishi va unda 10000 uy xo'jaligidagi reprezentativ tanlovni qamrab olishi lozim. Kam ta'minlanganlikning oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli bo'yicha chegarasini belgilashda aholi jon boshiga sutkasiga 2101 kilokaloriya iste'molga harajatlar qiymati bo'yicha hisoblab chiqiladi. Bu chegaradan pastroq harajatlarning o'rtacha darajasiga ega bo'lgan uy xo'jaliklari kam ta'minlanganlar kategoriyasiga kiritiladi. Uy xo'jaliklaridagi iste'mol qiymatini aniqlash paytida oilaviy harajatlarning bir maromdaligi, shu bilan birga, bevosita uy xo'jaligida yetishtirilgan mahsulot iste'moli ham hisobga olinadi.

Kam ta'minlanganlar toifasiga kiritilgan uy xo'jaliklarida bu holatga jiddiy

ta'sir ko'rsatuvchi omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

- aholining qishloq joylarida istiqomat qilishi;
- 16 yoshgacha bo'lgan bolalar soni uch yoki undan ortiq bo'lgan oilalarning mavjudligi;
- oila boshliqlarining o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lganligi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, ish bilan bandlik har doim ham kam ta'minlanganlikdan xalos bo'lishga yordam bermaydi. Ya'ni, iste'mol uchun kam harajatlarga ega uy xo'jaliklarining katta qismi (50% atrofida) budjet sohasida ishlovchi xodimlarga, korxonalarining kam haq to'lanuvchi xodimlariga to'g'ri keladi. Mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda band bo'lgan xodimlarda kam ta'minlanganlikka uchrash ehtimoli yuqori bo'ladi.

Aholining ko'pchilik toifalari uchun kam ta'minlanganlik muammosini mustaqil ravishda hal qilib bo'lmaydi, chunki aholining bir qismi ijtimoiy qabul qilmaslikning alohida zonasiga tushib qoladi. Shu bilan birga, bozor kimlarnidir oldinga chiqib ketishiga imkon bersa, boshqalarni hamma narsadan mahrum qiladi.

Kam ta'minlanganlikni davlat siyosatining quyidagi tamoyillarga tayangan holda bartaraf etish mumkin: halol, yaxshi haq to'lanuvchi mehnat uchun keng imkoniyatlar yaratish va mehnatga layoqatli fuqarolarni o'zini-o'zi mehnati bilan faol mustaqil ta'minlashga rag'batlantirish.

Kambag'allik bilan kurashish va uning oldini olish bir necha yo'nalishlar bo'yicha olib borilishi mumkin:

- alohida xodim va umuman aholining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiy choralar (bu daromadlar, bandlik siyosati, investitsiya, soliq, manzilli ijtimoiy yordam);
- ob'yektiv ravishda turli xavflardan aholini himoya qilish (mehnatga layoqatning yo'qotilishi, kasallik, nogironlik, ishsizlik, qarilik, o'lim, boquvchisini yo'qotish) va bolalarga nafaqalar, aholining alohida guruhlariga imtiyozlar berish tizimining samaradorligini oshirish;
- ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish (moddiy yoki tibbiy yordam, bepul ovqatlanish, nogironlar huquqlarini himoya qilishni, uyda, kunduzgi muassasalarda ijtimoiy xizmat ko'rsatish, muhtojlarga uy-joy taqdim qilish).

Ta'kildash lozimki, kam ta'minlanganlarga to'lov ko'rinishida yordam ko'rsatish ish haqining rag'batlantiruvchi vazifasining pasayishiga olib keladi, boqimandalik kayfiyatining rivojlanishiga, ish bilan bandlik tarkibining yomonlashuviga, o'z ahvolini yaxshilashga intilishdan to'la mahrum bo'lgan odamlarning paydo bo'lishiga ko'maklashadi. Shuning uchun ijtimoiy himoyaning faol siyosatining asosiy vazifasi qiyin vaziyatda qolganlarga bevosita yordam ko'rsatishdan ham ko'ra, bunday vaziyatga tushib qolish xavfini qisqartirish, aholining bozor sharoitlariga ijtimoiy moslashuvi, ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy xizmatlar ko'lamini kengaytirish, hududiy ijtimoiy dasturlar ishlab chiqishdan iborat.

3.2. Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi

Ma'lumki, kam daromadli oilalarning moddiy farovonligini oshirish, ularning munosib turmush kechirishi uchun aholining bu toifasiga davlat tomonidan moddiy yordam tayinlanadi. Bu moddiy yordam va uning miqdori fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari – qo'rg'on, qishloq, ovul va shahar mahallalari fuqarolari yig'inlari, yig'inni o'tkazish imkoni bo'lmaganda ko'chalar, turar joylar, qishloq, ovul mahallalari fuqarolari vakillarining yig'ilishi yoki fuqarolar yig'ini tomonidan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash to'g'risidagi masalalarni hal etish uchun vakil qilingan komissiya tomonidan tayinlanadi va belgilanadi.

Fuqarolar yig'ini tomonidan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash to'g'risidagi masalalarni hal etish uchun vakil qilingan komissiya tarkibi fuqarolar yig'ini (vakillar yig'ilishi) tomonidan fuqarolar yig'ini hududida istiqomat qiluvchi eng obro'-e'tiborli va hurmatga sazovor fuqarolar orasidan saylanadi. Ushbu Komissiyaga fuqarolar yig'inining raisi boshchilik qiladi. Komissiya a'zolari 2 yil muddatga, fuqarolar yig'ini raisi esa – uning butun vakolati davriga saylanadi. Mazkur komissiya a'zolarining tarkibi – kamida 20 kishi, bunda komissiya tarkibi, raisdan tashqari, har yili 50 foizga yangilanadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari kam ta'minlangan oilalarni aniqlashda va ularga moddiy yordam tayinlashda quyidagi asosiy qoidalarga amal qilishlari kerak:

- ijtimoiy adolatga so'zsiz qat'iy rioya qilish;
- ko'rsatilayotgan moddiy yordamning manzilli bo'lishini, haqiqatan muhtoj oilalarga berilishini ta'minlash;
- oilalar va fuqarolar tomonidan aholini ijtimoiy himoya qilish choralariga boqimandalarcha yondashishga yo'l qo'ymaslik;
- oila a'zolarining, ayniqsa bolalarning moddiy farovonligini oshirishda oila mas'uliyatini oshirish, har tomonlama jismoniy va ma'naviy rivojlanish, bilim va kasb-hunar darajasini oshirish uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratish.

Har oylik moddiy yordam oilaga 3 (uch) oy muddatga tayinlanadi va to'lanadi. Ushbu muddat tugagach, agar oilada moddiy ahvul yaxshilanmagan bo'lsa, yordam yangi muddatga tayinlanishi mumkin.

Quyidagilar oilalarga har oylik moddiy yordam to'lashni mablag' bilan ta'minlash manbalari hisoblanadi:

- respublika budjeti mablag'lari;
- mahalliy (viloyat, shahar va tumanlar) budjet mablag'lari;
- budjetdan tashqari turli manbalar (jamoat va xayriya jamg'armalari, korxonalar va xo'jaliklarning mablag'lari, fuqarolarning ixtiyoriy xayriyalar va boshqalar).

Mazkur mablag'lar qo'rg'on, qishloq, ovul yoki mahalla fuqarolari o'zini-o'zi boshqarish organlarining jamg'arma bankining tegishli muassasalaridagi maxsus hisoblariga o'tkaziladi va olib qo'yilmaydi. Kam ta'minlangan oilaga beriladigan moddiy yordamdan soliq olinmaydi.

Moddiy yordam fuqarolarning doimiy yashash joyidagi o'zini-o'zi boshqarish organlariga yoki qo'rg'on, qishloq, ovul mahallasiga yozma ravishda ariza bilan yordam so'rab murojaat qilgan oilalarga, ayrim hollarda esa fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli)ning tavsiyasiga binoan tayinlanadi.

Ob'yektiv sabablarga ko'ra, oilaning birinchi navbatdagi ehtiyojlarini ta'minlay olmaydigan kam daromadli oilalar va yolg'iz fuqarolar (balog'atga yetmagan bolalari bo'lgan ko'p bolali oilalar; boquvchisi nogiron yoki mehnat qobiliyatini qisman yo'qotgan surunkali kasal oilalar; ishsizlarning oilalari; yolg'iz pensionerlar va boshqa o'ta muhtoj oilalar) har oylik moddiy yordam olish huquqiga ega.

Arizachining moddiy yordamga muhtojlik darajasini va unga beriladigan oylik moddiy yordamning miqdorini belgilash uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzurida maxsus komissiyalar tuziladi, uning tarkibiga ushbu organlarning maslahatchilari, kotibi, shuningdek, zarurat bo'lganda tuman (shahar) soliq hamda moliya organlarining, mehnat, ish bilan ta'minlash va aholini ijtimoiy himoya qilish bo'limlarining vakillari kiradi.

Maxsus komissiya ariza tushgan kundan boshlab ikki hafta muddatda yordam so'ragan oilaning moddiy va mulkiy ahvolini tekshiradi.

Tekshiruv natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi, uni komissiyaning barcha a'zolari imzolaydi. Dalolatnomada quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi:

- tekshirilayotgan oilaning tarkibi, unda birga yashovchilarning hammasi, qarindoshligi bo'lgan va birga umumiy ro'zg'or yurituvchilar hisobga olinadi;
- oilaning doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan va mehnat bo'limida ro'yxatga olinmagan mehnatga qobiliyatli yoshdagi a'zolari, bola ikki yoshga to'lgunga qadar unga tomorqa uchastkasi maydoni va undan daromad olish imkoniyatlari;
- oila mol-mulkingining qiymati (dala hovli, avtomobil, motosikl va zebziyatlarning mavjudligi);
- oilaning muhtojlik darajasi haqidagi komissiya xulosasi va har oyda beriladigan moddiy yordamning tavsiya qilinayotgan miqdori haqida komissiya xulosasi.

Maxsus komissiya oilaga moddiy yordam tayinlash haqidagi arizani oilada moddiy ta'minotning yetarliligi, anchagina mol-mulk jamg'armasi mavjudligi, shuningdek, mehnat faoliyatidan bosh tortish hollari aniqlangan taqdirda rad etish huquqiga ega.

Ariza bergan oilaning moddiy va mulkiy ahvolini tekshirish natijalari

va maxsus komissiya xulosasi bo'yicha yordamga muhtoj oilalar ro'yxati tuziladi hamda yilning har choragida bir marta qo'rg'on, qishloq, ovul, mahalla fuqarolarining yig'ini (yig'ilishi) yoki fuqarolar yig'ini tomonidan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash to'g'risidagi masalalarni hal etish uchun vakil qilingan komissiya muhokamasiga kiritiladi.

Moddiy yordam tayinlash va to'lash uchun ro'yxatga kiritiladigan oilalar soni, shuningdek, har bir muayyan oila uchun har oylik to'lovlar miqdori fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan mustaqil ravishda, shu maqsadlar uchun ularning hisobida mavjud bo'lgan mablag'lardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Har oylik moddiy yordamning miqdori eng kam ish haqining o'sha vaqtda amalda bo'lgan 1,5 dan 3 (uch) baravarigacha miqdorida belgilanishi kerak.

Oilaning muhtojlik darajasini aniqlash bo'yicha maxsus komissiya tomonidan belgilangan har oylik moddiy yordam miqdori fuqarolarning umumiy yig'ini (yig'ilishi)da yoki fuqarolar yig'ini tomonidan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash to'g'risidagi masalalarni hal etish uchun vakil qilingan Komissiya tomonidan tasdiqlanadi va faqat shundan keyingina to'lanadi.

Fuqarolar yig'ini yoki fuqarolar yig'ini tomonidan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash to'g'risidagi masalalarni hal etish uchun vakil qilingan komissiya kam ta'minlangan oilaga berilgan moddiy yordam summasining bir qismini mazkur oilaning uy-joy kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha qarzlarni qoplash uchun o'tkazish yuzasidan qaror qabul qilishi mumkin.

Oilaga moddiy yordam tayinlash haqida qaror qabul qilishda arizachining fuqarolar yig'inida (yig'ilishida) yoki komissiya yig'ilishida qatnashishi shart. Arizachining yig'inda (yig'ilishda) yoki komissiya yig'ilishida qatnashishiga imkon bermaydigan kasallik, boshqa uzrli sabablar bo'lganda yig'inda (yig'ilishda) yoki komissiya yig'ilishida oilaning voyaga yetgan a'zolaridan biri uning vakolatli vakili bo'lib qatnashishi shart.

Fuqarolar yig'ini (yig'ilishi)ga komissiyaga uning majlisiga arizachi ishlaydigan korxonaga yoki muassasa rahbarlarini, tuman soliq, moliya organlari, mehnat, ish bilan ta'minlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tuman bo'limlari va boshqa idoralarning vakillarini taklif qilish tavsiya etiladi. Oilaga moddiy yordam tayinlash haqidagi qaror uning uchun fuqarolar yig'ini (yig'ilishi)da yoki komissiya yig'ilishida qatnashganlarning ko'pchilik qismi, ovoz bergan taqdirda haqiqiy hisoblanadi. Shuni aytish joizki, qaror ochiq ovoz byerish yo'li bilan qabul qilinadi.

Oilaga har oylik moddiy yordam tayinlash haqidagi qaror yig'in

(yig'ilish) yoki komissiya yig'ilishi bayoni tarzida rasmiylashtiriladi, bayonni rais (oqsoqol) va kotib imzolaydi hamda u besh kun muddatda arizachiga ma'lum qilinadi.

Moddiy yordam tayinlash rad etilgan taqdirda yig'ilish bayonida uning asoslangan sabablari qayd etiladi va bu haqda fuqarolar yig'ini (yig'ilish)da yoki komissiya yig'ilishida arizachiga ma'lum qilinadi.

Moddiy yordam oladigan oilalar hisobi va har oylik to'lovlar miqdori qo'rg'on, qishloq, ovul yoki mahalla yig'ini raisi (oqsoqoli)ning kotibi tomonidan maxsus daftarda qayd etib boriladi.

Kotib fuqarolar yig'ini (yig'ilishi) yoki komissiya bayoni asosida har oyning birinchi kunigacha qo'rg'on, qishloq, ovul yoki mahalla bo'yicha oilalarga moddiy yordam to'lash vedomostini tuzadi va xalq bankining tegishli bo'limiga taqdim etadi.

Kam ta'minlangan oilalarga har oylik moddiy yordamni to'lash vedomosti qat'iy hisobda turadigan blank hisoblanadi va nusxa ko'chirish qog'ozi vositasida ikki nusxada tuziladi. Birinchi nusxa kotib tomonidan xalq bankining tegishli bo'limiga topshiriladi, ikkinchisi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organida pul hujjatlari qatorida alohida yig'ma jildda saqlanadi.

Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordamni mablag' bilan ta'minlash mahalliy moliya organlari tomonidan, to'lov oyining birinchi kunidan boshlab amalga oshiriladi va oyning 15-kunida yakunlanadi.

Arizachi uzoq (bir oydan ko'proq) vaqt bo'lmagan yoki vafot etgan hollarda moddiy yordam oilaning balog'atga yetgan boshqa a'zosiga to'lanishi mumkin. Bunda yordamni olish uchun mazkur holatlar sodir bo'lgan kundan boshlab bir oydan kechikmay murojaat qilingan bo'lishi kerak.

Oilaga moddiy yordam to'lash quyidagi hollarda to'xtatiladi:

- moddiy yordam to'lash muddati tugaganda;
- yordam ko'rsatilayotgan oilaning moddiy ahvoli o'zgarganda;
- doimiy yashash joyi o'zgarganda.

Kam ta'minlangan oilalarga har oylik moddiy yordam to'loviga ajratilgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan foydalanilmagan mablag'lar yil tugagach olib qo'yilmaydi va ular fuqarolar yig'ini (yig'ilishi) yoki komissiya qaroriga binoan aholi yashaydigan joylarni obodonlashtirishga, gazlashtirishga, suv bilan ta'minlashga, shuningdek, boshqa ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirilishi mumkin.

Voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa ushbu nafaqani olishga muhtoj bo'lgan, tug'ilgan, bolalikka va homiylikka (vasiylikka) olingan 16 yoshgacha (umumta'lim maktablarida, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida ta'lim olayotgan 16 yoshdan 18 yoshgacha) bolalari bo'lgan oilalarga tayinlanadi va to'lanadi. Nafaqa ota-onalardan birining

shaxsiy arizasi asosida 6 oy muddatga tayinlanadi va to'lanadi, ushbu muddat tugagach arizachi yangi muddatga nafaqa to'lashni davom ettirish to'g'risida ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Nafaqa har oyda to'lanadi.

Oilaga nafaqa:

- bir bolali oilalar uchun - eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida;
- ikki bolali oilalar uchun - 100 foizi miqdorida;
- uch bolali oilalar uchun - 140 foizi miqdorida;
- to'rt va undan ko'p bolali oilalar uchun - 175 foizi miqdorida belgilanadi.

Agar belgilangan tartibda nafaqa belgilangan davr mobaynida eng kam oylik ish haqi miqdori o'zgarsa nafaqa miqdori eng kam oylik ish haqi miqdori o'zgargan oydan boshlab tegishli ravishda ko'payadi.

Quyidagi voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalar nafaqalar olishda imtiyozli huquqqa ega:

- nogiron chaqaloqli (bolali) oilalar;
- ota-onaning ikkalasi ham bo'lmagan, bolalar tarbiyasi bilan esa qarindoshlari shug'ullanishadigan oilalar;
- bolalarning ota-onasidan biri yoki ikkalasi ham nogiron bo'lgan oilalar;
- ota-onadan biri yoki ikkalasi ham ishsiz bo'lgan, mehnat organida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan oilalar.

Shaharcha, qishloq, ovul yoki mahallaning fuqarolar yig'inlari yoki komissiyalar nafaqalarni tayinlashda va to'lashda quyidagi asosiy qoidalarga amal qilishlari kerak:

- ijtimoiy adolat qoidalariga qat'iy amal qilish, oshkoralikni ta'minlash;
- katta yoshdagi mehnatga layoqatli aholi o'rtasida boqimandalikka, o'zining iqtisodiy faolligi hisobiga emas, balki davlat yordami hisobiga yashashga intilishga yo'l qo'ymaslik;
- bolalar tarbiyasi uchun oila mas'uliyatini kuchaytirish, ularga jismoniy, aqliy va ma'naviy-ahloqiy rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashsiz daromadlarini jiddiy oshirishning aniq imkoniyati mavjud bo'lmagan, kam daromadli oilalarga nafaqalar berish.

Quyidagi voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa tayinlanmaydi va berilmaydi:

- bolalari to'liq davlat ta'minotida bo'lgan oilalarga. Agar oiladagi bolalarning hammasi ham to'liq davlat ta'minotida bo'lmasa, u holda nafaqa davlat ta'minotida bo'lmagan bolalarni hisobga olgan holda to'lanadi;
- ota-onasi qonunchilikda belgilangan tartibda ota-onalik huquqlaridan mahrum etilgan oilalarga;

– moddiy boyligi (daromadi) bolalarining jismoniy, aqliy va ma'naviy-ahloqiy jihatdan maqbul rivojlanishini ta'minlash imkonini beradigan oilalarga.

Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordamning to'g'ri hisoblanishini, o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilish Moliya vazirligining nazorat-taftish Bosh boshqarmasi va uning joylardagi organlari tomonidan amalga oshiriladi.

3.3. Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi va uning moliyaviy ta'minlash shakllari

Bolalar tug'ilishi va tarbiyasi munosabati bilan oilada o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan daromadning pasayishi sodir bo'ladi. Shu bilan birga, ko'p bolali oilalarning aksariyati kam daromadli oilalarda yashaydi. Bu holat ko'pincha turmush darajasining belgilangan ijtimoiy standartlariga, hatto tirikchilik minimumi darajasidan ham past bo'lishiga olib keladi.

Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi masalalarni hal qilishda milliy loyihalarning o'rni katta. Bu masalalar qatoriga quyidagilar kiradi:

- aholi sonining barqaror ko'payishiga erishish uchun tug'ilishni ko'paytirish;
- bolalar salomatligini mustahkamlash va ularga sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish;
- onalar va go'daklar o'limini kamaytirish;
- homilador ayollar va bolali oilalar turmush darajasini saqlash.

Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilishning iqtisodiy mohiyati milliy daromadni sog'lom avlod tug'ilishi uchun shart-sharoitlar yaratishni ta'minlash va oilalarning bolalar tug'ilishi bilan erishilgan past turmush darajasini saqlash maqsadlarida qayta taqsimlashdan iborat.

Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy maqsadi – ayollarning onalik davridagi va bolali oilalarning moddiy turmush darajasi va sifatini himoya qilish, shuningdek, ularning sog'ligini saqlash hisoblanadi.

Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlovchi sub'ektlarga quyidagilar kiradi:

- aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidagi organlar;
- kasaba uyushmalar;
- siyosiy va jamoatchilik birlashmalar;
- tijorat, xayriya va diniy tashkilotlar, jamg'armalar.

Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish ob'ektlari – onalar va chaqaloqlar hayoti va salomatligi, shuningdek, har xil ta'sirlardan bevosita yoki bilvosita azob chekuvchi onalar va bolali oilalarning mulkiy manfaatlaridir.

Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining elementlari o'z ichiga majburiy ijtimoiy sug'urtani, davlat ijtimoiy ta'minotini, ixtiyoriy shaxsiy sug'urtani, o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlashni, soliq imtiyozlarini, maqsadli ajratilgan mablag'larning budjetdan Pensiya jamg'armasi budjetiga berilishini

oladi. Tizimning har bir elementi onalar va bolali oilalarni moddiy va ijtimoiy jihatda qo'llab-quvvatlashning muayyan chorolari orqali amalga oshiriladi. Bu elementlar moliyaviy mexanizm, bolali oilalar daromadini qayta taqsimlash darajasi, shuningdek, ularni himoya qilish darajasi bilan farqlanadi.

Shu o'rinda aytish lozimki, bolalari bor oilalarni moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash chorolari shaxsiy (oilaviy) daromadlarning pasayishi va oilada bola tug'ilishi chog'idagi qo'shimcha harajatlar bilan bog'liq bo'lgan bevosita va bilvosita yo'qotishlarni qoplash borasida yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy munosabatlarga asoslanadi. Bu choralar milliy daromadning qayta taqsimlanishiga asoslangan davlat mablag'lari hisobiga (har xil to'lovlar va nafaqalar), shaxsiy jamg'armalardan mablag' bilan ta'minlanishi mumkin.

Onalik sarmoyasi (oilaviy sarmoya) – bu onalarga budget mablag'laridan ikkinchi va undan keyingi bolalar tug'ilgandan keyin ajratiluvchi sarmoyadir. Ayollar va bolali oilalar bu sarmoyadan turar joy sotib olish yoki ta'lim sohasida xizmatlar olish, ayollarning nafaqa ta'minotini yaxshilash uchun foydalanishlari mumkin.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, bola tug'ilishi va tarbiyasi munosabati bilan oilalarda o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan daromadning pasayishi sodir bo'ladi, chunki onalar ma'lum davrga mehnatga layoqatini va ish haqlarini yo'qotadi. Buning natijasida oilaning turmush darajasi pasayadi va hatto tirikchilik minimumidan pastroqqa tushib ketishi mumkin. Bu holat ayniqsa ko'p bolali oilalarda tez-tez sodir bo'ladi. Mehnatga layoqatlilikning vaqtinchalik yo'qotilishi va daromadni yo'qotish xavfi ijtimoiy holatdir va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini boshqarishning predmeti bo'lib xizmat qiladi. Homiladorlik va tug'ishni an'anaviy ravishda ijtimoiy xavfning namoyon bo'lish shakliga kiritish qabul qilingan, biroq bu, birinchi navbatda, ayollarning jamiyatdagi eng muhim vazifasining ijro etishidir. Bu holatlar muqarrarlik xususiyatiga ega. Jamiyatning yangi a'zolari tug'ilishini xavf deb atash ehtimoldan uzoq. O'z-o'zidan homiladorlik va tug'ish holati turli xil xavflar va tahlikalar bilan barobar kechadi. Shuning uchun ushbu holatlar ijtimoiy xavflarni aholini himoya qilishning butun tizimi doiralarida boshqarishning barcha mexanizmlarini safarbar qilishni talab qiladi, chunki bu ishlovchi fuqarolarlarga ham, ishlamaydiganlarga ham daxl qiladi.

Homiladorlik, tug'ish va bolani parvarish qilish jarayonlari bilan birga kechuvchi xavflarni quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

- ona va bola hayoti, sog'ligiga tahdid soluvchi xavflar;
- daromadni yo'qotish va qo'shimcha sarf-harajatlarning yuzaga kelish xavflari.

Aytish joizki, birinchi va ikkinchi guruhdagi xavflar bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi.

Ona va bola hayoti, sog'ligiga tahdid soluvchi xavflar ichki va tashqi xavflarga bo'linadi.

Ichki xavflarga quyidagilar kiradi:

– turli kasalliklar va holat buzilishlari munosabati bilan onalar va chaqaloqlar o'limi;

– homiladorlik, tug'ish va tug'ishdan keyingi surunkali kasalliklar, homiladoming noqulay mehnat sharoitlari yoki korxonada sanitariya me'yorlariga amal qilmaslik, tug'ish jarohatlari va boshqa sabablar tufayli yuzaga kelgan asoratlar va patologiyalar.

Tashqi xavflarga esa quyidagilarni kiradi:

– baxtsiz hodisalar (kuyish, xizmatdan boshqa joydagi lat yeyishlar, avariya, halokatlar) natijasida shikastlanish va halok bo'lish;

– tibbiy aralashuvlar (anesteziya asoratlari, akusherlik yordami) natijasida shikastlanish va halok bo'lish.


Homiladorlik, tug'ish va bolani parvarish qilish jarayonlari bilan bog'liq holda daromadning yo'qolish yoki kamayish xavflari quyidagi holatlarga olib keladi:

– ishlovchi ayollar uchun ish haqining yo'qotilishi yoki pasayishi;

– bola tug'ilishi munosabati bilan harajatlar;

– qo'shimcha tekshiruv, davolash zaruriyati bilan bog'liq harajatlar;

3.1-rasmda homilador ayollar, onalar va bolali oilalarga tahdid soluvchi xavflar tasnifi keltirilgan.



3.1-rasm. Homilador ayollar, onalar va bolali oilalarga tahdid soluvchi xavflar tasnifi

Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining holati onalar va bolalar salomatligi haqidagi ma'lumotlar: homiladorlik, tug'ish va tug'ishdan keyingi davr asoratlaridan kasallanish, pushtsizlikning tarqalishi, tug'ishlarning

katta qismi kasalliklar bilan kechishi, kamqonlik, jinsiy, peshob tizimi, qon aylanish tizimi kasalliklari, tug'ish faoliyatining turli xil buzilishlari bilan og'irlashgan tug'ishlar soni bilan tavsiflanadi.

Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi moliyaviy va nomoliyaviy qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari, o'z navbatida, quyidagilarni iborat:

- davlat to'lovlari va nafaqalarining yagona tizimini, unga majburiy ijtimoiy sug'urta, davlat ijtimoiy ta'minoti, shaxsiy sug'urta tizimlari orqali to'lanuvchi pul nafaqalari, to'lovlar, badallar kiradi;
- bolali oilalarning yo'qotilgan yoki olinmagan ish haqlarining o'rmini soliq imtiyozlari orqali to'ldiruvchi daromadlar siyosati;
- onalik sarmoyasi mablag'larini boshqarish.

Nomoliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari ikki guruhga bo'linadi:

Birinchi guruhga barcha bolali oilalarning mulkiy va boshqa manfaatlariga dahl qiluvchi tibbiy xizmatlar ko'rsatish, tug'ilishni rag'batlantirish va kasalliklarni profilaktika qilish bo'yicha choralar hamda mehnat haqidagi qonunlarga muvofiq ta'tillar berish choralari kiradi.

Ikkinchi guruhga esa bolali oilalar va yetim bolalar ma'lum toifalarining mulkiy va boshqa manfaatlariga dahl qiluvchi bolali oilalar turli toifalariga: ko'p bolali oilalarga, nogiron bolalari bor oilalarga, kam ta'minlangan oilalarga, to'liq bo'lmagan oilalarga, oilalarga boquvchisini yo'qotish chog'ida, oilalarga bola boqib olishda, qaramog'iga olish yoki vasiylik tayinlanishda, asrandi bolani oilaga qabul qilishda, shuningdek, yetim bolalarga va ota-onalar qarovisiz qolgan bolalarga ijtimoiy yordamning alohida shakllari qo'llaniladi.

Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining tarkibiy qismi bo'lib, ijtimoiy xavflarni boshqarish mexanizmlari orqali amal qiladi. Bu mexanizmlar ijtimoiy tahdidlar ta'sirlarini bartaraf qilish yoki o'rmini to'ldirish maqsadida milliy daromadni qayta taqsimlashga da'vat qilingan. O'zbekistonda onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining tuzilishi 3.1-jadvaldagi ko'rinishga ega.

Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish elementlariga bog'liq ravishda tizimni mablag' bilan ta'minlashning quyidagi manbalari mavjud: davlat budjeti, budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi mablag'lari, korxonalar va tashkilotlar hamda fuqarolarning shaxsiy mablag'lari.

Majburiy ijtimoiy sug'urta onalik va bolalikni budjetdan tashqari jamg'armalar ishtirokchilari o'rtasidagi xavfni taqsimlash mexanizmi orqali ijtimoiy muhofaza qilish tizimining asosiy elementi hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urta tizimi onalik va oilaviy nafaqalar to'lovini, tug'ish sertifikatlarini, shuningdek, bolalar va homilador ayollarning sihatgohlarda davolanishiga haq to'lanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, budjetdan tashqari sug'urta jamg'armalaridan moliyaviy mablag'larni sug'urta qilish bilan bog'liq bo'lmagan vazifalar uchun ishlatiladi.

3.1-jadval

Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining tarkibi

Xavflar	Daromadga ta'sir qiluvchi xavflarni o' boshqarish mexanizmi	Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi elementlari	Moliyaviy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari
Onalar va chaqaloqlar o'limi	Xavfning taqsimlanishi (sug'urtalash)	Majburiy ijtimoiy sug'urta	- tibbiy yordam ko'rsatish; - dafn etishga harajatlar; - sog'liqni saqlash tizimida xavfning oldini olish bo'yicha choralar
Mehnat sharoitining yomonligi, tug'ish jarohatlari, surunkali kasalliklar sababli homiladorlik, tug'ish va tug'ishdan keyingi davrdagi asoratlari, patologiyalar	- xavfning taqsimlanishi (sug'urta); - xavfning oldini olish	- majburiy ijtimoiy sug'urta; - ixtiyoriy shaxsiy sug'urta; - o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash.	- majburiy tibbiy sug'urta; - homiladorlikning ilk kunlarida hisobda turgan ayollarga tayinlanadigan bir martalik nafaqa; - ixtiyoriy tibbiy sug'urta; - baxtsiz hodisalardan sug'urta; - homiladorlikni va tug'ishni olib borish vaqtiga pullik xizmatlar uchun shartnomalar tuzish; - davolashga soliq chegirmalari.
Baxtsiz hodisa, avariya, tibbiy aralashuv natijasida shikastlanish va halok bo'lish	Xavfning taqsimlanishi (sug'urta)	Ixtiyoriy shaxsiy sug'urta	- hayotni sug'urtalash; - baxtsiz hodisalardan sug'urta.
Kasalxona ichidagi infeksiyalar bilan bog'liq kasalliklar	Xavfning taqsimlanishi (sug'urta)	- majburiy ijtimoiy sug'urta; - ixtiyoriy shaxsiy sug'urta	- majburiy tibbiy sug'urta tizimida tibbiy yordam ko'rsatish; - baxtsiz hodisalardan sug'urtalash
Mehnatga layoqatini yo'qotganligi munosabati bilan ishlovchi ayollar uchun ish haqining yo'qolishi yoki kamayishi	- xavfning taqsimlanishi (sug'urta); - daromadlar siyosati	- majburiy ijtimoiy sug'urta; - soliq imtiyozlari	- homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa; - bolani ular 2 yoshga to'lgunga qadar parvarishlash bo'yicha har oylik nafaqa; - soliq chegirmalari
Bola tug'ilishi munosabati bilan bog'liq harajatlar	- xavfning taqsimlanishi (sug'urta); - xavfning yo'qotilishi; - kapitallashtirish	- majburiy ijtimoiy sug'urta; - davlat ijtimoiy ta'minoti; - ajratilgan maqsadli mablag'larni davlat budjetidan Pensiya fondi	- bola tug'ilish chog'idagi beriladigan bir martalik nafaqa; - bola boqib olishda, vasiylik tayinlash yoki qaramoqqa olish, bolani tarbiyalash uchun oilaga berish chog'ida beriladigan bir martalik nafaqa; - bolaga tug'ilgandan 2 yoshgacha, 16 yoshgacha bolaga

		budgetiga o'tkazish.	beriladigan har oylik nafaqalar; - bola tug'ilish chog'idagi bir martalik badal to'lovlar; - ko'p bolali oilalar bolalariga beriladigan badal to'lovlar; - onalik sarmoyasi mablag'laridan o'qitish yoki uy-joy uchun foydalanish.
Ona va bolani davolashga kutilmagan qo'shimcha harajatlari	- xavfning oldini olish; - xavfni yo'q qilish; - xavfni taqsimlash (sug'urta)	- o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash (qisman budgetdan o'rni to'ldiriladi); - ixtiyoriy shaxsiy sug'urta.	- shaxsiy jamg'armalar; - davolashga soliq chegirmalari; - ixtiyoriy tibbiy sug'urta; - baxtsiz hodisalardan sug'urtalash.
Onalar nafaqa huquqlarining qisqarishi	Kapitallashtirish	Ajratilgan maqsadli mablag'larni davlat budgetidan Pensiya fondi budgetiga o'tkazish	Onalik sarmoyasi mablag'laridan mehnat pensiyasining jamg'ariluvchi qismini shakllantirish uchun foydalanish

Davlat ijtimoiy ta'minoti bola tug'ilishi munosabati bilan harajatlarni davlat budgeti va mahalliy budgetlar orqali mablag' bilan ta'minlaydi. Bolali oilalarga ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta to'lovlarning o'rmini soliq imtiyozlari to'ldiradi. Soliq chegirmalari ijtimoiy-demografik siyosatning xazina vositasi sifatida tug'ilishni rag'batlantirish sohasidagi yana bitta choradir. Davlat ayollar va bolali oilalarni ijtimoiy himoyalashni jismoniy shaxslardan ilgari to'langan daromad solig'ini budgetdan qaytarib berish orqali amalga oshiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik deganda davlat, sug'urta va boshqa mablag'lardan onalik bilan bog'liq xavflarning nomaqbul ta'sirini qoplash uchun foydalanishning samaradorligi tushuniladi. Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining samaradorligini baholashda davlat nafaqalari va to'lovlarning yagona tizimining samaradorligi kabi tarkibiy qismlar ajratiladi.

Davlat tomonidan moliyalashning hajmini quyidagi ko'rsatkichlar aks ettiradi:

- to'lovlar miqdorining YAIMga nisbati;
- davlat yordamidan foydalanuvchi bolali oilalar ulushi;
- bolali oilalar daromadlarida to'lovlarning ulushi.

Oila darajasida samaradorlik ijtimoiy ahvol, bolali oilalar turmush darajasi va sifatining quyidagi nisbiy parametrlari bilan taysiflanadi:

- yo'qotilgan va oxirigacha olinmagan daromadning o'rmini to'ldirish chorasi va nafaqalar to'lashning davomiyligi;
- to'lovlar miqdorining tirikchilik minimumi, o'rtacha ish haqi, o'rtacha jon

boshiga to'g'ri keladigan daromad qiymatlarining o'zaro nisbati;

– to'lovlarning tabaqalanish darajasi, ularning eng kam va eng ko'p miqdorlarining o'zaro nisbati;

– sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarning samaradorligi. Bu samaradorlik homilador ayollar, yaqinda tug'adigan ayollar, tuqqan ayollar, emizuvchi onalar, yangi tug'ilgan chaqaloqlar va hayotining birinchi yilidagi bolalar salomatligi ko'rsatkichlari bilan baholanadi;

– tug'ilish va profilaktik kasallanishlarga ta'sirlarni baholash.

Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilishning demografik vaziyatga ta'sir darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

– tug'ilish darajasi;

– onalar va chaqaloqlar o'limi darajasi;

– hayotning kutilayotgan o'rtacha davomiyligi;

– kasallanish darajasi.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, davlat tomonidan bolali oilalar uchun belgilangan moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari oilada navbatdagi bolaning tug'ilishi natijasida umumiy oilaviy daromadning kamayishi bilan bog'liq bo'lgan xavfni to'la qoplamaydi. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari ko'rsatishda hukumat manzillilik tamoyilini amalga oshirishga intiladi, ya'ni to'lovlar faqat nochor oilalarga beriladi.

Sog'liqni saqlash sohasida onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish samaradorligini baholashda onalar va bolalar o'limining ijobiy dinamikasini qayd qilish kerak. Biroq, keyingi yillarda homilador ayollar, yaqinda tug'adigan va tuqqan ayollar sog'ligining holatida quyidagi o'zgarishlar kuzatilmoqda:

– onalar va chaqaloqlar o'limining yuqori darajasi;

– homiladorlar, yaqinda tug'adigan va tuqqan ayollar salomatligining yomonlashuvi;

– ayollar kasallanishining yuqori darajasi;

– abortlarning yuqori darajasi;

– bolalar salomatligining yomonlashuvi.

Onalar o'limining barcha sabablari ichida birinchi o'rinda ayollarda hali homiladorlikka cha bo'lgan davrda kasallarning mavjudligi turadi.

Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish tarkibida ixtiyoriy tibbiy sug'urta keng qo'llanadi. Ixtiyoriy tibbiy sug'urta sog'liqning ahvoli, homiladorlik va tug'ishlarning nomuvofiq kechishi, tug'ish jarohatlari tufayli yuzaga kelgan homiladorlik, tug'ish asoratlari va patologiyalari xavfidan himoyani ta'minlaydi. Ixtiyoriy tibbiy sug'urta bozorida taklif qilinayotgan homiladorlik sug'urtasi o'z mohiyatiga ko'ra, homiladorlikni, tug'ishni olib borish va tug'ishdan keyingi qulaylik uchun shartnomadir. Bolaga qarash bilan bog'liq daromadni yo'qotish sug'urtasi ixtiyoriy tibbiy sug'urtaga qo'shimcha sifatida hozircha amalga oshirilmayapti. Vaqtinchalik daromadni yo'qotish ijtimoiy sug'urta qilish tizimi doirasida bolaga ikki yosh to'lgunga qadar qarash bo'yicha nafaqa bilan qoplanadi.

Oilani ijtimoiy muhofaza qilishning alohida modeli, ya'ni bu bevosita oila

tomonidan, uning moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, bola tug'ilishi chog'ida yuzaga keluvchi xavflardan samaraliroq himoyalaniş uchun qo'llaniladi. Modelning asosini moliyaviy rejalashtirish tashkil qiladi. Undan oldin oila tomonidan bola tug'ilishi haqidagi va zarurat bo'lsa uy-joy sharoitlarini yaxshilash (uy-joy sotib olish) haqida qaror qabul qilinadi. Bunda oila ipoteka kreditidan foydalanishi mumkin.

Moliyaviy rejalashtirish hali homiladorlikgacha yoki bola tug'ilgungacha bo'lgan davrda amalga oshiriladi va o'z ichiga quyidagilarni oladi:

– bola tug'ilishi munosabati bilan bo'lg'usi daromadlar va harajatlarni tuzish. Harajatlar doimiy kundalik (kommunal to'lovlar, kredit bo'yicha foizlar, majburiy va ixtiyoriy sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta badallari) va bir martalik (ayol va bolaga ko'rsatiluvchi tibbiy xizmatlar to'lovi; bola uchun zarur buyumlar, mebel sotib olish va boshqalar) harajatlarga bo'linadi. Harajatlar bola tug'ilishidan keyingi eng yaqin davrga ham, bir necha yil oldinga ham rejalashtirilishi mumkin. Keyingi holda harajatlarga enaga xizmatiga, ta'lim xizmatlariga va h.k. to'lov qo'shiladi;

– onalar va bolali oilalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning mavjud choralari haqidagi qonunlarni o'rganish. Oilaviy ahvolning maqomidan (oilaning ishlovchi a'zosimi yoki ishlamaydigan a'zosimi), o'ziga xos xususiyatlaridan (bu holda moliyaviy va ijtimoiy yordamning qo'shimcha choralari joiz) kelib chiqqan holda, barcha belgilangan to'lovlarni aniqlash;

– ishlovchi bo'lg'usi onaning mehnatga layoqatsizlik davrini hisoblash, bu davr mobaynida oilaning umumiy daromadi pasayadi;

– homiladorlikni va tug'ishni o'tkazadigan, tug'ishdan keyin bo'ladigan va yangi tug'ilgan chaqaloqni tekshiradigan tibbiy muassasani izlash va tanlash. Tanlash chog'ida oila uning ixtiyorida mavjud moliyaviy imkoniyatlarga tayanadi. Majburiy tibbiy sug'urta polisi bo'yicha standart xizmatlar olishdan qo'shimcha to'lov evaziga har jihatdan qulayroq xizmatlar sotib olishgacha bo'lgan variantlar mavjud;

– oilaviy vaziyatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, shaxsiy sug'urta shartnomalarini tuzish talab qilinishi mumkin. Masalan, majburiy tibbiy sug'urta yo'q bo'lgan chog'da yoki agar oila homiladorlik, tug'ish, ona va bolaning keyingi kuzatuvini yuksak qulaylikka ega klinikalarda olib borish uchun to'lashga tayyor bo'lsa, unda majburiy tibbiy sug'urta shartnomasi tuziladi. Homiladorlik paytidagi baxtsiz hodisalardan sug'urta dolzarbdir. Qo'shimcha ravishda oila bola tug'ilishiga hayotning to'planuvchi sug'urtasini yoki bir paytning o'zida ikki yoki undan ortiq bola tug'ilgan holatga sug'urtani olishi mumkin;

– oilaning bo'lishi kutilmagan harajatlarini qoplash uchun bank depozitlari orqali jamg'armalardan foydalanish yoki bolaning bo'lg'usi moliyaviy ta'minoti uchun hisob ochish.

Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining samaradorligini oshirishda quyidagi chora-tadbirlarning o'rni katta:

- tibbiy xizmatlar to'lovi bo'yicha majburiyatlarni majburiy tibbiy sug'urta jamg'armasi tasarrufida saqlab qolish. Bu qo'shimcha pul mablag'laridan vrachlarni moddiy rag'batlantirishda va tibbiy muassasalarni zamonaviy jihozlar bilan qo'shimcha ravishda ta'minlashda foydalanishni jadallashtirish uchun tibbiy muassasalarga mablag'lar o'tkazish davrini qisqartirishga imkon beradi;
 - soliq siyosatiga o'zgartirishlar kiritish, jumladan, fuqarolar hayotini sug'urta qilish shartnomalarini tuzishni rag'batlantirish maqsadida yuridik shaxslar uchun mavjud imtiyozga o'xshash soliqlarni kiritish;
 - bolalarni ikki yosh to'lgunga qadar parvarishlash bo'yicha nafaqa miqdorini ishlamaydiganlar uchun tirikchilik minimumi miqdoriga qadar, ishlovchilar uchun esa o'rtacha ish haqi darajasiga qadar asta-sekin oshirib borish. Undan tashqari, bolaga ikki yoshdan uch yoshgacha qarash bo'yicha, bunday ta'tilda bo'lgan barcha shaxslar uchun eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdordagi nafaqa kiritish maqsadga muvofiq. Ikkinchi va undan keyingi bolalarga ikki yoshdan uch yoshgacha bolani parvarishlash bo'yicha nafaqa to'lovlari ikki eng kam ish haqi miqdoriga qadar oshirilishi kerak. Shunga muvofiq, mablag'lar davlat budjeti (ishlamaydigan fuqarolar uchun) va tashkilot (korxonalar)ning ish haqi jamg'armasidan (ishlaydigan fuqarolar uchun) moliyalanadi;
 - 1 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolani boqishga va maktab yoshidagi bolaga nafaqalar miqdorini nochor oilalar uchun kamida eng kam ish haqi miqdori darajasiga qadar oshirish. Bu turdagi nafaqalar tug'ilishlar soni bo'yicha tabaqalashtirilgan bo'lishi va o'sayotgan bolalar ehtiyojlarini hisobga olishi kerak;
 - bola tug'ilgan paytda bir martalik nafaqani olishi uchun majburiy shartlardan ayolni homiladorlik sababi bo'yicha sog'liqni saqlash muassasasida 20 haftagacha muddatga tibbiy hisobga qo'yish shartini chiqarib tashlash;
 - homilador va tug'adigan ayollarga tibbiy yordamni tashkil qilish hamda bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish tizimi infratuzilmasini rivojlantirish (tug'ruqxonalar, ayollar maslahatxonalari, bolalar bog'chalari, bolalar poliklinikalarini qurish va ularni zamonaviylashtirish).
- Shunday qilib, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining samaradorligini oshirish, ularni moddiy va nomoddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash kam ta'minlangan oilalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga yordam berishi shuhbasizdir.

Qisqacha xulosalar

Kam ta'minlanganlik jamiyatning katta qismi uchun xos bo'lgan mo'tadil turmush tarzini olib borish uchun moddiy boyliklarning yetishmasligi sababli yuzaga kelgan holatdir. Kam daromadli oilalarning moddiy farovonligini oshirish, ularning munosib turmush kechirishi uchun aholining bu toifasiga davlat tomonidan moddiy yordam tayinlanadi. Voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa bir bolali oilalar uchun eng kam oylik ish haqining 50 foizi, ikki bolali oilalar uchun 100 foizi, uch bolali oilalar uchun 140 foizi, to'rt va undan ko'p bolali oilalar uchun 175 foizi miqdorida

belgilanadi.

Bolalar tug'ilishi va tarbiyasi munosabati bilan oilada o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan daromadning pasayishi sodir bo'ladi. Bu holat ko'pincha turmush darajasining belgilangan ijtimoiy standartlariga, hatto tirikchilik minimumi darajasidan ham past bo'lishiga olib keladi. Bu esa onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "Kam ta'minlanganlik" tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib bering.
2. Kam ta'minlanganlikning qanday mezonlari va ko'rsatkichlarini bilasiz?
3. Kam ta'minlanganlikka qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
4. Kam ta'minlanganlikning oldini olishning qanday yo'llarini bilasiz?
5. O'zbekistonda kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibini tushuntirib bering.
6. Voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqalar qanday miqdorlarda to'lanadi?
7. Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining elementlariga nimalar kiradi?
8. Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining samaradorligini oshirish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim?

Adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанамиз таракқиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришди. // Халқ сўзи, 2010 йил 30 январь.
2. Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш бўйича меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Адолат, 2008.
3. Абдурахмонов К.Х., Тохирова Х.Т., Шарипов Б.М. Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш. – Тошкент, 2006.
4. Аверин А.Н. Государственная система социальной защиты населения. – М.: РАГС, 2007.
5. Гейц И.В. Новые условия назначения и выплаты пособий по социальному страхованию. – М.: Дело и сервис, 2007.
6. Ижтимоий ҳимоя: атамалар изохди лугати. – Тошкент, 2007.
7. Римашевская Н.М. Социальная защита населения. – М.: РИЦ ИСЭП РАН, 2005.
8. Социальная защита населения в Республике Узбекистан. – Т.: Top Image Media, 2007.
9. Социальная политика. Учебник / И.П.Денисова, П.Р.Клинавенко. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2007.
10. Удалова А.А. Право социального обеспечения. – М.: Омега-Л, 2006.
11. Человеческое развитие. Учебник. – Т.: Университет мировой экономики и дипломатии, 2008.

IV BOB. XODIMLARNI IJTIMOY MUHOFAZA QILISH MEXANIZMI

4.1. Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishning mohiyati

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi – bu xodim hayotidagi zarur manfaatlar sohasi bo'lib, uning miqdoriy va sifatiy tavsiflari davlat va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va madaniy taraqqiyoti darajasi haqida dalolat beradi. Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish huquqi – bu xalqaro hamjamiyatda tan olingan va davlat tomonidan kafolatlanadigan xodimning munosib hayot kechirishi uchun yetarli fiziologik, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatidir. Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi ko'p jihatdan mamlakatdagi tartib, jamiyatdagi osayishtalik darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi va dinamikasi bilan bog'liq.

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish mezonini bir qator tabiiy va ijtimoiy fanlar ilmiy iste'moliga kirgan atama hisoblanadi. Mehnat iqtisodiyoti uni xodim va uning oila a'zolarini yashashlari uchun zarur bo'lgan moddiy mablag' bilan ta'minlash, qashshoqlikning oldini oluvchi hamda ishchi kuchining me'yorida ortiq sarflanishiga yo'l qo'ymaslik nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi.

Nazariy-amaliy yondoshuvlarga ko'ra, ijtimoiy himoya sohasi davlat ijtimoiy siyosati va mehnat munosabatlarining eng muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro Mehnat Tashkilotining 117-konvensiyasining 25-moddasi – "Ijtimoiy siyosatning asosiy maqsad va me'yorlari"ga ko'ra inson o'zining hamda oilasining salomatligi va farovon turmushi uchun zarur bo'lgan hayot darajasiga ega bo'lishiga haqlidir va bunda oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, tibbiy xizmat, ijtimoiy himoya qilishni kiritish lozim. Shuningdek, u o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra, o'zi va oilasini ta'minlay olmay qolsa, ishsiz yoki nogiron bo'lsa ham ijtimoiy ta'minlanish huquqiga ega⁸.

Yollanib ishlaydigan ishchi kasallik, baxtsiz hodisa, keksalik yoki uning mehnatiga talab kamayishi sababli mehnatga layoqatligini yo'qotsa (vaqtinchalik yoki muntazam ravishda) unda moddiy ta'minlanish muammosi yuzaga keladi. Shu sababli bozor iqtisodiyotida ijtimoiy himoya jamiyatning xo'jalik va ijtimoiy hayotining tarkibiy qismiga aylangan, uning tashkiliy-huquqiy shakllari esa mehnat jarayoni va ishchi kuchining takror barpo bo'lishining uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan.

Shunday qilib, ijtimoiy himoya BMT tavsiyasiga ko'ra, turmush darajasiga kiruvchi bir qancha elementlar (tarkibiy qismlar) bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu quyidagilar: salomatlik, demografik vaziyat, oziq-ovqat, kiyim-kechak, iste'mol fondlari; mehnat, bandlik holati; ma'lumotlilik, turar joy va undagi qulayliklar.

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishning ob'ektiv zarurati ham insonning o'z tabiati (biologik mavjudot sifatida o'zining hayot bosqichlari bilan, shu jumladan, mehnat davriga tayyorlovchi, mehnat davri va mehnat faoliyatidan

⁸ MOT: Конвенции и рекомендации, принятые Международной конференцией труда. – Женев: МБТ, 1991.

keyingi davr) ham insonni uning mehnat jarayonidagi hayoti va faoliyatini belgilovchi keng doiradagi omillar bilan mavjud bog'lanishidan kelib chiqadi. Ushbu omillarga ishlab chiqarish muhiti (xodimning salomatligi va mehnatga layoqatligiga ta'sir etuvchi), mehnat sharoitlari (mehnat mazmuni, daromadlar darajasi, mehnat faoliyati va dam olish tartibiga ta'sir etuvchi) va mehnat munosabatlari (hamkorlik muhiti yoki mojaroli holatlar va mehnat jamoasi a'zolarining kamsitilishini belgilovchi) kiritiladi. Bunda korxonalar (tashkilot) xodimlarini texnik va tabiiy (atrofdagi ishlab chiqarish va tabiiy muhit), iqtisodiy (xodimlarni yollash masalasi va mehnat bozorida vaziyat), biologik (yosh, salomatlik, mehnatga layoqatlilik) omillarning murakkab majmuining ta'siridan himoya qilish bilan bog'liq ijtimoiy-mehnat munosabatlari bajaruvchi va buyurtmachi, bajaruvchi va davlat, buyurtmachi va davlat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'ladi.

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish masalalaridagi ijtimoiy-mehnat munosabatlari korxonalar (tashkilot), tarmoq va hudud darajasida amalga oshiriladi. Ularning har biri uchun o'z aloqa va munosabatlar predmetlari xos bo'lib, bular birgalikda xodimning ijtimoiy holati hamda mehnat hayoti darajasi va sifati ko'rsatkichlarini belgilaydi.

O'z navbatida, xodimlarning ijtimoiy holati va mehnat hayotining sifati insonlar, jamoalar va ijtimoiy guruhlar turmush tarzi, faoliyatining asosiy tavsiflovchilari bo'lib, ikki xil shaklga ega. Birinchisi – bu alohida inson, oila, ijtimoiy guruhlar holatining amaliy darajasi (ob'ektiv va sub'ektiv sabablar), ikkinchisi, ijtimoiy kafolatlar ko'rinishidagi ijtimoiy holat. Mazkur ikkinchi shakl amaldagi ijtimoiy-mehnat munosabatlarining me'yoriy-qonunchilik bilan ta'minlanishini aks ettiradi.

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining holatini belgilovchi elementlardan biri – bu "ijtimoiy xavf-xatar" mezonini bo'lib, u ob'ektiv ijtimoiy sabablarga ko'ra ish haqi va boshqa mehnat daromadini yo'qotish tufayli, shuningdek, farzandlarni boqish yoki yordamga muhtoj boshqa oila a'zosining tibbiy va ijtimoiy xizmatlarini (reabilitatsiya va rekreatsiya) bajarish evaziga moddiy jihatdan ta'minlanmaganlikning yuz berish ehtimoli sifatida belgilanadi.

"Ijtimoiy xatar" tushunchasi mehnat iqtisodiyotida ijtimoiy himoya qilishning takror barpo etuvchi modelini yaratish uchun uslubiy vosita sifatida xizmat qiladi, ya'ni ijtimoiy xavf-xatar turlari va himoyalovchi shaxslar doirasi, ijtimoiy kafolatlar miqdori, ijtimoiy sub'ektlar (bajaruvchi va buyurtmachi)ning huquqiy munosabatlari, davlat va maxsus muassasalar sug'urta va ijtimoiy yordamni aniqlanishini nazarda tutadi.

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimida quyidagi tarkibiy qismlar ajratiladi:

- ijtimoiy muhofaza sub'ektlari – yollanma ishchi va uning oila a'zolari, buyurtmachi, davlat, ommaviy-huquqiy maqomga ega sug'urta tashkilotlari;
- ijtimoiy muhofaza darajalari – individual (bajaruvchi va buyurtmachi) va jamoa (yollanma ishchilarning kasaba uyushmalari hamda buyurtmachilar

birlashmalari);

– ijtimoiy muhofaza predmetlari va ularning tuzilishi – xodimlarni yollash va ishdan bo'shatish, kasbiy tayyorgarlik masalalari, mehnat sharoiti, tashkillashtirilishi va me'yori, mehnatga layoqatlilikni yo'qotishning o'rmini to'ldirish, tibbiy va ijtimoiy-maishiy xizmatni tashkil qilish mexanizmi;

– ijtimoiy adolat va o'zaro yordamning amalga oshirilishi darajasini ko'rsatuvchi ijtimoiy himoya omillari va turlari – ijtimoiy hamkorlik (yollanma xodim va buyurtmachilarning keng doiradagi hamkorlik usullari bilan) yoki mehnat munosabatlarining ijtimoiy himoyadagi paternalistik munosabatlar bilan uyg'unlashuvdagi qat'iy chegaralanishlar, shuningdek, ushbu ijtimoiy himoya omillari va turlarining uyg'unlashuvi va kombinasiyasi;

– ijtimoiy muhofaza mezonlari – mehnat hayoti sifatining ijtimoiy kafolatlari va e'tirof etilgan milliy me'yori: ishlab chiqarish muhitining holati, mehnat muhofazasi va xavfsizligi; mehnat yuklalarining ruhiy-fiziologik me'yori; mehnat sharoitlari (mehnat, dam olish, moddiy rag'batlantirish tartiblari); ishchilar salomatligi va mehnat qobiliyati holatlari; kasbiy tayyorgarlikning malakaviy ko'rsatkichlari; oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish me'yori va boshqalar.

Xalqaro Mehnat Byurosi "xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish" tushunchasining mazmun va mohiyatini yoritish uchun ikki xil yondoshuvni qo'llaydi. Birinchisi – keng, ya'ni insonni mehnat faoliyati jarayonidagi turmushining deyarli butun sohasini qamrab oluvchi, ikkinchisi – tor, ya'ni ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy himoyaga tegishli tarmoqlardir. Shu jumladan, mehnat hayoti sifati va mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha hujjatlarda "xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish" tushunchasi keng qo'llanilib, unga quyidagilar kiritilgan: ish vaqti, mehnatni tashkil etish, mehnat mazmuni, xavfsiz mehnat sharoitlari, ishlab chiqarish muhiti, texnologiyalarni tanlash, ish haqi, ishlab chiqarish sohasi va yashash sharoitlari.

Iqtisodchi olimlarning xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish muammosiga doir qarashlari tahlilini hisobga olgan holda ushbu mezonning predmet va ob'ektini aniqlash mumkin.

"Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish" mezonining predmeti – bu xodimlar va ularning oilalarini hayot darajasini, eng avvalo, xodim oilasining mehnat va ijtimoiy maqomini pasaytiruvchi omillardan himoyalashga oid davlat, jamoat tashkilotlari, ijtimoiy sub'ektlarning (ishchi va ish beruvchi) ijtimoiy-iqtisodiy qarashlari, amaliy aloqalari va manfaatlaridir.

Xodimlarning mehnat hayoti va ijtimoiy maqomining me'yoriy kechishini buzuvchi omillarga quyidagilar kiradi: xodimlarning salomatligiga ziyon yetishi va mehnat qobiliyatining yo'qotilish xavfi (kasallik, baxtsiz hodisa, keksalik); ish o'rmini yo'qotishga olib keluvchi kasbiy malakaning yetarli darajada bo'lmasligi hamda mehnat bozoridagi noxush vaziyat, buning oqibatida moddiy jihatdan ta'minlanmaganlik va ijtimoiy holatidagi o'zgarishlar ro'y beradi. Alohida ishchi uchun bu xavf ehtimoliy-tasodifiy tusga ega, lekin ishchilar guruhi uchun bu xolis-omnaviy nuqtai nazardan ortga qaytarishning imkoni bo'lmagan va muqarrar

holatdir. Ularning xolisligi va ommaviyligi asosini jamiyat hayoti tartibi, inson organizmining uning salomatligi va mehnatga layoqatligi nuqtai nazaridan qaralishidagi fiziologik qonuniyatlari, shuningdek, ishchilar uchun kasbiy shikastlanish xavfi kabilarning o'zaro bog'langan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy xususiyatlarining murakkab majmui tashkil etadi.

Ijtimoiy himoyaga beriladigan ta'rif uning ob'ektivligini aks ettiradi, ya'ni xodimlar va ularning oilalarining ijtimoiy holatiga taalluqlidir. Ushbu yo'sinda xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishning ob'ekti quyidagilarni qamrab oladi:

- aholining mehnat faoliyati bilan band bo'lishi uchun sharoitlar yaratib, bunda xodimlar o'z oilalariga yashash uchun yetarli miqdorda mablag' ishlab topishlariga imkon bo'lishi lozim;

- xodimlar uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish hamda o'zlari va oila a'zolarining sog'lig'ini saqlash, kasbiy ta'lim tizimlari xizmatlaridan foydalanishini ta'minlash;

- ishchi va oilasi uchun ishsizlik davri, kasalligi yoki yo'qotishlar tufayli daromadining keskin kamayishi, turmushidagi baxtsiz hodisa, keksalik, boquvchisini yo'qotishi vaziyatlarida yashash minimumini ta'minlab berish.

Ishchi va buyurtmachi o'rtasida manfaatlarini inobatga olib, ijtimoiy himoya sohasida o'zaro kelishuvga erishish uchun bir qator mos ravishdagi uslub va mexanizmlardan foydalanish zarur. Jumladan, muzokara, mehnat shartnomasi, me'yoriy tartib hujjatlar. Ijtimoiy himoyaning umume'tirof etilgan me'yorlarini mustahkamlovchi asosiy mexanizmlardan biri – bu qonundir. Odatda, ijtimoiy himoyaning dastlabki me'yorlari konstitusiyaviy huquq, mehnat va ijtimoiy qonunchilikda (pensiya ta'minoti, tibbiy yordam, nogironlarni ijtimoiy himoyalash) aks etadi.

Konstitusiyaviy, mehnat va ijtimoiy huquqda himoyaning qonunda tasdiqlangan shakllari va darajalari, ya'ni uning milliy tartiboti ifodalanadi.

Ushbu sohadagi xalqaro hujjatlarning asosiy holatlarining tahlili natijasida mamlakatimiz uchun quyidagi hodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishga ta'sir etuvchi omillarning muhimligi aniqlandi:

- jamiyat va davlatning shaxsga bo'lgan insoniy munosabat, uning sha'nini, erkin mehnat, kasb tanlash, ish joyi va ta'lim yo'nalishini tanlash huquqining himoyasi uchun ijtimoiy javobgarligi; mehnatni muhofaza qilish, qulay mehnat sharoitlarini yaratish, salomatlik va hayotini asrash, mehnatga layoqatligi yo'qolgan holatlarda yordam berish; ushbu harakatlar Umumjahon inson huquqlari deklarasiyasi, BMT, XMTning ijtimoiy hujjatlari, shuningdek, boshqa xalqaro me'yorlarga mos keladi;

- mehnat munosabatlari sohasidagi ijtimoiy adolat, ya'ni teng mehnat uchun teng taqdirlanish huquqi, mehnat xavfsizligi va g'igienasi, salomatlikni, mehnatga, ishga layoqatlikni asrash huquqi, ijtimoiy ta'minotga, nafaqa olishga bo'lgan huquqlar, ishlab chiqarishda jarohatlangan, kasallangan xodimlarning tibbiy, ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiya bilan ta'minlanishi;

- ishchilarni ijtimoiy va kasbiy xavf-xatardan himoya qilishning umumiy va

shartlili; ularning ijtimoiy himoyalani sh huquqini ta'minlash, bu hol xalqaro me'yorlar, shu jumladan, XMTning 67-, 118-, 158-konvensiyalarida qayd etilgan;

– ijtimoiy va kasbiy xatarlarning minimal darajasi, bunga xos axborotlarning oshkoraligi, xavfsizlikning ustun qo'yilishi, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka kasbiy, ijtimoiy xatar darajalari, ularni minimallashtirish va kompensatsiyalash asosida yetishish;

– mustaqil faoliyat yuritayotgan nodavlat tizimlar himoya dasturlarining kafolatlari;

– barcha asosiy himoya sub'ektlarining (davlat, tadbirkorlar, ijtimoiy sug'urta shirkatlari, kasaba uyushmalari) himoya tizim va shakllarini shakllantirish hamda takomillashtirishda manfaatdorligi;

– xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishda ishtirok etuvchi barcha sub'yektlarning hamjihatlili; xatarga qarshi birgalikda kurashish, xatar omillarini aniqlash, baho berish, ijtimoiy xatarlarni minimallashtirish, kompensatsiya masalasini yo'lga qo'yish;

– ishchilarning mehnat sohasidagi iqtisodiy va ijtimoiy erkinligi – kasb tanlash, kasbiy ta'lim olish imkoniyati, ish bilan ta'minlanishi, assosiasiyalar erkinligi, ya'ni kasaba uyushmalari, shirkat va boshqa shu kabi tashkilotlarga o'z huquqlarini himoya qilish maqsadida birlashish huquqi;

– o'z salomatligini, mehnatga layoqatligini asrash, kasb tanlash, ma'lum kasbiy va ijtimoiy xatarli ish joyini tanlashda ishchilarning shaxsiy javobgarligi;

– ijtimoiy himoya usullarining ko'p darajadali va turli manzilga ega ekanligi – barcha xodimlar uchun bo'lgan davlat kafolatlaridan boshlab to alohida toifa va kasbiy guruhlar taaluqli tor yo'nalishlardagi choralargacha, ushbu hol himoyalalanuvchilarga differensiyali yondoshuv, ya'ni turli ko'rinish va shakllarda bo'lgan himoyani qo'llash imkonini beradi;

– ijtimoiy himoyaning ko'p sub'yektlili – ijtimoiy himoya sub'yekti sifatida davlat (boshqarma va vazirliklar), ish byeruvchilar, kasbiy uyushmalar va tashkilotlar, hududiy boshqaruv organlari chiqishlari lozim;

– ijtimoiy himoya choralarining har tomonlama bo'lishi va turli yo'nalishlarga egaligi. Ijtimoiy himoya ob'ektlari sifatida (professinol) kasbiy yo'nalish ishchilari olinadi; ularga ish haqi to'lash, sharoitlar yaratish, kasbga tayyorlash, tibbiy xizmat ko'rsatish, mehnatga layoqatligini yo'qotganda kompensatsiya to'lash, reabilitatsiya ishlarini yo'lga qo'yish lozim.

Yuqorida keltirilgan xodimlarni himoyalashga doir omil va tavsiflarga ko'ra uni quyidagicha ta'riflash mumkin: ijtimoiy himoya – bu ishchilarni ularning mehnat hayoti sifatiga salbiy ta'sir qiladigan omillardan (ijtimoiy va kasbiy xavf-xatar) himoyalashning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, tibbiy va texnik choralar tizimi; uning maqsadi tashkilot, alohida hudud va davlatlarda ijtimoiy himoyaning maxsus mexanizm, jamg'arma, sug'urta jamg'armalari va institutlarini yaratish orqali ishchilar salomatligi, mehnat faoliyati, moddiy holatini qonunchilik hamda mehnat shartnomalarida qayd etilgan shartlar va holatlarda asrashdir.

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishning profilaktik-ogohlantiruvchi,

iqtisodiy, ijtimoiy-reabilitasiya va siyosiy vazifalari mavjud.

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishning **profilaktik-ogohlantiruvchi vazifasi** mehnat jarayonida xodimlar salomatligi va mehnat qobiliyatini asrashga qaratilgan tashkiliy-texnik, tibbiy tadbirlar majmuini o'tkazishda o'z ifodasini topadi.

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishning **iqtisodiy vazifasi** vaqtinchalik yoki doimiy ish qobiliyatini (kasallik, baxtsiz hodisa, keksalik) yoki boquvchisini yo'qotish sababli ish haqi va daromaddan mahrum bo'lganlarga mablag' to'lash hamda davolanish va nogironlik bilan bog'liq bemorlarga kompensatsiyani ta'minlashdan iborat.

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishning **ijtimoiy-reabilitasion vazifasi** ishchining yo'qotgan salomatligi va mehnatga layoqatligini tiklash maqsadida tibbiy, kasbiy va ijtimoiy reabilitasiya majmuini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishning **siyosiy vazifasi** konstitutsiya va qonunchilikda kafolatlangan ijtimoiy va huquqiy me'yorlarni ta'minlash maqsadida ijtimoiy himoyalashning samarali faoliyat yurituvchi institut va mexanizmlarini yaratish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

4.2. Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish shakllari va mexanizmlari

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi o'z tarkibiga keng doiradagi quyidagi komponent va segmentlarni (element, shakl, mexanizm, tizim va institutlarni) qamrab oladi (4.1-jadval):

– alohida me'yoriy-huquqiy elementlar: ular bir tashkilotga birlashmay, o'z-o'zicha yoki boshqa elementlar bilan kombinatsiyada amal qiladi. Ular jumlasiga mehnat va ijtimoiy huquqning qonunchilik me'yorlarini kiritish mumkin (mehnat to'g'risidagi kodekslar, pensiya ta'minoti va sog'liqni saqlash to'g'risidagi qonunlar), ushbu me'yorlar to'g'ridan-to'g'ri amal qilish xususiyatiga ega: ishchilarni ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish, ish vaqti tartiblari, ishdan tashqari vaqtdagi va tungi ishlarga haq to'lash, ayollar va o'smirlar mehnatini himoyalash, pensiya va nafaqa puli, shuningdek, tibbiy yordam me'yorlarining miqdorlari;

– o'z tarkibiga iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy tuzilmalarni kirituvchi ijtimoiy himoya mexanizmlari; ushbu tuzilmalar himoyaning ma'lum vazifa va turlarini (xodimlar daromadlarini himoyalash, mehnat va tibbiyot himoyasi), shuningdek, ijtimoiy sub'ektlar o'rtasidagi kelishuvga erishish vositalari – tarif kelishuvlar, jamoa shartnomalari, mehnat shartnomalari kabilarni ta'minlashga qaratilgan;

– tashkiliy-huquqiy tuzilmalar ko'rinishidagi ijtimoiy himoya institutlari; ushbu tuzilmalar himoyalashning maqsadga yo'naltirilgan vazifalarini ma'lum yuridik maqom hamda iqtisodiy imkoniyatlar bilan muvofiq holda (majburiy va ixtiyoriy ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy himoya, davlat ijtimoiy ta'minoti) bajarishga

mo'ljallangan.

Davlat ijtimoiy kafolatlari minimal ijtimoiy standartlar bilan birgalikda ijtimoiy himoya tizimida uning elementlari sifatida hamda ayni vaqtda ushbu sohadagi uzoq muddat ta'sirini o'tkazuvchi davlatning vosita va mexanizmlari sifatida namoyon bo'ladi. Ular qisqa va uzoq muddatlarga tuzilgan ijtimoiy jarayon bashoratlari uchun asos bo'lishda, ijtimoiy siyosatning maqsad va yo'nalishlarini belgilash uchun xizmat qilishda qo'llaniladigan etalon va maqsadli dastur vazifasini bajarib, ijtimoiy sohaning amaliy holatini, ilg'or ijtimoiy texnologiyalar sohasida qo'llanilayotgan choralar samaradorligini baholash mezonlari ko'rinishida qo'llaniladi. Bunday ko'p funktsiyali rolni ularning kelib chiqish tabiati bilan izohlash mumkin.

Davlat ijtimoiy kafolatlari – bu qonun bilan tasdiqlangan va fuqarolarning konstitutsiyaviy majburiyatlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan davlat majburiyatlaridir. Davlat ijtimoiy kafolatlari asosini davlat minimal ijtimoiy standartlari tashkil qilib, ular hayot uchun muhim sanalgan ne'matlar va sharoitlar bilan ta'minlanganlik, iste'mol qilish darajasining aholi ijtimoiy-demografik guruhlari hamda mamlakatlar hududlari bo'yicha ilmiy asoslangan ko'rsatkichidir. Mazkur tizim o'z ichiga quyidagi komponentlarni qamrab oladi:

4.1-jadval

Mehnat jarayonida xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish elementlari, mexanizmlari va tizimlarining tasnifi

Elementlar	Mexanizmlar	Tizimlar
Ijtimoiy kafolatlar – milliy darajada: mehnat, ijtimoiy qonunchilik; xavfsizlik texnikasi va mehnat gigienasi	Iqtisodiy, huquqiy, siyosiy	Davlat minimal ijtimoiy standartlari: tibbiy va kasb tanlash, ishchilarni kasbga tayyorlash
Jamoa, hududiy, tarmoq va general kelishuvlardagi ijtimoiy kafolatlar	Ijtimoiy	Mehnatni muhofaza qilish, kasbiy xavf-xatarning profilaktikasi, baholanishi, minimallashtirilishi, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish
Xalqaro Mehnat Tashkiloti konvensiya va tavsiyalaridagi ijtimoiy kafolatlar	Iqtisodiy, huquqiy	Kasb kasalligi va ishlab chiqarishda mehnat qobiliyatini yo'qotganligini aniqlash, tibbiy, ishsizlik bo'yicha nafaqa, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan ijtimoiy sug'urta

– aholi daromadlari sohasidagi ijtimoiy me'yor va me'yoriy ko'rsatkichlar (yashash minimumi, mehnatga minimal haq to'lash va ijtimoiy to'lovlar ko'rinishidagi daromadlar, majburiy ijtimoiy sug'urta tizimidagi yordam pulining

minimal hajmi);

- ijtimoiy xizmat ko'rsatishning texnologiya va sifatining standart va me'yorlari, ularga bo'lgan talablar (tibbiy yordam ko'rsatish va davolashda tashxislash, davolash va profilaktika muolajalarining kafolatlangan miqdori);
- standartlarni qo'llash va amalga oshirilishining moliyaviy ta'minoti;
- boshqaruvning tashkiliy tarkibi (standartlar ishlab chiqarilishi va amalga oshirilishining ilmiy, amaliy va statistik ta'minoti) bo'lib, u mamlakatning ijro etuvchi va ta'sis etuvchi hokimiyat organlari, sub'ektlari, shuningdek, joylardagi o'zini-o'zi boshqarish organlaridan iborat.

Davlat minimal ijtimoiy standartlar tizimi ijtimoiy himoya sohasidagi davlat ijtimoiy siyosatining budgetini tartibga solish va amalga oshirish mexanizmlaridan biriga aylanmoqda.

Ijtimoiy himoyaning muhim segmentlaridan biri – bu xodimlarni kasbiy xavf-xatardan himoyalash bo'lib, uning mexanizmlari 4.2-jadvalda berilgan.

4.2-jadval


Mehnatni muhofaza qilish sohasida himoya bilan ta'minlashning iqtisodiy-buquqiy va tashkiliy mexanizmi

Mehnat sharoitlari zararli va xavfli bo'lgan ish joylarida ishlab chiqarish bilan bog'liq jarohatlanish va kasb kasalliklarini profilaktika qilish choralari		Ishlab chiqarish bilan bog'liq sabablarga ko'ra ishchilarning mehnatga layoqatligini yo'qotish hollaridagi ijtimoiy himoya
Ishga joylashayotganda	Ish jarayonida	
Mehnat sharoitlari zararli va xavfli bo'lgan ishlarda ishlab chiqarish bilan bog'liq jarohatlanish va kasb kasalligiga uchrash xatarining yuqori darajalari haqida ogohlantirish	Tashkilot ma'muriyati (ishga oluvchilar) tomonidan ish joylarida mehnat uchun xavfsiz sharoitlar yaratilishi	Tibbiy muassasalar tomonidan kasb kasalligiga uchrashning dastlabki bosqichlaridayoq ishchilarda mehnatga layoqatlilikning yo'qotilishini aniqlash va boshqa ishga o'tishini ta'kidlash
Ishchilar bilan tezkor mehnat shartnomasi tuzishda kasb kasalligi xatarini imkon qadar kamaytiruvchi muddatni tanlash va belgilash	Ishchilarni samarali va ishonchli jamoa va individual himoyalash bilan ta'minlash	Mehnatga layoqatlilikni yo'qotgan ishchilar va ularning oilalarining iqtisodiy himoyasini ta'minlovchi tashkilotlarga ijtimoiy sug'urta harajatlarini qoplash
Ishga joylashayotganlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish	Ma'muriyat tomonidan ishchilarni muntazam tarzda tibbiy ko'rikdan o'tkazishning ta'minlanishi	
Kasbiy tayyorgarlik va tavsiyalar	Ma'lum davrlarda tavsiyalar berish va kasbiy tayyorgarlikni tashkil etish	Ishlab chiqarishda jarohatlanganlarni tibbiy, ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiyani tashkil qilish

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmini ikkita – ijtimoiy-iqtisodiy va moddiy-ashyoviy tuzilmalar yordamida tasniflash mumkin.

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari

tarkibi quyidagilardan iborat (4.1-rasm):



4.1-rasm. Mehnat jarayonida xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmlari

1. Ijtimoiy-mehnat munosabatlari – ijtimoiy kafolatlar:

- ish vaqti davomiyligini tartibga solishni ta'minlovchi: mehnat va dam olish tartiblari, mehnat yoshi chegaralari, pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lish uchun mehnat stajining eng kam miqdori, ishga qabul qilishning eng kichik yosh davri. Ijtimoiy-mehnat tizimi kafolatlarining ishlab chiqilishidagi asosiy yondoshuv sifatida Xalqaro Mehnat Tashkilotining konvensiya va tavsiyalari olinadi;
- moddiy jihatdan ta'minlovchi kafolatlangan eng kam ish haqi miqdori, mehnatga haq to'lashning ta'rif setkalari, tashkilot hisobidan ta'tillar, mehnat layoqatligini yo'qotish bilan bog'liq holda eng kam miqdordagi yordam puli va nafaqalar;
- mehnat yuklamalari miqdori – jismoniy yuklama, mehnat intensivligi va bir maromdaligi, ish tezligi, mehnatni me'yorlash;
- kasbiy-ta'lim va axborot ta'minoti – ishchilarning kasbiy tayyorlarligi tizimining mavjudligi, ayniqsa kasb xatari yuqori bo'lgan ishlab chiqarish va kasblarda.

2. Tibbiy:

- dastlabki va davriy tibbiy ko'riklardan o'tkazish, birinchi tibbiy yordamni tashkil etish;
- ishlab chiqarishda jarohatlangan xodimlarni davolash, mehnat layoqatligini yo'qotilganini (shu jumladan, ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalligi sababli) aniqlash tizimi.

3. Kompensatsiya-reabilitatsion:

- ishlab chiqarishda mehnatga layoqatligini yo'qotgani uchun moddiy

ta'minlash (kompensatsiyalash);

– ishlab chiqarishda jarohatlanganlarning tibbiy, ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiyasi;
– salomatlikka kasb xatari yuqori bo'lgan ishlab chiqarishda imtiyoz va kompensatsiyalar to'lash (qo'shimcha ta'til, qisqartirilgan ish kuni, muddatidan oldin tayinlanadigan pensiya).

4. Tashkiliy-nazorat:

– ish joylarida mehnatni muhofaza qilish holatlarini ekspertiza qilish;
– ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar tekshiruvini tashkil etish.

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishning moddiy-ashyoviy mexanizmlari ishlab chiqarish sohasining moddiy-ashyoviy elementlari, ijtimoiy infratuzilma, mehnat muhofazasi, gigienasi va tibbiyoti kabilardan tashkil topgan guruh bo'lib, ular insonning mehnat faoliyati jarayonidagi ijtimoiy himoyalashining ma'lum darajasini belgilaydi.

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishning ushbu mexanizmlari guruhini quyidagicha turkumlash mumkin:

– ijtimoiy muhofazaning texnik mexanizmlari – ishlab chiqarish fondlarining mexanizatsiya va avtomatlashtirilish darajasi, mehnatning jamg'arma va energiya bilan ta'minlanganligi, asosiy ishlab chiqarish bo'linmalarining holati (ularning jismoniy va ma'naviy eskirganligi), mehnat gigienasi va xavfsizlik texnikasi talablariga mehnat qurollari va ish joyining javob berish darajasi; xodimlarni individual va jamoa tarzda himoyalash vositalarining mavjudligi va xavfsizlik texnikasiga javob berishi;

– ijtimoiy-maishiy infratuzilma: sanitar-maishiy infratuzilmaning (dush, kiyinish xonasi, ovqatlanish joyi) mavjudligi va sanitariya talablariga javob berishi.

Ta'kidlash joizki, mazkur elementlarning ikkita katta guruhga (ijtimoiy-iqtisodiy va moddiy-ashyoviy) tasniflanishi ularning tarkibi va o'zaro bog'lanishi haqida tasavvur hosil qiladi.

4.3. Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishda Xalqaro Mehnat Tashkilotining o'рни

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish muammolari alohida mamlakatlar vakolati hisoblanmaydi. Muammoning aksariyat qismi insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi tufayli xalqaro ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bu muammolar bilan turli xalqaro tashkilotlar – Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) singari mustaqil tashkilotlar faol shug'ullanadi.

XMT 1919 yili Birinchi jahon urushiga yakun yasalgan Versal shartnomasi deb nom olgan tinchlik bitimi tufayli tashkil topgan. Bu tashkilot 1946 yili BMTning birinchi ixtisoslashtirilgan agentligi bo'ldi. Bugungi kunga qadar XMT tomonidan 187 ta konvensiya qabul qilingan.

XMT ijtimoiy tinchlikni qaror toptirish va saqlash, inson huquqlarini muhofaza qilish, ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish va mehnat sohasidagi bir qator o'ziga xos masalalarni hal qilish maqsadida tashkil etilgan. U o'z faoliyati mobaynida muzokara jarayonini rivojlantirish, yuzaga keladigan ijtimoiy-mehnat muammolari va nizolarni muzokaralar, bitimlar asosida bartaraf qilish va ko'pincha mehnatning aniq muammolarini hal etish borasida katta tajribaga ega hamda beqiyos amaliy ishni amalga oshirgan. XMT ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish, sog'lom ijtimoiy-mehnat munosabatlarini qaror toptirishda zarur bo'ladigan organlar va mexanizmlarni yaratish hamda mustahkamlashda hukumatlar, tashkilotlar, xodimlar va tadbirkorlarga yordam ko'rsatadi.

XMTning bosh maqsadi – ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga, xodimlarning farovonligini oshirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash, inson huquqlarini muhofaza qilishga yordam berishdan iborat.

Ko'zlangan maqsaddan kelib chiqib, **XMTning asosiy vazifalari** quyidagilar belgilangan:

- ijtimoiy-mehnat muammolarini hal etishga yo'naltirilgan siyosiy dasturlarni ishlab chiqish;
- qabul qilingan siyosatni amalga oshirish va ularga rioya etilishini nazorat qilish maqsadida konvensiya va tavsiyalar ko'rinishidagi xalqaro mehnat me'yorlarini ishlab chiqish hamda qabul qilish;
- ishtirokchi mamlakatlarga bandlikni oshirish va ishsizlikni kamaytirish muammolarini hal qilishda yordam berish;
- inson huquqlarini muhofaza qilish (mehnat qilish, birlashish huquqi. majburiy mehnatdan, kamsitishdan muhofaza qilish va boshqalar);
- kambag'allikka qarshi, xodimlarning turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy ta'minotni rivojlantirish uchun kurash;
- mehnat shart-sharoitlarini va ishlab chiqarish muhitini yaxshilash, xavfsizlik texnikasi va mehnat gigiyenasi, atrof-muhitni muhofaza qilish va qayta tiklash sohasidagi dasturlarni ishlab chiqish;
- xodimlar va tadbirkorlarga tashkilotlarda ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha hukumat bilan hamkorlikda ishlashlarida yordam berish;
- xodimlarning eng zaif guruhlarini (ayollar, yoshlar, nogironlar, keksalar, migrant-xodimlar) muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishning milliy tizimi har bir mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishidagi o'ziga xosligini hisobga olgan holda XMTning me'yorlovchi faoliyati ta'siri ostida shakllanadi. Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish borasida xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan muhim tamoyillarga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy muhofazaning umumiy tavsifi, ijtimoiy kafolatlarni amalga oshirishdagi imtiyozlar. Turli xalqaro hujjatlarda, xususan, XMTning 67-, 118-, 157-Konvensiyalarida kishining ijtimoiy himoyalanih huquqining ta'minlanishi qat'iy yozib qo'yilgan;

– aholining tegishli ijtimoiy guruhlarini qamrab oluvchi kishilar guruhi yoki mamlakat barcha aholisining ijtimoiy sug'urta asosidagi u yoki bu ta'minot turidan manfaatdorligi;

– ijtimoiy sug'urtaning majburiy va ixtiyoriy shakllarining birligi, teng huquqliligi va shakllarining turli-tumanligi. Ijtimoiy himoyaning zaruriy darajasi ta'minlanadi va ishlovchining imkoniyati uning himoyalaniish darajasiga ta'sir ko'rsatadi;

– kishilarning sog'ligi va ularning moddiy ahvoriga xavf soluvchi, barcha oldindan ko'rilmagan holatlarda ishlovchi xodimlar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy sug'urtalashning huquqiy va tashkiliy imkoniyatlarini yaratish;

– ijtimoiy sug'urtaning turli tizimining bir vaqtning o'zida amal qilishidagi mustaqilligi va o'z-o'zini idora qilish sharoitida majburiy ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar darajasi va tizim barqarorligining davlat tomonidan kafolatlanishi;

– sug'urtalangan shaxs va ish byeruvchi moliyaviy ishtirokining majburiyligi, zaruriy holatlarda davlat subsidiyalarining jalb etilishi. Sug'urtalangan shaxsga uning sug'urta badallarini to'lashdagi moliyaviy ishtiroki tufayli hosil bo'lgan mablag'dan unga turli shakldagi moddiy yordam va xizmatlar ko'rsatishi ta'minlanadi;

– olingan mablag'larni saqlashdagi alohida tartib, davlat budjetidan alohidalik, shuningdek, sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar vakillari orqali mablag'lardan foydalanish ustidan nazorat qilish.

1944 yili Xalqaro mehnat konferensiyasining 26-sessiyasida qabul qilingan "XMT maqsad va vazifalari to'g'risida"gi deklarasiyada tashkilot faoliyatiga asosiy yondashuvlar tasdiqlanib, unda quyidagi tamoyillar ajratib ko'rsatilgan:

– mehnat tovar hisoblanmaydi;

– so'z erkinligi va birlashish erkinligi doimiy taraqqiyotning zaruriy sharti hisoblanadi;

– har qanday joydagi qashshoqlik umumiy farovonlik uchun xavf hisoblanadi;

– muhtojlikka qarshi kurash har bir davlatda hamda hukumat vakillari bilan teng huquqlardan foydalanadigan xodimlar va tadbirkorlar vakillarining doimiy va kelishilgan harakatlari vositasida xalqaro ko'lamda hech bir susaytirmay olib borilishi kerak, bunda yuqorida aytilganlar umumiy farovonlikka yordam berish maqsadida demokratik qarorlarni muhokama va qabul qilish uchun birlashadi.

Aholining ish bilan bandligi sohasida XMTning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

– muvozanatlangan va qo'shimcha iqtisodiy o'sishga ko'maklashish yo'li bilan ish bilan bandlikka yordam berish;

– ish bilan samarali bandlik vositasida kambag'allik darajasini pasaytirish;

– mehnat bozorida faol siyosat o'tkazish;

– ish bilan bandlikning barqarorligi bilan ish haqi barqarorligining oqilona nisbatiga erishish;

– xodimlarning eng zaif guruhlari: ayollar, yoshlar, migrantlarni muhofaza

qilish.

XMTning asosiy faoliyati xodimlar sog'lig'iga zararli mehnat sharoitlarini yaxshilash, xodimlar va ular oila a'zolariga ijtimoiy kafolatlarning minimal miqdorini aniqlash bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Keyinchalik bu tashkilotning ijtimoiy muhofaza muammolariga yondashuvi ancha kengayib, tibbiy xizmat ko'rsatish, mehnatni tashkil etish va xodimlarni kasbga tayyorlashning turli masalalarini ham qamrab oldi. 1944 yilda XMT ikkita muhim hujjat: "Daromadni taqsimlash tug'risida"gi 67-tavsiyanoma va "Tibbiy xizmat to'g'risida"gi 69-tavsiyanomalarni qabul qilganidan so'ng ijtimoiy muhofazaning keng va barcha ishlarni qamrab oluvchi tizimini yaratish imkoniyati tug'ildi.

Bu hujjatlar xodimlar sog'lig'iga yoki ularning moddiy faravonligiga xavf tug'iladigan vaziyatlarda ijtimoiy kafolatlash uchun javobgarlikni davlatlar va hukumatlar zimmasiga yuklaydi.

XMT tavsiyalarida o'zaro yordam va ijtimoiy sug'urta dasturlarini yagona ijtimoiy muhofaza tizimiga birlashtirish, jumladan, alohida xodimlar guruhiga va ularning oila a'zolariga asosiy kafolatlar berishning turli usullaridan keng foydalanish taklif etilgan. XMT faoliyatining rivojlanishi jarayonida ijtimoiy muhofazaning milliy tizimlarini yaratishga oid shart-sharoitlar ishlab chiqildi.

Bunda ijtimoiy siyosatning asosiy tamoyillari quyidagilarni nazarda tutadi:

– barcha xodimlarga mehnat qilishga tayyorgarlik ko'rish va unda ishtirok etish har qanday asosdagi kamsitishlardan xoli tarzda teng foydalanish ta'minlanishi kerak;

– milliy siyosat va dasturlar fuqarolarni, birinchi navbatda, ularni o'z manfaatlarini, shuningdek, mamlakat ehtiyojlarini nazarda tutib, mehnat layoqatlarini rivojlantirishga undashi kerak;

– ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida yoshlar va katta yoshdagilar butun hayotlari mobaynida kasbiy tayyorgarlik ko'rish talablariga javob berishi kerak;

– kasbiy tayyorgarlik milliy siyosati va dasturlarini hukumat tadbirkorlar hamda xodimlar tashkilotlari bilan hamkorlikda milliy dastur asosida ishlab chiqishi va amalga oshirishi kerak.

XMT ko'p shug'ullanadigan eng keskin masalalardan biri inson huquqlarini himoya qilish hisoblanadi. Tashkilot turli mamlakatlarda inson huquqining buzilishini ko'rib chiqish bilan shug'ullanadigan nazorat organlarining butun bir tizimiga ega hamda uning butun faoliyati inson huquqlari, mehnat qilish huquqi va majburiy mehnatdan muhofaza qilish, normal mehnat qilish shart-sharoitiga ega bo'lishi, kamsitilishdan muhofaza qilish, kasaba uyushmalariga birlashish huquqi va boshqalarga daxldor deyish mumkin.

XMT faoliyatining asosiy yo'nalishi aholini, shu jumladan, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishdir. XMT ijtimoiy muhofazani ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy yordamga bo'ladi. Ijtimoiy muhofazani bunday guruhlashning dastlabki bosqichlarida uning yangi shakllarining vujudga kelishi asosan birinchi jahon urushidan keyingi davrlarga to'g'ri keladi. Birinchi jahon urushining oqibatlari

sanoati rivojlangan mamlakatlarni ijtimoiy himoyalashning yangi shakllarini ta'minlash yo'llarini izlashga majbur qildi va 1919-yili Versal shartnomasi doirasida ta'sis etilgan XMT faoliyatida o'z ifodasini topdi. Xodimlarni ijtimoiy xatarlardan himoyalash darajasining oshishi XMT faoliyatining asosiy yo'nalishiga aylandi. Hattoki, tashkilotning birinchi ishlab chiqqan va qabul qilgan Konvensiyasi ijtimoiy himoyaning asosiy masalalariga bag'ishlangan.

4.3-jadval

Xalqaro Mehnat Tashkilotining yondoshuviga ko'ra ijtimoiy himoyaning guruhlanishi

Ijtimoiy sug'urta	Ijtimoiy himoya
1. Moliyalashtirish odatda ish beruvchilar va ishlovchilar hisobidan davlatning imkoniyat darajasidagi ishtiroki bilan amalga oshiriladi.	1. Davlat va mahalliy budjetlar hisobidan moliyalashtiriladi.
2. Ishtirok etish majburiy	2. Qonunchilikka muvofiq to'lovlar muhtojlarning tegishli toifalariga to'lanadi.
3. To'lov badallar asosida shakllanuvchi maxsus fondlardan amalga oshiriladi.	3. Muhtojlikni baholashda tegishli shaxsning daromadi va mol-mulki miqdori hisobga olinadi.
4. Fondning bir qismi foyda olish maqsadida investitsiyalanishi tufayli ko'pincha qo'shimcha mablag'lar jalb qilinmaydi.	4. Nafaqa berishdan maqsad shaxs daromadining bir qator omillarini hisobga olgan holda jamiyatda belgilangan minimumgacha olib kelish. Nafaqa hajmi ish haqining oldingi darajasi va turmush darajasiga bog'liq emas.
5. Shaxsning nafaqa olish huquqi moddiy ta'minlanganligini hisobga olmagan holda badallar olinganligi to'g'risidagi ma'lumotga asoslanadi.	5. Ijtimoiy yordam daromadlarni aniqlash natijalariga ko'ra beriladi va uning nisbatan oshib borishiga yo'naltiriladi.
6. Badallar va to'lovlar darajasi ko'pincha aniq shaxsning kimligiga (beva, nogiron) yoki uning ish haqi miqdoriga to'g'ri bog'liq bo'ladi.	
7. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sug'urtalashni odatda davlatning imkoniyatli ishtirokida ish beruvchi moliyalashtiradi.	

XX asrning 30-yillaridan boshlab XMT xodimlarning huquqlari uchun ijtimoiy sug'urtaning barcha asosiy tomonlarini belgilovchi quyidagi Konvensiyalarni qabul qildi: №24 – Sanoatda kasallik bo'yicha sug'urtalash (1927 y.); №25 – Qishloq xo'jaligida ishlovchilarni sug'urtalash (1927 y.); №37. Sanoatda nogironlik holatlarida sug'urtalash (1933 y.); №39 – Sanoatda boquvchisini yo'qotganlik holatlarida sug'urtalash (1933 y.); №40 – Qishloq xo'jaligida boquvchisini yo'qotganlik holatlari bo'yicha sug'urtalash (1933 y.); №56 – Dengizchilarni kasallik bo'yicha sug'urtalash (1936 y.).

1944 yilda XMTning yangi doktrinaga yo'naltirilgan ikkita muhim xalqaro Nizomni – “Daromadlarning ta'minoti to'g'risida” 67-sonli tavsiyanoma va “Tibbiy xizmat ko'rsatish to'g'risida”gi 69-sonli tavsiyanomalarni qabul qilishi ijtimoiy himoya tizimi rivojida muhim qadam qo'yilishiga asos bo'ldi. Bu

tavsiyanomalar kishilar sog'lig'iga yoki ularning moddiy ahvoriga xavf soluvchi barcha oldindan ko'zda tutilmagan holatlarda davlat va hukumatning barcha aholiga ijtimoiy kafolat ko'rsatishiga yo'naltirilgan.

Tavsiyanomada ijtimoiy sug'urta va o'zaro yordam dasturlarini himoyaning yagona tizimiga birlashtirishni taklif etildi. Shuningdek, xodimlarning alohida guruhlar va ularning oila a'zolariga asosiy kafolatni ko'rsatishning turli mexanizm va usullarini kengroq qo'llash uchun asoslar tayyorladilar. Shu tarzda sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik kabi ijtimoiy siyosat jihatlarini bilan aloqa o'rnatish yo'li orqali bir tomondan, ijtimoiy sug'urtaning milliy tizimini asta-sekin yaratish uchun va ikkinchi tomondan ijtimoiy himoyaning keng qamrovli tizimini joriy qilish uchun imkoniyat yaratildi.

Ta'kidlash lozimki, XMT ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotning milliy tizimini yaratish ko'pgina omillarga, xususan, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq va o'ziga xos yondashuvni talab etadi, degan nuqtai nazarni ilgari suradi. Shuning uchun XMTning tavsiyalari umumiy xarakter kasb etadi, masalan bu (1952 y.) "Ijtimoiy ta'minotning eng kam me'yorlari to'g'risida"gi 102-sonli Konvensiyada aniq namoyon bo'ladi. Unda ijtimoiy himoyaning asosiy shakllari, ijtimoiy himoya ko'rsatiladigan aholi toifalari va himoya choralarining bir qator miqdor va sifat tavsiflari berilgan. Xususan, 102-sonli Konvensiya eng kam himoya shakllariga daromadlarning pasayishi, sog'liqni yo'qotish yoki vafot etish holatlarida to'lov shaklida ko'rsatiladigan yordamni kiritadi. XMT hujjatlarida tibbiy yordam, kasallik, ishsizlik, qarilik, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar bilan bog'liq nafaqalar, oilaviy nafaqa, homiladorlik va farzand tug'ilganlik bo'yicha nafaqa, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqa, o'zaro yordam nafaqasi ijtimoiy sug'urta va ta'minotning asosiy shakllari sifatida keltiriladi va ular birgalikda zamonaviy ijtimoiy himoyaning asosini tashkil etadi.

XMTning bu sohadagi "Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida"gi 102-sonli Konvensiya (1952 y.); "Ijtimoiy ta'minot sohasidagi teng huquqlilik to'g'risida"gi 118-sonli Konvensiya (1962 y.); "Keksa xodimlar to'g'risida"gi 162-sonli Konvensiya (1980 y.); "Ijtimoiy ta'minot sohasida huquqlarni saqlash to'g'risida"gi 157-sonli Konvensiya (1982 y.) va 167-sonli tavsiyanomalari (1983 y.) va boshqalar urushdan keyingi davrda qabul qilingan.

Ijtimoiy yordam, ijtimoiy sug'urtaning milliy tizimi mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishidagi o'ziga xosligini hisobga olgan holda XMTning me'yorlovchi faoliyati ta'siri ostida shakllandi.

Shular bilan bir qatorda, mehnat qilish shart-sharoitlari, xavfsizligi, gigienasi, ishlab chiqarish va atrof-muhit kabilar ham XMT faoliyatining muhim yo'nalishlari hisoblanadi. Bular XMTning ko'plab konferensiyalarida muhokama qilingan va uning Konvensiya hamda tavsiyalarida o'z aksini topgan. XMTning bu sohadagi faoliyati mehnatning umumiy shart-sharoitlarini, uni tashkil etish va muhofaza qilishni, ishlab chiqarish, xavfsizlik texnikasi hamda mehnat gigienasi sohasini yaxshilashga, mehnatni insoniylashtirish va ishdan qoniqishni

oshirishga, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda yaxshilashga yo'naltirilgan.

Mehnat shart-sharoitlari, ishlab chiqarish muhitini yaxshilash to'g'risidagi qonunchilik hamda uni hayotga tatbiq etish harakati mehnatni yanada insoniyroq qilish maqsadida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltiriladi. Bunda avvalo, xodimlarning jismoniy hamda aqliy layoqatlariga, mehnat qurollarini loyihalash va mehnatni tashkil etish, haddan tashqari ish bilan ko'mib yuborish va charchash holatlarini bartaraf qilishni ham o'z ichiga oluvchi iqtisodiy tamoyillarga muvofiq keladigan shart-sharoitlarni yaratish nazarda tutiladi.

XMTning aksariyat me'yoriy hujjatlarida aholini, shu jumladan, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish masalasi o'z aksini topgan. Jumladan, 121-, 148-, 155-Konvensiyalar, 31-, 97-, 112-, 156-, 164-tavsiyalarida davlat ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishlari sifatida quyidagilar ko'rsatilgan:

– mehnat shart-sharoitlari va uni muhofaza qilish sohasida qonunlar hamda boshqa me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

– mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va mehnat gigienasi sohasida davlat va boshqa turdagi nufuzli hamda vakolatli organlarni tashkil qilish, ular faoliyatini muvofiqlashtirish;

– xavfsiz texnika va texnologiyasini ishlab chiqish hamda joriy etishni rag'batlantiradigan, xavfsiz mehnat va ishlovchilarni ijtimoiy muhofazalash shart-sharoitlarini shakllantirishga yordam beradigan samarali xo'jalik mexanizmlarini yaratish;

– xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishni, baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan sug'urta qilish tizimlarini, kasalliklarning oldini olish, jabrlanganlarni tibbiy va kasbiy rehabilitatsiya qilishga mo'ljallangan, asosan tadbirkorlar badallari hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan xizmat va markazlarni tashkil etish yo'li bilan ta'minlash;

– mehnat shart-sharoitlari va uni muhofaza qilish, xodimlarni o'qitish va kasbiy tayyorlash. Ularning axborot ta'minoti muammolari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda amalga oshirish;

– turli jamoachilik tashkilotlari va birlashmalari, uyushmalar va alohida shaxslarning mehnatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan faoliyatlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlar bilan barcha darajadagi boshqaruv xodimlari o'rtasida mehnatni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikka yordam berish.

Shu bilan birga, 155-Konvensiyada milliy siyosatni ishlab chiqish, amalga oshirish va qayta ko'rib chiqish, ish natijasida, ish jarayonida yoki unga aloqador holatda yuzaga keladigan baxtsiz hodisalar, sog'liqqa shikast yetkazishlarni yo'q qilish hamda uni imkon qadar kamaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi ta'kidlangan.

Asosiy muammolarni taqsimlash, ularni hal qilish va natijalarni baholash uslubiyotini aniqlash maqsadida mehnat xavfsizligi va gigienasi sohasidagi majburiyatlarni davlat, tadbirkorlar, xodimlar bilan boshqa shaxslar o'rtasida taqsimlash milliy siyosat tamoyillari doirasiga kiradi. Milliy darajadagi chora-tadbirlar shu sohada barcha faoliyatni muvofiqlashtirishni, mehnat xavfsizligi va

gigiyenasi bo'yicha kasbiy tayyorgarlikni, ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazilishini, shuningdek, inspeksiya tizimi yaratilishini ta'minlashi kerak.

Mehnat muhofazasi sohasidagi yana bir ijtimoiy kafolat xodim hayoti va sog'lig'iga xavf tug'ilgan holatda xodimning ishni boshlashdan bosh tortish yoki ishni to'xtatish huquqidir.

Shuni ta'kidlash lozimki, XMT o'z faoliyatida, xususan, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish sohasida amal qiladigan eng muhim tamoyil kelishilgan milliy ijtimoiy siyosatni ishlab chiqishda uch tomonlama hamkorlik, ya'ni "davlat-tadbirkorlar-xodimlar" hamkorligidir. Bunday yondashuv qarorlarni ishlab chiqishning barcha bosqich va boshqaruv darajalarida kesishuvga erishishning muhim shartidir. Qarorlar qabul qilish jarayonida ijtimoiy sheriklarning ishtirok etishi ikkita afzallikni ta'minlaydi: qarorlarning asoslanganligini mustahkamlaydi va bu qarorlar mahsulini adolatli taqsimlashni ta'minlaydi.

Tadbirkorlar va ishchilarning faol hamda mustaqil tashkilotlari mehnat shart-sharoitlari va ijtimoiy muhofazalashning boshqa barcha tarkibiy qismlarini yaxshilashda muhim rol yo'naydi. Ularning ta'sir doirasi avvalo, axborot olish va u bilan ishlash, kadrlarni tayyorlash, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishning iqtisodiy-huquqiy mexanizmlarini (ijtimoiy sug'urta tizimini, mehnatni muhofaza qilish qo'mitalarini) yaratishni qamrab oladi. Ish beruvchilar va ishchilar vakillarining hamkorlikdagi intilishlari bilan ishlab chiqilgan tavsiyalar ko'p hollarda jamoa shartnomalari va chegarali tarif bitimlarini tuzishda tadbirkorlar bilan kasaba uyushmalari o'rtasidagi muzokaralarda pirovard qarorlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aytib o'tilgan ikkala tomon (bir vaqtda va hamkorlikda) vakillarining mehnatni muhofaza qilish masalalarida parlament a'zolari va hukumatga maslahat berishlari, qonunchilik va boshqa me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda turli milliy qo'mitalar ishida ishtirok etishlari o'zini oqlaydigan hamda maqsadga muvofiq amaliyot sifatida tan olinadi.

XMTning "Ishchilar sog'lig'ini muhofaza qilish to'g'risida"gi 97-sonli Tavsiyanomasi (1959 y.) ish joyida xodimlar sog'lig'ini muhofaza qilishning ikki asosiy uslubi: zararli va xavfli ishlab chiqarish omillaridan muhofazalashning texnik chora-tadbirlari hamda ishlovchilar sog'lig'ini tibbiy kuzatishni nazarda tutadi. Bu usullarga muqobillar sifatida qaralmaydi, ular bir vaqtda qo'llaniladi, bir-birini to'ldirib turadi.

XMT ijtimoiy sohada katta ishlarni olib boradi. Masalan, 1952 yilda qabul qilingan "Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida"gi 102-sonli Konvensiya muhim me'yoriy hujjat hisoblanadi. Bu hujjat aholining barcha qatlamlarini va ijtimoiy sug'urta hamda ta'minotning hamma turlarini qamrab oluvchi ijtimoiy ta'minotning universallik tamoyilini ilk bor xalqaro huquqda tasdiqladi. Konvensiya turli nafaqalar minimal me'yorini oldingi ish haqi daromadlar umumiy summasidan foizlarda belgilaydi. Unda nafaqalarni hisoblashda asos qilib olinadigan turli xodimlar toifalari ish haqi va daromadlarini aniqlash mezonlari ko'rsatib o'tilgan.

Ijtimoiy ta'minot masalalari XMTning texnik yordam dasturlarida ham

katta o'rin egallaydi. Rivojlanayotgan deyarli har bir mamlakat XMTning ijtimoiy ta'minot bo'yicha maslahatchilaridan yordam oladi. Ko'pgina iqtisodiy rivojlangan davlatlar ham bu sohadani milliy qonunchilikni ishlab chiqishda XMT tajribasidan foydalanadi.

Umuman, XMTning butun faoliyati aholining mehnat faoliyati, ish bilan bandlik va ijtimoiy muhofaza sohasidagi xalqaro tan olingan huquqiy me'yorlarni davlatlar qonunchiligi hamda amaliyotiga joriy qilishga yo'naltirilgan. Bu me'yorlarning tan olinishi hamda ulardan foydalanilishi har bir davlatning xalqaro hamjamiyatning to'la huquqli a'zosi hisoblanishidan hamda o'zida bu sohadagi umumtan olingan standartlarni rivojlantirayotganligidan dalolat beradi.

Qisqacha xulosalar

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi xodim hayotidagi zarur manfaatlar sohasi bo'lib, uning miqdoriy va sifatiiy tavsiflari davlat va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va madaniy taraqqiyoti darajasi haqida dalolat beradi. Xodimlarning ijtimoiy holati va mehnat hayotining sifati insonlar, jamoalar va ijtimoiy guruhlar turmush tarzi, faoliyatining asosiy tavsiflovchilari bo'lib, ikki xil shaklga ega. Birinchisi – bu alohida inson, oila, ijtimoiy guruhlar holatining amaliy darajasi, ikkinchisi, ijtimoiy kafolatlar ko'rinishidagi ijtimoiy holatdir. Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishning ob'ektiv zarurati insonning o'z tabiati ham insonni uning mehnat jarayonidagi hayoti va faoliyatini belgilovchi keng doiradagi omillar bilan mavjud bog'lanishidan kelib chiqadi.

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishda Xalqaro Mehnat Tashkilotining o'rni katta bo'lib, uning asosiy faoliyati xodimlar sog'lig'iga zararli mehnat sharoitlarining holatini yaxshilash, xodimlar va ular oila a'zolariga ijtimoiy kafolatlarning minimal miqdorini aniqlash bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "Xodim" tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib bering.
2. Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining predmetini tushuntirib bering.
3. Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishning ob'yektiv zarurati nimadan iborat?
4. Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishda kasaba uyushmalarining roli nimalardan iborat?
5. Mehnat jarayonida xodimlarni ijtimoiy himoya qilish mexanizmining tuzilishini tushuntirib bering.
6. Ijtimoiy yordam va ijtimoiy sug'urtaning farqli jihatlari sanab bering.
7. Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining elementlarini sanab bering.
8. Xalqaro Mehnat Tashkiloti qachon tashkil etilgan?
9. Xalqaro Mehnat Tashkilotining asosiy faoliyati nimalardan iborat?

Adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанамиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. // Халқ сўзи, 2010 йил 30 январь.
2. Абдурахмонов К.Х. Меҳнат иқтисодиёти. Дарслик. – Т.: МЕННАТ, 2009.
3. Беляров Ю.А., Хлопков В.В. Охрана труда в организации. Практические рекомендации. – М.: Книжный мир, 2009.
4. Дулясова М.В., Ханнанова Т.Р. Социальная защита работника: жизнь, здоровья, деловая репутация. – М.: Экономика, 2008.
5. Зокирова Н.Қ., Абдурахмонов О.Қ. Инкироз: оқибатлар, бартараф этиш, меҳнат муаммолари ва янги марраларга чиқиш. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2009.
6. Кукушина В.С. Социальная защита населения: опыт организационно-административной работы. – Москва, 2007.
7. МОТ: Конвенции и рекомендации, принятые Международной конференцией труда. – Женева: МБТ, 1991.
8. Римашевская Н.М. Социальная защита населения. – М.: РИЦ ИСЭП РАН, 2005.
9. Халқаро Меҳнат Ташкилотининг асосий конвенциялари ва тавсиялари. – Т.: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2008.
10. Экономика труда / Под ред. Горелова Н.А.: Учебник. – СПб.: Питер, 2007.
11. Шевелева О.Б., Михайлов В.В. Направления системного совершенствования социальной защиты населения в регионе. – Кемерово: КузГТУ, 2004.

V BOB. ISHSIZLARNI IJTIMOY MUHOFAZA QILISH TIZIMI

5.1. Ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlari

Ishsizlik mehnat bozorining asosiy muammolaridan biri bo'lib, biror bir mamlakat iqtisodiyotning bu "nuqsoni"dan hali qutilgani yo'q. Bu tushuncha tarkibiga kiradiganlar sonini kamaytirish, ularning ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqishdan avval tushunchaning mohiyatini aniqlash muhimdir.

Iqtisodiy nuqtai nazardan ishsizlik iqtisodiy faol aholining ma'lum bir mehnat daromadi keltiradigan ish o'miga ega bo'lmaslik holatidir. "Ishsizlik" tushunchasi xalqaro tashkilotlarda, shuningdek, turli mamlakatlarda turlicha sharhlanadi. Masalan, AQSHda ishsiz shaxs deb oxirgi bir hafta mobaynida ish bilan band bo'lmagan va so'nggi to'rt hafta ichida ishga joylashish uchun bevosita ish beruvchiga yoki ish bilan ta'minlash agentliklariga murojaat qilgan, mehnat layoqatiga ega fuqarolarga aytiladi. Yaponiyada esa so'nggi haftada bir soat ham ishlamagan va ish qidirayotgan, Buyuk Britaniyada oxirgi bir haftada ish bilan band bo'lmagan hamda ish izlayotgan shaxs ishsiz sifatida belgilangan.

Bizning mamlakatimiz mehnat qonunchiligida 16 yoshdan boshlab to pensiya bilan ta'minlanish huquqini olishgacha bo'lgan yoshdagi, ishga va ish haqiga (mehnat daromadiga) ega bo'lmagan, ish qidiruvchi shaxs sifatida mahalliy mehnat organida ro'yxatga olingan, mehnat qilishga, kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o'tishga, malakasini oshirishga tayyor mehnatga layoqatli shaxslar ishsiz deb e'tirof etiladi⁹.

Ta'kidlab o'tish joizki, ishsizlikning ham ijobiy, ham salbiy jihatlari mavjuddir. Ijobiy tomoni ish bilan band bo'lgan xodimlarning mehnat unumdorligini oshirishga, ularning mehnatga munosabatlarini yaxshilashga, fuqarolarni bilim olishga va malakalarini oshirib borishga harakat qilishlari, ish beruvchilarni past ish haqida o'z istaklaridagi xodimni yollash imkoniyatlari bo'lib hisoblanadi.

Ishsizlikning salbiy tomonlariga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- iqtisodiy jihatdan ishsizlikning ortishi natijasida YaIMning kamayishi (A. Oukening qonuniga ko'ra, ishsizlik darajasining 1 % oshishi YaMMni 2,5 foizga kamaytirishi mumkin), hukumatning ishsizlarga qiladigan nafaqa, kasbga tayyorlash, malaka oshirish harajatlari ortadi, ayrim hollarda mehnat bozorida keraksiz mutaxassislik tayyorlash uchun hukumat va fuqarolarning harajatlari ortadi, aholi daromadi va turmush darajasi pasayadi;
- ijtimoiy jihatdan ishsizlik shaxsning ijtimoiy mavqeini pasaytiradi, uzoq davom etadigan ishsizlik fuqarolarning hukumatga noroziligini uyg'otadi va kuchaytirib boradi, aholi orasida jinoyatchilik ortadi, xodimlarda ertangi kunga ishonch yo'qoladi, ish beruvchilarning xodimlarni rag'batlantirish, mehnatni muhofaza qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilash tadbirlari sustlashadi;

⁹ Ўзбекистон Республикаси Меҳнат қонунчилиги бўйича мезърий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида. - Т.: Ўзбекистон, 2009. - 31-б.

– psixologik jihatdan ishsiz shaxs o'z bilim va ko'nikmalarini yo'qotib boradi, hamisha ruhan tushkunlik holatida bo'ladi, o'zini oila va jamiyatda ortiqcha his qiladi, oilalarda notinchlik yuzaga keladi, ajralishlar soni ortadi.

Ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilish ikki tizim orqali amalga oshiriladi. Birinchisi, ish haqi darajasini hisobga olgan holda mehnat va sug'urta stajiga asoslangan ishsizlik bo'yicha sug'urtalash, ikkinchisi, ehtiyojni tekshirgandan so'ng taqdim etiladigan turmush darajasini qo'llab-quvvatlash uchun ijtimoiy ta'minot.

Birinchi holatning maqsadi o'z aybiga ko'ra bo'lmagan holda ishdan bo'shatilgan xodimning turmush darajasi keskin pasayishiga yo'l qo'ymaslik, unga o'z mutaxassisligi bo'yicha malakasiga mos ravishda ish haqi bilan ish topishi uchun imkoniyat yaratishdan iborat. Bu holda ishsizlik bo'yicha nafaqa ilgarigi maoshi va ish stajini hisobga olgan holda belgilanadi.

Ikkinchi holatda esa ehtiyojlikni tekshirib yoki tekshirmasdan muayyan minimal turmush darajasini ta'minlashdir. Bunday ishsizlarga moddiy yordamni taqdim etish ijtimoiy ta'minot tizimi doirasida ko'rsatiladi, moliyaviy manba sifatida davlat budjeti hisoblanadi.

Mazkur ikki tizim aniq iqtisodiy sharoitlarga tegishli ravishda turlicha qo'llaniladi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishda sug'urta tizimi samaraliroq. Qisqa va o'rta muddatli ishsizlik uzoq muddatli bo'lgan, ishsizlik bo'yicha nafaqa fondlar mablag'lari kamaygan iqtisodiy tanazzul holatida asosiy e'tibor sug'urtalash fondlaridan ishsizlik bo'yicha nafaqalarni yuqori darajadagi maoshni o'rini qoplashdan ijtimoiy muhofazalash tizimlaridan davlat budjet mablag'lari ishtirokida davomiy himoyaga qaratiladi.

Davlat ishsiz shaxslarga quyidagilarni kafolatlaydi:

- ishsizlik nafaqasini to'lash;
- mehnat organlarining yo'llanmasi bo'yicha kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish davrida stipendiya to'lanishi hamda shu davrni umumiy mehnat stajiga qo'shish;
- ishsiz shaxsga qaramog'idagilarini hisobga olgan holda moddiy yordam berish;
- haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish imkoniyati;
- mehnat organlarining taklifiga binoan ishlash uchun ixtiyoriy ravishda boshqa yerga ko'chish bilan bog'liq harajatlarini qoplash.


Mustaqillikning dastlabki yillarida respublikamizda bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini bajarib boradigan davlatimizning ish bilan bandlik xizmati tashkil qilindi. O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligida bayon qilinishi bo'yicha mamlakatimizdagi ish bilan ta'minlash xizmati uch xil darajada amal qiladi:

- hukumatning ish bilan ta'minlash xizmati;
- mintaqaviy ish bilan ta'minlash boshqarmalari;
- bandlikka ko'maklashuvchi tuman (shahar) markazi.

Hukumat ish bilan ta'minlash xizmatini Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza

qilish vazirligi orqali amalga oshiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda mintaqaviy ish bilan ta'minlashni boshqaradigan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikamizning turli shahar va tumanlarida Bandlikka ko'maklashuvchi tuman (shahar) markazlari mahalliy ish bilan ta'minlash muassasalari hisoblanadi.

Bandlikka komaklashuvchi tuman (shahar) markazida ishsiz aholini ro'yxatga olish va ishga joylashtirish, kasbga o'qitish sho'basini bevosita mehnat bo'limi boshlig'iga bo'ysunadi (5.1-rasm).



5.1-rasm. Bandlikka ko'maklashuvchi tuman (shahar) markazining tashkiliy tuzilmasi

Bandlikka ko'maklashuvchi markazda ish bilan ta'minlanmagan aholi hisobga olib boriladi, ishsizlarni ro'yxatga olish, ularni ishga joylashtirish, ishsizlarga kasb o'rgatish, shu jumladan, "usta-shogird" usulida kasbga tayyorlashni tashkil etish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sho'basiga mehnat bo'limi boshlig'ining o'rinbosari umumiy rahbarlik qiladi. Sho'ba tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga qabul qilishga mo'ljallangan eng kam miqdordagi ish o'rinlarini belgilash bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi, fuqarolarni ishga joylashtirish uchun

korxonalar va tashkilotlarga yuboriladi, ishsizlarni va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradi.

Davlat mehnat huquqi inspektori markaz boshlig'iga bo'ysunadi va rejali kompleks tekshirishlar davomida korxonalar va tashkilotlarda "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunning bajarilishini tekshirish, yo'l qo'yilgan qonun buzilishlarini bartaraf etish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar bajarishi majburiy bo'lgan yozma ko'rsatmalar berish va ularning faoliyatini nazorat qilish ishlarini bajaradi.

Davlat texnika inspektori bosh boshqarmaga bo'ysunib, nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi tomonidan tasdiqlangan rejalar asosida korxonalar va tashkilotlarda mehnat muhofazasiga doir olib borilgan ishlarni o'rganib chiqadi, ekspertizadan o'tkazadi.

Mehnat inspektorlari o'zini-o'zi boshqarish organlarida tuman, shahar hokimining vakillari hisoblanadi. Hududda ish bilan band bo'lmagan fuqarolarni hisobini yuritadi, ularga ishga joylashish uchun yo'llanmalar beradi, turli maslahatlar berib boradi, bo'lim sho'balari bilan birgalikda ishsizlarni kasbga o'qitish, haq to'lanadigan jamoat ishlariga yo'llash bo'yicha takliflar kiritadi.

Xodim yangi mehnat shartlari asosida ishlashni davom ettirishni rad etganligi sababli; texnologiya, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi sababli; xodimning malakasi yetarli bo'lmaganligi yoki sog'lig'i holatiga ko'ra bajarayotgan ishga noliyqligi sababli; shu ishni ilgari bajarib kelgan xodim ishga qayta tiklanishi sababli mehnat shartnomasi bekor qilingan hollarda ish qidirish davrida ikki oydan ortiq bo'lmagan davr mobaynida xodimlarning o'rtacha oylik ish haqi saqlanib qoladi, bunda xodimga to'langan bir oylik ishdan bo'shatish nafaqasi ham qo'shib hisobga olinadi. Agar ish beruvchi nochor (bankrot) deb topilsa, u bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan xodimlar ish haqi va o'zlariga tegishli boshqa to'lovlar xususida boshqa barcha kreditorlarning talablariga nisbatan imtiyozli huquqdan foydalanadilar. Tugatilayotgan korxonalarining mablag'i bo'lmagan taqdirda xodimlarga kompensatsiyalar Bandlikka ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lanadi. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tugatilishi, xodimlar soni (shtati) qisqartirilishi munosabati bilan ishdan ozod etilgan, mehnat shartnomasi bekor qilingandan keyin o'n kun ichida mehnat organlarida ro'yxatga olingan hamda kasbi bo'yicha qayta o'qitilayotgan yoki ishlab chiqarishdan ajralgan holda malakasini oshirayotgan xodimlarga mehnatga oid munosabatlar to'xtatilgan kundan boshlab dastlabki uch oy davomida oldingi ishidagi o'rtacha ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda stipendiya to'lanadi.

Mehnat organi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning boshqa korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan ishdan bo'shatilayotgan shaxslarni ishga qabul qilishda ularning o'qishini tashkil etish harajatlarini to'la yoki qisman qoplashi mumkin.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa tufayli yoki o'zlariga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra kasb kasalligiga yo'liqish natijasida ishdan mahrum bo'lgan hamda ishga joylashishga, kasbga tayyorlashga va qayta tayyorlashga, malakani oshirishga muhtoj shaxslar ishdan ozod etilgan xodimlarga tenglashtiriladi. Texnologiya, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e'tirof etilgan, pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq pensiyaga chiqish uchun talab etiladigan umumiy mehnat stajiga ega bo'lgan shaxslarga muddatidan oldin (qonun hujjatlarida belgilangan umumiy asoslarga ko'ra pensiya tayinlash muddatidan ikki yil oldin) pensiyaga chiqish huquqi beriladi.

Ishidan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan, mehnat organlarida ro'yhatga olingan, qaramog'ida voyaga yetmagan bolalari va boshqa kishilar bo'lgan shaxslarga kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, malaka oshirish davrida oldingi ish joyidagi o'rtacha oylik ish haqining kamida yetmish besh foizi (qaramog'ida bolalari va boshqa kishilar bo'lmaganlarga esa ellik foizi) miqdorida, biroq qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan oz bo'lmagan va o'rtacha ish haqidan ortiq bo'lmagan miqdorda stipendiya to'lanadi.

Uzoq vaqt (bir yildan ko'proq) ishlamayotgan, birinchi marta ish qidirayotgan hamda kasbga tayyorlashga va qayta tayyorlashga, malaka oshirishga muhtoj shaxslarga aholining shu toifasi uchun nazarda tutilgan ishsizlik nafaqasidan oz bo'lmagan va qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan ortiq bo'lmagan miqdorda stipendiya tayinlanadi.

Ishsizlik nafaqasi ishsizlarga mahalliy mehnat organida ro'yxatga olingan birinchi kundan e'tiboran yoziladi va to'lanadi.

Ishsizlik nafaqasi ko'pi bilan ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan yoki uzoq (bir yildan ortiq) tanaffusdan keyin mehnat faoliyatini qayta boshlashga harakat qilayotgan shaxslarga o'n ikki oylik davr mobaynida yigirma olti kalendar hafta; ilgari ishlamagan va birinchi bor ish qidirayotgan shaxslarga esa o'n ikki oylik davr mobaynida o'n uch kalendar hafta to'lanadi.

Ishsiz shaxs nafaqa olish davrida ish qidirishi va har ikki haftada kamida bir marta mahalliy mehnat organida yo'qlamadan o'tishi kerak. Ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan shaxslar uchun ishsizlik nafaqasi oldingi ish joyidagi oxirgi bir yilgi o'rtacha ish haqiga foiz nisbatida belgilanadi. Boshqa hollarda ishsizlik nafaqasi qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdoriga foiz nisbatida belgilanadi. Qaramog'ida o'n olti yoshga to'lmagan bolalari va boshqa kishilar bo'lgan ishsiz shaxslarga nafaqa miqdori o'n foizga oshiriladi.

Ish haqiga koeffitsiyentlar belgilangan joylarda yashovchi shaxslarga tayinlanadigan ishsizlik nafaqasi miqdorlari ularning shu joylarda yashagan davri uchun mazkur joyda noishlab chiqarish tarmoqlarining xodimlariga belgilangan koeffitsiyentni qo'llagan holda aniqlanadi.

Ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan taqdirda, ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga oldingi ish joyidagi o'rtacha ish haqining ellik foizi miqdorida, ammo qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan oz bo'lmagan va nafaqani hisoblash paytida tarkib topgan o'rtacha ish haqidan ortiq bo'lmagan miqdorda ishsizlik nafaqasi to'lash kafolatlanadi.

Harbiy xizmatdan, ichki ishlar va Milliy xavfsizlik xizmati organlaridan bo'shatilgan hamda mahalliy mehnat organlariga murojaat qilishdan oldin ishlamagan shaxslarga nafaqa miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdori darajasida hisoblab chiqariladi.

Ilgari ishlamagan, birinchi marta ish qidirayotgan va ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga mahalliy mehnat organi tomonidan kasbga tayyorlash yoki ishga joylashish imkoniyati berilmagan taqdirda, ularga qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining kamida yetmish besh foizi miqdorida nafaqa to'lash kafolatlanadi.

Uzoq (bir yildan ortiq) tanaffusdan keyin mehnat faoliyatini qayta boshlashga harakat qilayotgan ishsiz shaxslarga quyidagi miqdorda nafaqa to'lash kafolatlanadi:

- mutaxassisligi bo'lgan shaxslar uchun, shuningdek, o'n ikki oy mobaynida haq to'lanadigan ish bilan bandligi o'n ikki kalendar haftadan kam bo'lmagan shaxslar uchun, agar ularning ishga joylashishi uchun kasbga qayta o'rgatishni yoki malakasini oshirishni talab qilmasa, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan oz bo'lmagan miqdorda;

- boshqa hollarda, shu jumladan, mutaxassisligi bo'lmagan shaxslarga, mahalliy mehnat organi tomonidan kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish imkoniyati berilmagan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining yetmish besh foizi miqdorida.

Ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslar ishlab chiqarishdan ajralgan holda kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o'tgandan, malaka oshirishni tugatgandan keyin qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan oz bo'lmagan miqdorda ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega.

Quyidagi hollarda ishsizlik nafaqasini to'lash bekor qilinadi:

- ishsiz shaxs ishga joylashganda;

- ishsiz shaxs taklif qilingan maqbul keladigan ishni ikki marta rad etgan taqdirda;

- qaramog'ida uchtagacha kishi bo'lgan, o'ttiz besh yoshga to'lmagan ishsiz erkak haq to'lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etishni rad etgan taqdirda;

- ishsiz shaxs qonun hujjatlariga muvofiq pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lgan taqdirda;

- ishsiz shaxs sudning hukmi bilan qamoq yoki ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoga hukm etilgan taqdirda;

- ishsizlik nafaqasini olib turgan davrda mahalliy mehnat organini xabardor qilmay vaqtinchalik bajariladigan ishga joylashilgan taqdirda;

- ishsizlik nafaqasini aldov yo'li bilan olgan taqdirda;
 - ishsiz shaxs vafot etgan taqdirda.
- Quyidagi hollarda ishsizlik nafaqasini to'lash to'xtatib qo'yiladi:
- ishsiz shaxs kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash yoki malaka oshirishga yuborilgan bo'lsa, stipendiya olgan holda kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o'tish yoki malaka oshirish davrida;
 - ishsiz shaxs ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika muassasasida davolash kursini o'tayotgan bo'lsa, bunday muassasada bo'lgan davrida;
 - ishsiz shaxs haq to'lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etayotgan bo'lsa, bunday ishlarda ishtirok etgan davrida.

Ishsiz shaxs uzrsiz sabablarga ko'ra belgilangan muddatda mahalliy mehnat organiga kelmagan taqdirda, ishsizlik nafaqasini to'lash uch oygacha muddatga to'xtatib qo'yilishi yoki nafaqa miqdori kamaytirilishi mumkin.

Ishsizlik nafaqasini to'lashning belgilangan muddati o'tishi munosabati bilan ishsizlik nafaqasini olish huquqidan mahrum bo'lgan ishsiz fuqarolarga Bandlikka ko'maklashuvchi davlat jamg'armasidan yoki mahalliy budjetlardan ajratiladigan moddiy yordam ko'rsatilishi mumkin.

5.2. Ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilishning xorijiy tajribalari

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarda ishsizlarga moddiy yordam ko'rsatish tizimi XX asr boshlaridan shakllana boshlagan. Birinchi jahon urushi yillari oldidan va bevosita undan so'ng ishsizlik bo'yicha ijtimoiy nafaqalar tizimi Belgiya (1900 y.), Fransiya (1905 y.), Norvegiya (1906 y.), Daniya (1907 y.), Buyuk Britaniya (1911 y.), Gollandiya, Ispaniya, Italiya (1919 y.), Germaniya (1921 y.) kabi davlatlarda joriy etilgan.

Yana bir guruh mamlakatlar shu kabi tizimlarni 30-yillar va ikkinchi jahon urushi yillarida joriy etgan, bular AQSH (1934 y.), Shvetsiya (1934 y.), Kanada (1940 y.), Meksika (1943 y.), Yaponiya, Avstraliya va Urugvay (1944 y.). Urushdan keyingi yillarda ishsizlik bo'yicha nafaqalarni Misr (1951 y.), Nikaragua (1955 y.), Braziliya (1965 y.), Argentina (1969 y.) mamlakatlari joriy etdi. Hozirgi kunda ishsizlarga moddiy yordam ko'rsatish tizimi deyarli barcha bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarda mavjud.

Jahon sotsialistik tizimi parchalanib ketgandan so'ng ishsizlik bo'yicha sug'urtalash, uning tarkibida bo'lgan mamlakatlar uchun ham zarur bo'lib qoldi. Jumladan, Chexiya, Slovakiya va Ruminiyada tegishli qonunlar 1991 yil, Bolgariyada esa – 1989 yil qabul qilingan, Polshada ishsizlarga yordam bo'yicha qonunlar (1991 yildan 1994 yilgacha) amal qildi.

Rivojlangan mamlakatlarda ishsizlik bo'yicha sug'urtalash jamg'armalari ish beruvchilar va xodimlarning badallari hisobiga shakllanadi. Ular ishtirokining ulushi ish beruvchi uchun teng yoki kattaroq bo'lishi mumkin. Masalan, Germaniyada ish beruvchilar ham, ishchilar ham ish haqining 3,25 %dan to'laydi. Buyuk Britaniyada ishchilar 2-10%, ish beruvchilar – 3-10%, Fransiya da mos

ravishda 3,01-3,60% va 5,13-5,26%, Yaponiyada – 0,4%, sanoatda – 0,75%, mavsumiy ishlarda – 0,95%, qurilishda – 10,5%ni tashkil etadi (bu o'rinda iqtisodiyotning ushbu tarmog'i bilan bog'liq quruvchilar o'rtasida uzoq vaqt davomidagi ishsizlik nazarda tutiladi). Ishsizlik bo'yicha sug'urtalash jamg'armasidagi davlat ulushi Yaponiyada 25%, Finlyandiyada – 47,5%ni tashkil etadi. Boshqa rivojlangan mamlakatlarda ishsizlik holatida to'lovlar bo'yicha sug'urta jamg'armalarini shakllantirishda davlat ishtirok etmaydi.

Ishchilar maoshidan badallarni joriy etishning maqsadi ularning haq to'lanadigan ishga nafaqat joriy moddiy holatning manbai, balki kutilmagan hodisalarga zahira sifatida manfaatdorligini kuchaytirishdan iborat. Shunga qaramasdan, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarning bir qatori, jumladan, AQSH (bir qancha shtatlar bundan mustasno) va Italiya ishchilarning ishsizlik bo'yicha sug'urtalash jamg'armalariga badal to'lashlarini ko'zda tutmaydi.

Bandlikka ko'maklashish jamg'armalari mamlakatlarning budjetidan soliq ajratmalari hisobiga shakllanadi. Ulardan nafaqalar, odatda, yagona miqdorlarda to'lanadi. Ushbu jamg'armalardan nafaqa oladigan ishsizlar ikki guruhga bo'linadi. Birinchisiga, ishsizlik bo'yicha sug'urtalash nafaqaga bo'lgan huquqni beruvchi zarur shartlarga to'liq to'g'ri kelmaydiganlar kiradi. Bu avvalambor o'quv yurtini bitirgandan so'ng ilk bor ishga joylashayotgan shaxslar yoki ishdagi uzoq muddatli tanaffusdan so'ng mehnat faoliyatini tiklash niyatida bo'lgan insonlardir. Bu toifaga asosan kichik yoshdagi bolalari bo'lgan ayollar hamda bandligi tasodifiy xarakterga ega vaqtinchalik ishchilar kiradi. Ular da'vo qilishi mumkin bo'lgan ishsizlik nafaqalari yagona pul summasida to'lanadi yoki minimal ish haqiga yo'naltirilgan.

Ikkinchi guruhga ish haqiga mutanosib nafaqalarni olish huquqini yo'qotgan ishsizlar kiradi. Bunday ko'maklashuv nafaqalarini to'lash muddati cheklanmagan yoki sug'urta nafaqalaridan ko'ra sezilarli darajada yuqori. Qator mamlakatlarda, masalan, Avstraliyada mazkur ishsizlar uchun moddiy yordam turi yagona hisoblanadi. Bu yerda ko'maklashish bo'yicha nafaqalar ehtiyojlikni tekshirgandan so'ng qat'iy miqdorlarda taqdim etiladi. Ular ishsizning yoshi va oilaviy holatiga ko'ra o'zgarib turadi. Xuddi shunday tizim Yangi Zelandiyada ham mavjud. U nafaqa to'lanishini 2 haftadan 4 haftagacha kutish davrini nazarda tutadi. Belgiyada ko'maklashish bo'yicha nafaqalar ishsizlarning alohida toifasi uchun kafolatlangan minimum moddiy yordam hisoblanadi, buning qatorida ilgari maosh asosida hisoblangan va taxminan ular miqdorining 60% tashkil etadigan ishsizlik bo'yicha sug'urtalash nafaqalarining umumiy tizimidan iborat. Fransiyada ishsizlik bo'yicha nafaqalarni to'lashning ikki tizimi mavjud. Birinchisi – bu yollash bo'yicha ishchilar uchun ishsizlikka oid sug'urtalash tizimidir. Ikkinchisi – bahamjihat tizimi deb nomlanishi mumkin: u mehnatga layoqatli aholining alohida toifalari uchun ko'maklashish tamoyiliga ko'ra amal qiladi, ular qatoriga yosh bolali yolg'iz onalar, harbiy xizmatdan qaytganlar, sobiq mahbuslar, sug'urta nafaqasini olish huquqini yo'qotgan uzoq muddat davomida ishsiz bo'lganlar

kiradi. Hamjihatlik tizimi bo'yicha to'lovlar miqdori qat'iy hajmda belgilanadi hamda ular yosh va oilaviy holatga ko'ra o'zgarib turadi. Nafaqa miqdori har 6 oyda qayta ko'rib chiqiladi. 12 yil stajga ega 59 yoshdan katta bo'lgan shaxslar ishsizlikka oid ko'maklashish nafaqasini pensiya yoshiga to'lgunga qadar (65 yoshgacha) olishlari mumkin.

Ko'plab mamlakatlarda (Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya) ko'maklashish bo'yicha nafaqalarni to'lash bu kabi nafaqalarni olishga da'vogar shaxslarning ehtiyojlik darajasini tekshirishni nazarda tutadi.

Xitoyda mamlakatning provinsiyalari qonunchiligi bilan belgilangan sug'urtalash va ko'maklashishning aralashgan tizimi amal qiladi. Bu yerda ishsizlik bo'yicha nafaqalar fondi ish beruvchilar badallari hisobiga shakllanadi (ish haqi fondining 0,6-1%). Nafaqa to'lanishining davomiyligi ish stajiga bog'liq: ishchida bir yildan 5 yilgacha staji mavjudligida nafaqa bir yil davomida to'lanadi, 5 yil va undan ko'p bo'lganda – ikki yil mobaynida to'lanadi.

Ijtimoiy sug'urtalash tizimi bo'yicha ishsizlikka oid nafaqalarni korxonada muayyan vaqt ishlagan va odatda ishsizlik bo'yicha nafaqalar fondiga sug'urta to'lovlarga ega xodimlar oladi. Bu o'rinda ishsiz qolgan xodimlar agar ular o'z xoxishiga ko'ra emas, balki ish beruvchi tomonidan bo'shatilgan, ishda nomaqbul harakatlarga yo'l qo'ymagan hamda mehnat va ishlab chiqarish intizomini buzmagani bo'lsalar, unda ular nafaqa olishga da'vogarlik qilishlari mumkin.

Maoshni ishsizlik bo'yicha nafaqa bilan qoplash foizi mamlakatlar bo'yicha turlicha, masalan: Yaponiyada 60-80% (kam haq to'lanadigan xodimlar uchun yuqoriroq qoplash foizi nazarda tutilgan), Shvetsiyada – 75%, AQSHda – 50%, Germaniyada – 67% (bolalari yo'q xodimlar uchun 60%), Shveysariyada – 79,2% (qaramog'ida bo'lganlar bo'lsa). Sobiq sotsialistik mamlakatlarda maosh o'mini qoplash miqdori Bolgariyada – mamlakat bo'yicha o'rtacha ish haqining 60%, Vengriyada – ishsizlikning dastlabki yilida ishchi ish haqining 70% va ikkinchi yilda – 50%, Polshada – 36%, Chexiyada – birinchi uch oy ishsizlikda 60% va keyingi uch oy mobaynida 50%, Ruminiyada – so'nggi 3 oy ishlash davomidagi ish haqining 50% miqdorida (agar ishchi 5 yildan kam bo'lgan ish stajiga ega bo'lsa, unga nafaqa to'lanadi, 5-15 yil stajga ega shaxslarga esa nafaqa 5% oshiriladi, 15 yil va undan yuqori stajga egalarga yana 5% oshiriladi) to'lanadi.

Aksariyat bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarda maoshni qoplashning maksimal foizi 60% tashkil etadi. Bu inson va uning oilasi turmush darajasi keskin tushib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun yetarli hisoblanadi, qayta malaka oshirish yoki mehnat bozoridagi ehtiyojlarga javob beruvchi yangi mutaxassislikni egallashga mablag' beradi. Amalda shu namoyon bo'lmoqdaki, agar xodim ishsiz bo'lib qolib, o'z daromadining katta bo'lmagan qismini yo'qotsa, u odatda ish izlashni paysalga soladi va buning ustiga yuqori maoshga da'vo qilmaydi, natijada bu ham uning ishga joylashishini qiyinlashtiradi.

Mamlakatlar bo'yicha ishsizlikka oid nafaqani to'lash davomiyligi ham turlicha. Masalan, AQSHda bu 26 haftaga teng (nomaqbul bandlik holati mavjud

shtatlarda bu davr yana 13 haftaga oshiriladi). Buyuk Britaniyada nafaqa 6 oy davomida to'lanadi. Germaniya va Fransiyada nafaqa to'lash davomiyligi sug'urta staji va xodim yoshi bilan bog'liq bo'lib, tegishli ravishda 78-832 kunni va 4-27 haftani tashkil etadi. Shveysiyada 55-64 yoshdagi shaxslarga nafaqalar to'lash davomiyligi 300 va 450 kunga teng. Yaponiyada 45 yoshgacha bo'lgan doimiy xodimlar ishsizlik bo'yicha nafaqani 240 kungacha bo'lgan muddat davomida olish huquqiga ega, 45-65 yoshda esa – 30 kungacha, 45 yoshgacha bo'lgan vaqtinchalik ishchilar esa nafaqani 180 kun davomida olishga, 45-65 yoshda – 210 kungacha olish huquqiga egadirlar. Shveysariyada nafaqani to'lash davomiyligi yoshga bog'liq: 50 yoshgacha bo'lgan ishsizga 150 kun, 50-60 yoshdagiga – 250 kun va 60 yoshdan katta bo'lganlarga – 400 kun davomida to'lanadi.

Bolgariyada nafaqa to'lash davomiyligi yoshga bog'liq, Vengriyada bu muddat 2 yilga teng, Ruminiyada – 270 kun, Polshada – 12 oy (25 yillik ish stajiga ega ayollar uchun va 30 yillik ish stajiga ega erkaklar uchun nafaqa to'lash davomiyligi 18 oygacha uzaytiriladi).

Qator mamlakatlarda nafaqalar ishsizlikning birinchi kunidan to'lanadi. Masalan, Buyuk Britaniya va Norvegiyada 3-kunlik, Shveysariya va Isroilda – 5 kunlik, Italiyada – 7 kunlik, Venesuelada – 1 oylik kutish davri nazarda tutilgan.

Ayrim mamlakatlarda ishsizlarga moddiy yordam ko'rsatish tizimi mavjud emas. Bunday mamlakatlar qatoriga Nikaragua, Pokiston, Paragvay, Suriya, aksariyat Afrika mamlakatlari kiradi. Bir xil mamlakatlarda qonun bo'shatilgan ishchilarga ish beruvchi yordam ko'rsatishini talab qiladi. Jumladan, Meksikada qonunchilikda ish beruvchi bo'shatilgan xodimga yakuniy nafaqani 3-oylik ish haqi miqdoriga ushbu ish beruvchi qo'lida ishlagan har yili uchun 20-kunlik ish haqini qo'shgan holda to'lash belgilangan. Turkiyada ish beruvchi bo'shatilgan xodimga har bir ishlagan yili uchun 30-kunlik, Hindistonda – 15-kunlik ish haqini to'lashi shart. Braziliya, Chili kabi mamlakatlarda ishsizlik bo'yicha nafaqalarni to'lash fondiga badallar faqat davlat tomonidan kiritiladi. Shu bilan birga, qator rivojlanayotgan mamlakatlarda rivojlangan bozor iqtisodiyoti davlatlardagilarga o'xshash tizimlar mavjud. Masalan, Urugvayda ishsizlarga nafaqa ish haqining 50% miqdorida to'lanadi, qaramog'ida shaxslar bo'lgan ishsizlarga esa 180 kun davomida yana qo'shimcha 20% to'lanadi. Venesuelada ishsizlik bo'yicha nafaqa ish haqining 60% miqdorida 13 hafta davomida to'lanadi, alohida holatlarda esa ushbu davr 26 haftagacha uzaytirilishi mumkin. Tunisda ishsizlik bo'yicha nafaqa minimal ish haqiga teng va 3 oy davomida to'lanadi.

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ishsizlarga ko'maklashish tizimlari ko'p jihatdan rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari bilan o'xshashdir. Lekin mazkur mamlakatlarda ishchilar umuman hech narsa to'lamaydi (Bolgariya, Polsha, Ruminiya) yoki kam foiz (Chexiyada ishchilar 0,4%, Ruminiya va Slovakiyada – 1%) to'laydilar. Ishsizlik bo'yicha nafaqalar to'lash fondlari ushbu mamlakatlarda deyarli ish beruvchilar tomonidan shakllantiriladi, chunki ular ishchilar ish haqi fondidan yuqori foiz ajratadilar: Bolgariya, Vengriya, Ruminiyada – 5%; Polsha, Slovakiya va Chexiyada – 3%.

Davlat mazkur mamlakatlarda tanqislik yuzaga kelganda ularni qoplaydi.

Qator mamlakatlarning qonunchiligida ishsiz kishi qaramog'ida shaxslar mavjudligida ishsizlik bo'yicha nafaqani oshirish ko'zda tutilgan. Masalan, Finlyandiya ehtiyojlikni tekshirishni nazarda tutuvchi bazaviy nafaqani to'lash tizimi bo'yicha ishsiz kishi kuniga 118 marka oladi, bir bola mavjudligida nafaqa 24 markaga, ikki nafar bolada esa – 35 markaga, uchta va undan ko'p bo'lganda – 45 markaga oshiriladi. Agar xodim sug'urtalash tizimi bilan qamrab olingan bo'lsa, kuniga 118 marka nafaqaga qo'shimcha ravishda yana o'z ish haqining 42% miqdorida mablag' oladi. Xodim qancha ko'p ish haqiga ega bo'lgan bo'lsa, u shuncha ko'p miqdorda qat'iy nafaqalar va ish haqiga nisbatan kam summani (20%) oladi. Qaramog'ida bo'lganlarga to'lovlarni amalga oshirish ham bazaviy nafaqa to'lash tizimi kabidir. Ispaniyada maksimal nafaqa 170% minimal professional ish haqiga teng, bolalar mavjudligida – 220% tashkil etadi. Bolalar mavjudligida minimal nafaqa minimal ish haqiga teng, ular bo'lmaganda – minimal ish haqining 75% tashkil qiladi. Norvegiyada nafaqa kunlik ish haqining 0,2%dan kuniga maksimum 438 kron miqdorida belgilanadi. Har bir bola uchun kuniga yana qo'shimcha 6 kron to'lanadi. Agar ishsiz ishga joylasha olmasa, bolalarga qo'shimcha to'lovlar kuniga 12 krongacha oshiriladi.

Qisqacha xulosalar

Ishsizlar mehnat qonunchiligida 16 yoshdan boshlab to'pensiya bilan ta'minlanish huquqini olishgacha bo'lgan yoshdagi, ishga va ish haqiga (mehnat daromadiga) ega bo'lmagan, ish qidiruvchi shaxs sifatida mahalliy mehnat organida ro'yxatga olingan, mehnat qilishga, kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o'tishga, malakasini oshirishga tayyor mehnatga layoqatli shaxslar bo'lib, ularni ijtimoiy muhofaza qilish ikki tizim orqali amalga oshiriladi. Birinchisi, ish haqi darajasini hisobga olgan holda mehnat va sug'urta stajiga asoslangan ishsizlik bo'yicha sug'urtalash, ikkinchisi, ehtiyojlikni tekshirgandan so'ng taqdim etiladigan turmush darajasini qo'llab-quvvatlash uchun ijtimoiy ta'minot.

Davlat ishsiz shaxslarga ishsizlik nafaqasini to'lashni, mehnat organlarining yo'llanmasi bo'yicha kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish davrida stipendiya to'lanishi hamda shu davrni umumiy mehnat stajiga qo'shishni, ishsiz shaxsga qaramog'idagilarini hisobga olgan holda moddiy yordam berishni, haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish imkoniyatini hamda mehnat organlarining taklifiga binoan ishlash uchun ixtiyoriy ravishda boshqa yerga ko'chish bilan bog'liq harajatlarini qoplashni kafolatlaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "Ishsizlik" tushunchasiga ta'rif bering.
2. Davlat ishsiz shaxslarga nimalarni kafolatlaydi?
3. Ishsizlik nafaqasining qanday turlari mavjud?
4. Ishsizlik nafaqasini tayinlash va to'lash tartibini tushuntirib bering.

5. Ishsizlarga moddiy yordam ko'rsatish tizimi qachon shakllangan?
6. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlarning faoliyatini tushuntirib bering.
7. Ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi nimalardan iborat?
8. Rivojlangan mamlakatlarda ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining xususiyatlarini tushuntirib bering.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанамиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. // Халқ сўзи, 2010 йил 30 январь.
2. Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш бўйича меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Адолат, 2008.
3. Ўзбекистон Республикаси Меҳнат қонунчилиги бўйича меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
4. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. Дарслик. – Т.: НЕННАТ, 2009.
5. Абдурахмонов Қ.Х., Тоҳирова Х.Т., Шарипов Б.М. Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш. – Тошкент, 2006.
6. Дулясова М.В., Ханнанова Т.Р. Социальная защита работника: жизнь, здоровья, деловая репутация. – М.: Экономика, 2008.
7. Пался В.И. Безработница: теория и современная российская практика (социально-экономический аспект). – М.: РАГС, 2007.
8. Римашевская Н.М. Социальная защита населения. – М.: РИЦ ИСЭП РАН, 2005.
9. Рынок труда: учебное пособие. Под общей редакцией д.э.н., проф. Абдурахманова К.Х., д.э.н., проф. Одегов Ю.Г. – ТФ РЭА, 2009.
10. Экономика труда / Под ред. Горелова Н.А.: Учебник. – СПб.: Питер, 2007.

VI BOB. YOLG'IZ KEKSALAR VA NOGIRONLARNI IJTIMOY MUHOFAZA QILISH TIZIMI

6.1. Keksalarga nisbatan olib boriladigan ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari

Keksalik inson umrining eng so'nggi bosqichi hisoblanib, u kishida namoyon bo'lgach, surunkali kasalliklarga tez-tez yo'liqadigan aholi guruhini tashkil etadi. Chunki, inson organizmning jismonan qarishi oqibatida kishining tashqi o'zgarishlar va noqulay holatlarga moslashishi susayadi va tez-tez kasalliklarga chalinadigan bo'lib qoladi. Kexsa kishi mehnatga layoqatsiz va o'zgaralar yordamiga muhtoj bo'ladi.

Inson organizmida ro'y beradigan o'zgarishlar: jismoniy quvvatning zaiflashuvi, ish qobiliyatining susayishi, tashqi ta'sirlarga moslashish va javob reaksiyalarining sekinlashuvi va boshqalar 55-60 yosh chegarasidan yuzaga chiqadi. Demak, keksalik davrining boshlanishiga shartli ravishda mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi – 55 va undan yuqori yoshdagi ayollar, 60 va undan yuqori yoshdagi erkaklarni qariyalar guruhiga kiritish mumkin.

So'nggi yillarda inson umrining keksalik davrini tasniflash bo'yicha xilma-xil yondoshuvlar paydo bo'ldi. Masalan, gerontologlar tasnifiga ko'ra, 60-74 yoshdagilar – qariyalar, 75-84 yoshdagilar – keksalar, 85 va undan yuqori yoshdagilar – juda keksalardir¹⁰, Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tasnificha, 60-74 yoshdagilar – qariyalar, 75-89 yoshdagilar – keksalar, 90 va undan yuqori yoshdagilar – uzoq umr ko'ruvchilar, deb hisoblanadi¹¹.

Bu mezonlarni dunyodagi barcha mamlakatlar aholisi uchun tadbiq etib bo'lmaydi. Chunki, har bir davlatdagi tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligi har xildir. Masalan, dunyoda o'rtacha umr davomiyligi 67 yil bo'lsa, Mozambikda – 40 yil, Afg'onistonda – 43 yil, Zambiyada – 35 yil, O'zbekistonda – 71,8 yil, Norvegiyada – 80 yil, Yaponiyada – 82 yildan iboratdir¹². O'zbekistonda o'rtacha umr davomiyligi ko'rsatkichining nisbatan yuqoriligini hisobga olgan holda, qarilik davrini uch bosqichga ajratish mumkin (6.1-jadval).

6.1-jadval

Keksalik yoshi tasnifi

Yosh guruhlari	Insonning hayot davri
60-74 yosh (erkaklar)	Qariyalar
55-74 yosh (ayollar)	
75-90 yosh	Keksalar
90 yoshdan yuqori	Uzoq umr ko'ruvchilar

¹⁰ Возраст мудрости – возраст создания / Программа развития ООН. – М.: Эквмен, 2008. – С.17.

¹¹ Калинин И.В. Возрастная структура населения. – М.: Статистика, 1975. – С.12.

¹² 2008 World Population data sheet.

Keksa kishilar hayotining ijtimoiy sharoitlari quyidagi asosiy muammolar bilan tavsiflanadi:

- hayot faoliyatining sog'liq bilan bog'liq holda cheklanganligi (eng ko'p tarqalgan surunkali kasalliklar – artirit, yurak-qon tomir kasalliklari, qon bosimi kasalligi, arteroskleroz, ortopedik kasallar);
- bandlik (odatda keksalarning 75 %i ishlamaydi yoki qisman band bo'ladi);
- moddiy ahvoli (pensiya miqdorining ish haqidan ancha pastligi, inflyatsiya darajasining yuqoriligi, tibbiy xizmat ko'rsatishning qimmatligi, ijtimoiy ta'minot tizimining cheklanganligi);
- ruhiy salomatlik (ruhiyatdagi me'yorsizlik, ya'ni ruhiy jarayonlar harakatchanligining susayganligi).

Keksaygan yoshda faol mehnat faoliyatining to'xtashi munosabati bilan turmush sharoitlari va tarzida, oilaviy va ijtimoiy mavqeida o'zgarishlar yuz beradi. Kishi keksaygan vaqtda ko'pincha mustaqil turmush kechiruvchi bolalaridan ajraydi, ayrim hollarda yolg'izlanib qoladi. Bunga yana jamiyat, yaqinlar bilan aloqalarning susayishi muammosi qo'shiladi, do'stlari va tanishlarini ular hayotdan ko'z yumganligi munosabati bilan yo'qotadi. Keksaygan sayin yolg'izlanib qolishlik kuchli ruhiy muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun, keksa yoshdagi fuqarolarga nisbatan davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishi yolg'iz keksa-qariyalarning ijtimoiy ta'minlanib, osuda, farovon yashashlari, jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari, uzoq umr ko'rishlari maqsadida davlat tomonidan olib boriladigan choralarga (siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, tibbiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy, axborot-targ'ibot) qaratilgan bo'ladi. Mazkur siyosat doirasiga keksa yoshdagi fuqarolar, shuningdek, siyosat dasturini amalga oshiruvchi muassasalar va sub'ektlar, barcha toifadagi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlar kiradi.

Qariyalarga g'amxo'rlik qilishning markaziy tamoyili sifatida quyidagilar qabul qilingan: qariyalarning jamoatchilik hayotida to'la ishtirok etishlari, ular haqida jamoachilik va davlat muassasalarining g'amxo'rliqi, ehtiyojlarini qondirish va hayoti davomida to'plagan bilim, tajribalarini ro'yobga chiqarish uchun huquqiy sharoitlar yaratishni ijtimoiy siyosatga to'g'ri keladigan va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda uyg'unlashtirishdir.

Keksa fuqarolarga nisbatan davlat ijtimoiy siyosatining maqsadi – keksa insonlarning turmush darajasi va hayot sifatini qat'iy ko'tarishdir. Bunda ijtimoiy adolat, birdamlikka tayanish, aholining barcha demografik guruhlarining ehtiyojlarini hisobga olish, moliyaviy va boshqa resurslardan oqilona foydalanish zarur.

Keksa avlodga nisbatan davlat ijtimoiy siyosati hayot ilgari surayotgan muammolarning muhimligini amaliy baholab, davlatning moliyaviy va boshqa resurslarini hisobga olgan holda quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- barcha keksa avlod fuqarolarining tengligi tamoyili – murakkab vaziyatlarda himoya va yordamga, ijtimoiy kelib chiqishi, holati, millati, turar-joyi, siyosiy va diniy qarashlari, iqtisodiy ahvolidan qat'iy nazar o'zining hayoti va faoliyati bilan

bog'liq masalalarda bir qarorga kelishga teng huquqli bo'lishi, ijtimoiy-mehnat sohasi va jamoatchilik faoliyatida o'zini namoyon etish uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lishi;

– davlatning javobgarligi tamoyili – jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga moslashgani holda keksa avlodni ijtimoiy muhofaza qilish, ijtimoiy ahvolini yaxshilash uchun sharoitlar yaratish;

– ijtimoiy samaradorlik tamoyili – qariyalarning turmush tarzini yaxshilash, ijtimoiy ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqeini yuqori darajada tutish, ijtimoiy aloqalarini yaxshilash, mustahkamlash, ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan choralarning yo'naltirilganligi;

– keksa avlod fuqarolariga bo'lgan munosabatda siyosatning yaxlitligi tamoyili – qariyalarni ijtimoiy himoyalashga bo'lgan qarashlarning umumiyligi, boshqaruvning barcha darajalarida qariyalarning birinchi darajali muammolarini hal etish uchun mablag'larni jamlash;

– ijtimoiy hamkorlik tamoyili – keksa yoshdagi aholining turmush tarzini ko'tarish, ijtimoiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishda davlat, jamoatchilik va qariyalarning bir-biri bilan aloqada bo'lishlari, qariyalarga yordam ko'rsatayotgan oila, jamoatchilik uyushmalari, diniy, xayriya muassasalari, tashkilotlari bilan doimiy hamkorlik qilish.

Bugungi kunda dunyoning qator mamlakatlarida aholining keksayishi jarayoni avj olmoqda. Bu jarayonining rivojlanishi, aholi tarkibida qariyalar salmog'ining oshishi, bu toifa fuqarolarning davlat va jamiyatning alohida e'tiboriga muhtojligi, ularning turli xil tibbiy-ijtimoiy xizmat turlariga ehtiyojining ortib borishi bilan tavsiflanadi. Aholining keksayishi jarayoni va uning intensivligi qariyalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning rivojiga, bu borada qo'llanib kelinayotgan uslub va mexanizmlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi.


Asosan qariyalar surunkali kasalliklarga chalinishi, kasalliklar kechishi bilan vujudga keluvchi asoratlardan tufayli muntazam tibbiy xizmatga, reabilitatsiya texnik vositalari – nogiron aravachalari, xodunoklar, hassa va qo'ltiq-tayoqlarga, ko'rish va eshitish qobiliyatining yoshga doir pasayishi hamda tish-jag' a'zolarining sekin-asta ishdan chiqishi tufayli optik ko'zoynaklar, eshitish moslamalari va sun'iy jag'ga muhtoj bo'lib qoladi. Shu bilan birga, ularning ko'pchiligi kundalik ehtiyojlarini biron-bir xizmat ko'rsatuvchi yordamisiz qondira olmasligi tufayli moddiy yordamga, o'zgalarning parvarishiga, qolaversa, hamdardga muhtojdirlar (6.1-rasm).

Yaqin kelajakda keksalarning ehtiyojlarini hisobga olib, ijtimoiy himoyasiga doir quyidagi masalalarni bosqichma-bosqich yechish lozim:

– qariyalarga manzilli yordam va keng qamrovli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish;

– keksalarning sog'lig'ini yaxshilovchi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini ta'minlovchi mavjud institusional tuzilmalarni qayta tashkil etish;

– keksa insonlarga nisbatan hurmat, jamiyatning e'tiborli a'zosi sifatida qarashlarni tasdiqlash.



6.1-rasm. Yolg'iz keksa-qariyaning ehtiyojlari

Yuqoridagi qayd etilgan masalalar keksa yoshdagi fuqarolarning mustaqilligini, faol ijtimoiy ishtiroki, ularga g'amxo'rlik qilish uchun sharoit yaratadi.

Shunday qilib, keksa avlodga nisbatan olib boriladigan davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlari jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan uchta jihat: ijtimoiy himoyalash; ahvolini yaxshilash va faol ijtimoiy ishtirokka jalb qilishning yagonaligi nuqtai nazaridan bayon etilgan. Shu bilan bir qatorda, davlat ijtimoiy siyosatining asosiy strategik maqsadiga erishish uchun keksa yoshdagilarning haq-huquqlarining me'yoriy-huquqiy jihatlarini, pensiya bilan ta'minlashni takomillashtirish, sog'liqni saqlash, kuchi yetgan sohalarda ish bilan ta'minlash, qariyalarga keng qamrovli ijtimoiy xizmat, manzilli yordamni taqdim etish bo'yicha qator tadbirlarni amalga oshirish lozim.

6.2. Yolg'iz keksalar va nogironlarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatishning xususiyatlari

Ma'lumki, keksa yoshdagi kishilarning sog'lig'i va kasallanish xususiyatlari boshqa yosh guruhlaridan jiddiy farq qiladi. Yosh o'sgan sari surunkali kasalliklarning soni oshib boradi va ularning sababini aniqlash ancha qiyin bo'ladi. Keksalar nafaqat surunkali kasalliklar bilan, balki kelib chiqishiga ko'ra har xil patologik 2-5 xil kasalliklar bilan kasallanadi. Shuning uchun, keksa yoshdagi kishilarga tibbiy yordamning maxsus shakli – **geriatrik yordam** ko'rsatiladi. Bunday yordam majmual, ya'ni tibbiy-ijtimoiy ahamiyatga ega yordam hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda tibbiyotda keksa bemorlarni davolash bo'yicha ilmiy kuzatishlar va amaliy tajribalar olib borilmoqda. Keksa yoshdagilarga tibbiy yordam ko'rsatishning asosini quyidagi tamoyillar tashkil qiladi:

- geriatrik yordam davolash-profilaktika choralari umumiy tizimining tarkibiy qismi hisoblanishi lozim;
- tibbiy yordam keksalarga maksimal darajada yaqinlashgan bo'lishi shart. Buning uchun tibbiy-ijtimoiy muassasalar va hududiy poliklinikalar qoshida geriatrik markazlar va maslahat geriatrik markazlar tashkil qilish, ularga geriatrik bemorlarni qabul qilish vaqtlarini kiritish lozim;
- uchastka terapevti geriatrik bemorlarni boshqarish jarayonida asosiy o'rinni tutishi zarur. Chunki, u bunday mijozlar bilan doimiy aloqada bo'ladi va davolashning choralari ishlab chiqadi, muassasa va mutaxassisga yo'llanma beradi.

Keksa yoshdagi aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishda geriatrik markazlarning o'rni katta. **Geriatric markazlar** ambulatoriya-poliklinika muassasalarining yangi shakli hisoblanib, ular o'z vazifasi va faoliyatiga hajmiga ko'ra ikki xil bo'lishi mumkin: hududiy poliklinikalar qoshida tashkil etilgan maslahat geriatrik markazlar va geriatrik markazlar.

Maslahat geriatrik markazlar viloyat, tuman, shahar poliklinikalari, qishloq vrachlik punktlari qoshida tashkil etiladi. Bunday markazlarning asosiy vazifasi keksalarga tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha faoliyat ko'rsatish, barcha tuman poliklinikalarida davolash-maslahat yordami va tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshirish hisoblanadi. Markazda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

- geriatriya bo'yicha uchastka vrachi va boshqa mutaxassislarning malakasini tizimli turda oshirish, geriatrik bemorlarni davolash bo'yicha ilmiy-nazariy anjumanlar o'tkazish, qarish profilaktikasi va davolashning zamonaviy geriatrik usulini, geroformokologiyaning so'nggi yutuqlarini amaliyotga tadbiq qilish;
- vrachlar keksalar uchun rejali turda maslahat o'tkazish va tashkil etish;
- tuman (shahar)da yashovchi keksalar ro'yxatini tuzish, surunkali keksa bemorlarni davolash va doimiy kuzatishda bo'lishi lozim.

Geriatric markazlar keksalarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatish darajasini oshirish uchun ijtimoiy ta'minot organlari, Qizil yarim oy jamiyati va boshqa tashkilotlar bilan tizimli aloqani amalga oshiradi, kasallikni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi, barvaqt qarishga kurashish masalalari bo'yicha aholi o'rtasida sanitar-ma'rifiy ishlar olib boradi.

Yosh o'sishi bilan keksa kishining umumiy zaifligi va harakatchanligining cheklanganligi ularga uy sharoitida tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatishni taqozo etadi. Keksa bemorlarga uy sharoitida tibbiy yordam quyidagi masalalar: shaxsiy gigiena to'g'risida maslahat, to'g'ri ovqatlanish, davolash badan tarbiyasining harakatlantiruvchi rejimi bo'yicha tavsiyalar berish lozim. Gerontolog mutaxassislarining ta'kidlashicha, uy sharoitida keksa bemorlarga faol xizmat ko'rsatish shifoxona kuyk fondini tejashning ichki zahirasi hisoblanadi.

Geriatric xizmat ko'rsatishning muhim bir shakli – bu **kunduzgi geriatrik**

shifoxonalar hisoblanadi. Bunday shifoxonalarda geriatrik bemorlarga kunduzi tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatiladi. Bemor shifoxonaga ehtiyojiga qarab har kuni yoki belgilangan kunlari kelib ko'rinadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, kunduzgi geriatrik shifoxonalarda bemorlarni boqishga ketadigan harajatlar miqdori odatdagi shifoxonalarga qaraganda 53 foiz kam bo'ladi.

Bugungi kunda dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida tibbiy-ijtimoiy ta'minot xizmatining faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida **tibbiy-ijtimoiy markazlar** tashkil qilingan. Ularning asosiy vazifasi keksa yoshdagi kishilar va nogironlarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatishni nazorat qilish va muvofiqlashtirish, keksalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'ini mustahkamlash, ishlab chiqarish va ijtimoiy faolligini oshirish, ijtimoiy-huquqiy, kasbiy-gigienik masalalar bo'yicha maslahatlar tashkil qilishdir. Shuningdek, tibbiy-ijtimoiy markazlar o'z faoliyatida sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, bandlikka ko'maklashish, kommunal, maishiy xizmat ko'rsatish, savdo, umumiy ovqatlanish, madaniyat va boshqa tashkilot, muassasalar bilan aloqa o'rnatadi.

Keksalar va nogironlarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatishda davolash-sog'lomlashtirish majmuasining yangi shakli **salomatlik zonalari** katta ahamiyatga ega. Uning asosiy vazifasi keksa yoshdagi aholini va nogironlarni sog'lomlashtirish, sog'lig'ini tiklash va hayotining faollik davrini uzaytirishdir. "Salomatlik zona"sining asosiy omillari iqlim bilan davolash, davolash badan tarbiyasi, mehnat terapiyasi, fizik davolash va boshqa davolash usullaridir.

"Salomatlik zona"sini nafaqat sog'lomlashtirish ishlarining quyilgan shakli, balki keksa kishilar bo'sh vaqtini tashkil qilishning asosiy shakli sifatida ham baholash mumkin. Bunday joylarda keksalarning bo'sh vaqtlarini jismoniy-sog'lomlashtirish tadbirlari, mehnat terapiyasining qat'iy o'rnatilgan rejimi to'ldiradi, shuningdek, badan tarbiya mashqlari maxsus tuzilgan, fiziologik asoslangan dastur bo'yicha o'tkaziladi.

Keksalar va nogironlarni davolash tizimida tiklash terapiyasi – **reabilitatsiya** alohida o'rin egallaydi. Bunda choralar majmuasi kasallanish davrida nogironlikning oldini olish va nogironlarga jismoniy, ruhiy, kasbiy mukammallikka erishishga yordamlashishga yo'naltirilgan bo'ladi. Keksalar yoshdagi kishilarni reabilitatsiya qilish katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Sababi, sog'liqni tiklash muolajasiga ehtiyoj yosh o'sgan sari oshadi. Reabilitatsiya jarayonida keksa kishilarga xizmat ko'rsatish tibbiy va ijtimoiy choralarni muvofiqlashtirishni taqozo etadi. Shuning uchun reabilitatsiya bo'limi yoki markazlari umumiy tipdagi shifoxonalar, geriatrik markazlar qoshida tashkil qilinadi. Ularda davolash statsionar yoki ambulatoriya sharoitida o'tkaziladi.

6.3. Nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining amal qilishi

Nogironlik (lotincha invalidus - kuchsiz, quvvatsiz) - kasalliklar bilan bog'liq bo'lgan jarohatlar yoki nuqsonlar oqibatida hayot faoliyatining

cheklanishiga olib keluvchi va uning ijtimoiy himoyaga muhtojligini keltirib chiqaruvchi organizm funksiyalarining barqaror bajarilishining izdan chiqishi oqibatidagi inson salomatligining buzilishidir. Bunda hayot faoliyatining cheklanishi deganda shaxs tomonidan imkoniyatlarining to'liq yoki qisman yo'qotilishi yoki o'z-o'ziga xizmat qilish, mustaqil harakatlanish, mo'ljal olish, muloqot qilish, o'z hulqini nazorat qilish, ta'lim olish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatlarini yo'qotilishi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonuniga muvofiq organizm funksiyalarini buzilishi darajasiga va hayot faoliyatining cheklanganligiga bog'liq holda nogironlar deb tan olingan shaxslarga nogironlik guruhi o'rnatiladi, 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarga esa "nogiron-bola" toifasi belgilanadi.

Shaxsni nogiron deb tan olinishi tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Nogironlikni belgilash uchun hayot faoliyati cheklanganligining darajasi aniqlanishi kerak, ya'ni sog'liqning buzilishi oqibatida inson faoliyatining me'yoridagidan chetga chiqishining kattaligi aniqlanadi.

Inson organizmi asosiy funksiyalarining buzilishi tasnifi quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Psixik funksiyalar buzilishi (qabul qilish, e'tibor, xotira, fikr yuritish, muloqot, hissiyotlar, erkinlik).

2. Sensor funksiyalarining buzilishi (ko'rish, eshitish, hid bilish, his qilish).

3. Statodinamik funksiyaning buzilishi.

4. Qon aylanish, nafas olish, ovqat hazm qilish, ajratish, moddalar va energiya almashinuvi, ichki sekresiya funksiyalarining buzilishi.

Nogironlik bo'yicha o'rnatiladigan asosiy hayot faoliyati toifalari quyidagicha tasniflanadi:

1. O'z-o'ziga xizmat ko'rsata olish qobiliyati - mustaqil ravishda o'zining asosiy fiziologik ehtiyojlarini qondira olishi, kundalik maishiy faoliyat bilan shug'ullana olishi va shaxsiy gigiena ko'nikmalarini amalga oshira olishi.

2. Mustaqil ravishda harakatlanish olishi - makonda mustaqil ravishda harakatlanish olishi, to'siqlardan o'ta olishi, bajarilayotgan maishiy, ijtimoiy va professional faoliyat doirasida tananing tik turishini saqlay olishi.

3. Ta'lim olish qobiliyati - olingan bilimlarni (umumta'lim, professional va boshqa) ang'ay olishi va etkazib bera olishi, ko'nikma va bilimlarga (ijtimoiy, madaniy va maishiy) ega bo'la olish qobiliyati.

4. Mehnat faoliyatiga qobiliyati - ishning mazmuniga, hajmiga va bajarish sharoitlariga mos ravishdagi talablarga muvofiq faoliyat ko'rsata olish qobiliyati.

5. Mo'ljal olish qobiliyati - vaqt va makonni ang'ay olish qobiliyati.

6. Muloqot qilish qobiliyati - ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va o'tkazish orqali odamlar orasida muloqot o'rnatish qobiliyati.

7. O'z hulqini nazorat qilish qobiliyati - ijtimoiy-huquqiy me'yorlarni inobatga olgan holda o'zini ang'ay olishi va o'zini tutish qobiliyati.

Inson organizmi funksiyalarining barqaror buzilishini tavsiflab beruvchi turli

sifat va miqdor ko'rsatkichlarni kompleks baholash quyidagi buzilishlarning to'rtta darajasini ajratib ko'rsatishni nazarda tutadi:

1-daraja - funksiyalarning ahamiyatsiz buzilishi;

2-daraja - funksiyalarning o'rtacha (mo'tadil) buzilishi;

3-daraja - funksiyalarning namoyon bo'lgan buzilishi;

4-daraja - funksiyalarning ahamiyatli namoyon bo'lgan buzilishi.

Namoyon bo'lish darajalari bo'yicha hayot faoliyatini cheklashlar uch darajaga bo'linadi. Masalan, mustaqil ravishda harakatlana olish qobiliyatini cheklashlar quyidagicha tasniflanadi:

1-daraja - uzoq vaqt sarflab harakatlanishida, ishni qisman bajarilishi va masofani qisqarishida mustaqil harakatlanish qobiliyati;

2-daraja - yordamchi vositalardan foydalanib yoki boshqa shaxslar yordamida mustaqil harakatlana olish qobiliyati;

3-daraja - mustaqil harakatlana olmaslik va boshqa shaxslarga yordamiga to'lagicha bog'liqlik.

Mehnat faoliyati qobiliyati bo'yicha cheklashlar quyidagicha tasniflanadi:

1-daraja - ishlab chiqarish faoliyati hajmining kamayishi yoki malakaning tushishi sharoitlarida mehnat faoliyatini bajara olish qobiliyati, o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlarni bajara olmasligi;

2-daraja - yordamchi vositalardan foydalangan holda maxsus yaratilgan sharoitlarda yoki maxsus jihozlangan ish o'rnida, boshqa shaxslar yordamida mehnat faoliyatini amalga oshira olish qobiliyati;

3-daraja - mehnat faoliyatiga qobil emasligi.

Nogironlarga nisbatan olib borilayotgan ijtimoiy siyosat ularning hayotda va jamiyat taraqqiyotida faol qatnashish imkoniyatlarini kengaytirishga, moddiy ahvollarini yaxshilashga qaratilgan. Hayot faoliyatining buzilishi darajasiga qarab birinchi, ikkinchi, uchinchi nogironlik guruhi belgilanadi.

Birinchi guruh nogironlikni belgilash uchun kasalliklar, jarohatlar, tug'ma nuqsonlar oqibatida organizm hayot faoliyatining yaqqol ko'rinib turgan cheklanishlari asos bo'ladi.

Birinchi guruh nogironlik quyidagi hollarda belgilanadi:

– o'ziga o'zi xizmat qilish, harakat qilish yoki o'z xulq-atvorini nazorat qilish (o'qish, muomala qilish, harakatlanish), shuningdek, mehnat faoliyatida qatnashish mumkin bo'lmagan, bu esa o'z navbatida boshqalarning doimiy parvarishiga, yordamiga yoki nazoratiga ehtiyoj sezishga olib keladigan, to'la ijtimoiy moslashuvchanlikni yo'qotish hollarida (tetraplegiya, og'ir tetraparez, og'ir surunkali psixozlar, inkurabel xatarli o'smalar);

– harakat qilish, o'ziga o'zi xizmat qilish, o'qish yoki muomala qilish, o'zini idora qilish, o'z xulq-atvorini nazorat qilish, shuningdek, oddiy ishlab chiqarish sharoitida mehnat faoliyatida qatnashish ancha qiyinlashgani oqibatida, agar ko'rsatilgan buzilishlar doimo o'zgalarning parvarishi, yordami yoki nazorati zarurligini taqozo etuvchi ancha yaqqol ko'rinib turgan ijtimoiy moslanuvchanlikni yo'qotish hollarida (oyoqlarning doimiy falaji, har ikki qo'lning cho'ltoqligi, ya'ni

har ikki panjadagi hamma barmoqlarning yo'qligi, yuqoridan uchdan bir darajada har ikki sonning cho'ltoqligi, butunlay ko'rmaslik).

Ikkinchi guruh nogironlik quyidagi hollarda belgilanadi:

– salomatligining holatiga ko'ra mehnat faoliyatida qatnasha olmaslik oqibatida ancha yaqqol ko'rinib turgan ijtimoiy moslashuvchanlikni yo'qotishda yoki mehnat faoliyati ta'sirida kasallik kechishining yomonlashishi, og'ir asoratlar paydo bo'lishi xavfi tug'ilganda, shuningdek, muomala qilish, o'zini idora qilish, o'qish, o'z xulq-atvorini nazorat qilishga yaqqol qiynalishda, ammo o'zgalarning yordamiga, parvarishiga yoki nazoratiga ehtiyoj bo'lmaganda (yurakning klapan apparati shikastlanganligi yoki qon aylanishining II- va III-darajali doimiy buzilgandagi miokard, tez avj oluvchi, tez-tez krizislarga moyil ikkinchi bosqich gipertoniya kasalligi, o'pka sirrozi, takroriy miokard infarkti, qisqa vaqt ichida takrorlangan insult, yaqin masofani ko'rolmaslik);

– og'ir surunkali kasalliklar, tayanch-harakat a'zolarining o'zaro bog'liq nuqsonlari va ko'rish qobiliyatini ancha yo'qotish oqibatida yaqqol ko'rinib turgan ijtimoiy moslashuvchanlikni yo'qotganda, shuningdek, muomala qilish, o'zini idora qilish, o'qish, o'z xulq-atvorini nazorat qilish hamda oddiy sharoitdagi mehnat faoliyatida qatnashish qiyin bo'lganda, ammo o'zgalarning yordamiga, parvarishiga yoki nazoratiga ehtiyoj bo'lmaganda (ovqatlanishning kamayishi va qisqa muddatli remissiyalar ko'rinib turgan yazva kasalligining og'ir shakli, zaharlanish, tez-tez zo'rayib turadigan bronxoektatik kasallik, tez-tez xurj qiladigan tutqanoq kasalligi, qadam bosishni bir muncha buzib turadigan oyoq paraparezi).

Uchinchi guruh nogironlik quyidagi holatlarda belgilanadi:

– o'zining oldingi kasbi bo'yicha ishini davom ettirish imkoni yo'qligi oqibatida salomatlikning holatiga ko'ra kamroq malaka talab qiladigan boshqa kasbdagi ishga o'tkazish zarur bo'lgan hollarda (masalan, yuqori malakali chilangar asbobsozni qon aylanishining I- va II-darajali barqaror buzilganligi tufayli mayda buyumlarni yig'uvchilik ishiga o'tkazish; o'ng panjaning II, III va IV barmoqlari yo'qligi tufayli ip yigiruvchi ayolni mato chetini to'g'rilash ishiga o'tkazish);

– zarurat bo'lganda salomatligining holatiga ko'ra ishlab chiqarish faoliyati hajmini ancha qisqartirishga olib keladigan o'z kasbi bo'yicha ishlash sharoitlarini o'zgartirish (masalan, trest bosh hisobchisini xotiraning pasayishi, diqqat-e'tiborning kamayishi, astenizasiya va hokazo bilan bog'liq tserebral arteriosklerozga uchraganligi tufayli kichikroq muassasaga hisobchilik ishiga o'tkazish; ko'p dastgohli ishlovchi to'quvchi ayolni o'rtacha og'irlikdagi qand diabeti tufayli 1-2 ta dastgohda ishlashga o'tkazish va hokazo);

– kam malakali yoki ilgari ishlamagan shaxslarda belgilari ko'rinib turgan funksional buzilishlar oqibatida ularning ishga joylashish imkoniyatlari ancha cheklanganda (yazva kasalligiga chalingan yordamchi ishchini bino ichidagi vaxtyorlik ishiga o'tkazish; mehnat malakasiga ega bo'lmagan, yurak-o'pka kasalliklariga chalingan ayollarning ishga joylashishining qiyingi tufayli ular

nogironlar uchun mo'ljallangan artel sharoitlarida qo'l mehnatining yengil turlaridagina ishlashi mumkin va hokazo);

– bajaradigan ishidan qat'iy nazar, anatomik nuqsonlar yoki funksiyalarning buzilishiga olib keluvchi deformatsiyalar mavjud bo'lganda (qo'llarning nuqsonlari, panjalardagi bosh barmoqdan tashqari qolgan uch yoki to'rtta barmoqning yo'qligi, oyoqlarning nuqsonlari, yurak mushagining yoki yurak xaltasida begona jinsning mavjudligi, jag'dagi yoki tanglaydagi nuqsonlar, nafas olish yetishmovchiligi).

Ta'kidlash lozimki, uchinchi guruh nogironlik belgilanadigan, ammo uzoq muddat davolanishga muhtoj shaxslarga ikkinchi guruh nogironlik belgilanishi mumkin.

Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza – bu ijtimoiy muhofaza me'yorlari doirasida ko'rsatilayotgan shaxsning ehtiyojlarini belgilangan tartibda o'rnatishdir, shuningdek, u organizm funksiyalarining barqaror buzilishi oqibatida vujudga kelgan hayot faoliyatining cheklanishini baholash asosidagi rehabilitatsiyani ham o'z ichiga oladi.

Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilanadigan, ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan tasniflar va mezonlardan foydalanish orqali ko'rsatilayotgan shaxsning klinik-funksional, ijtimoiy-maishiy, professional-mehnat, psixologik ma'lumotlarini tahlil qilish asosida organizm holatini kompleks baholash orqali amalga oshiriladi. Fuqarolarning vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligini tasdiqlovchi hujjatlar berilishi tartibi to'g'risidagi qo'llanmaga muvofiq tibbiy-ijtimoiy ekspertizaga mehnatga layoqatlilik va hayot faoliyatini turg'un cheklanishiga ega bo'lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan quyidagi fuqarolar yuboriladi:

– oddiy holdagi klinik va mehnatning ijobiy bo'lmagan bashorati bo'yicha – vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlikning muddatlaridan qat'iy nazar, biroq 4 oydan ortmagan holda;

– davom etuvchi mehnatga layoqatsizlik holatida ijobiy mehnatga layoqatlilikning bashorati bo'yicha - davolanishni davom ettirish yoki nogironlik guruhini o'rnatish xususidagi masalani hal qilish uchun 10 oygacha (ba'zi hollarda 12 oygacha);

– ishlovchi nogironlar - klinik va mehnat bashoratini yomonlashishi holatida mehnat tavsiiyanomasini o'zgartirish uchun.

Fuqaro tibbiy-ijtimoiy ekspertizaga sog'liqni saqlash muassasasi tomonidan yoki aholini ijtimoiy muhofaza qilish organi tomonidan yuboriladi. Yashash joyi mavhum bo'lgan shaxslar aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari tomonidan yo'llanma bilan tibbiy-ijtimoiy ekspertizaga yuboriladi.

Fuqarolarni tibbiy-ijtimoiy ekspertizaga turli darajadagi va mulkchilik shaklidagi ambulator-poliklinika va kasalxona muassasalarining davolovchi shifokorlari muassasaning klinik-ekspertiza komissiyasi tomonidan tasdiqlangan tibbiy-ijtimoiy ekspertizaga yuborish yo'llanmasi asosida

yuborish huquqiga ega. Sog'liqni saqlash muassasasi fuqaroni tibbiy-ijtimoiy ekspertizaga belgilangan tartibda nuqsonlar va jarohatlar oqibatida, kasalliklar bilan bog'liq bo'lgan organizmning funksiyalarini turg'un buzilishini tasdiqlovchi ma'lumotlar mavjud bo'lganda kerakli tashhis, davolash va reabilitatsiya tadbirlarini amalga oshirgandan so'ng yuboradi.

Sog'liqni saqlash muassasasi yo'llanmasida fuqaroning sog'ligi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi, ular organlar va inson organizmi tizimlari funksiyalarini buzilishi darajasini, organizmning kompensatorlik imkoniyatlari holatini, shuningdek o'tkazilgan reabilitatsiya tadbirlarining natijalarini o'zida aks ettiradi. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish organi hayot faoliyati cheklanganligi alomatlarini mavjud bo'lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxsni, agar unda nuqsonlar va jarohatlar oqibatida, kasalliklar bilan bog'liq bo'lgan organizmning funksiyalarini buzilishini tasdiqlovchi tibbiy hujjatlar mavjud bo'lganda tibbiy-ijtimoiy ekspertizaga yuborishi mumkin.

Tibbiy-ijtimoiy ekspertizaning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1) ijtimoiy himoya tadbirlariga muhtojlikni, hayot faoliyatining cheklanishi bo'yicha reabilitatsion salohiyatni aniqlash maqsadida reabilitatsiya-ekspert diagnostikasini o'tkazish;

2) nogironlikning tarkibi va tarqalishini tahlil qilish, nogironlikni boshlanishi va rivojlanishi, vujudga kelishiga ta'sir qiluvchi sabablar, omillar va sharoitlarni o'rganish.

Fuqaroning tibbiy-ijtimoiy ekspertizasi uning yashash joyi yoki biriktirilgan joyi bo'yicha davlat yoki munisipal davolash-profilaktika sog'liqni saqlash muassasasida amalga oshiriladi. Agar sog'liqni saqlash muassasasi tomonidan qo'yilgan xulosa berilgan shaxs sog'ligi yomonlashgani holati bo'yicha muassasaga kela olmasa tibbiy-ijtimoiy ekspertiza fuqaro davolanayotgan stasionarda yoki uning roziligi bilan sirdan yoki qonuniy vakili tomonidan tegishli hujjatlarni keltirish asosida uyda o'tkazilishi mumkin. Shaxsni tibbiy-ijtimoiy ekspertiza qilish uning yozma shakldagi arizasi bo'yicha yoki uning qonuniy vakilining yozma shakldagi arizasi bo'yicha amalga oshiriladi. Ariza muassasa rahbari nomiga yoziladi. Arizaga qo'shib sog'liqni saqlash muassasasining yoki aholini ijtimoiy muhofaza qilish organining yo'llanmasi, uning sog'ligini yo'qotilganligini tasdiqlovchi tibbiy hujjatlar ilova qilinadi.

Tibbiy-ijtimoiy ekspertizani amalga oshiruvchi muassasa mutaxassislari keltirilgan ma'lumotlarni (klinik-funksional, ijtimoiy-maishiy, kasbiy-mehnat, psixologik va boshqa ma'lumotlar) ko'rib chiqadi, fuqaroni shaxsan ko'zdan kechirishadi, uning hayot faoliyatining cheklanganlik darajasini baholaydi va hamkorlikda olingan natijalarni muhokama qiladi.

Fuqaroni nogiron deb tan olinishiga quyidagilar asos bo'ladi:

1. Nuqsonlar yoki jarohatlar, kasalliklar oqibatlari bilan bog'liq

bo'lgan organizm funksiyalarining barqaror buzilishi natijasidagi sog'liqni yo'qotilishi.

2. Hayot faoliyatining cheklanishi (shaxs tomonidan imkoniyatlarining to'liq yoki qisman yo'qotilishi yoki o'z-o'ziga xizmat qilish, mustaqil harakatlanish, mo'ljal olish, muloqot qilish, o'z hulqini nazorat qilish, ta'lim olish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatlarini yo'qotilishi).

3. Fuqaroni ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish zarurati.

Keltirilgan alomatlardan faqatgina bittasining mavjudligi shaxsni nogiron deb tan olinishi uchun etarli darajadagi asos bo'la olmaydi. Shaxsni nogiron deb tan olinishi to'g'risidagi yoki nogironlikni inkor qilinishi to'g'risidagi qaror oddiygina ko'pchilikning ovoz berishi yo'li bilan, ekspertlik qarorini qabul qiluvchi mutaxassislarining to'liq tarkibi tomonidan amalga oshiriladi. Qaror tibbiy-ijtimoiy ekspertizadan o'tgan shaxsga yoki uning qonuniy vakiliga muassasa rahbari tomonidan, ushbu qarorni qabul qilgan barcha mutaxassislarining ishtirokida e'lon qilinadi.

Ekspertlik qarorini qabul qilgan mutaxassislar fuqaroga yoki uning qonuniy vakiliga ushbu qaror bo'yicha tushuntirishlar beradi. Agar muassasa mutaxassislarining tarkibi ekspertlik qarorini qabul qila olmaydigan hollarda shaxsga hujjatlashtirish aktini berish uchun 3-kunlik muddat ichida tibbiy-ijtimoiy ekspertizaning bosh byurosiga yuboriladi, u esa o'z navbatida belgilangan tartibda ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha qaror qabul qiladi.

Nogironlikning o'rnatilish sanasi deb nogironlikning tan olinishi haqida yozgan fuqaro arizasining va unga ilova qilingan hujjatlarning muassasaga kelib tushgan sanasi hisoblanadi. I-guruh nogironligi 2 yilga, II-III-guruh nogironliklari esa 1 yilga o'rnatiladi. Organizm funksiyalarining buzilishi va hayot faoliyati cheklanishi darajasiga bog'liq holda 18 yoshgacha bo'lgan shaxsga "nogiron-bola" toifasi 1 yilga, 2 yilga yoki 18 yoshga yetguniga qadar o'rnatilgan tartibdagi belgilangan tasniflar va mezonlarga muvofiq holda o'rnatiladi.

Tibbiy-ijtimoiy ekspertizani o'tkazgan muassasa mutaxassislari tomonidan shaxsni nogiron deb tan olingan hollarda, bir oy davomida individual rehabilitatsiya dasturi ishlab chiqiladi, ushbu dastur muassasa rahbari tomonidan tasdiqlanadi va uni ishlab chiqilganidan keyingi 3-kunlik muddat ichida aholini ijtimoiy muhofaza qilish organiga yuboriladi. Nogironlarni individual rehabilitatsiya qilish dasturi ma'lumotlari tibbiy-ijtimoiy ekspertiza bosh byurosining ma'lumotlar bankiga kiritiladi.

Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish – bu nogironlarga hayot faoliyati cheklovlarini yengib o'tishini, o'rnini to'ldirilishi uchun va boshqa fuqarolar bilan jamiyat hayotida ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlarni yaratishga yo'naltirilgan iqtisodiy, huquqiy tadbirlar va

ijtimoiy himoya tadbirlarining davlat tomonidan kafolatlangan tizimidir.

Nogironlarni hayot faoliyatini ta'minlash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- nogironlarni reabilitatsiya qilish;
- nogironlarga tibbiy yordam ko'rsatish;
- nogironlarni to'siqsiz ma'lumotlar olishini ta'minlash;
- nogironlarni ijtimoiy infratuzilma ob'yektlaridan to'siqsiz foydalana olishini ta'minlash;
- nogironlarni yashash joyi bilan ta'minlash;
- nogiron-bolalarni tarbiyalash va o'qitish;
- nogironlarga ta'lim berish;
- nogironlarning ish bilan bandligini ta'minlash, shu jumladan, nogironlarni ishga qabul qilinishi uchun kvotalarni belgilash; nogironlarni ishga joylashishi uchun maxsus ish o'rinlarini yaratish, kerakli mehnat sharoitlarini yaratish;
- nogironlarni moddiy ta'minlash;
- nogironlarga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish.

Nogironlarni ijtimoiy himoya qilishning yo'nalishlaridan biri bo'lib nogironlarni reabilitatsiya qilish hisoblanadi, buning ostida nogironlarni maishiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatlarini to'liq yoki qisman tiklash tizimi va jarayoni tushuniladi. Nogironlarni reabilitatsiya qilish organizm funksiyalarining barqaror buzilishi oqibatida sog'liqning yomonlashishi bilan bog'liq bo'lgan hayot faoliyatining cheklanishini iloji boricha to'liq kompensatsiya qilish yoki bartaraf qilishga yo'naltirilgan bo'lib, nogironlarning ijtimoiy ko'nikishiga, ular tomonidan moddiy mustaqillikka erishishini va jamiyat bilan integratsiyalashuvini maqsad qilib qo'yadi.

Nogironlarni reabilitatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- tiklashga qaratilgan tibbiy chora-tadbirlar, rekonstruktiv xirurgiya, protezlash va ortezirlash, sanatoriy-kurort davolashlari;
- kasbiy yo'naltirish, o'qitish va ta'lim berish, ishga joylashuviga ko'maklashish, ishlab chiqarish ko'nikmasini hosil qilish;
- ijtimoiy muhit, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-madaniy reabilitatsiya, ijtimoiy-maishiy ko'nikma hosil qilish;
- jismoniy-sog'lomlashtirish chora-tadbirlari, sport.

Nogironlarni reabilitatsiya qilishning asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish nogironlar tomonidan reabilitatsiya qilishning texnik vositalaridan foydalanishini, muhandislik, transport, ijtimoiy infratuzilma ob'yektlariga nogironlarni to'siqlarsiz erishishining va transport, aloqa va ma'lumotlardan foydalanishning zaruriy sharoitlarini yaratilishini, shu jumladan, nogironlar va ularning oila a'zolarini nogironlarni reabilitatsiya qilish masalalari bo'yicha ma'lumotlar bilan ta'minlanishini nazarda tutadi.

Davlat nogironlarga reabilitatsiya qilish chora-tadbirlarini amalga

oshirilishini, texnik vositalar va xizmatlar berilishini, mablag'lar hisobiga nogironlarga beriladigan reabilitatsion chora-tadbirlarning ro'yxatida keltirilgan reabilitatsion texnik vositalar va xizmatlar berilishini kafolatlaydi.

Davlat nogironlarning ijtimoiy himoya qilinishini ta'minlab tegishli dasturlarda ularning ehtiyojlarini hisobga olish, salomatligini saqlash, mehnat qilish, bilim olish va kasb o'rganish, uy-joyli bo'lish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni ro'yobga chiqarishda to'siqlarni bartaraf etish maqsadida qonunlarda ko'zda tutilgan shakllarda ularga ijtimoiy yordam berish yo'li bilan ularning xos kamol topishlari, ijodiy va ishlab chiqarish imkoniyatlarini hamda qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib beradi.

Nogironlarga yordam ko'rsatish maqsadida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish jamg'armalari tashkil etilib, ulardan soliq olinmaydi. Bolalikdan nogiron bo'lganlarning hamda boshqa I- va II-guruh nogironlarining uy-joy sharoitini yaxshilash chog'ida uylar ularning ish joylariga hamda davolash-profilaktika muassasalariga va transport yo'llariga yaqin bo'lishi zarurligini hisobga olgan holda beriladi.

Nogironlar yoki a'zolaridan biri nogiron bo'lgan oilalar yashayotgan turar-joy binolari, shuningdek, nogironlar uchun qurilayotgan uy-joylar nogironlar salomatligini tiklashning yakka tarzdagi dasturiga muvofiq maxsus vositalar va moslamalar bilan jihozlanishi lozim. Mazkur turar joy binolarini uy-joy fondining egasi bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar jihozlaydi.

Davlat nogironlarni tibbiy, kasb va ijtimoiy jihatdan tiklash tizimini tashkil etadi va bu tizim qaror topishi hamda rivojlanishiga ko'maklashadi. Mazkur tizim organizmning izdan chiqqan yoki yo'qolgan qobiliyatlarini, o'ziga-o'zi xizmat qilish qobiliyatini, kasb faoliyatining xilma-xil turlaridagi qobiliyatini, shuningdek, nogironlarga to'laqonli turmush tarzini davom ettirish imkonini beradigan va ularning huquqlari hamda mavjud imkoniyatlarini ishga solishni ta'minlaydigan qobiliyatlarini qayta tiklashga hamda ularning o'mini qoplashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidan iborat.

Nogironlarni tibbiy, kasb va ijtimoiy jihatdan tiklash ularni tiklashning yakka tartibdagi dasturiga muvofiq amalga oshiriladi. Bu dastur nogironlarning jamoat birlashmalari vakillari ishtirokida davlat idoralari tomonidan tibbiy-ijtimoiy ekspertiza asosida belgilanadi.

Respublika idoralari va mahalliy idoralar nogironlarning salomatligini tiklashga qaratilgan yordamga bo'lgan ehtiyojlarini va mahalliy sharoitlarni hisobga olib, nogironlarning salomatligini tiklash tarmoqlarini, shu jumladan, ilmiy-ishlab chiqarish markazlarini, ambulatoriyalar hamda doimiy davolash-profilaktika muassasalarida tiklash bo'limlarini, maxsus o'quv-tarbiya muassasalarini, ixtisoslashtirilgan sanatoriy-kurort muassasalarini, nogironlarga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatadigan korxonalar va muassasalarni barpo etadi.

Davlat nogironlarning ilm olishi va kasb tayyorgarligi uchun zarur shart-sharoit yaratishga kafolat beradi. Halq talimi idoralari sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot idoralari bilan birgalikda nogiron bolalarning maktabgacha va maktabdan tashqari tarbiyasini, nogironlarning kasb tayyorgarligini, nogironlarni tiklashning yakka tartibdagi rejasiga muvofiq ular umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim olishini ta'minlashga majbur.

Salomatligi tufayli umumiy yo'sindagi maktabgacha tarbiya muassasalariga qatnay olmaydigan nogiron bolalarni tarbiyalash hamda salomatligini tiklash uchun eng qulay imkoniyatlarni yaratish maqsadida korxonalar, birlashmalar, muassasalar va tashkilotlarni jalb etilgan holda maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari, shu jumladan, internat uylari tashkil etiladi.

Nogironlarga umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim berish barcha o'quv yurtlarida, zarur bo'lgan hollarda esa maxsus bilim yurtlarida amalga oshiriladi. Doimiy ishlaydigan davolash profilaktika yoki salomatlikni tiklash muassasalarida davolanayotgan nogiron bolalar uchun ham o'quv mashg'ulotlari tashkil etiladi. Nogiron bolalarga umumiy yoki maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida va o'quv yurtlarida tarbiya va ta'lim berish imkoni bo'lmagan taqdirda, ota-onalarining istaklari hisobga olinib, bunday bolalarga uyida tarbiya va ta'lim beriladi. Bunda ota-onalardan biriga yoki ularning o'rnini bosuvchi kishiga belgilangan tartib va shartlar asosida moddiy ta'minot va imtiyozlar beriladi.

Nogiron bolalarni har tomonlama uyg'un rivojlantirish, ularda ijtimoiy faollikni, mehnatga qiziqishni tarbiyalash, ularni fan, texnika, san'at va sportga jalb etish maqsadida xalq ta'limi idoralari, boshqa davlat idoralari nogiron bolalarning maktabdan tashqari tarbiyadan bahramand bo'lishlarini ta'minlashga, buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga majbur.

Doimiy ishlaydigan muassasalarda yashaydigan nogiron bolalarga ana shu muassasalar ijtimoiy-maishiy hamda mehnat ko'nikmalarini hosil qilish bilan uzviy bog'langan holda tarbiya va ta'limning uzluksizligini ta'minlaydi.

Nogironlarning kasb tayyorgarligi va ularning malakasini oshirish o'quv yurtlarida, korxonalarda va tashkilotlarda (ixtisoslashgan yoki umumiy yo'sindagi), shuningdek, nogironlar jamoat tashkilotlarining korxonalarida va birlashmalarida ijtimoiy yordam muassasalari bilan birgalikda tiklashning yakka tartibdagi dasturiga muvofiq ravishda ta'minlanadi. Kasb tayyorgarligi va malaka oshirish davrida nogironlar belgilab qo'yiladigan tartib va shartlar asosida moddiy jihatdan ta'minlanadi.

Nogironlarning ilm olishi, kasb tayyorgarligi va malakasini oshirish turli shakllarda, shu jumladan, kunduzgi hamda kunduzgi-sirtqi shakllarda, o'zicha mustaqil tayyorlanish yo'li bilan, maxsus guruhlarda, sinflarda hamda yakka tartibdagi o'quv dasturlari asosida, shu jumladan, uyda o'qish yo'li bilan ro'yobga chiqariladi.

Nogironlarning ijodiy va ishlab chiqarish qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida hamda tiklanishning yakka tartibdagi dasturlarini hisobga olib, ularga mehnat sharoiti odatdagicha bo'lgan korxonalar, birlashmalar, muassasalar va tashkilotlarda, nogironlar mehnati qo'llaniladigan ixtisoslashtirilgan korxonalarda, sexlarda va uchastkalarda ishlash, shuningdek, yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqi ta'minlanadi.

Nogiron bilan mehnat shartnomasi tuzishdan yoki xizmat yuzasidan uni yuqori lavozimga ko'tarishdan bosh tortishga, ma'muriyat tashabbusi bilan ishdan bo'shatishga, nogironligi uchun uni o'z roziligisiz boshqa ishga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Tibbiy-mehnat ekspertizaning xulosasiga ko'ra, nogironning salomatligi bu kasb vazifalarini bajarishga monelik qilgan yoki nogironning yoxud boshqa kishilarning salomatligi va mehnat havfsizligiga tahdid qilgan hollar bundan mustasnodir. Nogiron o'z mehnat qobiliyatini tiklaganidan keyin avvalgi ishga yoki shunga teng ishga joylashish huquqiga ega.

Nogironlarni ish bilan ta'minlash maqsadida davlat idoralari nogironlarning kasaba uyushmalari va jamoat birlashmalari ishtirokida korxonalarda, birlashmalar, muassasalarda va tashkilotlarda ishlovchilar sonining kamida 3 foizi miqdorida nogironlar uchun ish joylarini band qilib qo'yish normalarini belgilaydi.

Nogironlar uchun ish joylarini band qilib qo'yishni ta'minlamagan yoki ularni ishga joylashtirishdan bo'yin tovlagan korxonalar, birlashmalar, muassasalar va tashkilotlar davlat hokimiyati mahalliy idoralariga nogironlarni ishga joylashtirish va ularga moddiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq harajatlarning o'mini qoplash uchun pul to'laydi.

Nogironlarning mehnatidan foydalanish uchun nogironlarning ehtiyojlarini va mahalliy xususiyatlarni hisobga olib, maxsus korxonalar, sexlar va uchastkalar barpo etiladi. Ko'zi ojiz nogironlar sharoiti o'zlarining imkoniyatlariga mos keladigan ishlab chiqarishlarda qatnashishda ustunlik huquqiga ega.

Mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari, korxonalar va birlashmalar uyda ishlovchi nogironlarga, shuningdek, yakka tartibdagi mehnat faoliyati band bo'lgan nogironlarga mazkur faoliyat uchun odam turmaydigan bino yoki xonalar ajratib berish, xom-ashyo sotib olish va mahsulotni sotishda zarur yordam beradi. Shuningdek, korxonalarda, birlashmalarda, muassasalarda va tashkilotlarda ishlayotgan nogironlarga tiklashning yakka tartibdagi dasturiga muvofiq ravishda zarur mehnat sharoiti yaratiladi.

Mehnat sharoiti, shu jumladan, mehnatga haq to'lash, ish vaqti tartibi va dam olish vaqti, jamoa yoki yakka tartibdagi mehnat shartnomasida belgilab qo'yiladigan yillik va qo'shimcha ta'tillarning muddati amaldagi me'yoriy hujjatlarda ko'zda tutilganidan kam bo'lmasligi va boshqa xodimlarga nisbatan nogironlarning ahvolini yomonlashtirmasligi yoki ularning huquqlarini cheklamasligi kerak.

Nogironlar mehnati qo'llaniladigan korxonalar, birlashmalar, muassasalar va tashkilotlar imtiyozli asoslarda soliq to'lash, moliyalashtirilish hamda moddiy-texnika bilan ta'minlanish huquqidan foydalanadi.

Nogironlarga ijtimoiy yordam pul to'lovlari (pensiylar, nafaqalar, bir yo'la beriladigan to'lovlar) shaklida, texnika vositalari hamda boshqa vositalar, shu jumladan, avtomobillar, o'rindiqli aravachalar, protez-ortopediya buyumlari, maxsus harfli matbaa nashrlari, ovoz kuchaytirgich apparatlar va signalizatorlar bilan ta'minlash shaklida, shuningdek, tibbiy, ijtimoiy va kasb jihatidan tiklash hamda maishiy xizmat, transport xizmati ko'rsatish yo'li bilan beriladi.

Nogironlarni pensiya va nafaqalar bilan ta'minlash tartibi pensiya va ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi qonunlarda, nogironlarga bepul maxsus tibbiy yordam ko'rsatish tartibi sog'liqni saqlash to'g'risidagi qonunlarda belgilab qo'yiladi. Nogironlarni dori-darmonlar bilan ta'minlash, ularga texnik vositalar va o'zga vositalarni berish, shuningdek, maishiy xizmat va transport xizmati ko'rsatish bepul yoki tegishli qonunlarda belgilab qo'yilgan tartibda yengil shartlar asosida amalga oshiriladi.

Nogironga texnika vositasi yoki o'zga vosita salomatlikni tiklashning bepul yoki imtiyozli shartlar bilan beriladi. Boshqalarning parvarishiga va yordamiga muhtoj bo'lgan nogironlarga ijtimoiy yordam idoralari uyga borib yoki doimiy ishlaydigan muassasalarda tibbiy yoki maishiy xizmat ko'rsatadi. Davlat boshqalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan nogironlarga ijtimoiy yordam beruvchi doimiy muassasalar tarmog'ini rivojlantirishga ko'maklashadi. Agar ishchi yoki xizmatchi korxonalar, birlashma, muassasa, tashkilotning aybi bilan nogiron bo'lib qolgan hamda boshqalarning parvarishiga muhtoj bo'lsa, shu korxonalar, birlashma, muassasa, tashkilot sog'liqni saqlash organlari va tibbiy-mehnat ekspert komissiyalarning xulosasiga muvofiq mehnatga yaroqsiz bo'lib qolgan davrda bemorni parvarishlash uchun o'z hisobidan uyda qarab turadigan bir kishini yollashi shart va nogironga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararning o'rnini qoplaydi.

Nogironlarning internat uylarda yoki boshqa doimiy ishlaydigan ijtimoiy yordam muassasalarida bo'lish sharoiti nogironlar o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishlari uchun imkoniyatni ta'minlashi hamda shaxsning ehtiyojlari mumkin qadar to'la-to'kis qanoatlantirilishiga ko'maklashishi lozim.

Salomatligini tiklash choralari yordamida nogironning internat uyda yoki o'zga doimiy ishlaydigan ijtimoiy muassasada bo'lishiga zarurat qolmagan taqdirda davlat xokimiyati mahalliy idorasi unga qulay turar joy maydoni berishi kerak. Doimiy ishlaydigan muassasalarda yashayotgan yetim yoki ota-onalarining vasiyligidan mahrum etilgan nogiron bolalar balog'atga yetgach, agar salomatlikni tiklashning yakka tartibdagi dasturida o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish va mustaqil turmush kechirish imkoniyati ko'zda tutilgan bo'lsa, shu dasturga muvofiq navbatdan tashqari turar joy maydoni bilan ta'minlanadi.

Nogironlarga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish, shu jumladan, ularni oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa xalq iste'moli mollari bilan ta'minlash, ularga kommunal va boshqa xizmatlar ko'rsatish nogironlarning kasaba uyushmalari hamda jamoat birlashmalari, ijtimoiy yordam muassasalari ishtirokida belgilanadigan yengil shartlar asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, ularga ijtimoiy yordam davlat budjeti va mahalliy budjetlar, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, nogironlarni ijtimoiy himoya qilish jamg'armalari mablag'lari, korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar va fuqarolarning ixtiyoriy badallari hisobidan beriladi.

Nogironlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq tadbirlarni pul bilan ta'minlovchi korxonalar, birlashmalar, muassasalar va tashkilotlarga tegishli qonunlarda belgilab qo'yiladigan tartibda va shartlarda soliq solishda yengilliklar beriladi.

6.4. Yolg'iz keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish borasidagi xorijiy mamlakatlar tajribasi va ularning O'zbekiston sharoitida qo'llanilish imkoniyatlari

Bugungi kunda dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida aholining keksayishi jarayonining rivojlanishi qariyalarning ijtimoiy muhofazasiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Bunga misol tariqasida Yevropa mamlakatlarini keltirish mumkin.

Yevropaning ko'pchilik rivojlangan mamlakatlari ikkinchi jahon urushidan keyin bu jarayonga yuz tutganligi bois yolg'iz keksa va nogironlarni qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy ta'minot dasturlari ishlab chiqdi va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning maxsus tizimlari yaratdi. Chunonchi, Buyuk Britaniyada keksa va nogironlarga ijtimoiy-tibbiy yordam ko'rsatuvchi muassasalar sifatida poliklinikalar, shifoxonalar, qariyalar uylari, davlat va xususiy sektordagi hamshira parvarishlash uylari, nogironlar uylari, nogiron va ruhiy kasalga chalingan kishilar uchun mehmonxona tipidagi yotoqxonalar faoliyat ko'rsatadi. Keksalar va nogironlarga yordam ko'rsatuvchi ijtimoiy xodimlar, umumiy amaliyot vrachi, gerontolog, patronaj hamshirasi, psixolog, klinika vrachi, tuman tibbiyot hamshiralardan tashkil etilgan guruhlar keng tarqalgan. Bu guruhlar o'z faoliyatida har bir holatga alohida yondoshib, uni har tomonlama va chuqur o'rgangan holda, mijozga uning ehtiyoji e'tiborga olingan shaxsiy reja asosida yordam ko'rsatadi. Shuningdek, mijozning ijtimoiy va ruhiy zaiflik darajasini aniqlash maqsadida uning ahloqiy tavsifi ham o'rganiladi.

Buyuk Britaniyada yolg'iz keksalar va nogironlarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha asosiy mas'uliyat mahalliy hokimiyatga yuklatilgan bo'lib, moliyaviy mablag'ning katta qismini ham u ajratadi. Mamlakatda tibbiy yordam sohasida umumiy amaliyot vrachi faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida "hamshiralik ishi menejeri" lavozimi ta'sis etilgan. Bu mutaxassis yordam ko'rsatish jarayonini muvofiqlashtiradi va zarur xizmatlar bo'yicha maslahatlar

beradi.

Yevropaning ko'pchilik mamlakatlarida yolg'iz keksalarga uy sharoitida yordam ko'rsatish tizimi tashkil qilingan. Xususan, Vengriyada yolg'iz qariyalar uchun maxsus kunduzgi muloqotda bo'lish va muolaja uylari faoliyat ko'rsatadi, Fransiyada yolg'iz keksalar oila homiyligiga olingan, Boltiq bo'yi mamlakatlari Litva, Latviya va Estoniyada esa yolg'iz qariyalarga uy sharoitida yordamning patronaj xizmati rivojlangan. Shuningdek, bu mamlakatlarda maxsus tayyorlangan ijtimoiy xodimlar yolg'iz keksa bemorlarga kerakli tovarlarni xarid qilishda, ovqat tayyorlashda, xonalarni yig'ishtirishda yordam beradi, ular bilan birga mutolaa qiladi va suhbatdosh bo'ladi.

Maltada qariyalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning oilaviy shakli rivojlangan. Bundan 50 yil oldin mamlakatda ko'pchilik oilalar kengaytirilgan tipga tegishli edi. Hozirgi kunda oilaning bunday shakli qishloq joylarida keng tarqalgan. Bu yerda nikoh qurish an'anasiga ko'ra, yosh oilalar odatda ota-onalari bilan qo'shni yashaydi. Bu esa, o'z navbatida keksalarga oilaviy yordamning ko'p bo'lishini bildiradi. Maltada davlat qariyalarni boqish uchun asosiy xizmatni ta'minlovchi hisoblanadi. Mamlakatda 1987 yilda keksa kishilarning muammolari bilan shug'ullanuvchi departament tuzilgan. Departament jamiyatdan ajralmagan holda qariyalarga quyidagi qator xizmatlarni taqdim etadi:

- kunduzgi muloqotda bo'lish markazlari – qariyalarga ijtimoiy yolg'izlikdan xalos bo'lishda yordam beradi;
- uy sharoitida yordam ko'rsatish – ovqat tayyorlash, xarid qilish, uy tozalash va idish yuvish, dorixonaga borib kelish;
- usta xizmati – uyda ta'mirlash xizmatlarini taqdim etadi;
- tibbiy xizmat ko'rsatish – bu xizmat odatda, xususiy muassasalarda, qisman MMDNA tibbiyot hamshirasi assosiasiyasida ko'rsatiladi;
- “Kartanjan” xizmati – qariyalarga turli xizmat va tovarlar haqini to'lash uchun diskont kartalar taqdim etadi;
- vaqtinchalik parvarish qilish – qariyaning qarindoshlarini ma'lum muddatga biror yoqqa chiqishiga zarurat tug'ilganda, uning “St Vincent de Paule” qariyalar uyida yoki xususiy muassasalarda vaqtinchalik turishini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

2001 yilda Calleja olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, qariyalarning 25 foizi u yoki bu turdagi yordamga muhtoj. Ko'pchilik qariyalar ularga o'z oila a'zolari va qo'shnilari yordam berishini ta'kidlashgan. Bu Maltada oilaviy qo'llab-quvvatlash hozirgacha katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi

AQSHdagi qariyalarga xizmat ko'rsatishning muhim bir shakli – bu qariyalar uyidir – “nursing home”. Qariyalar uyida yashashni xohlovchi 85 va undan katta yoshdagi kishilar juda ko'p talablarga javob berishlari kerak. Eng avvalo, kishi yolg'iz bo'lishi, ya'ni u bilan birga yashaydigan jufti bo'lmasligi, davolashga jalb qilingan, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish imkoniyati yo'q yoki aqliy jihatdan zaif bo'lishi kerak.

Qariyalarni ijtimoiy himoya qilish borasida Osiyo mamlakatlari tajribasi ham

e'tiborga loyiqdir. Osiyoning ko'pchilik davlatlarida qariyalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning davlat, nodavlat va oilaviy yordam kabi shakllari keng tarqalgan. Xususan, Indoneziyada qariyalarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordam boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardan farqlanib, u davlat va oilaviy yordamdan tashkil topgan. Indoneziyaliklar qariyalarni, oilaning keksa a'zolarini chuqur hurmat qilishadi. Ijtimoiy me'yor va qadriyatlar qariyalarni yosh avlodga nisbatan yuqoriroq o'ringa qo'yadi. Yoshlar keksa kishilarni hurmat qilish ruhida tarbiyalanadi. 1996 yilda Virda olimlari tomonidan mamlakatning to'rtta yirik shaharlarida (Surabaya, Siantar, Timor Tenga Selatan va Djianjar) qariyalarga xizmat ko'rsatishda oilaning o'rini o'rganish maqsadida o'tkazilgan tadqiqot qariyalarni boqish, kiyintirish, ovqatlantirish kabi xizmatlarni ko'rsatishda oilaning o'ri deyarli 70 foiz ekanligini ko'rsatdi. Sigit olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, Indoneziyada qariyalar uchun asosiy daromad manbai oila hisoblanadi. Tadqiqotda qariyalarning 42 foizi farzandlaridan moliyaviy yordam olishi, 26 foizi oilada nikohda turgan turmush o'rtog'idan va oilaning qolgan a'zolaridan, 32 foizi esa ish haqidani daromad olishi aniqlangan. Mamlakatda qariyalarni qo'llab-quvvatlashning boshqa nodavlat shakllaridan biri qarindoshlar, qo'shnilar va do'stlar yordami hisoblanadi.

Yaponiyada davlat darajasida ijtimoiy sug'urta qilish jamg'armalari hisobidan yolg'iz keksa va nogironlarni kasal bo'lgan holatlarda uy sharoitida tibbiy xizmat harajatlarini qisman kompensatsiyalash dasturi amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, mamlakatda yolg'iz keksalar va nogironlarni boqishda oilaga vaqtinchalik yordam beruvchi kunduzgi stasionarlar soni ham ko'paymoqda.

Hindistonda qariyalar mutlaq va nisbiy sonining ortishi muhim demografik muammo hisoblanadi. Mamlakat hozirgi vaqtda qariyalar soni bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1991 yilda mamlakatda qariyalar (60 yosh va undan yuqori) soni 55,3 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilga kelib ularning soni 75,9 mln kishiga yetgan yoki 37,2 foizga ko'paygan. BMT demograflarining taxminiga ko'ra, 2021 yilda mamlakatda qariyalar soni 136,5 mln kishiga yetadi (jami aholining 10%i). Bu mamlakatda ijtimoiy-demografik siyosatni shakllantirish va qariyalar uchun xizmatlarni rejalashtirishga alohida e'tibor qaratish lozimligini taqozo etadi.

Hindistonda muhtoj keksalarga yordam ko'rsatish an'anasi mavjud. Mamlakatda XVIII asrda birinchi qariyalar uyiga asos solingan. Qariyalar, ayniqsa kambag'al, kasal, uysiz qariyalar davlat va har xil ko'ngilli tashkilotlardan yordam oladi. Hindiston hukumati 1984 yilda qariyalarga xizmat ko'rsatuvchi birinchi ko'ngillilar tashkilotiga rasmiy mablag' ajratish to'g'risida qaror qabul qilgan. Jamg'arma qariyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, sog'liqni saqlash, qo'shimcha ta'lim va qariyalar uylariga mablag' ajratadi. 1992 yilda mamlakatda "Aholi farovonligi" vazirligi tomonidan "Keksa yoshda bardamlik" dasturi ishlab chiqilgan. Uning asosiy maqsadi qariyalar va kunduzgi muloqotda bo'lish uylarida ishlovchilar uchun zarur subsidiyalar olishda yordam ko'rsatuvchi ko'ngilli tashkilotlar faoliyatini rag'batlantirish, qariyalar uchun bepul tibbiy

xizmat ko'rsatishdan iborat bo'lgan.

Hukumatning nodavlat tashkilotlar faoliyatini rasmiy qo'llab-quvvatlashga ajratayotgan moliyaviy mablag'lari mamlakatda aholining keksayishi bilan bog'liq muammolarni yechish uchun hozircha yetarli emas. Bir qator nodavlat tashkilotlar o'z dasturlarini bajarishda ijobiy natijalarga erishgan va bunda xalqaro va milliy donorlarning qo'llab-quvvatlashidan foydalangan. Hozirgi vaqtda Hindistonda davlat darajasida faoliyat ko'rsatayotgan 5 ta ko'ngilli tashkilot mavjud:

- Bharat Samaj pensionerlar Assosiasiyasi;
- CARITAS Hind tashkiloti;
- Yoshi bo'yicha pensionerlarning Hind Assosiasiyasi;
- “Qariyalarga yordam” jamiyati;
- Qariyalarga g'amxo'rlik ko'rsatish jamiyati;

Bharat Samaj pensionerlar Assosiasiyasi – pensionerlar assosiasiyasining Butun Hind federatsiyasidir. Bu tashkilot markaziy va davlat muassasalaridagi, shuningdek yarim hukumat tashkilotlaridagi pensionerlarni birlashtiradi, tegishli organlar bilan muzokaralar o'tkazadi va oiladagi mojarolarni hal etishda yordam ko'rsatadi.

CARITAS Hind tashkiloti – CARITAS Xalqaro tashkiloti a'zosi bo'lib, butun Hindiston bo'yicha kasaba uyushmalari darajasida faoliyat ko'rsatadi. Bu davlat darajasidagi rasmiy tashkilot bo'lib, kasal, kambag'al va yolg'iz qariyalarga yordam ko'rsatadi.

Yoshi bo'yicha pensionerlarning Hind Assosiasiyasi – bu tashkilot ko'ngilli xayr-ehson, shuningdek hukumat subsidiyasi hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi. Assosiasiya yoshi bo'yicha pensionerlarga yordam ko'rsatish bo'yicha har xil dasturlarda ishtirok etadi.

“Qariyalarga yordam” jamiyati – muhtojlarga yordam ko'rsatuvchi tashkilot bo'lib, uning asosiy vazifasi yolg'iz keksalarni boqish va ularga har tomonlama yordam ko'rsatish, qariyalarning mehnat faoliyati to'xtashi bilan ularning sog'lom turmush kechirishiga ko'maklashishdir. Tashkilot qariyalarga moddiy yordam ko'rsatish dasturini ishlab chiqqan bo'lib, 65 va undan yuqori yoshdagi qariyalarga, qishloq joylarida o'ta muhtoj qariyalarga har oyda 100 rupiy, shuningdek, to'satdan mehnatga layoqatligini yo'qotganda, baxtsiz voqea sodir bo'lganda 500 rupiygacha miqdorda moliyaviy yordam ko'rsatadi.

Qariyalarga g'amxo'rlik ko'rsatish jamiyati – mamlakatdagi eng yirik ko'ngilli tashkilot bo'lib, uning 23 ta mintaqaviy vakolatxonasi mavjud. Tashkilot markaziy hukumat, talabalar va yoshlar, xususiy va jamoatchilik tashkilotlardan yig'ilgan mablag'lar hisobidan faoliyat ko'rsatadi. Tashkilotning asosiy vazifasi qariyalarga yordam ko'rsatuvchi ko'ngilli jamiyatlarga moliyaviy yordam berish hisoblanadi. Shuningdek, tashkilotning muhim tashabbuslaridan biri qariyalarga tibbiy xizmat ko'rsatish bo'lib, jumladan, u hozirda qishloq joylarida yashovchi yurishi qiyin bo'lgan mingta qariyaga tibbiy xizmat ko'rsatmoqda, ya'ni ularni dori-darmon bilan ta'minlaydi, bepul tibbiy maslahat beradi.

Hindistonda davlat darajasida faoliyat ko'rsatuvchi ko'ngilli tashkilotlardan

tashqari, hududiy va mahalliy darajada faoliyat ko'rsatuvchi bir qancha nodavlat tashkilotlar ham mavjud:

- Ijtimoiy yordam ko'rsatish jamiyati;
- "Oila farovonligi" jamiyati;
- "Insoniy qadr-qimmat" jamiyati;
- "Taraqqiyot, farovonlik, tadqiqot" jamiyati;
- "Ko'chma oshxona".

Bu tashkilotlarning faoliyati qariyalarga hayotining faol davrini uzaytirishga yordam ko'rsatishga qaratilgan. 1999 yilda mamlakatda Ijtimoiy ishlar vazirligi tomonidan "Baxtli keksalik" jamg'armasiga asos solingan. Jamg'arma asosan kam ta'minlangan qariyalarga klub tizimida faoliyat ko'rsatadi. Klub huquqiy maslahatlar beradi, moliyaviy yordam ko'rsatadi, zarur tibbiy xizmatlarni tashkil qiladi.

Hindistonda keksa erkaklarni parvarish qiluvchi 20 ta, keksa ayollarga xizmat qiluvchi 68 ta, keksa erkak va ayollarni parvarish qiluvchi aralash tipdagi 230 ta markaz faoliyat ko'rsatadi. Mamlakatda qariyalar uchun qurilgan jami uylarning 46 foizi barcha qariyalar uchun, 35 foizi faqat muhtojlar uchun, 11 foizi nochorlar uchun, qolgan 8 foizi esa kasal va nogironlar uchun mo'ljallangan. Qariyalar uylarining 66,5 foizida bepul, qolganlarida esa kirish badallari hisobidan xizmat xizmat ko'rsatiladi.

Jahon mamlakatlarida yolg'iz keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish tajribalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, har qanday mamlakat ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirish orqali aholi bu guruhning ijtimoiy muammolarini hal etish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Fikrimizcha, O'zbekistonda xorij tajribasidan foydalanib, chunonchi:

- Buyuk Britaniya tajribasida ko'rilgan "Ijtimoiy xodim", "Patronaj hamshirasi" singari mutaxassis kadrlarni tibbiyot kollejlari, "Gerontologiya" ixtisosligi bo'yicha kadrlarni oliygohlarda tayyorlashni amaliyotga kiritish va shu bilan bog'liq holda davlat ta'lim standartlariga o'zgartirishlar kiritish;
- Latviya, Litva va Estoniya tajribasi asosida, respublikamizning shahar, qishloq va ovullarida yashovchi yolg'iz keksa va nogironlarga uy sharoitida xizmat ko'rsatuvchi tibbiy-ijtimoiy yordam patronaj brigadalarini tashkil etish va ularning faoliyatlarini yo'lga qo'yish;
- Fransiya tajribasi bo'yicha yolg'iz keksalarni oila homiyligiga olish tizimini kengaytirish;
- Yaponiya tajribasiga tayangan holda keksalarga qarashda oilaga vaqtincha yordam beruvchi kunduzgi stantsionlar tashkil qilish;
- Hindiston tajribasidan kelib chiqib, respublikamizda mavjud "Nuroni" jamg'armasi qatori "Qariyalarga yordam", "Qariyalarga g'amxo'rlik ko'rsatish" jamiyati, shuningdek "Baxtli keksalik" singari jamg'armalarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Qisqacha xulosalar

Keksalarga nisbatan olib boriladigan davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishi qariyalarning ijtimoiy ta'minlanib, osuda, farovon yashashlari, jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari, uzoq umr ko'rishlari maqsadida davlat tomonidan olib boriladigan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, tibbiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy, axborot-targ'ibot choralariga qaratilgan bo'ladi. Ma'lumki, keksa yoshdagi kishilarning sog'lig'i va kasallanish xususiyatlari boshqa yosh guruhlaridan jiddiy farq qiladi. Yosh o'sgan sari surunkali kasalliklarning soni ham oshib boradi va ularning sababini aniqlash ham qiyin bo'ladi. Keksalar kishilar nafaqat surunkali kasalliklar bilan, balki kelib chiqishiga ko'ra har xil patologik 2-5 xil kasalliklar bilan kasallanadi. Shuning uchun, keksa yoshdagi kishilarga tibbiy yordamning maxsus shakli geriatrik yordam ko'rsatiladi.

Davlat nogironlarning ijtimoiy himoya qilinishini ta'minlab tegishli dasturlarda ularning ehtiyojlarini hisobga olish, salomatligini saqlash, mehnat qilish, bilim olish va kasb o'rganish, uy-joyli bo'lish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni ro'yobga chiqarishda to'siqlarni bartaraf etish maqsadida qonunlarda ularga ijtimoiy yordam berish yo'li bilan ularning kamol topishlari, ijodiy va ishlab chiqarish imkoniyatlarini hamda qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib beradi.

Jahon mamlakatlarida yolg'iz keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish tajribalarining tahlil qilish har qanday mamlakat ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirish orqali aholi bu guruhining ijtimoiy muammolarini hal etish imkoniyatiga ega bo'lganligini ko'rsatdi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Keksalariga nisbatan olib boriladigan ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
2. Davlatning keksa avlodga nisbatan olib boriladigan ijtimoiy siyosati qaysi tamoyillarga asoslanadi?
3. Nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining mohiyatini tushuntirib bering.
4. Nogironlar mehnatining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.
5. Tibbiy-ijtimoiy ekspertizaning asosiy vazifalari nimalardan iboran?
6. Yolg'iz keksalar va nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilishning Buyuk Britaniya, Malta tajribalarining o'ziga xosligi nimalardan iborat?
7. Hindistonda yolg'iz qariyalarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmat turlarini aytib bering.
8. Yolg'iz keksalarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatishning qanday turlari mavjud?

Adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. // Халқ сўзи, 2010 йил 30 январь.
2. Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш бўйича меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Адолат, 2008.
3. Ўзбекистон Республикаси Меҳнат қонунчилиги бўйича меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
4. Абдураманов Х.Х. Ўзбекистонда қарияларни ижтимоий ҳимоя қилишнинг демографик асослари. – Т.: ЎзР ФА Иқ. инст., 2007.
5. Аверин А.Н. Государственная система социальной защиты населения. – М.: РАГС, 2007.
6. Возраст мудрости – возраст создания / Программа развития ООН. – М.: Экзамен, 2008.
7. Калинин И.В. Возрастная структура населения. – М.: Статистика, 1975.
8. Кукушина В.С. Социальная защита населения: опыт организационно-административной работы. – Москва, 2007.
9. Усмонова М.А., Муродова Г. Ижтимоий ҳимоя нима? – Т.: ТДҶОИ, 2009.
10. Тишин Е.В. Социальное обеспечение нетрудоспособного населения: направления и формы совершенствования. – СПб.: ИСЭП РАН, 2006.
11. Храпылина Л.П. Реабилитация инвалидов. – Москва, 2007.

VII BOB. AHOLIGA IJTIMOYIY XIZMAT KO'RSATISHNING XUSUSIYATLARI VA MEXANIZMLARI

7.1. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning mohiyati va tamoyillari

Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish – bu ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-tibbiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy moslashtirishni o'tkazish, og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan fuqarolarni tiklash va qayta tiklash bo'yicha ijtimoiy xizmat faoliyatidir. Ijtimoiy xizmatning asosiy maqsadi turmush sharoitlarini inson yashashi uchun me'yoriy, yetarli bo'lishini ta'minlash, kasbiy faoliyat, kishilarga, ijtimoiy guruhlarga, shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni qo'llab-quvvatlash, himoyalash va qayta moslashtirish vositasida bartaraf etishga ko'maklashish hisoblanadi. Bular ijtimoiy siyosat vositasida erishiladi, u jamiyatda ijtimoiy munosabatlar tizimini yaratishni ko'zda tutadi, ishlab chiqarish va iqtisodiyotning tobora oshib borayotgan samaraliligini turli ijtimoiy guruhlarning ob'ektiv mavjud manafaatlarini tartibga solish va samaralilashtirishga asoslanadi. Quyidagilar **ijtimoiy xizmatlarning asosiy vazifasi** hisoblanadi:

- ijtimoiy va shaxsiy muammolarni, vaziyatlarni tashxislash;
- ijtimoiy oldini olish;
- ijtimoiy qayta tiklash;
- ijtimoiy terapiya;
- ijtimoiy yordam ko'rsatish;
- ijtimoiy maslahat;
- ijtimoiy loyihalash;
- ijtimoiy ekspertiza;
- ijtimoiy nazorat;
- ijtimoiy g'amxo'rlik.

“Ijtimoiy xizmat” atamasi bozor iqtisodiyoti bilan jips bog'liq, chunki uning samaradorligiga erishish ijtimoiy qatlamlarning yuzaga kelishi bilan birga kechadi. Agar ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmog'i tuzilmagan bo'lsa, unda ijtimoiy sohada muammolar keskinlashadi, ijtimoiy keskinlik yuzaga keladi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda o'nlab yillar mobaynida kishilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash institutlari yaratilgan va ancha muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda “ijtimoiy xodim” kasbi keng tarqalgan kasblardan sanaladi, ijtimoiy tuzilmalar esa ham davlatga qarashli, ham xususiydir.

Ijtimoiy xizmatga bo'lgan fuqarolarning huquqi davlat tizimidagi ijtimoiy xizmatda davlat tomonidan kafolatlanadi. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmaganlar ham muayyan mamlakat fuqarolari bilan bir xilda huquqdan foydalana oladi. Ijtimoiy xizmat fuqarolarning uning qarovchisi, homiysi, boshqa qonuniy vakilining davlat hokimiyati va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish idoralari, jamoatchilik birlashmalariga murojaati asosida amalga oshiriladi. Quyidagilar **aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning asosiy tamoyillari** hisoblanadi:

- manzillilik;

- adolat (inson qobiliyatlarini amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlash);
- mumkinlilik;
- ixtiyoriylik;
- insonparvarlik (insonni oliy qadriyat deb tan olish);
- og'ir hayotiy vaziyatda qolgan balog'atga yetmaganlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning ustuvorligi;
- oshkora emaslik;
- oldini olishga yo'naltirilganlik;
- altruizm (o'zganing manfaatini o'zining manfaatidan ancha yuqori deb tan olish);
- vakolatlilik (ijtimoiy xizmatlar nazariyasi va amaliyotini chuqur bilish);
- shaxsiy yondashish (har bir ijtimoiy muammoda muayyan shaxs manfaatlarini ko'ra olish layoqati);
- vositachilik (ijtimoiy xizmatlarni davlat ijtimoiy siyosatining ifodasi tarzida tushunish);
- jalb etishlik (mijozning e'tiborini tortish uquvi);
- ishonch (mijoz bilan o'zaro ishonchli munosabatlarni o'rnatish uquvi).

Ijtimoiy xizmatlarni integral tavsifga ko'ra, unda iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, ma'muriy, psixologik, ijtimoiy-ruhiy, tibbiy-ijtimoiy, pedagogik usullardan foydalaniladi.

Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

- moddiy yordam ko'rsatish (pul mablag'i, oziq-ovqat mahsulotlari, sanitariya va gigiena vositalari, bolalarni parvarishlash uchun vositalar, kiyim, poyabzal va b.);
- kundalik zarur narsalar, yoqilg'i, maxsus transport vositalari, nogironlar, doimiy yoki vaqtincha stasionardan tashqarida xizmat ko'rsatishga muhtoj shaxslarni qayta tiklashning texnikaviy vositalari;
- o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish qobiliyatini qisman yoki to'liq yo'qotgan va doimiy qarovga muhtoj fuqarolarga stasionar muassasalarda maxsus xizmat ko'rsatish, ularning yoshi va sog'lig'iga ko'ra, hayot faoliyati sharoitlarini yaratish, tibbiy, ruhiy, ijtimoiy tavsifdagi tadbirlarni o'tkazish, ovqatlantirish, parvarishlash, shuningdek, imkoniga yarasha mehnat faoliyatini, dam olishi va bo'sh vaqtini tashkillashtirish;
- yetim bolalarga, ota-onasining qarovsiz qolganlarga, boqimsiz balog'atga yetmagan va og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolganlarga ixtisoslashgan muassasalarda vaqtincha boshpana berish;
- ijtimoiy-maishiy va hayot faoliyatini ta'minlash uchun ijtimoiy-tibbiy masalalar va ijtimoiy-huquqiy himoya bo'yicha maslahat berish;
- nogironlarga, imkoniyati cheklangan shaxslarga, balog'atga yetmagan huquqbuzarlarga kasbiy, ijtimoiy, ruhiy qayta tiklanishda yordam ko'rsatish.

Aholiga ijtimoiy xizmat bepul va pullik ko'rsatiladi. Keksa yoshdaligi, kasalligi, nogironligi, qarindoshlari yo'qligi tufayli o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatishga noqobil fuqarolarga, agar shunday fuqarolarning daromadi yashash minimumidan

past bo'lsa; qiyin hayot vaziyatiga tushgan shaxslarga; ishsizlik, tabiiy ofat, halokatdan jabr ko'rganlarga; qiyin hayot vaziyatiga tushib qolgan balog'atga yetmagan bolalarga bepul ijtimoiy xizmat ko'rsatiladi.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalarining faoliyati qonunchilik hujjatlari asosida belgilanadi va tartibga solinadi.

Bugungi kunda jamiyatda kuzatilayotgan ijtimoiy hodisalardan kelib chiqib, muhtoj aholining ijtimoiy himoyasiga ustuvor e'tibor berish, ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmat sifat va saviyasini ko'tarish, bu yo'nalishda yangi uslub va mexanizmlar joriy etish maqsadida yangi ijtimoiy texnologiyalar qo'llanilmoqda. Ularga:

- "tez ijtimoiy xizmat"ni tashkillashtirish;
- kunduzgi ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlarini yaratish;
- harakat vositalari, xizmat ko'rsatish prokat punktlarini ochish.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatish tadbirlariga yangi ijtimoiy texnologiyalarni joriy qilishning asosiy maqsadi muhtoj aholining huquqlarini himoya qilish, ularga xavfsiz shart-sharoitlarni yaratish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish orqali muhtoj aholining o'z-o'zini boshqarishda mustaqilligini saqlash, ularning hayot kechirish sifatini oshirish, idora va tashkilotlarning turli xil darajalarda ijtimoiy hamkorligini kuchaytirishdir.

Umuman olganda, ijtimoiy texnologiyalarning ijrosi uch bosqichdan iborat choralarni o'z ichiga oladi:

- har bir ijtimoiy xizmatga muhtoj aholining holatiga individual yondashish;
- muhtoj aholining holatiga ob'yektiv baho berish;
- ularga sifatli ijtimoiy xizmat ko'rsatish.

Ijtimoiy ta'minot organlarining aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish borasidagi faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri – idora va muassasalar, jamoat tashkilotlari, homiylar bilan ijtimoiy g'amkorlik qilish hisoblanadi. Bu yo'nalishda izchillik bilan faoliyat ko'rsatishning maqsadi, birinchidan, turli xil idoralar va muassasalar, jamoat tashkilotlarining ijtimoiy sohadagi faolligini oshirish, ikkinchidan, bu chora-tadbirlarni muvofiqlashtirib borish, uchinchidan, ijtimoiy sohaga yo'naltirilayotgan budget mablag'lariga qo'shimcha tarzda mablag'larni jalb qilish va bu orqali muhtoj aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy himoya hamda ijtimoiy xizmat ko'rsatish choralarning ta'sirchanligini oshirishdir.

7.2. Ijtimoiy xizmat ko'rsatish turlari va ularning tasnifi

Ijtimoiy xizmatlar mulkchilik shaklidan qat'iy nazar ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi muassasa va tashkilotlarning, shu jumladan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan holda aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolarning faoliyatidir. Og'ir hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan va shu bilan bog'liq holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatiluvchi fuqarolar ijtimoiy xizmat ko'rsatish to'g'risidagi qonunga muvofiq ijtimoiy xizmatlarning mijoz sifatida ko'riladi.

Og'ir hayotiy vaziyat – bu fuqaroning oddiy hayotiy faoliyatini izdan chiqaruvchi (nogironligi, yoshi keksayib qolishi munosabati bilan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish qobiliyatining yo'qotilishi, kasalligi, etimligi, qarovsizligi, kam ta'minlanganligi, ishsizligi, muqim yashash joyining mavjud emasligi, oiladagi qattiqqo'l munosabat va janjallar, yolg'izligi va h.k.lar) vaziyatlar va ularni o'zi mustaqil tarzda hal qila olmasligi holatidir.

Ijtimoiy xizmatning asosiy turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- moddiy yordam;
- uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish;
- stasionar muassasalarda ijtimoiy xizmat ko'rsatish;
- vaqtinchalik boshpana berish;
- ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalarida kunduzgi xizmat ko'rsatishni tashkillashtirish;
- maslahat yordami;
- rehabilitatsion xizmatlar.

Ijtimoiy xizmatlar tomonidan ijtimoiy xizmat ko'rsatish nafaqat bepul, balki pullik shakllarda ham amalga oshiriladi. Davlatning ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimida bepul ijtimoiy xizmat ko'rsatish qonunlarda belgilangan asoslar bo'yicha amalga oshiriladi. Bepul ijtimoiy xizmat ko'rsatish tartibi davlat hukumat organlari tomonidan belgilanadi.

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning kompleks markazlari;
- oila va bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatishning hududiy markazlari;
- ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlari;
- bolag'atga etmagan bolalar uchun ijtimoiy-reabilitatsion markazlar;
- ota-onalarining vasiyligisiz qolgan bolalarga yordam ko'rsatish markazlari;
- bolalar va o'smirlar uchun ijtimoiy etimxonalar;
- aholiga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish markazlari;
- telefon orqali chaqirtiruv bo'yicha tezkor psixologik yordam markazlari;
- uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish markazlari;
- kechasi qolish mumkin bo'lgan uylar;
- yolg'iz qariyalar uchun maxsus uylar;
- ijtimoiy xizmat ko'rsatishning stasionar muassasalari (nogironlar va qariyalar uchun internat-uylar, psixonevrologik internatlar, aqli oqib bolalar uchun bolalar internat-uylari, jismoniy nuqsonlari bor bolalar uchun bolalar internat-uylari);
- gerontologiya markazlari;
- ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatuvchi boshqa tashkilot va muassasalar.

O'zbekiston Respublikasida aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish hisoblanadi, u nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarning ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish bo'yicha faoliyatni o'zida

namoyon etadi.

Nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasidagi faoliyat quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- inson huquqlariga rioya qilish;
- ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasida davlat kafolatini berish;
- nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolar uchun ijtimoiy xizmatlarning barchaga barobarligi va berilishida teng imkoniyatlarni yaratish;
- ijtimoiy xizmatlarni barcha turlarining izchilligini ta'minlash;
- ijtimoiy xizmat ko'rsatishni nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarning individual ehtiyojlariga yo'naltirish;
- ushbu toifadagi fuqarolarni ijtimoiy ko'nikma hosil qilishi bo'yicha chora-tadbirlariga ustuvorlik berish;
- davlat hukumat organlari va muassasalarining, shu jumladan, ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasida nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarning huquqlarini ta'minlash uchun mansabdor shaxslarning javobgarligini ta'minlash.

Davlat nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarga ularning jinsi, irqi, millati, tili, kelib chiqishi, moddiy va mansabdorlik holati, yashash joyi, dinga munosabati, qarashlari, ijtimoiy uyushmalarga taalluqliligi va boshqa holatlardan qat'iy nazar ijtimoiy xizmatlarni olishi imkoniyatlarini kafolatlaydi.

Nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarga davlatning kafolatlangan ijtimoiy xizmatlari ro'yxatiga kiritilgan asosiy hayotiy zarur ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini etarli darajada ta'minlanishi uchun kerak bo'lgan imkoniyati ta'minlanadi.

Ijtimoiy xizmat olish huquqiga o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish imkoniyatlarining cheklanishi va (yoki) harakatlanishining cheklanishi oqibatida o'zining asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil tarzda qondira olish imkoniyatini to'liq yoki qisman yo'qotilishi bilan bog'liq bo'lgan, doimiy tarzda yoki vaqtinchalik boshqa shaxslarning ko'magiga muhtoj bo'lgan nogironlar (shu jumladan, nogiron bolalar) va keksa yoshdagi fuqarolar (55 yoshdan katta bo'lgan ayollar, 60 yoshdan katta bo'lgan erkaklar) ega.

Nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari qaroriga muvofiq ularning qaramog'ida bo'lgan muassasalarda yoki boshqa mulkchilik shaklidagi ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalari bilan aholini ijtimoiy himoya qilish organlari o'rtasida tuzilgan shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolar ijtimoiy xizmatlarni olayotgan vaqtida quyidagi huquqlarga egadirlar:

- ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalari xodimlari tomonidan ularga nisbatan hurmat va insoniy munosabat;
- O'zbekiston Respublikasi sub'yektlarining aholini ijtimoiy himoya qilish organlari tomonidan belgilangan tartibda muassasa va ijtimoiy xizmat ko'rsatish shaklini tanlash;
- o'zlarining huquqlari, majburiyatlari va ijtimoiy xizmat ko'rsatish shartlari

haqida ma'lumot olishga;

- ijtimoiy xizmatga rozilik berish;
- ijtimoiy xizmatdan voz kechish;
- ijtimoiy xizmatni ko'rsatayotgan vaqtda ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasasining xodimiga ma'lum bo'lib qolgan shaxsiy tavsifdagi ma'lumotlarni maxfiyligi;
- o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shu jumladan, sud tartibida ham.

Ijtimoiy xizmat nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarning ijtimoiy xizmatlarni olishdagi ixtiyoriy roziligi sharti bilan amalga oshiriladi. 14-yoshga etmagan shaxslarga va qonunda belgilangan tartibda huquqiy muomalaga layoqatsiz deb tan olingan shaxslarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish uchun rozilik ularning qonuniy vakillari tomonidan beriladi.

Nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarni ijtimoiy xizmat ko'rsatishning stasionar muassasasiga joylashtirish ularning shaxsan yozgan arizalari asosida amalga oshiriladi va ularning imzosi bilan tasdiqlanadi, 14-yoshga etmagan shaxslarga va qonunda belgilangan tartibda huquqiy muomalaga layoqatsiz deb tan olingan shaxslarni joylashtirish esa ularning qonuniy vakillarining yozma arizasi asosida amalga oshiriladi.

Nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish (xususan, ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish bilan birga);
- ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalarining bo'limlarida kunduzgi (tunggi) yarimstasionar ijtimoiy xizmat ko'rsatish;
- ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalarida stasionar ijtimoiy xizmat ko'rsatish (internat-uylarda, pansionatlarda va nomlanishidan qat'iy nazar ijtimoiy xizmat ko'rsatishning boshqa muassasalarida);
- tezkor ijtimoiy xizmat;
- ijtimoiy-maslahat yordami.

Uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish ijtimoiy xizmat ko'rsatishning asosiy shakllaridan biri hisoblanib, u nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarni ijtimoiy maqomini ushlab turish maqsadida odatiy ijtimoiy muhitda maksimal darajada uzoqroq bo'lishini ta'minlashga, shu jumladan, ularning qonuniy manfaatlari va huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan.

Davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlarning ro'yxatida belgilangan uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish turlariga quyidagilar kiradi:

- ovqatlanishni tashkillashtirish, shu jumladan, oziq-ovqatni uyga etkazib berish;
- dori-darmonlar, oziq-ovqatlar va eng zarur sanoat tovarlarini sotib olishda yordamlashish;
- tibbiy yordamni olishda ko'maklashish, shu jumladan, tibbiyot muassasalariga kuzatib borish;

- gigiyena talablariga muvofiq yashash sharoitlarini ushlab turish;
- yuridik yordam va boshqa huquqiy xizmatlarni tashkillashtirishda ko'maklashish;
- diniy xizmatlarni tashkillashtirishda ko'maklashish;
- uydagi boshqa ijtimoiy xizmatlar.

Makraziy iʼtish tizimi va (yoki) suv ta'minoti bo'lmagan turar joylarda istiqomat qiluvchi nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarga xizmat ko'rsatishda uydagi ijtimoiy xizmatlar qatoriga davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmat ko'rsatish ro'yxatida keltirilganidek yonilg'i va (yoki) suv bilan ta'minlashga ko'maklashish ham kiritiladi.

Davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmat ko'rsatish ro'yxatida keltirilgan uyda ijtimoiy xizmatdan tashqari nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarga to'liq yoki qisman to'lash shartlari bo'yicha qo'shimcha xizmatlar berilishi mumkin.

Uyda ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish quyi bosqichlardagi psixik kasalliklardan (remissiya bosqichida), sildan (faol shaklidan tashqari), og'ir kasalliklardan (shu jumladan, onkologik kasalliklar) aziyat chekadigan nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarga nisbatan amalga oshiriladi, bundan bakteriya yoki virus tashuvchi hisoblanadigan nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolar mustasno yoki ularda sog'liqni saqlashning maxsus muassasalarida davolanishi talab etiluvchi surunkali alkogolizm, infeksiyon karantin kasalliklari, silning faol shakllari, og'ir psixik kasalliklar, teri-tanosil va boshqa kasalliklar kuzatilsa ularga uyda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishi rad etilishi mumkin.

Yarimstatsionar ijtimoiy xizmat ko'rsatish nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarga ijtimoiy-maishiy, tibbiy va madaniy xizmat ko'rsatishni, ularni ovqatlanishi, dam olishini, qo'lidan keladigan mehnat faoliyatida ishtirok etishini ta'minlash va faol hayot tarzi uchun qo'llab-quvvatlashni tashkillashtirishni o'z ichiga qamrab oladi. Yarimstatsionar ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalariga unga muhtoj bo'lgan, o'ziga-o'zi xizmat ko'rsata olish va faol harakatlanish qobiliyatini saqlab qolgan, ushbu muassasalar tarkibiga kiritilishida hech qanday tibbiy qarshiliklar bo'lmagan nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolar qabul qilinadi.

Yarimstatsionar ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasasiga qabul qilish bo'yicha qaror ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasa rahbari tomonidan nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarning shaxsan yozgan arizalari va ularning sog'ligini holati haqida sog'liqni saqlash muassasasining ma'lumoti asosida qabul qilinadi.

Yarimstatsionar ijtimoiy xizmat ko'rsatish munitsipal ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan yaratilgan yoki aholini ijtimoiy himoya qilish organlari tasarrufidagi kunduzgi (tunungi) qabul qilish bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Statsionar ijtimoiy xizmat ko'rsatish qisman yoki to'liq o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish imkoniyatini yo'qotgan va sog'ligi holati bo'yicha boshqalarning kuzatuv va doimiy qaramog'iga muhtoj bo'lgan nogironlar va keksa yoshdagi

fuqarolarga turli yo'nalishlardagi ijtimoiy-maishiy yordamni ko'rsatishga yo'naltirilgan.

Statsionar ijtimoiy xizmat ko'rsatish o'z ichiga nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarga ularning yoshi va sog'ligi holatiga xos hayot faoliyati sharoitlarini yaratish, tibbiy, ijtimoiy va davolash-mehnat qilish tavsifidagi reabilitatsion chora-tadbirlarni amalga oshirish, parvarishlash va tibbiy yordamni ta'minlash, ularning dam olishi va bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazilishini tashkillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini qamrab oladi.

Nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarga statsionar ijtimoiy xizmat ko'rsatish ularning yoshiga, sog'ligi holatiga va ijtimoiy maqomiga muvofiq ixtisoslashgan ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalari (bo'limlarida) tomonidan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalarida yashayotgan nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolar quyidagi huquqlarga egadirlar:

- ularga sanitar-gigienik talablarga javob beradigan yashash sharoitlarini ta'minlanishi;
- ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan parvarishlash, birlamchi tibbiy-sanitar va stomatologik yordam olish;
- ijtimoiy-tibbiy reabilitatsiya va ijtimoiy ko'nikma hosil qilish;
- tibbiy xulosa va mehnat tavsiyanomalariga muvofiq sog'ligi holatini, qiziqishlarini, istaklarini inobatga olgan holda davolash-mehnat jarayonida ixtiyoriy ishtirok etish;
- nogironlik guruhining o'zgarishi yoki uning o'rnatilishi uchun tibbiy ko'rsatmalar bo'yicha o'tkaziladigan tibbiy-ijtimoiy ekspertiza o'tkazilishi;
- ularni oldiga advokat, notarius, qonuniy vakillar, ijtimoiy uyushmalar vakillari va dindonlar, shu jumladan, qarindoshlari va boshqa shaxslar tomonidan erkin tashrif buyurishi;
- amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda bepul advokat yordamini olish;
- diniy marosimlarni o'tkazish uchun ularga xona berish, buning uchun boshqa turli diniy konfessiyadagi dindorlar manfaatlarini inobatga olgan holda, ichki tartib-qoidalarga qarama-qarshi bo'lmagan mos ravishdagi sharoitlarni yaratish;
- ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasasiga kelib tushgan vaqtdan boshlab 6 oy davomida davlat, munitsipal va ijtimoiy uy-joy fondlaridan ijara yoki yollash shartnomasi bo'yicha olingan turar joylarini saqlab qolish, agar ushbu turar joylarda ularning oila a'zolari yashash uchun qolgan vaziyatlarda esa ularning ushbu muassasada bo'lishining barcha muddatida saqlab turish. Nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarni ko'rsatilgan vaqtni o'tishidan so'ng ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalari xizmatlaridan voz kechsa, ularni joylashtirilishi bilan bog'liq holda ushbu muassasalarda bo'shab qolgan turar joyga birlamchi navbatda turar joy bilan ta'minlanish huquqiga egadirlar, agar ularga avvalgi egallagan turar joyini qaytarib berishning imkoni bo'lmasa.
- nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarni fuqarolar huquqini himoya qilish

bo'yicha ijtimoiy komissiyalarda ishtirok etishi, shu jumladan, ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalarida tashkil etilganlarida ham.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalarida yashovchi nogiron bolalar ularning jismoniy imkoniyatlari va aqliy imkoniyatlariga muvofiq holda ta'lim va kasbiy ta'lim olish huquqlariga egadirlar. Ushbu huquqlar amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalarida maxsus ta'lim muassasalarini va mehnatga o'qitish bo'yicha ustaxonalarni tashkillashtirish orqali ta'minlanadi.

Jismoniy kamchiliklarga ega bo'lgan nogiron bolalarni ruhiy kasalliklari bo'lgan bolalar yashashi uchun mo'ljallangan ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalariga joylashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Davlatning ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalarida yashovchi va maxsus tibbiy yordamga muhtoj bo'lgan nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolar davlat sog'liqni saqlash muassasalariga davolanish va tekshirish uchun yuboriladi.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalarida yashovchi nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolar jazolardan ozod bo'lish huquqiga egadirlar. Nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarni jazolash maqsadida yoki ushbu ko'rsatilgan muassasalar xodimlariga qulaylik yaratish uchun dori vositalaridan, jismoniy ushlab turish vositalarida foydalanishga, shu jumladan, nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarni yolg'izlatib qo'yishga yo'l qo'yilmaydi. Ko'rsatilgan me'yorlarni buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda intizomiy, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalarida yashovchi nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolar mehnat shartnomasi asosida ularning sog'lig'i imkon beradigan ishlarga olinishi mumkin. Mehnat shartnomasi asosida ishlaydigan nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarga davomiyligi 30 kalendar kunidan iborat to'lanadigan yillik mehnat ta'tili beriladi.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalarida yashovchi nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolar tibbiy tavsiyalarga muvofiq holda davolash-mehnat qilish faoliyatida ishtirok etishlari mumkin. Ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalarida yashovchi nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarni davolash-mehnat qilish faoliyatiga majburlashga yo'l qo'yilmaydi.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalaridagi nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolar ushbu ko'rsatilgan muassasalar xizmatlaridan voz kechish huquqiga ega, bundan qarindoshlari tomonidan yoki ularning qonuniy vakillari tomonidan qo'llab-quvvatlashi va parvarishlashidan mahrum bo'lgan fuqarolar va o'zlarining hayotiy ehtiyojlarini mustaqil holda qondira olmaydigan (o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish va (yoki) faol harakatlanish imkoniyatiga ega bo'lmagan) yoki qonunda belgilangan tartibda la'yoqatsiz deb tan olingan fuqarolar mustasno.

Juda xavfli retsdivistlar va boshqa shaxslarni ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan, amaldagi qonunchilikka muvofiq ma'muriy nazorat

o'rnatilgan shaxslar qatoridan bo'lgan o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish imkoniyatini to'liq yoki qisman yo'qotgan va doimiy tarzda boshqa shaxsning parvarishiga muhtoj bo'lgan nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolar, shu jumladan, ijtimoiy tartibni buzganligi uchun muqaddam sudlangan yoki bir necha bor ma'muriy javobgarlikka tortilgan, daydilik va tilanchilik bilan shug'ullanuvchi, ichki ishlar organlari muassasalari tomonidan yuboriluvchi nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolar tibbiy qarama-qarshiliklar bo'lmagan holida va ularning shaxsiy istagi bo'yicha hokimiyat organlari qarori asosida ijtimoiy xizmat ko'rsatishning maxsus statsionar muassasalariga joylashtiriladi.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalarida yashovchi va ijtimoiy xizmat ko'rsatishning muassasalarida yashash tartibi to'g'risidagi Nizomni doimiy tarzda buzadigan nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolar, ularning istagi bo'yicha va ko'rsatilgan muassasalar ma'muriyatining taqdimnomasi asosida sud qarori bo'yicha ijtimoiy xizmat ko'rsatishning maxsus statsionar muassasalariga o'tkazilishi mumkin.

Tezkor ijtimoiy xizmat ko'rsatish ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga juda muhtoj bo'lgan, nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarga bir martalik tavsifdagi tezkor yordam berish maqsadlarida amaga oshiriladi.

Tezkor ijtimoiy xizmat ko'rsatish o'z ichiga quyidagi ijtimoiy xizmatlarni oladi:

- juda muhtoj bo'lganlarni bepul issiq ovqat yoki oziq-ovqat mahsulotlari yig'indisi bilan bir martalik ta'minlash;
- kiyim-kechak, poyabzal va boshqa eng muhim buyumlar bilan ta'minlash;
- bir martalik moddiy yordam berish;
- vaqtinchalik uy-joy olishiga ko'maklashish;
- xizmat ko'rsatilayotgan shaxslar huquqlarini himoya qilish maqsadida yuridik yordamni tashkillashtirish;
- psixologlar va dindorlarni tezkor tibbiy-psixologik yordam ko'rsatishga chaqirilishini va ushbu maqsadlar uchun qo'shimcha telefon raqamlarini ajratilishini tashkillashtirish;
- boshqa tezkor ijtimoiy xizmatlar.

Nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarga ko'rsatiladigan **ijtimoiy-maslahat yordami** ularni jamiyatda ko'nikib ketishlarini, ijtimoiy zo'riqishlarni susaytirish, oilada ijobiy munosabatlarni yaratish, shu jumladan, oila, jamiyat va davlatning o'zaro ta'sirini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarga ko'rsatiladigan ijtimoiy-maslahat yordami ularni psixologik qo'llab-quvvatlash, shaxsiy muammolarini echilishida harakatlarini faollashtirishga yo'naltirilgan bo'lib quyidagilarni nazarda tutadi:

- ijtimoiy-maslahat yordamiga muhtoj bo'lgan shaxslarni aniqlash;
- turli shakldagi ijtimoiy-psixologik chetga chiqishlarni profilaktika qilish;
- nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolar yashaydigan oilalar bilan ishlash, ularni bo'sh vaqtini maroqli o'tishini tashkillashtirish;

nogironlarni kasbiy yo'naltirish, ta'lim berish va ishga joylashishida maslahat yordamini berish;

- nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolar muammolarini echish uchun ijtimoiy uyushmalar va davlat muassasalari faoliyatini koordinatsiyasini ta'minlash;
- ijtimoiy xizmat ko'rsatish organlari vakolati doirasida huquqiy yordam ko'rsatish;
- nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolar uchun ijobiy ijtimoiy muhitni yaratish va sog'lom o'zaro munosabatlarni shakllantirish bo'yicha boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish.

18-yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolishi mumkin, bunda ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatish kerak bo'ladi. Bunday vaziyatlar qatoriga nogironlik, etimlik, nazoratsizlik, qarovsizlik, oiladagi qattiqqo'l munosabat va h.k.lar kiradi. Konkret vaziyatga bog'liq holda bolalar va o'smirlarga ijtimoiy yordam va xizmatni turli ijtimoiy xizmatlar va tashkilotlar ko'rsatadilar.

Yetim-bolalar va ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish. Yetim-bolalar ikkala ota-onasi yoki ulardan biri o'lib ketgan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslardir; ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalar – bu ota-onasining mavjud emasligi yoki ularning ota-onalik huquqlarini olib tashlanganligi, ota-onalik huquqlarini cheklanganligi, ota-onalarni bedarak yo'q bo'lib ketgan deb tan olinishi, ota-onalikka layoqatsizligi (qisman layoqatlilik), davolanish muassalarida ekanligi, ularni o'lgan deb e'lon qilinganligi, ozodlikdan mahrum etish muassalarida jazo muddatini o'tayotganligi, jinoyatni sodir etishda ayblanayotgan va gumon qilinayotganlarni qamoqda ushlab turish muassalarida ekanligi bilan bog'liq holdagi qarovsiz qolgan; bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan ota-onalarni bo'yin tovlashi, ota-onalar tomonidan bolalarni tarbiyalash, davolash muassasalari, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari va boshqa shunga o'xshash muassasalardan olib ketishini rad etish va boshqa hollarda esa qonun tomonidan belgilangan tartibda bolani ota-onasining qarovsiz qolib ketgan deb tan olinishi bilan bog'liq holdagi qarovsiz qolgan 18 yoshgacha bo'lgan bolalardir.

Yetim-bolalar va ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalar uchun quyidagi ta'lim muassasalari turlarini yaratilgan:

- bolalar uyi (go'daklar (1,5 yoshdan 3 yoshgacha), maktabgacha, maktab yoshidagi bolalar uchun va aralash);
- yetim-bolalar va ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalar uchun bolalar uy-maktabi, maktab-internat;
- rivojlanishdan qolib ketgan yetim-bolalar va ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalar uchun maxsus (korreksion) bolalar uyi;
- rivojlanishdan qolib ketgan yetim-bolalar va ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalar uchun maxsus (korreksion) maktab-internat.

Ushbu muassasalarning asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- uy sharoitlariga yaqinlashtirilgan, shaxsni aqliy, emotsional va jismoniy

rivojlanishiga ko'mak beruvchi ijobiy sharoitlarni yaratish;

- tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy ko'nikma hosil qilishi va tibbiy-psixologik-pedagogik rehabilitatsiyasi, ijtimoiy himoyasini ta'minlash;
- ta'lim dasturlarini o'zlashtirish, davlat va jamiyat, shaxs manfaatlarini uchun tarbiyalash va ta'lim berish;
- tarbiyalanuvchilarning sog'ligini saqlash va mustahkamlanishini ta'minlash.

Bu muassasalarga quyidagilar qabul qilinadi: yetim-bolalar; sud qaroriga muvofiq ota-onalaridan tortib olingan bolalar; ota-onalari ota-onalik huquqidan mahrum etilgan, jazoga hukm etilgan, ona-onalikka layoqatsiz deb topilgan, uzoq muddatli davolanishda bo'lgan, shu jumladan, ota-onalarining qayerdaligi noma'lum bo'lgan bolalar.

Bu muassasalarga vaqtinchalik yakka onalar (otalar)ning bolalari, shu jumladan, ishsizlar, qochoqlar, majburiy tarzda ko'chganlarning bolalari, shu jumladan, tabiiy ofatdan aziyat chekkan va doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarning bolalari bir yildan ko'p bo'lmagan muddatga qabul qilinishi mumkin.

Muassasa tarbiyalanuvchilari quyidagi huquqlarga ega:

- muassasada tekinga yashash va davlatning ta'lim standartlariga muvofiq holda umumiy ta'lim olish (umumiy boshlang'ich, asosiy umumiy, umumiy o'rta (to'liq) ta'lim) huquqiga;
- o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqiga;
- insoniy sha'nini hurmat qilish, ma'lumot va vijdon erkinligi huquqiga;
- emotsional-shaxsiy muomaladagi ehtiyojlarini qondirish;
- shaxsni tahqirlash, jismoniy va psixologik zo'ravonlikning barcha turlaridan himoyalani;
- o'zining ijodiy qobiliyati va qiziqishlarini rivojlantirish;
- rivojlanishda muammolari bo'lganlarga ta'lim va korrektsiya qilishda malakali yordamni olish;
- dam olish, bayram va ta'til kunlarida dam olish va bo'sh vaqtini maroqli o'tkazish.

Muassasada tarbiyalanuvchilarni ushlab turish va ta'lim berish to'liq davlat ta'minoti asosida amalga oshiriladi.

Nogiron-bolalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish. Organizm funksiyalarining buzilish darajasi va hayot faoliyatini cheklanishiga bog'liq holda nogironlar deb tan olingan shaxslarga nogironlik guruhi o'rnatiladi, 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarga esa nogiron-bola toifasi o'rnatiladi.

Ta'lim muassasalari aholini ijtimoiy himoya qilish organlari va sog'liqni saqlash organlari bilan birgalikda nogiron bolalarga maktabgacha, maktabdan tashqari tarbiya va ta'lim berilishini, nogironni rehabilitatsiya qilishning individual dasturiga muvofiq holda nogironlarga umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus-kasbiy ta'lim va oliy kasbiy ta'lim berilishini ta'minlaydilar.

Maktab yoshigacha bo'lgan nogiron bolalarga zaruriy rehabilitatsion chora-tadbirlar ko'rsatiladi va umumiy turdagi maktabgacha bolalar muassasalarida ularni yashashi uchun sharoitlar yaratiladi. Sog'lig'i umumiy turdagi maktabgacha

bolalar muassasalarida yashashiga yo'l qo'ymaydigan nogiron bolalar uchun maxsus maktabgacha muassasalar yaratiladi. Umumiy yoki maxsus maktabgacha va umumta'lim muassasalarida nogiron bolani tarbiyalash va ta'lim berishning imkoni bo'lmasa ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari nogiron bolaning ota-onasining ruxsati bilan to'liq umumta'lim yoki individual dastur asosida ularni uyda o'qitilishini ta'minlaydi.

Nogiron-bolani uyda o'qitilishini tashkillashtirish uchun davolash-profilaktika muassasining xulosasi asos bo'lib xizmat qiladi. Umumiy ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi ta'lim muassasasi nogiron-bolaga uyda ta'lim berishni odatda yashash joyiga eng yaqin bo'lgan muassasa amalga oshiradi.

Uyda ta'lim olayotgan nogiron-bolaga ta'lim muassasasi quyidagilarni ta'minlaydi:

- o'qitish davri davomida ta'lim muassasasi kutubxonasida mavjud bo'lgan, bepul darsliklar, o'quv, ma'lumotnoma va boshqa adabiyotlarni berilishini;
- pedagogik xodimlar qatoridan mutaxassislar bilan ta'minlaydi, umumta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun kerakli uslubiy va maslahat yordamini beradi;
- oraliq va yakuniy attestatsiyani amalga oshiradi;
- yakuniy attestatsiyadan o'tganlarga mos ravishdagi ta'lim haqida davlat namunasidagi hujjatni beradi.

Davlat akkeredetatsiyasiga ega va umumta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi nodavlat ta'lim muassasasida nogiron-bolani tarbiyalanishi va o'qitilishiga faqatgina unda tarbiyalash va o'qitish uchun maxsus ta'lim sharoitlarining mavjudligi, xususan nogironlarni reabilitatsiya qilishning individual dasturini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan maxsus ta'lim dasturlarini, korreksion usullarini, texnik vositalarini, hayotiy faoliyat muhitini, maxsus tayyorgarlikka ega pedagoglarning mavjudligi, shu jumladan, ularsiz nogiron-bolalarni umumta'lim dasturlarini o'zlashtirishi mumkin bo'lmagan (qiyin bo'lgan) tibbiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy va boshqa sharoitlar bo'lgani holadigina yo'l qo'yiladi.

Ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj, balog'atga etmaganlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish. Ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj, bolag'atga etmaganlar safiga nazoratsiz, qarovsiz bo'lgan yoki ijtimoiy xavfli vaziyatga tushib qolgan 3 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan balog'atga etmagan bolalar kiradi. **Nazoratsiz bola** – bu ota onalari yoki boshqa qonuniy vakillari yoki mansabdor shaxslar tomonidan uni boqish va (yoki) o'qitish, tarbiyalash bo'yicha majburiyatlarni bajarilmasligi yoki etarli darajada bajarilmasligi oqibatida xulq-atvori nazoratga olinmagan balog'atga etmagan shaxsdir; **qarovsiz bola** – bu turar joyga va (yoki) borar joyga ega bo'lmagan nazoratsiz bola; **ijtimoiy xavfli vaziyatga tushib qolgan balog'atga yetmagan bola** – bu nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog'ligi uchun uni boqish va tarbiyalash talablari javob bermaydigan holatga tushib qolgan yoki tartibbuzarlik yoxud jamiyatga qarshi hatti-harakatlarni oshirib yurgan shaxsdir.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmasi organlari o'z vakolatlari

doirasida quyidagilarni amalga oshiradi:

– balog'atga yetmagan bolalarni nazoratsizligini profilaktika qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi, nazoratsiz va qarovsiz balog'atga etmagan bolalarga nisbatan, balog'atga etmagan bolani tarbiyalash, boqish bo'yicha va (yoki) ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir o'tkazayotgan yoki ular bilan shafqatsizlarcha munosabatda bo'layotgan, o'z majburiyatlarini bajarmayotgan ularning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillariga nisbatan individual profilaktika ishlarini tashkillashtiradi;

– ijtimoiy reabilitatsiya muhtoj balog'atga yetmagan bolalar uchun tashkil etilgan maxsus muassasalar faoliyatini, balog'atga yetmagan bolalar va ularning oilalariga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatayotgan boshqa muassasalar va xizmatlar faoliyatini nazorat qiladi, shu jumladan, aytib o'tilgan muassasalar tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

– balog'atga yetmagan bolalar va ularning oilalariga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatayotgan muassasalar va xizmatlar faoliyatiga ijtimoiy reabilitatsiya qilishning zamonaviy texnologiyalari va usullarini kiratadi.

Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish muassasalari tarkibiga kiruvchi bolalar va oilaga ijtimoiy yordam ko'rsatishning hududiy markazlari, aholiga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish markazlari, tezkor psixologik yordam ko'rsatish markazlari va boshqa ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalari, ushbu muassasalarning nizomlariga muvofiq quyidagilarni amalga oshiradilar:

– balog'atga yetmagan bolalar, ularning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari iltimoslari yoki balog'atga yetmagan bolalar huquqbuzarligini va nazoratsizligini profilaktika qilish tizimi muassasalari va organlarining mansabdor shaxslari tashabbusi asosida ijtimoiy xavfli vaziyatda yoki boshqa og'ir hayotiy vaziyatda qolib ketgan balog'atga yetmagan bolalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatadilar;

– ijtimoiy xavfli vaziyatda qolib ketgan balog'atga yetmagan bolalarni, shu jumladan, ijtimoiy xizmat ko'rsatilishiga muhtoj bo'lgan balog'atga yetmagan a'zolari bo'lgan oilalarni aniqlaydi, ushbu shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishni amalga oshiradi, ijtimoiy reabilitatsiyaning individual dasturlariga muvofiq ularga zaruriy yordamni ko'rsatadi;

– o'z vakolatlari doirasida ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalaridagi nazoratsiz balog'atga yetmagan bolalarni individual profilaktika qilish ishlarida ishtirok etadilar, shu jumladan, davlatning yordamiga muhtoj bo'lgan balog'atga etmagan bolalarning dam olishini va sog'lomlashtirilishini tashkillashtirishda yordam beradi.

Ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj bo'lgan balog'atga yetmagan bolalar uchun maxsus muassasalar yaratiladi va faoliyat yuritadi, ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

– og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan balog'atga yetmagan bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va nazoratsizligini profilaktika qilishni amalga oshiruvchi balog'atga etmagan bolalar uchun **ijtimoiy-reabilitatsiya markazlari**. Balog'atga

yetmagan bolalar uchun ijtimoiy-reabilitatsiya markazlari o'z tarkibiga quyidagi tuzilmaviy bo'limlarni olishi mumkin: qabul qilish bo'limi; o'z oilalaridan qochib ketgan balog'atga yetmagan bolalar tashish bo'limi, ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish bo'limi; ijtimoiy diagnostika bo'limi; stasionar bo'lim; ijtimoiy mehmonxona; uzoq muddat qolib ketuvchilar guruhi; kunduzi bo'luvchilar va ijtimoiy patronaj guruhlari; oilaviy tarbiyalash guruhi; bolalar va oilaga yordam ko'rsatish bo'limi va boshqa balog'atga yetmagan bolalar uchun ijtimoiy reabilitatsiya markazlarining nizomidagi maqsadlarga javob beruvchi tuzilmaviy bo'limlar;

– og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan va davlatning tezkor ijtimoiy yordamiga muhtoj bo'lgan balog'atga etmagan bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va vaqtinchalik yashab turishini ta'minlovchi **bolalar uchun ijtimoiy mehribonlik uylari**. Bolalar uchun ijtimoiy mehribonlik uylari o'z tarkibiga quyidagi tuzilmaviy bo'limlarni olishi mumkin: qabul qilish bo'limi; ijtimoiy diagnostika bo'limi; ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish bo'limi; o'z tarkibiga ijtimoiy mehmonxona va oilaviy tarbiyalash guruhini oluvchi ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'limi; ijtimoiy patronaj guruhi va bolalar uchun ijtimoiy mehribonlik uylarining maqsad va vazifalariga javob beruvchi boshqa bo'limlar;

– **ota-onalar qarovisiz qolib ketgan bolalar uchun yordam markazlari** ota-onalar yoki boshqa qonuniy vakillarining qarovisiz qolib ketgan balog'atga etmagan bolalarni vaqtinchalik ushlab turish va ularga keyinchalik joylashtirilishida ko'mak berish uchun mo'ljallangan. Ota-onalar qarovisiz qolib ketgan bolalar uchun yordam markazlari quyidagi tuzilmaviy bo'limlarni yaratishlari mumkin: qabul qilish bo'limi; ijtimoiy diagnostika bo'limi; ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish bo'limi; o'z tarkibiga stasionar bo'limni oluvchi ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'limi; uzoq muddat qolib ketuvchilar guruhi; oilaviy tarbiyalash guruhi; balog'atga etmagan bolalarni tashish bo'limi va boshqa ota-onalar qarovisiz qolib ketgan bolalar uchun yordam markazlarining maqsadlari va vazifalariga javob beruvchi bo'limlar.

Muassasalarning **ijtimoiy mehmonxonasi** og'ir hayotiy vaziyatlarda qolib ketgan 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan balog'atga yetmagan bolalar uchun mo'ljallangan. Balog'atga yetmagan bolalar ijtimoiy mehmonxonada balog'atga etmagan bolalar va muassasa ma'muriyati o'rtasida tuzilgan yozma shakldagi shartnomasi asosida yashaydi, unda amaldagi qonunchilik me'yorlarini inobatga olgan holda tomonlarning o'zaro majburiyatlari va huquqlari belgilab berilgan. Ijtimoiy mehmonxona faoliyatini va ishlash uslubini muassasa rahbari tomonidan tasdiqlanadigan ijtimoiy mehmonxona to'g'risida Nizom asosida tashkillashtirish tavsiya etiladi.

Ijtimoiy reabilitatsiya qilishga muhtoj bo'lgan balog'atga etmagan bolalar uchun maxsus muassasalarga 3 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan balog'atga yetmagan bolalar belgilangan tartibda kuchayu-kunduz qabul qilinadi:

– ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaromog'isiz qolgan bolalar;

- ijtimoiy xavfli vaziyatlarda qolgan oilalarda yashovchi bolalar;
- tashlab ketilgan va adashib qolgan bolalar;
- oilasidan o'z xohishicha ketib qolgan bolalar, ota-onalar qaramog'isiz qolgan bolalar va etim-bolalar uchun ta'lim muassasalaridan yoki boshqa bolalar muassasalaridan o'z xohishicha ketib qolgan bolalar, bundan maxsus yopiq turdagi ta'lim-tarbiya muassasalaridan o'z xohishicha ketib qolgan bolalar mustasno;
- yashash joyi va boradigan joyi va (yoki) yashashga mablag'i bo'lmagan bolalar;
- boshqa qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan, ijtimoiy yordam va reabilitatsiya qilinishga muhtoj bolalar.

Ijtimoiy reabilitatsiya qilinishga muhtoj, balog'atga yetmagan bolalar uchun maxsus muassasalarga bolalarni joylashtirish uchun asos bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- balog'atga yetmagan bolaning shaxsan murojaati;
- 10 yoshga etgan balog'atga yetmagan bolaning fikrini inobatga olgan holda balog'atga yetmagan bolaning ota-onalarining yoki uning boshqa qonuniy vakillarining arizasi, balog'atga yetmagan bolaning fikrini inobatga olinishi uning manfaatlariga qarama-qarshi bo'lgan vaziyatlar bundan mustasnodir;
- aholini ijtimoiy himoya qilish boshqarmasi organining yo'llanmasi yoki balog'atga yetmagan bolalarni hququbuzarligi va qarosizligini profilaktika qilish tizimi muassasalari yoki mansabdor shaxsning ushbu organ bilan kelishilgan yo'llanmasi;
- balog'atga yetmagan bolaning ota-onalari yoki uning boshqa qonuniy vakillari ushlangan, ma'muriy hisbda ushlab turilgan, qamoqqa olingan, qamoqqa mahkum etilgan, ozodligi cheklangan, ozodlikdan mahrum etilgan vaziyatlarda dastlabki tergovni amalga oshiruvchining, tergovchining, prokuror yoki sudyaning xulosasi;
- ichki ishlarning tuman, shahar bo'linmalari (boshqarmalari), boshqa munitsipal ta'lim berishning ichki ishlar bo'limi (boshqarmasi), yopiq turdagi ma'muriy-hududiy hududlarning ichki ishlar bo'linmalari (boshqarmalari), transportdagi ichki ishlar bo'linmalari (boshqarmalari) operativ navbatchilarining balog'atga yetmagan bolalarni ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj balog'atga etmagan bolalar uchun maxsus muassasalariga joylashtirish to'g'risidagi hujjati.

Ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj, balog'atga yetmagan bolalar uchun maxsus muassasalariga alkogol yoki narkotik kayf holatida bo'lgan, shu jumladan, psixik kasalliklarining yaqqol zo'raygan alomatlariga ega bo'lgan shaxslarning joylashtirilishi mumkin emas.

Ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj, balog'atga yetmagan bolalar uchun maxsus muassasalarida bo'lgan balog'atga yetmagan bolalarga qonunchilikda belgilangan tartibda, ularga ijtimoiy reabilitatsiya va ijtimoiy yordam ko'rsatishning kerak bo'lgan vaqti davomida xizmat ko'rsatiladi. Ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj, balog'atga yetmagan bolalar uchun maxsus muassasalariga o'z xohishi bilan murojaat qilgan balog'atga etmagan shaxslar, muassasani shaxsiy

arizasi asosida tark etish huquqiga ega.

Ijtimoiy rehabilitatsiyaga muhtoj, balog'atga yetmagan bolalar uchun maxsus muassasalar ushbu muassasalardagi nizomlarga muvofiq quyidagilarni amalga oshirishlari mumkin:

– balog'atga yetmagan bolalarni qarovsizligi va nazoratsizligini keltirib chiqaruvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash va bartaraf qilishda ishtirok etadilar;

– balog'atga yetmagan bolalar, ularning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillariga og'ir hayotiy vaziyatlarni bartaraf qilishda, balog'atga yetmagan bolalarni o'qish joyi, ish joyi, yashash joyi bo'yicha tengdoshlari o'rtasidagi ijtimoiy maqomining tiklanishida ijtimoiy, psixologik va boshqa yordamni beradi, balog'atga yetmagan bolalarni oilalariga qaytishiga ko'maklashadi;

– belgilangan tartibda balog'atga yetmagan bolalarni davlat tomonidan to'liq ta'minlanishini amalga oshiradi, ularni ijtimoiy rehabilitatsiya qilinishini, qonuniy manfaatlari va huquqlari himoya qilinishini amalga oshiradi, mos ravishdagi ta'lim dasturlari bo'yicha balog'atga yetmagan bolalarni ta'lim olishini va tibbiy xizmat ko'rsatilishini tashkillashtiradi, ularni kasbiy yo'naltirish va ularni mutaxassislik olishlariga ko'maklashadi;

– balog'atga yetmagan bolalarning ota-onalarini yoki ularning boshqa qonuniy vakillarini ko'rsatib o'tilgan muassasalarga balog'atga yetmagan bolalarning joylashtirilganligi haqida xabar beradi;

– ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'isiz qolgan balog'atga yetmagan bolalarga g'amxo'rlik va vasiylik qiluvchi organlariga joylashtirilishini amalga oshirishda ko'mak beradi.

Ijtimoiy rehabilitatsiyaga muhtoj balog'atga yetmagan bolalar uchun maxsus muassasalar faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

– og'ir hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan balog'atga yetmagan bolalarni qabul qilish, ularga tezkor yordam ko'rsatish, kerak bo'lgan hollarda esa shifokorgacha bo'lgan ko'rikni amalga oshirish va tibbiy tekshiruvni tashkillashtirish;

– ijtimoiy rehabilitatsiyaning individual va guruhviy dasturlarining keyingi ishlab chiqilishini ta'minlash maqsadida ijtimoiy diagnostikani amalga oshirish, ularni amalga oshirilishi ustidan nazorat o'rnatish, balog'atga yetmagan bolalarning qonuniy manfaatlari va huquqlarini himoya qilinishini ta'minlash;

– balog'atga yetmagan bolalarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish dasturlarini amalga oshirilishini ta'minlash.

Balog'atga yetmagan bolalarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilishni amalga oshirishda quyidagilarni inobatga olish tavsiya etiladi:

– oila ichidagi va oila bilan yo'qotilgan aloqalarni tiklanishini ta'minlovchi balog'atga yetmagan bolalarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilishning individual va guruhviy dasturlarini bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta'minlash;

– balog'atga yetmagan bolalarning shaxslararo munosabatlari tizimini sog'lomlashtirish, ularning o'qish joyi, ish joyi bo'yicha tengdoshlari o'rtasidagi ijtimoiy maqomini tiklash, o'z yaqinlari orasida psixologik jarohat etkazilishiga

olib keluvchi vaziyatlarni bartaraf qilish;

- balog'atga yetmagan bolalarni ta'lim, mutaxassislik olishida va kasbiy yo'naltirilishida ko'maklashish;
- yosh va fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda balog'atga yetmagan bolalarni muassasada yoki uning tashqarisida amalga oshiriladigan turli xil mehnat faoliyatiga jalb qilish;
- kompleks tibbiy-psixologik-pedagogik yordamni berish.

Balog'atga yetmagan bolalarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilishning individual dasturlari balog'atga etmagan shaxslarning muassasada kunduzgi yoki kecha-kunduz (statsionar) bo'lishi yoki oilaviy tarbiyaviy guruhda bo'lishi sharoitlarida amalga oshiriladi. Ijtimoiy rehabilitatsiya dasturlarini amalga oshirilishi va uning yakunlanishidan keyin muassasaning mos ravishdagi bo'limi tomonidan balog'atga yetmagan bolalar yashaydigan oilalar ustidan patronaj (otaliq) amalga oshiriladi.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatish ijtimoiy xizmatlar tomonidan bepul va pullik hollarda amalga oshiriladi.

Davlatning ijtimoiy xizmatlari tizimida bepul ijtimoiy xizmat ko'rsatish ijtimoiy xizmat ko'rsatishning davlat standartlarida belgilan miqdorlarida quyidagilarga beriladi:

- keksa yoshi, kasalligi, nogironligi, ularga yordam berish va parvarish ko'rsata oladigan qarindoshlarining yo'qligi sabablari bilan bog'liq holda o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmagan fuqarolarga – agar ularning jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlari belgilangan yashash minimumidan kam bo'lsa;
- ishsizlik, tabiiy ofatlar va falokatlar oqibati bilan, harbiy va etnik janjallar natijasida jabr ko'rganligi bilan bog'liq holda qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan fuqarolarga;
- qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan balog'atga etmagan bolalarga.

Davlat ijtimoiy xizmatlari tizimidagi pullik ijtimoiy xizmatlar davlat hokimiyat organlari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

7.3. Ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va ularning vazifalari

Aholiga ijtimoiy xizmat bevosita ijtimoiy xodimlar orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy xodim keksalar, mehnatga yaroqsiz fuqarolarga qarovchi mutaxassis hisoblanadi. G'arbiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida ijtimoiy mutaxassislar XIX asr o'rtalaridan oliy va o'rta maxsus ta'lim yurtlarida, diniy muassasalarda tayyorlana boshlagan.


Odatda, ijtimoiy xizmatlar hamma uchun mumkin bo'lgan ish hamda bu xodimlardan kasbiy malakasini talab etmaydigan ijtimoiy foydali mehnat hisoblanadi. Ijtimoiy xizmatlarning farqli jihatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ishsizlar uchun maxsus mo'ljallangan vaqtinchalik ish o'rinlarini yaratadi;
- zarur hollarda bunday ish o'rinlari miqdorini kam sarf qilgan holda sezilarli oshirish mumkin;

- xodimlar ommaviy tarzda ishdan bo'shatilgan hollarda ish miqdori va hajmini tez oshirish mumkin;
- to'liq bo'lmagan ish kunini va moslashuvchan jadvali ishlarni tashkil qilish mumkin;
- bunday ish o'rinlari mintaqa uchun iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik foydali hisoblanadi;
- o'qishni tugatgan va o'ziga doimiy ish topa olmagan yoshlar uchun ishga joylashish imkonini beradi.

Ijtimoiy xodim bo'lib ishlash istagini bildirgan fuqarolar bilan muddatli mehnat shartnomasi tuziladi, bunday bitim tuzishga ustuvor huquqdan ishsizlik bo'yicha moddiy yordam olmaydigan ishsiz fuqarolar foydalanadi.

Ijtimoiy xodimning lavozim majburiyatiga yolg'iz keksalar va xizmat ko'rsatish hududida yashovchi fuqarolarni aniqlash kiradi. Ijtimoiy xodimlar ular uyiga tushliklarni, oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlarni, sanoat mollari va boshqa tovarlarni yetkazib beradi, xonani yig'ishtirish, yuvishga, yuviladigan ro'zg'or buyumlari, usti-boshlarini kirxonalarga, kimyoviy tozalashga topshirishga ko'maklashadi, uy-ro'zg'or anjomlarini ta'mirlashda, maishiy xizmat va boshqa xizmatlarga haq to'lashda ko'maklashadi. Shuningdek, ular shifokorga borgungacha xizmatlarni (harorat o'lchashni, gorchitsa qo'yishni, istitgich tayyorlashni, uyga shifokor chaqirishni) amalga oshiradi, turar-joyini ta'mirlashni, hovli-bog'ga ishlov berishni, yoqilg'i bilan ta'minlashni va boshqalarni tashkillashtiradi. Shular bilan bir qatorda, ijtimoiy xodim yordam ko'rsatish, qo'llab-quvvatlash, tashkilotchilik ham qilishi mumkin, u sanitariya-gigiyena talablarini uy sharoitida keksa va mehnatga yaroqsizlarga tadbiiq etishni, keksa yoshdagi shaxslar bilan ishlash xususiyatlarini o'zlashtirgan bo'lishi kerak.



7.1-rasm. Ijtimoiy xodimning vazifalari

Ijtimoiy xizmatlar mavjud bo'lgan mamlakatlarda ijtimoiy xodimlar tasarrufidagi vositalar majmui quyidagilardan iborat:

- pul yordam tizimi, bu mehnatga qobiliyatsiz kishilar, muhojirlar va

qochoqlarga doimiy, vaqtinchalik, bir yo'la va maqsadli moddiy yordamlarni o'z ichiga oladi;

- natura ko'rinishidagi yordam tizimi;
- tibbiy xizmat tarzidagi yordam tizimi;
- ijtimoiy muassasalarni tashkillashtirish;
- psixologik maslahatlar va mashqlar;
- o'qitish va qayta tayyorlash kurslari (asosan muhojirlar uchun).

Bu vositalardan samarali foydalanish tegishli tashkiliy tuzilma bo'lgandagina mumkin.

Ta'kidlash lozimki, ijtimoiy xodim xizmatlarni loyihalashtirish jarayonida bevosita ijtimoiy ishlar bilan shug'ullanuvchi, xizmat bo'linmalari: "ijtimoiy homiylar" lavozim jadvali, ruhiy yordam xizmati xodimi, ishga joylashtirish xodimi; ijtimoiy yordamga muhtojlar haqida ma'lumot to'plash xizmati va shunday yordam samarasini baholash; umumiy qarorlar qabul qilish, mutaxassislar moddiy resurslarini taqsimlash vazifasini bajaruvchi boshqarish xizmati kabi modellardan foydalanishi mumkin.

Aholiga xizmat ko'rsatishda ijtimoiy xodimning odobi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash joizki, ijtimoiy xodimning odobi odob me'yorlari majmui hisoblanib, ijtimoiy xodimlar va ular faoliyatini tartibga soluvchi jamiyat tomonidan tuziladi. Bu me'yorlar olti guruhga ajraladi:

1. Ijtimoiy xodim xulqi va qiyofasi (xulqning oliy namunalari, ijtimoiy xodimga munosib bo'lganlariga amal qilish; o'z kasbiy malakasini takomillashtirish; ijtimoiy xodim kasbiy majburiyatlarini to'g'ridan-to'g'ri o'z majburiyatlari sifatida qarash; o'z xulq-atvorini kasbiy vijdonlikning yuqori namunalari bilan qiyoslash; ilmiy tadqiqotlar olib borishda tegishli shartnomalarga amal qilish);

2. O'z mijozlariga bo'lgan munosabati (mijozlarga munosabat bo'yicha mas'uliyatni o'zining to'g'ridan-to'g'ri mas'uliyati sifatida qarash; ularda yuqori darajada mustaqillikning yuzaga chiqishiga ko'maklashish; mijozlardan olingan ma'lumotlarni tarqatmaslik; ko'rsatilayotgan yordam va mijozlar imkoniyatidan kelib chiqib, gonorar belgilash);

3. Hamkasblariga bo'lgan munosabati (o'z hamkasblariga hurmat va ishonch bilan munosabatda bo'lish; ularning mijozlari bilan kasbiy to'la safarbar holda ish olib borish);

4. Hamkorlik qiladigan tashkilotlariga munosabati (tegishli tashkilotlar oldidagi majburiyatlariga sodiq bo'lish);

5. O'z kasbiga bo'lgan munosabati (o'z kasbi ijtimoiy ahamiyatini tushinishga ko'maklashish; o'z ijtimoiy yordamini aholi keng qatlamiga yetib boradigan tarzida bo'lishiga erishish; o'z kasbiy faoliyatida bilimlardan faol foydalanish);

6. Jamiyatga bo'lgan munosabati (umumiy farovonlik oshishiga hissa qo'shish).

Shunday qilib, ijtimoiy xodim mehnatga qobiliyatsiz aholi qatlamiga xizmat

ko'rsatuvchi mutaxassis bo'lib, ularning ko'rsatayotgan ijtimoiy xizmatining sifat va saviyasini oshirish muhtoj aholi ijtimoiy himoyasining samaradorligini ko'tarishga yordam beradi.

7.4. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish yo'llari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohada sezilarli o'zgarishlarga yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar hududiy ijtimoiy majmualarni samarali boshqarish va ularni moliyalash bilan bog'liq bo'lib, ushbu masalalarni hal etish nafaqat zamonaviy ijtimoiy islohotlarning samarasini, balki hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasini ham belgilaydi.

Ijtimoiy sohaning yangi, bozorga xos institutlarining faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular qatoriga aholiga keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy-ijtimoiy, psixologik-pedagogik, huquqiy, ijtimoiy-maishiy va boshqa xil xizmatlar ko'rsatuvchi ijtimoiy xizmat tizimi kiradi. Bunday xizmatlarga mushkul turmush sharoitiga tushib qolgan insonlar – ko'p bolali, to'liqsiz, yosh oilalar, balog'at yoshiga to'lmagan ota-onalardan tashkil topgan oilalar, nogironlar, yetim yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, tarbiyasi og'ir va qarovsiz qolgan bolalar, yolg'iz keksalar va ishsizlar ayniqsa muhtojlik sezadi.

Bugungi kunda zamonaviy ijtimoiy infratuzilmaning ko'pgina muammolariga moliyalashtirishning yetarli emasligi va aholining past turmush darajasi sabab bo'lmoqda. Ko'pchilik mamlakatlar aholisining aksariyat qismi kambag'al bo'lib, xizmat ko'rsatish sohasidan bozor narxlarida foydalanish uchun iqtisodiy imkoniyatga ega emas. Mehnatga yaroqsizligi, ishsizligi yoki boshqa bir sabablarga ko'ra, o'zining zarur hayotiy ehtiyojlarini, shuningdek, mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining ehtiyojlarini qondirish uchun kerakli mablag'i bo'lmagan fuqarolarga aholini ijtimoiy muhofaza qilish dasturlari doirasida, qonunchilikda belgilangan noxush holatlar yuzaga kelganda moddiy va tabiiy shaklda badal to'lash, boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish orqali yordam ko'rsatiladi.

Samarali ijtimoiy xizmatlar tizimi ijtimoiy nochorlik darajasini sezilarli darajada pasaytiradi, noxush hodisalarning oldini olishga yo'naltirilgan profilaktik tadbirlarni amalga oshiradi va shu orqali jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ko'maklashadi. Biroq, hukumat ixtiyorida resurslarning tanqisligi, ulardan oqilona foydalanmaslik fuqarolarning konstitusion ijtimoiy kafolatlarini to'la amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Aytish joizki, yuqorida ta'kidlangan muammolarning barchasi ijtimoiy xizmatlar tizimini isloh qilishni talab etadi. Fikrimizcha, ijtimoiy xizmatlar tizimini isloh etishni quyidagi asosiy ustuvor vazifalaridan kelib chiqish amalga oshirish lozim: jamiyatning mehnat salohiyatini rivojlantirish va undan oqilona foydalanish; ijtimoiy nochor aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, manzilli ijtimoiy yordamni yanada takomillashtirish, ijtimoiy nafaqa va imtiyozlar tizimini pullik to'lovlar bilan almashtirish; aholining samarali bandligini ta'minlash orqali kambag'allikni

kamaytirish, nafaqa tizimining barqarorligini kuchaytirish, ijtimoiy yordamni jonlantirish; ijtimoiy barqarorlik omili sifatida qo'shimcha nodavlat ijtimoiy sug'urtalashni shakllantirish; budjet muassasalarini moliyalashning yangi usullarini tadbiq etish, ularning xo'jalik erkinligini kengaytirish va fuqarolarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarning sifati va turini oshirish uchun sharoit yaratish; ijtimoiy xizmatlarni moliyalash va taklif etish, ularning sifatini nazorat etish masalalarida fuqarolik jamiyati tuzilmalari bilan hamkorlik o'rnatish.

Fuqarolarning xizmatlar taklif etuvchilarni tanlash imkoniyatini kengaytirish va nodavlat sektorni faol jalb etish asosida bunday xizmatlar taklif etish shakllarini diversifikasiya qilish ijtimoiy xizmatlar tizimini isloh etish sohasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu, xususan, bepul yoki mablag' ajratish orqali ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlardan foydalanuvchi fuqarolarning tanlash erkinligini kengaytirishni, shu jumladan, ularga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish litsenziyasiga ega istalgan tashkilotdan kelishilgan ro'yxat asosida belgilangan miqdorda bepul yoki mablag' ajratish orqali ko'rsatilayotgan xizmatlardan foydalanish huquqini beruvchi maxsus ijtimoiy hisoblar yuritishni; hajm va sifatidan kelib chiqqan holda davlat tomonidan moliyalashning dasturiy-maqсадli va tanlov mexanizmlari asosida ijtimoiy xizmatlarni moliyalash jarayoniga o'tishni; ijtimoiy xizmatlar taklif etuvchi davlat va nodavlat tashkilotlar uchun ijtimoiy buyurtma mexanizmi orqali davlat tomonidan moliyalashdan teng foydalanishni ta'minlashni; davlat tomonidan moliyalashni xususiy xayriya resurslari bilan birlashtirish; budjet va budjetdan tashqari mablag'larni taqsimlashda ochiqlikni ta'minlashni; ijtimoiy xizmatlarning o'zini qoplash imkoniyatini rivojlantirishni; ixtisoslashgan notijorat tashkilotlarni ekspert, maslahat va muvofiqlashtirish yo'nalishidagi turli jamoat-davlat kengashlarini ishlab chiqish va ekspertiza qilishga jalb etishni; qaysi tashkilot tomonidan (davlat, nodavlat notijorat, tijorat) bajarilishidan qat'iy nazar ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish sifatini baholash tizimini ishlab chiqishni; budjet mablag'larini sarflash samaradorligini mustaqil baholash institutlarini rivojlantirish va ixtisoslashgan notijorat tashkilotlarni ijtimoiy davlat dasturlarini va budjetning tegishli bo'limlarini ishlab chiqish va ekspertiza qilishga jalb etishni; ijtimoiy xizmatlar sohasida litsenzialashni tartibga solish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish talablarini jahon tajribasi va O'zbekistondagi ijtimoiy xizmatlar rivojlanish darajasiga moslashtirishni; ijtimoiy faoliyatga ruxsat beruvchi litsenziya olish talablarini to'ldirgan holda nodavlat notijorat tashkilotlarning ijtimoiy va ta'lim xizmatlari borasidagi tajriba va amaliyotini hisobga olishni; ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga ham davlat, ham nodavlat tashkilotlarini jalb etish uchun imkoniyat yaratishni; davlat tomonidan moliyalash bilan bir qatorda xususiy xayriya mablag'laridan foydalanishni; ijtimoiy reglamentlar va ijtimoiy dasturlarni bajarish sifatini baholash tizimi asosida turli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi davlat, munisipal, xususiy va boshqa muassasalar faoliyatiga umumiy talablarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, aholiga

ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar sifatini nazorat qilishning yagona ta'sirchar mexanizmi – bu litsenziyalashdir. Jismoniy shaxslar qachonki ular fuqarolarning xavfsizligi, farovonligi va salomatligini himoya qilish uchun zarur bilim va imkoniyatga ega bo'lganda, yuridik shaxslar esa aniq xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyati qonunchilikda belgilangan minimal davlat standartlarga to'la javob berganda litsenziya oladi. Fikrimizcha, ijtimoiy xizmatlar bilan bog'liq faoliyat turlarini litsenziyalashga bo'lgan yondashuv mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha ijtimoiy xizmatlar uchun yagona bo'lmog'i lozim. Bu ularning o'z mijozlari oldida bir xilda ma'suliyatli bo'lishini ta'minlaydi va ularning faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi. Ijtimoiy faoliyat uchun litsenziya olish talablarini ishlab chiqishda nodavlat tashkilotlarning ish tajribasini va amaliyotini inobatga olish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuvni aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishga yaqin, faoliyati litsenziyalanishi shart bo'lgan tibbiyot va ta'lim sohalarida qo'llash mumkin.

Ta'kidlash lozimki, standartlash ham litsenziyalashga uzviy bog'liq jarayon bo'lib, litsenziya ma'lum bir ijtimoiy xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tashkilot faoliyati belgilangan davlat standartlariga javob berishining kafolatidir. Boshqacha qilib aytganda, litsenziyalash belgilangan standartlar bajarilishini nazorat etish funksiyasini bajaradi. Mazkur standartlarga rioya etilmagan hollarda tegishli ijtimoiy xizmat litsenziyadan mahrum etilishi mumkin. Bizningcha, respublikada minimal davlat ijtimoiy standartlarini kiritish quyidagi vazifalarni hal etishga yo'naltirilishi lozim: mamlakat fuqarolari bepul ijtimoiy xizmatlardan foydalana olishini ta'minlash; ijtimoiy barqarorlik va jamiyatning turg'un rivojlanishini ta'minlash maqsadida insonning ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan eng zarur talablarini qondirish; ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish va ularning ta'minlanishi ustidan nazoratni kuchaytirish; kafolatlangan davlat ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni rejalashtirish va tashkil etish, minimal davlat ijtimoiy standartlar asosida ijtimoiy xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi muassasa va tashkilotlar faoliyatini baholash va nazorat qilish. Minimal davlat ijtimoiy standartlari mahalliy va hududiy budjetlarning ularni ta'minlash uchun zarur minimal talablarini belgilash, zarur bo'lsa budjet (soliqlar, aksizlar va boshqalar) tizimining darajalari bo'yicha daromadlarni qayta taqsimlash va mustahkamlash imkonini yaratadi. Buning natijasida munisipal tashkilotlar va mamlakat sub'ektlarining asosiy qismini o'zini-o'zi moliyalash tizimiga o'tkazish imkoniyati paydo bo'ladi, bunda ularning o'z soliq bazasini kengaytirish va iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishdan manfaatdorligi oshadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, litsenziyalash, standartlash kabi mexanizmlarini amaliyotga tadbiiq etish nafaqat aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimini isloh etish, balki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ko'pgina muammolarini yechish imkonini ham beradi.

Qisqacha xulosalar

Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-

maishiy, ijtimoiy-tibbiy va moddiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy moslashtirishni o'tkazish, og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan fuqarolarni tiklash va qayta tiklash bo'yicha ijtimoiy xizmat faoliyatidir. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish moddiy yordam ko'rsatish, o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish qobiliyatini qisman yoki to'liq yo'qotgan va doimiy qarovga muhtoj fuqarolarga statsionar muassasalarda maxsus xizmat ko'rsatish, tibbiy, ruhiy, ijtimoiy tavsifdagi tadbirlarni o'tkazish, ovqatlantirish, parvarishlash, shuningdek, imkoniga yarasha mehnat faoliyatini, dam olishi va bo'sh vaqtini tashkillashtirish, yetim bolalarga, ota-onasining qarovisiz qolganlarga, boqimsiz balog'atga yetmagan va og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolganlarga ixtisoslashgan muassasalarda vaqtincha boshpana berish, ijtimoiy-maishiy va hayot faoliyatini ta'minlash uchun ijtimoiy-tibbiy masalalar va ijtimoiy-huquqiy himoya bo'yicha maslahat berish, nogironlarga, imkoniyati cheklangan shaxslarga, balog'atga yetmagan huquqbuzarlarga kasbiy, ijtimoiy, ruhiy qayta tiklanishda yordam ko'rsatish tarzida amalga oshiriladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish deganda nimani tushunasiz?
2. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning qanday tamoyillari mavjud?
3. Ijtimoiy xizmatning qanday turlarini bilasiz?
4. Qariyalar va bolalar uylari deganda nimani tushunasiz?
5. Qariyalar va bolalar uylarining asosiy vazifasini aytib bering.
6. Ijtimoiy xodimning asosiy vazifalarini aytib bering.
7. Ijtimoiy xodimning odob majburiyatlarini tushuntirib bering.
8. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yanada takomillashtirishning qanday yo'nalishlarini bilasiz?

Adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанамиз тараккиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. // Халқ сўзи, 2010 йил 30 январь.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2008.
3. Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш бўйича меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Адолат, 2008.
4. Зайнышев И.Г., Ерохин Ю.С., Золотарева Т.Ф., Кононова Л.И. Технология социальной работы. – М.: Владос, 2000.
5. Медведова Г.П. Этика социальной работы. – М.: Гуманит, Владос, 2002.
6. Оценка эффективности деятельности учреждений социальной поддержки населения. – Москва, 2007.
7. Реабилитация детей в домах ребенка. – М.: Владос-Пресс, 2007.
8. Саидов К.С., Сеймуратов Р.А., Асломова Д.Х. Социал иқтисодиёт. Ўқув кўлланма. – Т.: Ўзбекистон, 2006.
9. Храпылина Л.П. Реабилитация инвалидов. – Москва, 2007.
10. Человеческое развитие. Учебник. – Т.: Университет мировой экономики и дипломатии, 2008.

VIII BOB. AHOLI TURMUSH DARAJASI VA DAROMADLARI

8.1. Aholining turmush darajasi – ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida

Aholining turmush darajasi insonlar hayoti va faoliyatining mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari majmui bilan tavsiflanuvchi murakkab va ko'p qirral tushunchadir. **Aholining turmush darajasi** – bu aholi farovonligi, ne'matlar va xizmatlar iste'molining darajasi, insonlarning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish me'yorini tavsiflovchi sharoitlar va ko'rsatkichlar majmuidir¹³. Boshqacha qilib aytganda, turmush darajasi kishilarning moddiy va madaniy-maishiy ehtiyojining qondirilishi hamda ijtimoiy turmush sharoitining yaxshilanib borishi bilan belgilanadi¹⁴.

Aholi ehtiyojlarining xilma-xilligi, ularning cheksizligi, solishtirishning o'ziga xos qiyinchiliklari turmush darajasini tavsiflashda tizimli yondoshuvdan foydalanishga majbur qiladi. Nihoyatda xilma-xilligi bilan ajralib turuvchi, bir tomondan, insonlar turmushi moddiy sharoitlarining tarkibiy qismlarini, ikkinchi tomondan esa, ularning xulqini o'z ichiga oluvchi bu kategoriyaning uch darajali tizim ko'rinishida ko'rsatish maqsadga muvofiq (8.1-rasm).

8.1-rasmdan ko'rinib turganidek, birinchi daraja aholining iste'mol sohasidagi hayoti va faoliyati sharoitlarining tashqi majmuini aks ettiradi. Bu sharoitlar birlamchi, boshqa tarkibiy qismlarga nisbatan aniqlovchidir. Shuning uchun determinantlar deb ataladi. Determinantlar keng tushuncha hisoblanib, insonlar faoliyatining barcha, nafaqat iqtisodiy, balki tarixiy, ahloqiy, siyosiy sharoitlarini o'z ichiga oladi. Shu ma'noda ular "turmush darajasi" kategoriyasini boshqa ijtimoiy-iqtisodiy ob'ektlar bilan birlashtiradi. Turmush darajasining markaziy xususiyati ushbu kategoriyaning dominantini bo'lib chiquvchi va uning yuzaga kelish mexanizmini tavsiflashda ikkinchi daraja mohiyatini tashkil qiluvchi aholi ehtiyojlaridir. Uchinchi daraja insonlarning iste'mol sohasidagi xulqi bo'lib, u iste'molchilarning muayyan harakatlarida, iste'molida, ularning turmush uslubi va tarzida haqiqiy timsolini topuvchi turli-tuman ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.


Turmush darajasining tizimli ifodasidagi uch jihat izchil bir-biriga bog'liqdir: turmushning tashqi sharoitlari (determinantlar) aholi ehtiyojlarini yuzaga keltiradi, bu ehtiyojlar (dominantlar) esa, o'z navbatida, insonlarning iste'mol sohasidagi xulqini belgilaydi.

Aholi turmush darajasi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Uni oshirib borish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadidir.

"Turmush darajasi" tushunchasi zamonaviy talqinda inson faoliyatining barcha tomonlariga taalluqli bo'lgan keng qamrovli tushuncha bo'lib, u umuman

¹³ Политика доходов и заработной платы: учебник /И.М.Алиев, Н.А.Горелов. – Ростов н/Д: Феникс, 2008. – С.10.

¹⁴ Гойибназаров Б.К. Аholи турмуш даражасини статистик баҳолаш. – Т.: Фан, 2005 – 5-6.



8.1-rasm. Aholi turmush darajasining ichki tuzilishi

jamiyat va xususan, uning ayrim a'zolarining farovonligi to'g'risida tasavvur beradi. Yuqoridagilarni umumlashtirib, turmush darajasi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik hamda ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi¹⁵. O'zbekistonda aholining moddiy, ma'naviy, ijtimoiy ehtiyojlarining qondirilish darajasini ifodalaydigan "turmush

¹⁵ Абдурахмонов К.Х. Меҳнат истисодидати. Дарслик. – Т.: МЕҲНАТ, 2009 – 357-б.

darajasi” atamasi kengroq qo’llaniladi. Bunday tavsif ko’proq turmush darajasi statistikasini tavsiflaydi. Shu bilan birga, turmush darajasi – ko’plab omillar yig’indisi ta’sirida bo’lgan o’zgaruvchan jarayondir. Bir tomondan, turmush darajasi muntazam o’zgarib turadigan turli ne’matlarga bo’lgan ehtiyojlarning tarkibi va darajasi bilan, ikkinchi tomondan, u ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, xodimlarning ish haqi bilan belgilanadi. Ammo, ish haqi miqdori ham, turmush darajasi ham ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohalari samaradorligining ko’lami, ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi, aholining madaniy-ma’rifiy saviyasi va tarkibi, milliy xususiyatlar, siyosiy hokimiyatga bog’liq.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) konvensiyalariga muvofiq, har bir inson o’zi va oilasining salomatligi va farovonligini ta’minlovchi turmush darajasiga (oziq-ovqat, kiyim-bosh, uy-joy, tibbiy-ijtimoiy xizmatlar), shuningdek, ishsizlik, nogironlik, bevalik holatlarida ta’minot olish huquqiga ega. Barcha huquqlar milliy kontsepsiyalar asosida amalga oshiriladi.

Turmush darajasi kontsepsiyasi tamoyillar va ko’rsatkichlar tizimiga asoslanuvchi, aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan g’oyani ifodalaydi. Turmush darajasining kontsepsiyasi ko’zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirish strategiyasi va yo’nalishlari, bosqichlarini belgilab beradi va ma’lum tarixiy tavsifga ega.

Sobiq ittifoq davrida kommunizm qurish, “har kimdan qobiliyatiga yarasha, har kimga ehtiyojiga yarasha” tamoyilini amalga oshirish asosiy maqsad sanalar edi. Jamiyatning har bir a’zosini har tomonlama kamol toptirish taraqqiyotning ustuvor yo’nalishi deb belgilangandi. Bu aslida sovet jamiyatining turmush darajasi kontsepsiyasi vazifasini o’tagan. Mazkur kontsepsiya xodimlarning muntazam o’sib borayotgan ehtiyojlarini imkon qadar qondirishni ko’zda tutuvchi asosiy qonunlarda o’z aksini topgan edi.

Umuman olganda, sho’rolar davrida xodimlar ehtiyojlarini qondirish bo’yicha ko’plab ishlar amalga oshirildi, ularning daromadlari o’sib bordi, ammo bu daromadlar salmog’i, ehtiyojlar tarkibi va hajmi xalqaro o’lchovlar bilan taqqoslaganda juda past edi. Shu bilan birga, amal qilgan turmush darajasi kontsepsiyasi real bo’lmasdan, ko’proq ideal turmush modelini eslatardi.

Bozor munosabatlariga o’tish davrida O’zbekistonda yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga javob beradigan turmush darajasi kontsepsiyasini yaratishga zarurat tug’ildi. Mazkur kontsepsiyani shakllantirishda so’nggi yillarda jahon amaliyotida keng qo’llanilayotgan “turmush sifati” kontsepsiyasining ayrim qoidalaridan foydalanildi.

Tarixiy jihatdan “turmush sifati” kontsepsiyasi inson hayoti faoliyatining iqtisodiy parametrlarini aks ettiruvchi “global ish bilan bandlik”, “turmush darajasi”, “mehnat hayoti sifati” kabi kontsepsiyalarning rivojlanishi asosida yuzaga kelgan.

Turmush sifati kontsepsiyasi inson jamoalarining jismoniy, aqliy va ijtimoiy barkamolligini belgilovchi shartlarni shakllantiradi. Bu yerda gap faqat turmush

sifati (ovqatlanish, uy-joy, ish bilan bandlik, ta'lim darajasi)ni baholovchi ob'ektiv omillar haqida emas, balki inson tomonidan o'zining farovonligi, baxt, qoniqish, rohat kabi tushunchalarni sub'ektiv his etishi to'g'risida ham bormoqda. Masalan, sog'liq darajasi, oilaviy munosabatlari, ishi, moddiy ahvoli, yaratuvchanlik qobiliyati va hokazolardan qoniqish hayotdan qoniqish hosil qilishning muhim komponenti hisoblanadi. Shunday qilib, turmush sifati kontsepsiyasi insonning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarini ham o'z ichiga oladi. Bu munosabatlar ehtiyojlarning qondirilganligi va mavjud imkoniyatlarni kutilgan imkoniyatlarga mosligi darajasini tavsiflaydi.

Turmush darajasi inson (aholi) hayot faoliyatining ma'lum bir qirrasida to'g'risida tasavvur beradigan ko'rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi. Turmush darajasi to'g'risida batafsil ma'lumot olish uchun aholi daromadlari va ehtiyojlari, iste'mol darajasi va tarkibi, uy-joy, mol-mulk, madaniy-maishiy buyumlar va boshqa imkoniyatlar bilan ta'minlanganlik darajasini chuqur o'rganish lozim.

8.2. Aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlari

Turmush darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar xilma-xil. Avvalo, aholining turmush darajasi ko'rsatkichlari umumiy va xususiy ko'rsatkichlarga bo'linadi.

Umumiy ko'rsatkichlarga quyidagilarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdorlari kiradi:

- milliy daromad;
- iste'mol fondi (bevosita iste'molchilar maqsadlariga ketuvchi iqtisodiyot tarmoqlari mahsulotlari);
- milliy boylikning iste'mol fondi (to'plangan iste'molchilar mulklari – uy-joy, madaniy-maishiy binolar, madaniy-maishiy, xo'jalik predmetlari).

Bu ko'rsatkichlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining umumiy yutuqlarini tavsiflaydi.

Xususiy ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- iste'mol darajasi va usullari;
- mehnat sharoitlari;
- uy-joy bilan ta'minlanganlik;
- ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish darajasi;
- bolalarni tarbiyalash sharoitlari;
- ijtimoiy ta'minot.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar jamiyat va inson hayoti hamda faoliyatining iqtisodiy tomonini, ehtiyojlarni qondirishning iqtisodiy imkoniyatlarini tavsiflaydi. Ularga jamiyat iqtisodiy rivojlanishining darajasini hamda har bir inson boyligini (nominal va real daromadlar, bandlik) tavsiflovchi ko'rsatkichlar kiradi. Bu ko'rsatkichlar ishchi kuchining (aholining) iqtisodiy asosini tavsiflab, ularni takror ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'liq, bu aholi daromadlari o'lchami va darajalanishida, ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar aholining jins va yosh, kasb-

malakaviy tarkibini, ishchi kuchining jismoniy takror barpo bo'lishini tavsiflaydi Ular ijtimoiy ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi, ijtimoiy soha va umumar iqtisodiyotning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Bu omillar ommaning tabiiy asosi haqida tasavvur beradi va aholining, uning alohida guruhleri sonining o'zgarishida hamda umr davomiyligida yaqqol ko'rinadi.

Ob'yektiv va sub'yektiv ko'rsatkichlar odamlar hayoti va faoliyatidagi o'zgarishlarning asoslanishi bilan bog'liq; birinchisi ob'yektiv (iqtisodiy, texnik) asosga, ikkinchisi – alohida shaxslar va aholi guruhlarining sub'yektiv fikriga, mehnat, oilaviy munosabatlar, daromadlar, turmush tarzidan qoniqishining sub'yektiv bahosiga ega. Sub'yektiv baho turmush sifati kontsepsiyasida hisobga olinadi.

Qiyamat va natural ko'rsatkichlar. Qiyamat ko'rsatkichlariga daromadlarning barcha ko'rsatkichlari va pul shaklidagi boshqa ko'rsatkichlar (tovar aylanishi, xizmatlar, yuk tashish hajmi, pul qo'yilmalari va jamg'armalar) kiradi. Natural ko'rsatkichlar aniq moddiy boyliklar va xizmatlarni iste'mol qilishning natural ko'rsatkichlardagi (kg, dona, kv.m, kub) miqdorini – oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish, uy-joy, madaniy-maishiy tovarlar bilan ta'minlanishni tavsiflaydi.

Aholi turmush darajasini baholashning asosiy ko'rsatkichlarini 10 guruhga birlashtirish mumkin: aholi daromadlari; ijtimoiy ta'minot; sog'liqni saqlash; ta'lim; uy-joy sharoitlari; madaniyat va dam olish; transport ta'minoti va aloqa; aholini huquqiy himoya qilish; atrof muhit; demografik vaziyat (8.1-jadval).

8.1-jadval

Aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlari

Hajmiy (mutlaq)	Solishtirma (o'rtacha)
1. Milliy daromad hajmi	1. Iste'mol fondining milliy daromaddagi ulushi
2. Aholining milliy daromadlari	2. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar
3. Ish haqi fondi	3. O'rtacha va eng kam ish haqi
4. Tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlar	4. Tadbirkorlik faoliyatidan keladigan o'rtacha daromad
5. Pensiya jamg'armasi hajmi	5. O'rtacha va eng kam pensiya miqdori
6. Tovar aylanish hajmi	6. Aholi jon boshiga tovar aylanishi
7. Bajarilgan xizmatlar hajmi	7. Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi
8. Uy-joy fondining kattaligi	8. Bir kishiga uy-joy bilan ta'minlanganlik (kv.m, xona)
9. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan aholi soni	9. Iqtisodiy faol aholida ishsizlar ulushi
10. Aholining tabiiy o'sishi	10. Umming davomiyligi

Endi aholi turmush darajasi ko'rsatkichlarining tasnifini batafsil ko'rib

chiqamiz.

Aholi daromadlari. Aholining farovonligini tavsiflash uchun o'zgarmas narxlar va soliqlar chog'ida ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlarining oshishi haqida guvohlik beruvchi (jami aholi, oila, alohida inson) umumiy daromadlar muhim ahamiyatga ega. Umumiy daromad aholi ixtiyoriga tushuvchi turmush vositalarining butun miqdorini, imtiyozlarni va bepul xizmatlarni qamrab oladi. Bunga bepul ta'lim va tibbiy xizmat baholari kirmaydi.

Ijtimoiy ta'minot. Ijtimoiy ta'minot harajatlari istalgan mulkchilik shaklidagi davlat organlari va tashkilotlar tomonidan uy xo'jaligini har xil ofatlar va kutilmagan holatlardan himoya qilish maqsadida amalga oshiriladigan harajatlarning barcha turlarini o'z ichiga oladi. Harajatlar ijtimoiy yordam va ma'muriy to'lovlardan iborat bo'ladi.

Ijtimoiy ta'minotga sarflanadigan harajatlar quyidagi tarkibni o'z ichiga oladi:

- ijtimoiy ta'minot harajatlariga (uy xo'jaliklari, tadbirkorlar, davlat fondlaridan) mablag' ajratish tarkibini;
- nafaqa turlari (kasallik, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, kasbiy kasallik, keksalik, boquvchisini yo'qotganlik, nogironlik, ishsizlik) bo'yicha harajatlar tarkibi.

Sog'liqni saqlash. "Sog'liq" va "turmush darajasi" tushunchalarini birlashtiruvchi aloqalarning mavjudligi birinchisining turmush darajasi umumiy muammolari doiralarida o'rganishni nafaqat qonuniy, balki zarur ham qilib qo'yadi. Sog'liq, unga ega bo'lish darajasiga deyarli barcha ehtiyojlarining qondirilish darajasi bog'liq bo'lgan ne'mat va boylik kiradi. Sog'liq va farovonlik o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarining murakkab tizimi bilan tavsiflanuvchi ko'p tomonli aloqa, sog'liqni aholi turmush darajasining kompleks tadqiqotlari doiralarida har tomonlama o'rganish zaruriyatini shart qilib qo'yadi.

Ta'lim. Ta'limga ehtiyoj nafaqat miqdoriy, balki sifatiy xususiyatga ega, shuning uchun ta'limning rivojlanishi ta'lim tizimini kengaytirish chizig'i bo'ylab ham, uni sifat jihatidan takomillashtirish chizig'i bo'ylab ham borishi mumkin. Ta'lim o'z ichiga quyidagilarni oladi: o'quvchilar va talabalarning aholining umumiy sonidan foizlardagi ulushi; erkaklar va ayollar soni; YAIM foizlarida ta'limga harajatlar; ta'limga harajatlar milliy darajasida; ta'lim darajasi; 1000 maktab o'quvchisiga to'g'ri keladigan o'qituvchilar soni; davlat umuta'lim maktablari, davlat oily oquv yurtari va o'rta maxsus kasb-hunar muassasalari soni, shuningdek, undagi o'quvchilarning 10000 aholiga soni.

Uy-joy sharoitlari. Bu ko'rsatkich o'z ichiga butun uy-joy fondiga shaxsiy uy-joy ulushini (%da); uy-joy fondining umumiy maydonini (kv.m); bir kishiga to'g'ri keladigan uy-joyning umumiy maydonini (kv.m); uy-joyning qulaylik darajasini (markaziy isitish, suv quvuri va quvurlar tizimining mavjudligi) oladi.

Madaniyat va dam olish. Bu ko'rsatkich o'z ichiga kitob va jumallarning aholi jon boshiga miqdorini; kutubxona, teatr, kinoteatr, gazetalarning 1000 aholiga sonini; aholi umumiy sonining 10000 tasiga turist sifatida xorijga chiqqan

shaxslar sonini; sanatoriy-kurort muassasalarida davolangan yoki dam olgan shaxslar sonini oladi.

Transport ta'minoti. Bu ko'rsatkichni avtomobil yo'llarining, shu jumladan, asosiy yo'llarning asfaltlangan yo'llar foizidagi masofasi (ming.km) bilan; shaxsiy foydalanish uchun yengil avtomobillarning 1000 kishiga to'g'ri keladigan soni bilan; avtomobil yo'llarining 100 kv.m hududga qalinligi bilan baholash mumkin.

Aholining huquqiy himoyasi. Uni aholi turmushining xavfsizlik darajasi va huquq-tartibot organlarida bandlar soni (ming.kishi) tavsiflaydi.

Atrof-muhit. Atrof-muhitni baholash uchun muhitning ifloslanishini, tabiatga ta'sir ko'rsatishni (masalan, suvga ekologik standartlarni), harorat, havoning namligi va quruqligini, madaniy yodgorliklar, ijtimoiy-iqtisodiy tizimga ta'simi, aholi zichligini hisobga olish mo'ljallanadi.

Demografik vaziyat. Aholining turmush sifatini to'liqroq tavsiflash uchun aholining demografik vaziyatini ham hisobga olish zarur. Bu vaziyatni tavsiflashning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar: jami aholi soni; tabiiy o'sish koeffitsiyenti; tug'ilish koeffitsiyenti; o'lim koeffitsiyenti; migrasiyaning netto koeffitsiyenti (emigrantlar va immigratlar o'rtasidagi tafovutning aholining o'rtacha yillik soniga nisbati orqali hisoblanadi); umrning (yoshning) kutilayotgan davomiyligi; qarish indeksi.

Aholining turmush darajasi ko'p sonli, xilma-xil sabablarga bog'liq bo'lgan ko'p qirrali hodisadir. Istalgan odamning hayoti va faoliyati havo va suv muhitining, uy-joy, maishiy hamda ishlab chiqarish sharoitlarining, iste'mol tovarlari miqdori va sifatining ahvolidan boshlab, umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyatlar, shuningdek, siyosiy institutlar ahvoriga qadar bo'lgan tabiiy va ijtimoiy omillarning keng spektri bilan belgilanadi. Omillarning eng ahamiyatli guruhi – siyosiy va iqtisodiy omillar, ijtimoiy soha, ilmiy-texnik jarayon, ekologik muhitning rivojlanish omillaridir. Omillar ta'siri tabiiy-iqlimiy sharoitlar va boyliklar (inson, mehnat, ishlab chiqarish, moliyaviy, axborot, ma'naviy) mavjudligi bilan kuchayishi (zaiflashishi) mumkin. Lekin, bevosita bog'liqlik bu yerda yo'q. Masalan, juda taqchil tabiiy boyliklarga ega bo'lgan Yaponiya va Shveysariya boy mamlakatlar hisoblanadi. Aholisining soni ko'p bo'lgan mamlakatlarda ham (AQSH, Germaniya, Yaponiya), kichik bo'lgan mamlakatlarda ham (Lyuksemburg, Finlyandiya, Shveysariya) yuksak darajadagi farovonlik qayd qilinadi. Masalan, Kanada, Norvegiya, Rossiya (shimoliy mintaqalar) og'ir iqlim sharoitlariga ega, turmush darajasi bo'yicha esa bu mamlakatlar bir-biridan farq qiladi.

Siyosiy omillar. Har bir mamlakatda aholining turmush darajasi jamiyat (davlat) tuzumi xususiyatiga, huquq instituti qing mustahkamligiga va inson huquqlariga rioya etilishiga, hokimiyat turli tarmoqlarining o'zaro nisbatiga, uning boshqa mintaqalar (korxonalar) bilan o'zaro munosabatlariga, qarshi kuchlar, har xil partiyalar mavjudligiga bog'liq.

Ijtimoiy omillar har qanday mamlakatda millatning kuch-qudratidan

foydalanish imkoniyatini belgilaydi, shu bilan birga, bunda davlat yetakchi rolni o'ynaydi. Aynan davlat umummilliy rivojlanish, ularni amalga oshirishning turli bosqichlarida va mexanizmlarida jamiyatning ijtimoiy yo'nalishlari dasturini ishlab chiqadi. Bu g'oyalari ijtimoiy rivojlanish, turmush darajasi, fan-texnika taraqqiyotining turli konsepsiyalarida, dasturlarida, qonun hujjatlarida mujassamlanadi.

Iqtisodiy omillar. Aholi turmush darajasining muhim tarkibiy qismi hisoblangan milliy boylik iqtisodiy imkoniyatlarga bog'liqdir. U moddiy boyliklar, mehnat hisobiga jang'arilgan mahsulotlar hamda jamiyat tasarrufidagi hisobga olingan va iqtisodiy muomalaga jalb qilingan tabiiy boyliklarning yig'indisidir. Milliy boylikning uzluksiz to'lib borishi ishlab chiqarish mahsuloti hisobiga amalga oshiriladi.

Aholining turmush darajasini baholash uchun jahondagi mamlakatlarda turlicha mezonlar qo'llaniladi. Ular orasida minimal iste'mol budjeti, kambag'allik, mutloq va nisbiy kambag'allik ko'rsatkichlari keng foydalaniladi.

Minimal iste'mol budjeti – shaxsning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ma'naviy ehtiyojlar iste'molining ijtimoiy asoslangan minimal darajasini ta'minlaydigan iste'mol tovarlari va xizmatlari turlarining qiymatidir.

Kambag'allik ko'rsatkichi aholining turmush darajasini baholash uchun foydalaniladigan mezonlardan biridir. Jahon amaliyotida kambag'allik darajasini ta'riflashga yondashishda uchta asosiy kontsepsiya: mutloq, nisbiy va sub'ektiv kambag'allik kontsepsiyasidan foydalaniladi.

Mutloq kambag'allik kontsepsiyasi shaxs yoki oqilona minimal hayotiy ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan daromadni ta'riflashga asoslanadi. O'zbekistonda insonning minimal ehtiyojlarini ta'riflash uchun shunday tirikchilik minimumi belgilanganki, uni hisoblab chiqishda kaloriyalar, oqsillar, yog'lar va uglevodlar zaruriy iste'molining fiziologik me'yorlaridan foydalaniladi. Nisbiy kambag'allik kontsepsiyasida asosiy mezon sifatida insonning minimal ehtiyojlaridan emas, balki uning farovonligi ko'rsatkichlarining u yoki bu mamlakatda ustunroq keluvchi moddiy ta'minlanganlik darajasi bilan bo'ladigan nisbatidan foydalanadi. Bunday yondashishda daromadlari mamlakat bo'yicha o'rtacha daromadning muayyan ulushidan oshmaydiganlar kambag'al hisoblanadi. Keyingi yillarda tadqiqotlarda nisbiy kambag'allikni ta'riflashning boshqa uslubiyotidan ham keng foydalanilmoqda, u insonning boshdan kechirayotgan, umumqabul qilingan turmush tarzini olib borish imkonini bermaydigan yetishmovchiliklardir. **Kambag'allikning sub'ektiv kontsepsiyasi** ijtimoiy maqbul turmush darajasi uchun zarur bo'lgan resurslarni sub'ektiv ta'riflashga asoslangan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, kambag'allik miqyoslarini ta'riflashga uy xo'jaliklari tavsifini tanlash ham ta'sir etadi va u kambag'allikni baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkich bilan taqqoslanadi. Amaliyotda uy xo'jaliklarining juyidagi tavsiflaridan foydalaniladi: uy xo'jaliklarining pul daromadlari; uy xo'jaliklarining pul sarf-harajatlari; uy xo'jaliklari tasarrufidagi moddiy resurslar

ko'rsatkichlari.

O'zbekistonda kambag'allikni ta'riflash, kambag'allik darajasini baholashda o'rta hisobda bir oyda pul daromadlari ko'rsatkichidan foydalanilgani tarzda kambag'allik chegarasini tirikchilik minimumi darajasida belgilaydigan mutlaq konsepsiyaga asoslanadi.

Tirikchilik minimumi inson salomatligini saqlash va uning hayot faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar va xizmatlar iste'molining minimal ko'rsatkichidir. Tirikchilik minimumi o'rta hisobda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qiymat tarzida, asosiy ijtimoiy-demografik guruhlar bo'yicha, shu jumladan, alohida shaharlar va ma'muriy-hududiy birlashmalar bo'yicha belgilanishi mumkin.

Tirikchilik minimumining qiymatini belgilash negizini ilmiy asosda ishlab chiqilgan oziq-ovqat mahsulotlari tabiiy turlari, o'lchamlari tashkil etadi, ular aholi ayrim ijtimoiy-demografik guruhlari uchun minimal iste'mol me'yorlari bo'yicha tabaqalashtirib beriladi hamda iste'mol qilinadigan moddalarning kaloriyaligi va kimyoviy tarkibi bo'yicha muvozanatlashtiriladi (8.2-jadval).

8.2-jadval

Aholining asosiy ijtimoiy-demografik guruhlari bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining minimal to'plami (yiliga kg. hisobida)

T/r	Mahsulot turlari	Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi		Pensionerlar	Bolalar	
		erkaklar	ayollar		0-6 yosh	7-15 yosh
1.	Non va non mahsulotlari	177,0	124,9	119,0	64,4	112,3
2.	Kartoshka	150,0	95,0	90,0	85,0	135,0
3.	Sabzavotlar	91,8	86,8	96,8	85,0	120,0
4.	Meva va rezavor mevalar	18,6	14,6	13,6	34,4	44,4
5.	Shakar va qandolat mahsulotlari	20,8	19,8	18,8	19,7	26,1
6.	Go'sht va go'sht mahsulotlari	34,8	28,0	22,7	18,7	33,5
7.	Baliq va baliq mahsulotlari	14,7	12,7	14,7	8,7	12,5
8.	Sut va sut mahsulotlari	217,3	203,5	199,5	279,0	304,2
9.	Tuxum, dona	180	150	90	150	180
10.	O'simlik yog'i, margarin va boshqa yog'lar	13,0	11,0	10,2	7,0	12,0
11.	Boshqa mahsulotlar (choy, tuz, ziravorlar)	4,88	4,88	4,15	2,925	4,015

Oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli me'yorlarini asoslashda turli tabiiy iqlim sharoitlarini hisobga olish maqsadida respublika hududi uslubiy tavsiyalarga muvofiq bir necha zonalarga ajratiladi. Zonal taqsimotga muvofiq yiliga o'rta

hisobda aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari turlari ma'lum miqdorlar doirasida belgilab chiqilgan. Hududiy zonalar bo'yicha oziq-ovqat turlarining quvvat bera olishi sutkasiga 2204 kkal.dan 2607 kkal.gachani tashkil etadi.

Tirikchilik minimumi budjetida iste'mol me'yorlari faqat oziq-ovqat mahsulotlariga belgilangan, tovarlar va barcha turdagi xizmatlar qiymati 31,7 foiz miqdorida belgilangan.

Endi noiste'mol tovarlari va barcha turdagi xizmatlarning qiymati haqida to'xtalib o'tsak. Aytish joizki, noiste'mol tovarlarining eng kam to'plamini shakllantirishda quyidagi tamoyillar hisobga olinadi:

- yosh xususiyatlar va organizmni atrof-muhit ta'siridan himoya qilishni hisobga olgan holda, turmushni tashkil qilish uchun aholining asosiy ijtimoiy-demografik guruhlarining nooziq-ovqat tovarlariga ehtiyojlarini qondirish;
- kam ta'minlangan oilalarning nooziq-ovqat tovarlari bilan ta'minlanganligining yuzaga kelgan darajasi;
- nooziq-ovqat tovarlarining eng kam yangilanishi, eng kam xilma-xilligi va past chakana narxi, ommabopligi.

Noiste'mol tovarlarining eng kam to'plami yakka tartibda foydalaniladigan tovarlardan (kiyim, va maktab-yozuv tovarlari) va umumiy oila tovarlaridan (choyshab, yostiqlik, ko'rpa jildlari, madaniy-maishiy va xo'jalik tovarlari, birinchi ehtiyoj, sanitariya vositalari va dorilar) tashkil topadi (8.3-jadval).

8.3-jadval

Aholining asosiy ijtimoiy-demografik guruhlari bo'yicha noiste'mol tovarlarining tarkibi

Tovarlarning nomlanishi	Birlik/ foydalanish muddati	Iste'mol hajmi (o'rtacha bir kishiga)		
		Mehnatga layoqatli aholi	Pensionerlar	Bolalar
Ustki pal'to guruhi	dona/yil	3/7,6	3/8,7	3/2,6
Ustki kastyum-ko'ylak guruhi	dona/yil	8/4,2	8/5,0	11/2,0
Ichki kiyim	dona/yil	9/2,4	10/2,9	11/1,8
Paypoq buyumlari	juft/yil	7/1,4	4/1,9	6/1,3
Bosh kiyim va attorlik mollari	dona/yil	5/5,0	4/5,6	4/2,8
Poyafzal	juft/yil	6/3,2	6/3,5	7/1,8
Maktab-yozuv tovarlari	dona/yil	3/1,0	3/1,0	27/1,0
Choyshab	dona/yil	17/7,0	14/7,0	14/7,0
Madaniy-maishiy va xo'jalik tovarlari	dona/yil	19/10,5	19/10,5	19/10,5
Sanitariya va dori-darmon kabi birinchi zaruriy buyumlar	Oyiga noiste'mol tovarlariga sarflandigan umumiy harajatning foizi	10	10	10

Ko'rinib turibdiki, yakka tartibda foydalaniladigan nooziq-ovqat tovarlarining eng kam to'plami me'yorlari ijtimoiy-demografik guruhlar va uch yashash mintaqasi bo'yicha tabaqalanadi, umumiy oilada foydalanish tovarlarining eng kam to'plami esa umuman mamlakat bo'yicha bitta o'rtacha statistik oilaga ko'rsatiladi.

Xizmatlarning eng kam to'plami turar joy, markaziy isitish, sovuq va issiq suv, gaz, elektr energiyasi bilan ta'minlash, transport xizmatlaridan tashkil topadi (8.4-jadval).

8.4- jadval

Aholining asosiy ijtimoiy-demografik guruhlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Xizmatlarning nomlanishi	Birlik	Iste'mol hajmi (o'rtacha bir kishiga)		
		Mehnatga layoqatli aholi	Persionerlar	Bolalar
Turar joy	Umumiy maydoni kv.m.	18,0	18,0	18,0
Markaziy isitish	Yiliga gkal	6,7	6,7	6,7
Sovuq va issiq suv ta'minoti	Sutkasiga litr	285,0	285,0	285,0
Gaz ta'minoti	Oyiga kub m.	10,0	10,0	10,0
Elektroenergiya	Oyiga kVt s	50,0	50,0	50,0
Transport xizmatlari	Yiliga foydalanishi	619,0	-	396
Xizmatning boshqa turlari	Oyiga xizmatlarga sarflanadigan umumiy harajatning foizi	15,0	15,0	15,0

Shunday qilib, oziq-ovqat mahsulotlari, yakka tartibdagi nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlar iste'molining keltirilgan me'yorlari shuni ko'rsatadiki, tirikchilik minimumi ishchi kuchining mo'tadil qayta tiklanishini ta'minlamaydi va shunga muvofiq uni ijtimoiy siyosatning vaqtinchalik vositasi sifatida baholash lozim bo'ladi.

Turmush darajasini ifodalash uchun mutlaq va nisbiy qashshoqlik ko'rsatkichlaridan ham foydalaniladi. **Mutlaq qashshoqlik** bu daromadlarning umuman yo'qligi yoki shaxsning (oilaning) minimal turmush ehtiyojlarini qondirish uchun zarur daromadning yo'qligidir. Qashshoqlikning bu turi ko'pincha daydilar, boshpanasizlar va shu kabilar orasida uchraydi.

Nisbiy qashshoqlikni O'zbekiston sharoitida tirikchilik minimumi budjetidan kam bo'lgan daromadlar miqdori bilan aniqlanadi. Jahon amaliyotida esa bu ko'rsatkich mamlakat bo'yicha o'rtacha daromadlarning 40-60 foizidan kam bo'lganlarga nisbatan qo'llaniladi.


Aholining quyidagi o'rtta turmush darajasini ajratib ko'rsatish mumkin:
 – to'q turmush darajasi – insonning har tomonlama kamol topishini ta'minlaydigan ne'matlardan foydalanish;

– normal turmush daraja – insonning jismoniy va aqliy kuch-quvvatini to'la tiklash uchun qulay sharoitlarni ta'minlaydigan me'yorlar bo'yicha oqilona iste'mol qilish;

– kambag'allik – mehnat uchun resurslarni qayta yaratishning quyi chegarasi sifatidagi ish qobiliyatini saqlash darajasida ne'matlarni iste'mol qilish;

– qashshoqlik – iste'mol qilinishi insonning yashash qobiliyatini saqlash imkoniyatinigina beradigan ne'matlar va xizmatlarning biologik mezonlar bo'yicha yo'l qo'yiladigan minimal turlarini iste'mol qilish.

Aholining turmush darajasi milliy boyliklarni o'z ichiga oluvchi iqtisodiy salohiyatga bog'liq. **Milliy boylik** – jamiyat tasarrufida bo'lgan moddiy zahiralalar, to'plangan mahsulotlar, iqtisodiy oborotga kirgan yoki jalb etilgan tabiiy zahiralarning yig'indisini aks ettiradi (8.2-rasm).



8.2-rasm. Milliy boylik tarkibi

Aytish joyizki, ishlab chiqarilayotgan mahsulot hisobiga milliy boylik muntazam oshib boradi. Milliy boylik ko'rsatkichlari ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy shartlari, shuningdek, umuman jamiyat hayotini tavsiflaydi, ijtimoiy mahsulot hajmi esa ma'lum davr uchun ishlab chiqarish unumdorligi hamda boyliklarning iste'mol qilingan elementlarining o'rmini to'ldirish va ko'paytirish manbai bo'lib xizmat qiladi. To'plangan boyliklar va ijtimoiy mahsulot hajmi mamlakatning iqtisodiy salohiyatini, aholining iste'moli, daromadlari, turmush darajasini oshirishning iqtisodiy imkoniyatlarini aks ettiradi.

8.3. Aholi daromadlari va ularning shakllanish manbalari

Har bir insonning moddiy va ma'naviy turmush farovonligi uning daromadlariga bog'liq bo'ladi. Inson daromadi qanchalik yuqori bo'lsa, uning o'z zaruriy ehtiyojlarini qondirish, salomatligini saqlash, dam olishni tashkil etish, ma'lumot olish, bo'sh vaqtini madaniy tarzda o'tkazish imkoniyatlari shunchalik ko'p bo'ladi.

Daromadlar ehtiyojlarni bevosita qondirish manbai sifatida aholi hayotida katta rol o'ynaydi. Budgetning daromad qismi asosan jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliqlardan tashkil topadi va ular ijtimoiy ehtiyojlar uchun sarflanadi, shu tariqa aholi ehtiyojlari bilvosita qondiriladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda "daromad" tushunchasi ishlab chiqarilgan mahsulot narxining mahsulotni ishlab chiqarish sarf-harajatlaridan oshishi, shuningdek, har bir sinf, ijtimoiy guruh yoki alohida shaxsning yangi yaratilgan qiymatda mavjud bo'lgan va uning tomonidan o'zlashtirilgan ulushi deb tushuniladi¹⁶.

Aholi daromadlarini batafsil tahlil qilish uchun ularning mavjud turlarini to'liqroq baholash maqsadida ma'lum belgilar bo'yicha ularni tasniflash lozim (8.3- jadval).

8.5- jadval

Aholi daromadlari tasnifi

<i>Belgilar</i>	<i>Daromad turlari</i>
1. <i>Ifodalanish shakliga ko'ra</i>	<i>Pullik; natural</i>
2. <i>Olinish xususiyati</i>	<i>Mehnat daromadlari; mehnatga oid bo'lmagan daromadlar</i>
3. <i>Olinishining qonuniyligi</i>	<i>Qonuniy daromadlar; noqonuniy daromadlar</i>
4. <i>Haqiqiylik darajasi</i>	<i>Nominal daromad; real daromad</i>
5. <i>Mulkchilik shakli</i>	<i>Ish haqi, renta, foiz va foyda</i>
6. <i>Tushumning doimiyligi</i>	<i>Doimiy; tasodifiy</i>
7. <i>O'zlashtirish sub'ektlari</i>	<i>Jismoniy shaxslar; uy xo'jaliklari</i>
8. <i>Foydalanish varianti</i>	<i>Turli boyluk va xizmatlar iste'moliga sarflanadigan daromad; jamg'arishga sarflanadigan daromad</i>
9. <i>Soliqqa tortish ta'siriga bog'liq ravishda</i>	<i>Umumiy daromadlar; egalik qilinayotgan daromadlar</i>


Daromadlar harakati bozor iqtisodiyotining ishlab turishini ta'minlaydi. Daromadlar aylanish jarayonida izchil ravishda quyidagi bir necha bosqich: yuzaga kelish, taqsimlanish va qayta taqsimlanish, pirovard iste'molga ishlatilish, jamg'arilish bosqichlaridan o'tadi. Daromadlarning yuzaga kelishi ularning

¹⁶ Политика доходов и качество жизни населения / Под ред. Н.А.Горелова. - СПб.: Питер, 2003. - С. 47.

tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish jarayonidagi harakatining boshlang'ich bosqichi bo'ladi. Bu bosqichda daromadlar birlamchi daromadlar sifatida shakllanadi.

Taqsimlanish jarayonida tadbirkorlar birlamchi daromadlardan mahsulot ishlab chiqarish va sotish yuzasidan soliqlar to'laydi, mehnat haqi va ishlab chiqarishning boshqa omillari yuzasidan haq to'laydi. Natijada dastlabki daromadlar ish haqi, foiz, renta, korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasiga aylanadi. Daromadlarning qayta taqsimlanishi jarayoni keyingi bosqich hisoblanib, soliqlar to'lash, ijtimoiy jamg'armalarga mablag'lar o'tkazish, korxonalar va aholiga turli transfertlar tarzida daromadlar bir qismini yo'llashni o'z ichiga oladi.

Yaratilgan daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash natijalari bo'yicha o'z tasarrufidagi daromadlar shakllanadi. Daromadlarning pirovard iste'moli va yalpi jamg'arilishi ular aylanishining tugallovchi bosqichi bo'ladi. Daromadlar darajasini tahlil etish, o'lchash va taxmin qilish uchun daromadlarning har xil turlari va ko'rsatkichlaridan foydalaniladi (8.3-rasm).



8.3-rasm. Aholi daromadlarining tarkibi

Daromadlar pul va natural shaklida bo'lishi mumkin. **Aholining pul daromadlari** xodimlar uchun ish haqi hisobidagi barcha pul mablag'lari tushumi: pensiyalar, stipendiyalar, turli nafaqalar; mulkdan foiz, dividendlar, renta ko'rinishidagi daromadlar; aksiyalar, qimmatbaho qog'ozlar, ko'chmas mulk, chorva mollari, tomorqa mahsulotlari, turli buyumlar va boshqa tovarlarni sotishdan tushadigan pul tushumlari, turli xizmatlar ko'rsatish uchun haqlar va hokazolardan tashkil topadi.

Aholining natural daromadlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarining barcha tushumlari: dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik mahsulotlari, bog'dorchilik, sabzavot-poliz ekinlari, shaxsiy tomorqa, tabiat in'omlaridan shaxsiy, oilaviy ehtiyojlar uchun tayyorlanadigan mahsulotlar kabi tushumlardan iborat.

Pul va natural daromadlarning nisbati tez-tez o'zgarib turadi, ammo daromadlarning pul shakli ko'proq tarqalgan. Odatda, aholining kambag'al qatlamlarida natural daromadlar hissasi yuqori bo'ladi. Iqtisodiy vaziyat yomonlashgan davrda natural daromadlar salmog'i oshib ketadi, jamoa xo'jaliklari dehqonlarida natural daromadlar ulushi sanoat ishchilaridagiga nisbatan yuqori bo'ladi, buni budjet tadqiqotlari ham tasdiqlaydi.

Mulkdan keladigan daromadlar xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga moliyaviy va nomoliyaviy resurslarni foydalanishga berib qo'yishdan olinadigan daromadlardir. Foizlar – qo'yilmalar va qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar olish shaklidir. Dividend esa mulkdan olinadigan daromadning shunday shakli, aksiyadorlar mablag'larni korporatsiyalar tasarrufiga topshirganliklari natijasida (aksiyalar sotib olish orqali) uni olishga haqli bo'ladilar.

Aholi daromadlari nominal va real ko'rinishda ham bo'ladi. **Nominal daromadlar** – ishlovchining muayyan turdagi ish (xizmat)larni bajargandan so'ng uning mehnatining natijasiga qarab beriladigan pul ko'rinishidagi daromadlari, **real daromadlar** esa aholining pul daromadlaridan turli to'lovlar (soliqlar, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar) ajratib tashlangandan so'nggi qolgan pul daromadini iste'mol narxlar indeksiga bo'lish orqali aniqlanadigan pullik daromadlardir.

Nominal va real daromadlar ko'rsatkichi bilan bir qatorda aholi pullik daromadlarining xarid qobiliyati ko'rsatkichi ham alohida olib qaraladi. Bu ko'rsatkich aholining tovarlar va xizmatlar sotib olish bo'yicha potensial imkoniyatlarini aks ettiradi va aholining o'rta hisobda jon boshiga to'g'ri keladigan pullik daromadlarining tovar ekvivalenti orqali ifodalanadi.


Shaxsiy tomorqa xo'jaliklaridan olinadigan daromadlar daromadni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, ularning hajmi Milliy hisoblar tizimida umumqabul qilingan quyidagi tamoyil bo'yicha, ya'ni mahsulotni ishlab chiqarilgan qiymatidan uni ishlab chiqarishga ishlatilgan mahsulot va xizmatlar qiymatini ayirish orqali hisoblab chiqiladi.

Uy-joy va kommunal xo'jalik, yo'lovchi transporti, yo'l xo'jaligi, sog'liqni saqlash va madaniyat muassasalari tarmoqlarining katta qismi davlat, mahalliy va shahar budjetlariga hamda tegishli mahalliy ma'murlarning ish sifatiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli mazkur qismning kattagina hajmi tabiiy shakldagi ijtimoiy transfert hisoblanadi va uni aholining yalpi daromadlari jumlasiga kiritish to'g'ri bo'ladi.

8.4. Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solish shakllari va usullari

Aholi daromadlarini tartibga solish asosan odamlar turmush darajasidagi tabaqalanishni bartaraf etish uchun amalga oshiradi. Tartibga solish mexanizmidagi davlat mexanizmi muhim rol o'ynaydi. Bu qoidani asoslab beruvchi ob'yektiv sabablar orasida bozor mexanizmining iqtisodiyotni ijtimoiy optimum holatiga olib

borishga qodir emasligini, ko'p sonli odamlarning qashshoqlik chegaralarida yashashini, ishsizlarning ulkan armiyasi mavjudligini, aholi daromadlarining past darajalariga ega hududlarning soni kattaligini, iqtisodiyotning jiddiy ravishda jinoylashganini, aholi daromadlarining keskin tabaqalanishini aytilish mumkin. Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmining muhim tarkibiy elementi – bu uning shakllari va usullari bo'lib, ular daromadlarga ta'sir ko'rsatish jarayonini ta'minlaydi. Tadqiqot davomida biz tomondan aholi daromadlarining davlat tomonidan tartibga solishning budget, soliq, pul-kredit va institutsional shakllari, shuningdek, uning asosiy usullari va instrumentlari ajratildi (8.4-rasm).



8.4-rasm. Aholi daromadlarining davlat tomonidan tartibga solish shakllari va usullari

Budjet boshqaruvi budjetning harajat qismi hisobiga ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat) rivojlantirishning ijtimoiy dasturlari mablag' bilan ta'minlanadi va ijtimoiy transfertlar to'lovlari vositasida amalga oshiriladi. Budjet boshqaruvining muhim instrumyenti xizmatlarning ayrim turlari bepul yoki past narxli bo'lib qolganida (bepul ta'lim, sog'liqni saqlash xizmatlari, kommunal xizmatlarning qisman to'lovi) narxlarni subsidiyalash hisoblanadi.

Davlat budjeti vositasida jamiyatning kam ta'minlangan qatlamlari farovonligining mo'tadil darajasini ta'minlash uchun aholi daromadlarini qayta taqsimlash amalga oshiriladi. Budjet boshqaruvi doiralarida mehnatga haq to'lashning, pensiya miqdori, yordamlarning eng kam me'yorlarini o'rnatishga katta e'tibor qaratiladi.

Daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning institusional shakli aholi daromadlariga ta'sir ko'rsatishning me'yoriy-huquqiy asoslarini belgilovchi formal institutlar majmuini va bu me'yorlarning amalda qo'llanilishini amalga oshiruvchi tashkilotlar tizimini qamrab oladi.

Tartibga solish usullari davlatning ijtimoiy sohadagi maqsadlarini amalga oshirishda ma'lum rol o'ynaydi. **Davlatning tartibga solish usuli** deganda biz aholi daromadlariga ta'sir ko'rsatishning ma'lum usullarini, yo'llarini ko'zda tutamiz. Usul shu holicha ma'lum umumlashmadir, iqtisodiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatish esa instrumentlar yordamida amalga oshiriladi. Davlat o'z boshqaruv faoliyatida tartibga solish usullari majmuidan foydalanadi.

Aholi daromadlarining davlat tomonidan tartibga solish mexanizmining boshqa ahamiyatli elementi ham mavjud, ular – instrumentlardir. Aholi daromadlarining davlat tomonidan tartibga solish "instrumentlari" so'zi ostida biz mablag'lar, qurollar (ijtimoiy transfertlar, narxlar, tariflar, soliqlar) majmuini tushunamiz, ular davlat tomonidan daromadlarning jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida bir tekis taqsimlanishini ta'minlash va odamlar daromadlari darajasidagi asoslanmagan tabaqalanishni bartaraf qilish uchun qo'llaniladi. Tartibga solish instrumentlari asosiy usullar doiralarida ajratib olingan va ularning tarkibiy qismi sifatida baholanadi.

Davlat tomonidan aholi daromadlariga ta'sir qiluvchi instrumentlarning kompleks ravishda qo'llanilishini mehnatga eng kam haq to'lash, soliqlar, daromadlar va transfert to'lovlari indeksatsiyasini tartibga solish asosida kuzatish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqini tartibga solishda davlat yondoshuvlari o'zgarib boradi. Umumiy davlat ta'siri o'rniga boshqarishning bilvosita usullari qo'llaniladi, ya'ni budjet sohasida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori va tarif me'yorlari o'rnatiladi.

Daromadlarning quyi chegaralari davlat tomonidan qonunlarga asosan o'rnatilgan ish haqi asosida belgilanadi, uning miqdori har bir alohida mamlakatda turlicha qiymatlarga ega va xodimning yashash vositalari qiymatiga, davlatning iqtisodiy imkoniyatlariga, milliy o'ziga xoslikka, iqlimiy sharoitlarga bog'liq

bo'ladi. Eng kam ish haqini belgilash vazifasi xodimlarga ishchi kuchini takror ishlab chiqarishni ta'minlashi mumkin bo'lgan daromadlarni kafolatlashdan iborat. Hozir u tirikchilik minimumi asosida belgilanadi. Tirikchilik minimumi xodimni takror ishlab chiqarishning eng kam sharoitlarini ta'minlaydigan oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlar qiymatlarining puldagi ifodasidir. Biroq hozirgi paytda tirikchilik minimumi jismoniy minimumdan iborat va faqat xodimning jismoniy ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan, ya'ni tirikchilik minimumi asosida hisoblab chiqilgan eng kam ish haqi ishchi kuchi qiymatining hatto quyi chegaralariga qadar ham yetib bormaydi va uning mo'tadil qayta tiklanishini ta'minlashga qodir emas.

Davlat daromadlar va ish haqini tartibga solish instrumenti sifatidagi eng kam ish haqi yordamida shu chegarani belgilaydiki, undan pastiga aholi daromadlari pasaya olmaydi. Uning darajasi mamlakat YAIM miqdoriga, tirikchilik minimumiga kiruvchi iste'mol tovarlari va xizmatlari to'plami qiymatiga bog'liq bo'ladi.

Nodavlat sektorda xodimlar mehnatiga haq to'lashni tartibga solish ijtimoiy sherikchilik doiralaridagi jamoa shartnomalari kabi instrument yordamida amalga oshiriladi. Ijtimoiy sherikchilikning mehnatga haq to'lashni boshqarish jarayonidagi rolini oshirish uchun mamlakat, tarmoq, mintaqaviy bitimlar bilan kelishilgan me'yorlar tizimidan foydalanish, shuningdek, barcha shakllardagi mulkchilik korxonalarini tomonidan ularning majburiy ijro etilishini kafolatlash zarur.

Soliqqa tortish aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solishning quyidagi usulidan iboratki, unda soliqdan daromadlarga davlat ta'sirining instrumenti sifatida foydalaniladi. Hozirgi paytda daromad solig'i aholi daromadlarini tartibga solishning eng muhim instrumentidir. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i – davlat budjeti daromadining asosiy manbalaridan biri bo'lib, uning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardagi ulushi xilma-xil va Buyuk Britaniyada barcha soliq tushumlarining – 31, AQSHda – 45, Germaniyada – 19,9, Rossiyada – 13 foizini tashkil qiladi.

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimidagi o'zgarishlar aholining iqtisodiy xulqida aks etmaydi, chunki real daromadlarning dinamikasi va miqdori soliq me'yorlari bilan emas, eng avvalo nominal daromad narxlarining o'sishi va iste'mol bozori turli segmentlarida tanqislikning o'sish darajasi bilan belgilanadi.

Aholi daromadlarini tartibga solishning soliq instrumentlari ijtimoiy adolat tamoyilini amalga oshirib, daromadlarni eng yuqori ta'minlanganlardan eng kam ta'minlangan guruhlariga qayta taqsimlash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bunda davlatning qayta taqsimlovchi vazifasi namoyon bo'ladi. Bu barcha choralar soliq siyosati vositasida adolatni ta'minlashga ko'maklashadi va davlat budjeti hamda aholi daromadlarining o'sishiga olib keladi.

Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solish uchun foydalaniladigan instrumentlar tizimida narxlar o'sishi va raqobat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan daromadlar indeksatsiyasi muhim rol o'ynaydi.

Aholi daromadlari indeksatsiyasi deganda, olingan mehnat va boshqa daromadlarning xarid qobiliyatini saqlash va tiklashga qaratilgan davlat mexanizmi tushuniladi. Daromadlar indeksatsiyasi jamiyatning kam ta'minlangan qatlamlari (pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali oilalar) uchun ayniqsa muhim va bu aholi guruhlari bo'yicha tabaqalashtirilgan bo'ladi.

Aholi daromadlarini tartibga solish instrumenti sifatida ijtimoiy transfertlar ham qo'llaniladi. Uning vositasida davlat tartibga solishning ijtimoiy vazifasini amalga oshiradi. Jahon amaliyotida ijtimoiy transfertlarning roli, garchi ularning boshqaruv instrumenti sifatidagi rolini pasaytirishga intilish borgan sari aniqroq ko'rinayotgan bo'lsada, u mutaxassislar tomonidan turlicha baholanadi. Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solish instrumenti sifatida ijtimoiy transfertlar jamiyatning kam ta'minlangan qatlamlariga, ularning turmush darajasini oshirish uchun qo'shimcha moliyaviy imkoniyatlar yaratib, ijtimoiy muhim boylıklarga yo'l ochib beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy transfertlarning aholi daromadlariga ta'siri ularni taqsimlashning aqlga nomuvofiq tartibi sababli kam samarali bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, aholi daromadlarini tartibga solishning bu instrumenti, butun iqtisodiyot singari o'tish holatida va isloh qilishga muhtoj.

Aholi daromadlarining davlat tomonidan tartibga solish shakllari, usullari va instrumentlarini tahlil qilish tartibga solish mexanizmining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash uchun quyidagilar zarurligini ko'rsatadi:

- mehnatga eng kam haq to'lashdan tabaqalashgan, tirikchilik minimumi o'lchamidagi hududiy tafovutlarni mehnatga eng kam haq to'lash bazasi sifatida hisobga oluvchi haq to'lashga asta-sekin o'tishni amalga oshirish;
- mehnatga minimal haq to'lash o'lchamini pul bilan belgilangan ifodasida emas, balki tegishli hududlarning tirikchilik minimumi qiymatidan foizlarda belgilash;
- iqtisodiy faol aholining mehnat faoliyatini ularning pul daromadlariga adolatli soliqqa tortish yo'li bilan rag'batlantirish;
- o'rtacha va past daromadli odamlarga soliq yukini kamaytirib, uni yuqori ta'minlangan fuqarolar daromadlari va mulklariga nisbatan oshirish;
- aholining kam ta'minlangan guruhlari daromadlarini, ularni indeksatsiyalash vositasida oshirish;
- inson kapitaliga investitsiyalarni ta'minlab, sust ijtimoiy transfertlardan faol transfertlarga o'tish.

Shunday qilib, aholi daromadlarining davlat tomonidan tartibga solish shakllari, usullari va instrumentlari, uning tarkibiy qismi bo'lib, davlat organlarining bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida aholi daromadlarini ta'minlash maqsadida unga ta'sir ko'rsatish jarayonini ta'minlaydi. Davlat daromadlarga ta'sir qilish shakllari va usullarini tanlashda birinchilikni iqtisodiy usullarga beradi, lekin bozor sub'yektlarining taqsimlash jarayonidagi manfaatlarini hisobga olishni mo'ljallovchi muvofiqlashtirish usullarining roli ham o'sib boradi.

Qisqacha xulosalar

Turmush darajasi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik hamda ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi. Turmush darajasi ko'plab omillar yig'indisi ta'sirida bo'lgan o'zgaruvchan jarayon bo'lib, bir tomondan, turmush darajasi muntazam o'zgarib turadigan turli ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarning tarkibi va darajasi bilan, ikkinchi tomondan, u ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, xodimlarning ish haqi bilan belgilanadi.

Har bir insonning moddiy va ma'naviy turmush farovonligi uning daromadlari darajasiga bog'liq bo'ladi. Daromadlar pul va natural shaklida bo'lishi mumkin. Aholining pul daromadlari xodimlar uchun ish haqi hisobidagi barcha pul mablag'lari tushumi: pensiyalar, stipendiyalar, turli nafaqalar; mulkdan foiz, dividendlar, renta, aksiyalar, qimmatbaho qog'ozlar, ko'chmas mulk, chorva hayvonlari, tomarqa xo'jaligi mahsulotlari, turli buyumlar va boshqa tovarlarni sotishdan tushadigan pul tushumlari, turli xizmatlar ko'rsatish uchun haqlar va hokazolardan tashkil topadi. Aholining natural daromadlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarining barcha tushumlaridan iborat.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "Turmush darajasi" tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering.
2. Aholi turmush darajasining qanday ko'rsatkich va indikatorlari mavjud?
3. Turmush sifati kategoriyasining mohiyatini tushuntirib bering.
4. Minimal iste'mol budjeti deganda nimani tushunasiz?
5. Aholi daromadlarining qanday turlarini bilasiz?
6. Natural daromadlarga misollar keltiring.
7. Aholi daromadlari indeksatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
8. Ijtimoiy transfertlarning qanday turlarini bilasiz?
9. Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solishning qanday shakllarini bilasiz?

Adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. // Халқ сўзи, 2010 йил 30 январь.
2. Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш бўйича меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Адолат, 2008.
3. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. Дарслик. – Т.: МЕННАТ, 2009.
4. Зокирова Н.Қ., Абдурахмонов О.Қ. Инқироз: оқибатлар, баргараф этиш, меҳнат муаммолари ва янги марраларга чиқиш. – Т.: "Fan va texnologiya", 2009.
5. Лига М.Б. Качество жизни как основа социальной безопасности. – М.: Гардарики, 2006.

6. Политика доходов и качество жизни населения / Под ред. Н.А.Горелова. – Спб.: Питер, 2003.
7. Политика доходов и заработной платы: учебник /И.М. Алиев, Н.А. Горелов. – Ростов н/Д: Феникс, 2008.
8. Римашевская Н.М. Социальная защита населения. – М.: РИЦ ИСЭП РАН, 2005.
9. Стоимость жизни и ее измерение / Под ред. В.М.Рутгайзера., П.Шпилько. – М.: Финансы и статистика, 2000
10. Усмонова М.А., Муродова Г. Ижтимоий химоя нима? – Т.: ТДЮИ, 2009.
11. Ғойибназаров Б.К. Аҳоли турмуш даражасини статистик баҳолаш. – Т.: Фан, 2005.

IX BOB. IJTIMOYIY SUG'URTANING MAZMUNI VA MOHIYATI

9.1. Ijtimoiy sug'urta: tushunchasi, mohiyati va shakllari

Ijtimoiy sug'urta aholini mehnatga layoqatlilik va daromadlarni yo'qotish bilan bog'liq turli xatarlardan ijtimoiy muhofaza qilish shaklidir. Ijtimoiy sug'urtaga xos xususiyat uning davlat ko'magida ish beruvchilar va xodimlarning maqsadli badallari, maxsus budjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan moliyalanishi hisoblanadi.

Aytish mumkinki, ijtimoiy sug'urta aholini ijtimoiy muhofaza qilishning zamonaviy tizimi hisoblanib, unga davlat ijtimoiy sug'urtalarining yaxlitligi, ijtimoiy yordamning turli shakllari kiradi.

Ijtimoiy sug'urta ikkita asosiy vazifani hal qilishga, birinchidan, xodimlarning mehnatga layoqatligini tiklash va saqlash, shu jumladan, mehnatni muhofaza qilish va uning xavfsiz shart-sharoitlarini ta'minlash bo'yicha profilaktika va rehabilitatsiya choralarini amalga oshirishga, ikkinchidan, mehnatga layoqatligini yo'qotgan xatarga unga ega bo'lmagan shaxslarning moddiy ta'minlanganligini kafolatlovchi chora-tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy sug'urta tizimi bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoyaning asosiy institutlaridan biridir. Shu munosabat bilan xodimlarni ijtimoiy sug'urta qilish bo'yicha harajatlarni ishchi kuchini tiklash va ularni mahsulot tannarxiga kiritish uchun huquqiy tan olinishi (ya'ni, harajatlarning ushbu turining soliq xarakterini tan olish) muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday sug'urta turining mohiyati ijtimoiy xatarning muayyan shakliga ta'sir ko'rsatuvchi, imkon qadar ko'p sonli sub'yektlar (yuridik va jismoniy shaxslar) orasida uning salbiy oqibatlarini taqsimlash yordamida moddiy yo'qotishlar xatarini kamaytirish va o'rinini qoplashdan iborat. Shu maqsadda mazkur shaxslar moddiy yo'qotishlarga olib keluvchi sug'urta holatlari sodir bo'lganda maqsadli foydalanish uchun pul (moddiy) resurslarini shakllantiradi (ijtimoiy sug'urtaning moliyaviy mexanizmi 9.1-rasmda keltirilgan).


Ijtimoiy sug'urta shakllari sug'urtaning himoyalash ob'yektlariga ishlaydigan aholining ish haqi (daromadlari) yo'qotilishi va davolanish bilan bog'liq qo'shimcha harajatlarning yuzaga kelishi xatariga kiradi. Yollanma mehnat bilan shug'ullanadigan shaxslarning kelib chiqishi, moddiy ta'minlanmaganligining vujudga kelish sabablari o'xshash bo'lgan ijtimoiy munosabat turlari, sub'yektiv tarkibi va doirasi "ijtimoiy xatar" deb ataladigan universal ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy kategoriyaga birlashadi. Ijtimoiy xatar holati quyidagilar oqibatida yuzaga keladi:

- mehnatga layoqatning yo'qolishi (kasallik, baxtsiz hodisa, farzand tug'ilishi va uni parvarishlash, keksalik oqibatida);
- mehnatga talabning yo'qligi (ishsizlik).

Shu tarzda, ijtimoiy xatar deyilganda, ob'yektiv, ijtimoiy ahamiyatli

sabablarga ko'ra ish haqini yoki mehnat daromadining yo'qotilishi, shuningdek davolanish va ijtimoiy xizmatlarga qo'shimcha harajatlar qilish zarurati paydo bo'lishi tushuniladi.

Kasallik, nogironlik, ishsizlik tufayli ta'minlanmaganlik, ishlab chiqarish jarayonida qatnasha olmaslik va natijada ish haqidan mahrum bo'lish hollari individ uchun tasodifiy bo'lib tuyulsa-da, umuman iqtisodiyot uchun doimiy va ommaviy holatdir.



9.1-rasm. Ijtimoiy sug'urtaning moliyaviy mexanizmi

Ushbu holatlar tufayli ijtimoiy xatarli vaziyatlarning vujudga kelish ehtimoli (bemorlar, nogironlar, halok bo'lganlar, pensionerlar) miqdor jihatidan va ularning qiymat ko'rsatkichlari (kasallikning davomiyligi, nogironlik kelib chiqqan o'rtacha yosh, qonun bilan belgilangan pensiya yoshi) jihatidan ham baholanishi va taxmin qilinishi mumkin.

Ijtimoiy xatarli holatlar deganda, ijtimoiy tavsifi tufayli vujudga keladigan va ulardan yuqori darajada ishonchli individual himoyalaniş imkoniyati bo'lmagan holatlar tushuniladi. Chunki, ular ob'yektiv ijtimoiy-iqtisodiy tavsifga ega shart-sharoitlarning murakkab majmuasi bilan izohlanib, amalda deyarli alohida shaxs ixtiyoriga bog'liq bo'lmaydi. Odamlarning ularning jamiyat va davlatdagi faoliyati uchun o'zaro javobgarligiga oid ushbu nuqtai nazar u yoki bu turdagi ijtimoiy xatarlar yuzaga kelganida ularning normal, maqbul ijtimoiy holati mezonlarini belgilash zaruratini keltirib chiqaradi. Aksincha, xatarlardan biri tufayli vujudga kelgan normal holatdan jiddiy og'ish g'ayri-oddiy deb hisoblanadi, biroq u himoyalanişni, ijtimoiy kafolatlarni talab etadi. Shu munosabat bilan ijtimoiy xatarlar va ijtimoiy kafolatlar dioxotomik juftlik deb hisoblanadi, bunda

ijtimoiy xatarlar – manfiy, ijtimoiy kafolatlar esa – ijobiy kattalikdir.

Shu tarzda ijtimoiy xatarlar – odamlarning salomatligiga zarar yetganda, mehnatga layoqati yo'qolganda yoki mehnatga talab yo'q bo'lgan hollarda (ishsizlik) normal ijtimoiy holatining buzilishi omillari bo'lib, ular ish bilan band bo'lgan aholining ish haqi yo'qolishi, davolash bilan bog'liq qo'shimcha harajatlar bilan bog'liq bo'lgan moddiy ta'minlanmaganligi bilan birga kechadi. Oilalar uchun esa boquvchisi yo'qolgan hollarda daromad manbaidan mahrum bo'lishni anglatadi.

Ijtimoiy xatarlar ob'yektiv tavsifga ega bo'lgani bois ularni himoyalash mexanizmi ham shunday tavsifga ega bo'lishi kerak, ya'ni ulardan sug'urtalanish majburiy bo'lishi (qonunga ko'ra), barcha ishlovchilarni qamrab olishi, moliyaviy yuklama uchun esa asosiy ijtimoiy sub'yektlar – ish beruvchi va ishlovchilar birgalikda javobgar bo'lishi lozim.

Bunda ijtimoiy sheriklarning moliyaviy ishtiroki ulushi turlicha bo'lishi mumkin, ammo har bir taraf muayyan iqtisodiy, ijtimoiy shart-sharoitlar, madaniy va psixologik an'analarni hisobga olgan holda moliyaviy javobgarlikning mutanosib nisbatini topishga intiladi.

Ijtimoiy xatarlar har qanday jamiyatda uchraydi. Shunga qaramay, sotsialistik jamiyatda ular tan olinmas edi. Buning sababi shunda ediki, faoliyatning barcha sohalariga oid iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar oldindan topshirilgan va belgilangan. Markazlashtirilgan rejali xo'jalik yuritish usulida xatarlar ma'muriy-rejali boshqaruv usuliga zid kategoriya sifatida amal qilar edi. Shu sababli, sug'urta xatarlariga odatda tabiat bilan bog'liq voqealar kirar edi: tabiiy ofatlar, yong'inlar va h.k. Shu bilan birga, ijtimoiy xatarlar ham mohiyatiga ko'ra o'zgacha, umuman olganda, kichikroq bo'lar edi. Markazlashtirilgan rejali tizim ijtimoiy turmush faoliyati sharoitlarini standartlashtirar, ya'ni minimallashtirar edi. Ayni paytda barqarorligini saqlar edi. Sotsialistik davlat asosiy ish beruvchi va ishlab chiqarish vositalarining egasi bo'lgani holda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik kafolatlarini ta'minlar edi, ya'ni iqtisodiy va ijtimoiy xatarlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olar edi. Mulkchilik va xo'jalik yuritishning xususiy shakllari rivojlanishi barobarida davlat ijtimoiy ta'minot sohasi va uning imkoniyatlari muqarrar ravishda qisqarib boradi. Iqtisodiy va ijtimoiy sohada xatarlar darajasi o'sishini bizning shart-sharoitimizdagi tabiiy, qonuniy jarayon deb, iqtisodiy erkinlikning "teskari tarafi" deb ta'riflash mumkin.

Bunday sharoitda davlatning ijtimoiy himoya borasidagi roli va imkoniyatlari boshqacha xarakterga ega bo'ladi. Davlat xatti-harakati aholining kam himoyalangan qatlamlari – nogironlar, bolalar va qariyalarga yo'naltiriladi. Mehnat bilan band aholiga kelsak, ularni ijtimoiy himoyalash ularning o'zlariga va ish beruvchilarga bog'liq bo'lib qoladi. Bunga ishlovchilar va ish beruvchilarning moliyaviy resurslarini shakllantirishda ishtirok etishi, ushbu resurslarni tasarruf etish bo'yicha vazifalarni ishchilar va ish beruvchilarning vakolatli vakillariga o'tkazish, shuningdek, sug'urta to'lovlari miqdorining sug'urta badallari miqdori va to'lash davri (hajmi) ga bog'liqlini belgilash orqali erishiladi.

Bunday yondashuv bozor iqtisodiyoti rivojlangan ijtimoiy tizimga, ijtimoiy siyosat tabiatiga xos bo'lib, u quyidagi tamoyillar asosida shakllanadi:

– yollanma ishchilar, ularning ish beruvchilari, ish bilan band bo'lgan aholi boshqa toifalarining ijtimoiy himoyaning maqbul darajasini moliyaviy ta'minlash uchun javobgarligi;

– ish bilan band aholi va ish beruvchilarning kamroq darajada ijtimoiy himoyalangan ishchilar va ularning oilalarini birgalikda qo'llab-quvvatlashi (sog'lom odam kasal odam uchun haq to'laydi, yuqori daromadli xodimlar kam daromadli xodimlarga birgalikda yordam ko'rsatadi);

– optimal qo'llab-quvvatlash, ya'ni u solidar qo'llab-quvvatlash darajasini belgilaydi va uning miqdorini qat'iy lashtirib qo'yadi.

Bu borada yuz yildan ortiq jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xatarning aniq turlarini himoyalash ijtimoiy sug'urtaning alohida yo'nalishlari (sektorlari) doirasida samarali tashkil etilishi mumkin:

– pensiyaga oid (keksalikka ko'ra, nogironlik, boquvchisini yo'qotish);

– tibbiy (tibbiy yordam haqini to'lash), shu jumladan, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik;

– ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa (ishlab chiqarishda jarohatlanish), kasb kasalliklari, ishlab chiqarishda halok bo'lganlar qaramog'idagilarga pensiyalar;

– ishsizlik holati (ishsizlik bo'yicha nafaqa, qayta o'qitish va ishga joylashtirish).

Ijtimoiy sug'urtaning bu tarzda taqsimlanishining maqsadga muvofiqligi ijtimoiy xatarlarning himoyalaniishi lozim bo'lgan turli tabiatiga, sug'urtalanuvchilarning qondiriladigan ehtiyojlariga, shu bilan birga, sug'urta qilish turlarining huquqiy tartibga solinishiga bog'liq.

Yuqoridagilardan quyidagicha xulosa chiqadi: **ijtimoiy sug'urta predmeti** deganda sub'yektlarning ish bilan band bo'lgan aholini ijtimoiy xatarlardan himoyalashga mo'ljallangan moliyaviy mablag'larni shakllantirish va tassarruf etish, shuningdek, tibbiy va rehabilitatsiya yordamini tashkil etish bo'yicha iqtisodiy va huquqiy munosabatlar tushuniladi.

Ijtimoiy xatar mazmuni (tabiati) va uning yuzaga kelish ehtimoli darajasi uni kamaytirish (minimallashtirish) bo'yicha profilaktika chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqish, kompensatsiya tadbirlari turlari va ko'lamini baholash (tibbiy xizmatlar, yo'qotilgan ish haqi o'rnini qoplovchi kompensatsiya to'lovlari) imkonini beradi.

Ijtimoiy xatarini quyidagi ko'rsatkichlar yordamida o'lchash mumkin:

– xatar holatlarining kelib chiqishi davriyligi;

– xatar holati yuzaga kelganda ijtimoiy kafolatlar darajasi;

– sug'urta tashkilotlari uchun kompensatsiya to'lovlari moddiy harajatlarining hajmi, shuningdek, barcha sug'urtalanuvchilar ish haqi kattaligiga nisbati bo'yicha ulushi;

– xatar holatining o'rta davomiyligi, ya'ni uning kelib chiqishi bilan faoliyatning normal sharoitiga o'tishgacha bo'lgan davr.

Ijtimoiy xatar alohida ijtimoiy guruhlar va xodimlar uchun xavfliligi darajasiga ko'ra tasniflanishi mumkin. Agarda xavf darajasi past bo'lsa – tashkiliy-huquqiy shakli ixtiyoriy tavsifga ega bo'ladi. Agarda yuqori bo'lsa, odatda majburiy (qonuniy) tavsifga ega bo'ladi. Ixtiyoriy va majburiy sug'urtalash orasida bir necha o'tish shakllari mavjud bo'lib, odatda ular fakultativ-majburiy yoki shartli-majburiy deb ataladi.

Xatar tabiatini aniqlashda mehnatga layoqatlilik yo'qolishi darajasini, miqdor va sifat tavsiflarini baholash, ya'ni salomatlikka yetkazilgan zarar turlari va ehtimolini, oqibatlarini jiddiyligini aniqlash muhimdir. Jumladan, agarda ishlab chiqarish muhitining zararli omili kasb kasalliklarini keltirib chiqarsa, turli yoshdagi va jinsdagi kishilarning kasallanish ehtimolini, ish staji davomiyligini, kasallik muddati va uning og'irligiga oid ob'yektiv ko'rsatkichlarni aniqlash kerak. Agarda xavfli omil odamlarning halok bo'lishiga olib kelsa, halok bo'lganlarning miqdorini vaqt va aholi toifalari bo'yicha taqsimlanishini bilish, vafot etganlarning miqdoriga nisbatan ularning qaramog'idagi kishilarning standartlashtirilgan sonini (har ming kishiga) bilish kerak.

Xatarning aynan bir turi ta'sir ko'rsatayotgan ob'yektlar sonini uzoq vaqt oralig'ida kuzatish paytida tasodifiy voqealar (kasallanish, nogironlik va h.k.) qonuniyatlarini aniqlanadi. Shu maqsadda ehtimollik nazariyasi, demografik statistika va uzoq muddatli moliyaviy taxminlash nazariyalari qo'llanilib, ular birgalikda aktuar hisob-kitoblar metodologiyasi yordamida birlashtiriladi.

Ijtimoiy xatar ko'rsatkichlarini ikki guruhga ajratish mumkin:

- ijtimoiy-salomatlikka zarar yetishi, mehnatga layoqatlikning yo'qotilishi (vaqtinchalik yoki doimiy), o'lim holatlari, vafot etganlarning qaramog'idagilar soni;
- iqtisodiy, ya'ni mehnatga layoqatlikning yo'qotilishi natijasida daromadlar yo'qolishini kompensatsiyalash harajatlari va davolanish, rehabilitatsiyaga qo'shimcha harajatlar miqdori.

Xatarning ijtimoiy ko'rsatkichlari odamlarning ijtimoiy himoyasizligini va ular uchun sug'urta holatlarining muqarrar kelib chiqishini baholash uchun xizmat qiladi. Iqtisodiy ko'rsatkichlar esa talab qilinadigan pul mablag'larini aniqlash va hisob-kitob qilish imkonini beradi.

Ijtimoiy sug'urtada himoyaning iqtisodiy va ijtimoiy elementlari tabiiy ravishda birikib ketgan bo'lib, ular sug'urtalangan shaxsga tegishli moliyaviy, tashkiliy va huquqiy mexanizmlar yordamida yo'qotilgan ish haqini yoki davolanish (reabilitatsiya yoki kasbiy qayta tayyorgarlikdan o'tish) bilan bog'liq kutilmagan harajatlarni qoplashga yo'naltirilgan bo'ladi. Majburiy ijtimoiy sug'urta institutining yo'nalishi sug'urtalanuvchilarning mavjud (erishilgan) turmush darajasini saqlashda ifodalanadi, ayni paytda sug'urtalanuvchi uchun ishchi kuchni qayta tiklash funksiyasini ko'zda tutadi.

“Daromadni ta'minlash to'g'risida”gi tavsifalarda ta'kidlanadiki: “Majburiy ijtimoiy sug'urta bilan qamrab olinadigan holatlar sohasi sug'urtalangan shaxsga mehnatga layoqatsizlik yoki ish haqi to'lanadigan ish topa olmaslik natijasida

mablag' ishlab topishga xalal beruvchi barcha holatlar yoki muayyan shaxs vafot etishi natijasida qaramog'idagi oila daromadsiz qolishi holatlarini qamrab olishi kerak". Mazkur hujjatga muvofiq asosiy tamoyil deb "mehnatga layoqatsizlik (shu jumladan, keksalik) sababli yo'qotilgan daromadni maqbul darajagacha tiklash" tushuniladi.

Sug'urtalanuvchilarning huquqlari, ularning himoyalaniish darajasi ish haqi miqdoriga asoslangan bo'lib, ayni paytda ularning sug'urta badallarini hisoblashga ham asos bo'lib xizmat qiladi. Sug'urta to'lovi miqdori boshqa sug'urtalanuvchilar bilan birga hamkorlik darajasini ifodalaydi va alohida sug'urtalanuvchining shaxsiy ulushini hisobga oladi (sug'urta badallarining alohida hisobini yuritish).

Ijtimoiy sug'urta tizimida to'lovlarning berilish shartlari (nafaqa, pensiyalar), ularning miqdori va muddati sug'urta badallari tizimi bilan o'zaro bog'liq, bu esa sug'urtalanuvchilarning sug'urta badallarini to'lashdan manfaatdorligi mexanizmini yaratadi va ayni paytda sug'urtalanuvchilarning individual ulushi hisobini yuritish muammosini hal qiladi.

Ijtimoiy sug'urta shu tarzda ijtimoiy himoyaning boshqa shakllaridan jiddiy ravishda farq qiladi (ijtimoiy himoya va shaxsiy sug'urta):

- sug'urtalanganlar ish haqi yo'qolishidan himoyalaniadi, ya'ni sug'urta badallari va kompensatsiya to'lovlari miqdori aynan ish haqiga bog'liq;
- sug'urta to'lovlari faqat sug'urtalanuvchilarga beriladi (bunda to'lovlar miqdori ular qaramog'idagilarni – oila a'zolarini hisobga oladi), ular o'zlarining shaxsiy sug'urta badallari va ish beruvchilar foydasiga to'langan badallari bilan ijtimoiy himoyaning ushbu turidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan, bunda boshqa shartlar ilgari surilmaydi.

Xatar ehtimoli va kattaligini baholash maqsadida kasbiy guruhlar va ish bilan band butun aholi uchun ish haqqini yo'qotishning "umumiy xavfi"ning hisobini yuritish vositalaridan foydalaniladi.

Alohida sug'urtalanuvchi uchun hodisa sodir bo'lishi ehtimoli mavjud bo'lsa, ikki tipik vaziyat kuzatiladi.

1. Hodisa noaniq tavsifga ega va alohida sug'urtalanuvchi uchun u sodir bo'lishi va sodir bo'lmasligi mumkin: ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, ishsizlikdan sug'urtalash, tibbiy sug'urtalash. Agar sug'urta holati vujudga kelsa, sug'urtalangan shaxs sug'urta to'lovi huquqiga ega bo'ladi va bunda alohida sug'urtalanuvchilarning umumiy summasi to'langan (ularga va ish beruvchi tomonidan uning uchun) sug'urta badallari summasidan jiddiy ravishda (bir necha baravar) ortiq bo'lishi mumkin. Agarda sug'urta hodisasi sug'urta davri mobaynida sodir bo'lmasa, sug'urtalanuvchilarning uning foydasiga to'langan sug'urta badallariga huquqlari yo'qoladi. Shu tarzda, o'z sug'urta huquqlarini amalga oshirmagan shaxslar (sug'urta hodisasi sodir bo'lmagani tufayli) bunday sug'urta hodisasiga uchragan kishilarga hamjihatlik yordami ko'rsatadi. Aynan shunda sug'urtalanuvchilar o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlash funksiyasi namoyon bo'ladi.

2. Sug'urtaning sodir bo'lishi muqarrar (pensiya sug'urtasi), ammo bu hol

faqat muayyan davrgacha yashagan kishilar, masalan qonun tomonidan belgilangan pensiya yoshiga yetgan kishilargagina taalluqli. Ular orasidan o'rtacha statistik davrdan uzoq yashovchilargina sug'urta to'lovlarining (pensiylarning) ko'proq hajmiga ega bo'ladilar.

Sug'urta to'lovlari va to'lovlarning ekvivalentligi birinchi holatda ham, ikkinchi holatda ham umuman sug'urta tashkiloti bo'yicha qo'llab-quvvatlanadi, ammo ayrim sug'urtalanuvchilar bo'yicha unga rioya qilinmaydi.

Ijtimoiy sug'urtaning asosiy vazifalari quyidagilar: qayta tiklash, hamjihatlikda qayta taqsimlash va ijtimoiy himoya. Aytib o'tilgan vazifalardan birinchisi ishchi ish haqidan mahrum bo'lgan holatlarda amalga oshiriladi.

Hamjihatlikda qayta taqsimlash vazifasining iqtisodiy mexanizmi moddiy zararni birdamlik asosida hal qilish (sug'urta hamjamiyati doirasida cheklangan) hisoblanadi. Bu esa sug'urta holatlariga uchramagan sug'urta sub'yektlariga bunga uchraganlarni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Bunda qayta taqsimlash "bo'ylamasiga" ham, "yonlamasiga" ham davom etishi mumkin.

"Yonlamasiga" qayta taqsimlash – daromadlariga ko'ra bitta guruhga kiruvchi yoki avval unga kirgan va bitta ijtimoiy tuzilma tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan xodimlar orasida qo'llaniladi. Masalan, xodimlardan pensionerlarga yoki xodimlardan kasalligi, homiladorligi yoki tug'ruq tufayli ishlamaydiganlarga o'tkaziladi. "Bo'ylamasiga" taqsimlash paytida daromadlarni qayta taqsimlash daromadlarni yuqori haq oluvchilardan kamroq haq oluvchilarga o'tkazilishini anglatadi. Masalan, ijtimoiy pensiya sug'urtasi mexanizmlarida kuzatiladi, bunda ilgari kam ish haqi oluvchi xodimlar yuqori ish haqi oluvchi xodimlarga nisbatan qiymati ularning ish haqiga nisbatan ko'p bo'lgan pensiya olishi mumkin. Bunda xodimlarning u guruhi ham, bu guruhi ham aynan bir xil foiz stavkasi bo'yicha sug'urta badallarini to'lagan. Sug'urta tibbiyoti tizimlarida daromadlarni vertikal taqsimlash shunga o'xshash tarzda amalga oshiriladi.

Daromadlarni vertikal qayta taqsimlash mexanizmlari yordamida moliyaviy resurslarni kasblar, hududlar, shahar va qishloq o'rtasida qayta taqsimlashga erishiladi. Bunda muammo qayta taqsimlash nisbatlariga bog'liq bo'lib, u sug'urtalanuvchilar va sug'urtalovchilarning bu kabi choralarning adolatli ekanligiga ishonchini so'ndirmasligi kerak.

Ijtimoiy himoya vazifasi qolgan ikkita vazifani: qayta taqsimlash va qayta tiklash uchun umumlashtiruvchi hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urtalashda ijtimoiy himoya sug'urtalanuvchilarning erishilgan turmush darajasini, davolanish yoki rehabilitatsiya (tibbiy, kasbiy yoki ijtimoiy rehabilitatsiya) tufayli yo'qotilgan ish haqini yoki kutilmagan qo'shimcha harajatlarni kompensatsiyalash mexanizmlari yordamida saqlab qolishda ifodalanadi.

Ijtimoiy sug'urta tizimida, uning tabiatidan kelib chiqqan holda iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning har bir sub'yekti o'z manfaatini ko'zlaydi:

– ishchilar (va ularning oila a'zolari) daromadlarni yo'qotish holatlari ro'y berganda (keksalik, kasallik, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki ihsizlik) solidar sug'urtalanishdan umid qilishlari mumkin;

- ish beruvchilar sug'urta badallarini to'lar ekan (ish haqining shakli va bi qismi sifatida) o'zlarini ishchi kuchi faoliyatidagi uzilishlardan himoyalaydi hamdi ijtimoiy dunyoning shakllanishi uchun javobgar deb biladi;
- davlat ijtimoiy ob'yektlar zimmasiga o'zaro sug'urtalash jamiyatlarin yaratish huquqini berar ekan (qonunlar orqali), o'z zimmasidan ijtimoiy himoy tashkilotchisi vaziflarini soqit qiladi va ijtimoiy dunyo uchun javobgarligin nazoratchi va hakam roli bilan cheklaydi.

Mohiyatiga ko'ra, sug'urta badallarining ish haqi bilan bog'liqligi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan masaladir, demak, ishchi kuchi qiymati alohida e'tiborni talab qiladi. Yollanma ishchilarning ko'pchiligi uchun ish haqi uni bevosita iste'mol qilishga mo'ljallangan, ya'ni ishchi va uning oilasining kundalik harajatlarini qoplashga yo'naltiriladi. Demak, yollanma ishchilar aksariyatining mehnatga layoqatlilikiga yo'qotilganda (keksalik, kasallik, baxtsiz hodisa) o'z jamg'armalari hisobidan moddiy ahvolini saqlashga qodir bo'lmaydi.

Bunday oqibatlar nafaqat ishchilarga, balki tadbirkorlarga, jamiyat va davlatga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ular ishlab chiqarish jarayonida uzilishlarni, kambag'allik va qashshoqlikni keltirib chiqaradi. Demak, ikki ijtimoiy hodisa o'rtasidagi ziddiyatni keltirib chiqaradi, ya'ni ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida ishchi kuchining uzluksiz ishlab turishi (bu o'z navbatida uning qayta tiklanishini ta'minlaydi) bilan bog'liq ob'yektiv zarurat bilan odamlarning turmush jarayonlari (keksayish, kasalliklar, baxtsiz hodisalar, o'lim) davomida ob'yektiv ravishda kelib chiqadigan ijtimoiy xatarlar o'rtasida ziddiyat paydo bo'ladi. Bu esa, moddiy ta'minlanmaganlik, davolanish va rehabilitatsiyaga muhtojlikda namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, shu narsa ayon bo'ladiki, ish haqi o'z holicha ishchi kuchining normal qayta tiklanishini ta'minlamaydi, demak u ishchi kuchi qiymatining yagona ifodasi bo'la olmaydi (bu ko'rsatkich ishchi va uning oilasining qayta tiklanishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalar qiymati bilan belgilanadi). Ishchi kuchi qiymatini to'liq ifodalash uchun ish haqidagi tashqari boshqa shakl kerak, sug'urta badallari esa aynan shu vazifani bajaradi (bu o'ziga xos zahira ish haqi).

Boshqacha aytganda, ijtimoiy sug'urtaning eng muhim vazifasi – bu qayta tiklash bo'lib, u ish haqining bir qismini qat'iy maqsadli foydalanish uchun sug'urta zahiralarga aylanishini ta'minlaydi. Makroiqtisodiy nuqtai nazaridan zahiralash manbai sifatida ish kuchi qiymatini tartibga solishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy nisbatlarining ob'yektiv asosi bo'lgan zaruriy mehnat va zaruriy mahsulot amal qiladi. Mikroiktisodiy jihatdan esa, ya'ni korxonalar darajasida – bu ishlab chiqarish harajatlarining (mahsulot tannarxining) bir qismini tashkil etadi. Ularning ijtimoiy normal darajasi ob'yektiv ravishda ikki tarkibiy qismdan: tan olinadigan ijtimoiy xatarlar darajasi (davriyligi va og'irligi) va qonunchilik yo'li bilan belgilangan ulami kompensatsiyalash choralaridan tashkil topgan. Kompensatsiya darajasi bo'yicha jamoat kelishuviga erishish (qonunchilik yoki shartnomaviy shaklda) davlat ijtimoiy siyosatining markaziy jihatlaridan biridir,

bu esa oqibat natijada sug'urta tariflari miqdorlarini belgilashda ifodalanadi. Bunday uslubiy yondashuv quyidagilarni aniqlash bilan bog'liq bo'lgan bir qator masalalarni hal qilish imkonini beradi:

– sug'urta holati kelib chiqqan paytda xodimlarning moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan va hajmi joriy ish haqi darajasiga taqqoslanadigan sug'urta zahiralarning talab qilinadigan kattaligi;

– umumiy ish beruvchi to'lashi lozim bo'lgan va miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadigan ishchi kuchining to'liq qiymati:

$$C_{pc} = IH + IS;$$

Bu yerda: Srs – ishchi kuchi qiymati;

IH – ish haqi;

IS – majburiy ijtimoiy sug'urta bo'yicha sug'urta badallari, ular o'z navbatida mehnatga layoqat yo'qotilganicha hisoblangan ish haqining bir qismi sifatida belgilanadi.

Shu sababli sug'urta to'lovlari ish haqining aylantirilgan shakli bo'lib (uning zahiralangan qismi), unga bo'lgan huquq faqat sug'urta holatlari sodir bo'lganda: qonunda belgilangan pensiya yoshiga yetish, boquvchining nogironligi yoki o'limiga olib kelgan baxtsiz hodisa hollarida amalga oshiriladi.

9.2. Ijtimoiy sug'urtaning milliy tizimlari

Ijtimoiy sug'urta nazariyasining asoschisi Klaver hisoblanadi. Uning "Umrbod sug'urtalashni yuritish bo'yicha prospekti" (1788 y.) nomli kitobi ijtimoiy sug'urta jamiyatlarini yaratishda asos bo'ldi. "Umrbod sug'urtalash – deydi u, individni boshqa individlar bilan bog'lab turuvchi va unga yashash imkonini beruvchi qimmatbaho tuyg'uga yordam beradi. Bu kabi sug'urta baxtsiz hodisalarga nisbatan xavfsizlikni anglatadi, ayni paytda u sanoatga ham, individual faollikka ham zarar yetkaza olmaydi"¹⁷. Klaver fikriga ko'ra, sug'urta odamlarni bir-birlariga yaqinlashtiradi.

Klaver o'z asarida umrbod sug'urtalash mexanizmlarining amal qilishi baxtsizliklarni keltirib chiqaruvchi inson mavjudligining beqarorligini bartaraf etish orqali kambag'allik muammosiga mutlaqo boshqacha munosabatda bo'lishga xizmat qiluvchi ijtimoiy sug'urtaning ijtimoiy-iqtisodiy tabiatini va uning boshqa himoyalash institutlaridan farqini aniq belgilab bergan. U shunday deb ta'kidlaydi: "mazkur ijtimoiy darajaga erishish qashshoqlik darajasining muqarrar qisqarishiga olib keladi. Shu sababli u qashshoqlikni sivilizatsiyaning eng achinarli oqibati deb biluvchilarni qiziqтира olishi kerak. Aynan umrbod sug'urtalash ta'limoti yetarli resurslarni ishga solish imkonini beradi va ushbu ofat ko'lamini kamaytirishga yordam berib, kelgusida avj olib ketishiga yo'l qo'ymaydi"¹⁸.

Ammo, bunday yondashuvlar faqat 100 yildan so'ng qiziqish uyg'otdi va

¹⁷ Павлюченко В.Г. Социальное страхование. – М.: Дашков и К, 2007. – С.38.

¹⁸ Павлюченко В.Г. Социальное страхование. – М.: Дашков и К, 2007. – С.39.

Germaniyada XIX asming boshida O.Bismark nomi ostida qabul qilingar qonunlarda o'z ifodasini topdi. XIX asr oxiri va XX asr boshida majburiy sug'urtalash to'g'risidagi bu kabi qonunlar Yevropaning ko'pchilik davlatlarida. XX asming 30-yillarida esa AQSH va Kanadada qabul qilindi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng turli davrlarda ijtimoiy sug'urta Afrika, Osiyo va Karib havzasining ko'plab davlatlarida joriy etildi.

Ijtimoiy muhofaza qilishning milliy tizimlari orasida u yoki bu farqlar bo'lishi mumkin, ammo ularning ko'pchiligiga quyidagi xususiyatlar xos:

– ijtimoiy sug'urta ish beruvchi va ishchi tomonidan birgalikda to'lanadigan sug'urta badallari hisobidan moliyalanadi, bunda davlat qo'shimcha badallar yoki umumiy soliqlar shaklida ishtirok etishi mumkin;

– ishchilar va ish beruvchilarning majburiy (qonunga ko'ra) ishtiroki (ayrim istisnolar bilan);

– sug'urta badallari maxsus maqsadli jamg'armalarda jamlanadi, ularning hisobidan nafaqa va pensiyalar, davolash va rehabilitatsiya xizmatlari haqi to'lanadi;

– sug'urtalanuvchilarning nafaqalarga bo'lgan shaxsiy huquqlari daromadlarni yoki muhtojlikni tekshirmasdan kafolatlanadi;

– sug'urta badallari hajmi, odatda, sug'urtalanuvchi ish haqi hajmi bilan bog'liq, ya'ni sug'urta badallari stavkalari butun ish haqi fondidan foizlar shaklida ish haqining nihoyaviy chegarasini hisobga olgan holda belgilanadi;

– mehnatda jarohatlanish odatda ish beruvchi badallari hisobidan moliyalanadi;

– ijtimoiy sug'urta badallari barcha davlatlarda ishlab chiqarish harajatlariga kiritiladi.

Sug'urta tamoyillariga rioya qilinishi va ularga mos moliyalash manbalarini ta'minlashda ijtimoiy sug'urtani tashkillashtirishning uchta modelini ko'rish mumkin.

Birinchi model. Sug'urta ibtidolari rivojlanmagan, to'lanadigan ijtimoiy nafaqalar va pensiyalar miqdori bir qator ikkinchi darajali omillarga bog'liq: u yoki bu sohada bandlik, xizmat mavqei (shaxsiy pensiyalar) va h.z. Pul mablag'larining yetishmasligi muassasalar tomonidan qoplanadi, moliyaviy layoqatsizlik muassasalar o'z zimmasiga olgan majburiyatlardan kechmagunga qadar tahdid solmaydi. Mustaqil alohida ajratilgan ijtimoiy sug'urta turlari mavjud emas. Tashkiliy shakllar xilma xilligi yetishmaydi. Markazlashtirishga intilish kuchli. Mamlakatimizdagi ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot tizimi ham yaqin paytlargacha (1991 y.) xuddi shunday edi.

Bunday tizim rivojlanish istiqbollariga ega emas, ular himoyaning past darajasini ta'minlashga qodir va faqat davlat budjeti taqchilligisiz mavjud bo'lishi mumkin.

Ikkinchi model. Sug'urtalanuvchilar va sug'urtalovchilar badal to'lashadi, ammo ular bilan qilinadigan hisob-kitoblarda u yoki bu sug'urta hodisasi sodir bo'lishi ehtimoli e'tiborga olinmaydi. Sug'urtalash amalda uchinchi shaxslar foydasiga amalga oshiriladi va moliyaviy mablag'larning jamlanishi majburiyatlar

o'sishi bilan bog'liq emas. Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolarning pensiya ta'minoti ana shu tarzda tashkil etilgan. U sug'urta badallarini undirishga asoslangan bo'lsa-da, pensiya ta'minoti bo'yicha joriy harajatlarni qondirishgagina yo'naltirilgan, bunda uzoq kelajakdagi harajatlar e'tiborga olinmaydi. Bu shunga olib keladiki, zarur pul mablag'larini izlab topish, odatda, pensiya oshirilishi arafasida yoki undan so'ng amalga oshiriladi. Ijtimoiy sug'uratalash bo'yicha chakana nafaqalar ham shu tarzda tashkil etilgan.

Uchinchi model. U ijtimoiy xatarlarni sug'urta qilishga asoslangan. Har bir muayyan davrda to'plangan mablag' hajmi sug'urtalovchilar olgan majburiyatlarga mos keladi. To'lovlar beriladigan nafaqa bilan tushumlar nisbatidan oshib ketishi mumkin emas. Ijtimoiy xatarlarni sug'urtalash nazariyasi va uning asosida o'rnatiladigan qonun-qoidalar yetarli darajada aniqlik bilan qanday bir martalik to'lovlar yoki davriy to'lovlar amalga oshirilishi mumkinligini aniqlash imkonini beradi.

Ijtimoiy sug'urtaning ushbu modeli taqchillikning ehtiyot fondlarini shakllantirish orqali qoplash, xatarlarni qayta sug'urtalashlarni ko'zda tutadi. Ijtimoiy sug'urtaning ushbu shakli yetarli darajada moslashuvchan: sug'urtalarning bir necha turini birlashtirishda ham, ajratishda ham, sug'urtalash fondidan ishtirokchilar guruhi chiqib ketishi yoki yangilarni jalb etishda ham texnik qiyinchiliklar tug'ilmaydi.

Shu bilan birga, sug'urta tamoyilining izchillik bilan qo'llanilishi sug'urtalanganlarni davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish borasidagi cheksiz imkoniyatlarni haqidagi tasavvurlaridan xalos etadi. Jamiyat shuni anglashi kerakki, "bepul" ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmatlar mavjud emas, ularni bajarish uchun moliyaviy mablag'lar oldindan jamlab borilishi kerak. Afsuski, "mablag' ishlab topish" tamoyilidan og'ish shunga olib keladiki, moliyaviy hisob-kitoblar bilan mustahkamlanmagan ijtimoiy dasturlar qabul qilinadi.

Ijtimoiy sug'urtaning mavjud tizimining haddan ziyod markazlashtirilishi, sug'urtaning alohida turlarini ajratishni istisno qiluvchi fondlarni shakllantirishning umumiy xarakteri va avtonom tizimlarga ajratilishi taqsimlash munosabatlarining markazdan qochishiga olib keladi. Sug'urtaning alohida turlari maqsad va vazifalarini belgilashda noaniqlik, ijtimoiy himoyaning asosiy institutlari vazifalarining o'zgarishi shunga olib keladiki, ijtimoiy sug'urtaga boshidan boshlab (30-yillardayoq) unga xos bo'lmagan, boshqa ijtimoiy-huquqiy institutlarga taalluqli bo'lgan vazifalar yuklatildi.

90-yillarning boshida boshlangan islohotlar budjetdan tashqari jamg'armalarning yaratilishiga olib keldi: pensiya, tibbiy sug'urta va bandlikka ko'maklashuvchi jamg'arma. Bunda bir qator salbiy xususiyatlar ko'zga tashlana boshlandi: tegishli moliyaviy manbalarni shakllantirishda nomutanosiblik va sug'urta to'lovlari umumiy hajmining muvozanatlanmaganligi, bu esa oqibat natijada xodimlarning sezilarli darajada ijtimoiy himoyalaniishini ta'minlamaydi, ularning himoyalashga doir minimal ehtiyojlarini qondirmaydi, bundan tashqari

ishchilar va pensionerlar, shu bilan birga, ish beruvchilar sug'urta tashkilotlarini boshqarishga jalb qilinadi, bu esa, mazkur murakkab va nozik sohada ijtimoiy to'qnashuvlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, hozirgi paytgacha ijtimoiy sug'urta sohasida markaz va hududlar o'rtasidagi vakolatlarni taqsimlash mafkurasi ishlab chiqilmagan va qonunchilik yo'li bilan rasmiylashtirilmagan. Ayrim hududlar tegishli tajriba va ijtimoiy infratuzilmaga (tibbiy, reabilitatsiya, ilmiy markazlar) ega emas, holbuki bularsiz fuqarolarning yuqori darajada ijtimoiy himoyalanihini ta'minlab bo'lmaydi. Vaqtinchalik shartnomalar asosida ishlovchi xodimlar ko'pincha kasb kasalliklarining yashirin shakllariga, ishga layoqatning yo'qolishiga duchor bo'ladi. Mahalliy hokimiyatlar esa buning uchun moliyaviy javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

Ijtimoiy himoya masalalarini tartibga soluvchi qonunchilikda ko'plab jiddiy muammolar, ya'ni eskirgan, ba'zan bir-biriga zid bo'lgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar mavjud. Masalan, mehnatga layoqatlilik yo'qotilgani uchun kompensatsiya miqdorini belgilashda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisadan jabrlanganning aybini aniqlash yoki ishga layoqatlik doimiy yo'qotilganda individual tarzda zararni qoplash kabi amaliyotlar ma'naviy jihatdan eskirgan.

Mamlakatda bozor munosabatlarining qaror topishi ko'pchilik xodimlar tomonidan ijtimoiy sug'urtaning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilishini hamda ayrim toifalarga u yoki bu turdagi imtiyozlarning berilishi boshqalarning ijtimoiy himoyalanihini darajasini kamaytirishga olib kelishini tushunishga olib keladi. Bu esa muqarrar ravishda nafaqat ijtimoiy sug'urtalash, balki umuman uni tashkillashtirish muammosini keskinlashtiradi. Ushbu tizimni tubdan o'zgartirish, uni yangi iqtisodiy munosabatlarga moslashtirish talab etiladi. Ayni paytda mamlakat ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar aholi uchun mutlaqo o'z-gacha vaziyatni keltirib chiqardi, unga ijtimoiy xatarlarning yuqori darajasi (kasallik, keksalik, ishsizlik holatlarida moddiy ta'minlanmaganlik) xos.

Ijtimoiy sug'urtaning zamonaviy shakllari orasida majburiy, ixtiyoriy va korporativ turlari mavjud (9.1-jadval).

Shu o'rinda aytish joizki, **majburiy ijtimoiy sug'urta** – mehnatga layoqatlilikni (kasallik, baxtsiz hodisa, qarilik) yoki ish joyini yo'qotish tufayli daromaddan (ish haqi) mahrum bo'lish hollarida qo'llaniladigan amaldagi qonunchilikda belgilangan ijtimoiy kafolatdir. Ularni beruvchi moliyaviy manbalar – ish beruvchilar va xodimlarning sug'urta badallari, shuningdek, budget mablag'laridir. Sug'urtaning ushbu turiga xos huquqiy jihat – bu yo'qotilgan ish haqi va boshqa mehnat daromadlarining o'rmini qoplashdir.

Ixtiyoriy ijtimoiy sug'urta davlatning sug'urta yordami mavjud bo'lmagan hollarda jamoaviy javobgarlik va o'z-o'ziga yordam tamoyiliga asoslangan. U shaxsiy va jamoaviy bo'lishi mumkin hamda baxtsiz hodisalar oqibatlaridan tibbiy va pensiya ta'minotini ko'zda tutadi. Bu turdagi sug'urtalashning moliyaviy manbalarini xodimlar va ish beruvchilarning badallari tashkil qiladi. Ixtiyoriy ijtimoiy sug'urtani majburiy sug'urtaga muqobil deb emas, balki qo'shimcha deb

tushunish kerak. Ushbu jamg'armalarning bir-birini to'ldirishi bir turdagi sug'urta kamchiliklarini boshqa turdagisining afzalliklari bilan to'ldirish imkonini beradi.

9.1-jadval

Ijtimoiy sug'urta tasnifi

Ijtimoiy sug'urta			
Majburiy			
Majburiy ijtimoiy sug'urta	Baxtsiz hodisalardan majburiy sug'urta	Majburiy pensiya sug'urtasi	Majburiy tibbiy sug'urta
Sug'urtali ijtimoiy xatarlar			
O'lim, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, onalik, nogironlik	Ishlab chiqarishdagi jarohatlanish va kasbiy kasalliklardan mehnatga qobiliyatsizlik va o'lim	Pensiya yoshiga yetish, nogironlik, boquvchisini yo'qotish	Tibbiy xizmatga harajalar
Sug'urtalovchilar			
Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi	Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi	Pensiya jamg'armasi	Tibbiy sug'urta jamg'armasi
Sug'urtalanuvchilar			
Xo'jalik sub'yektlari	Xo'jalik sub'yektlari	Hukumat organlari, xo'jalik sub'yektlari	Xo'jalik sub'yektlari, mahalliy hukumat organlari
Sug'urta qilinganlar			
Yollanma xodimlar	Yollanma xodimlar	Ishlovchi aholi	Barcha aholi
Ixtiyoriy			
Ixtiyoriy ijtimoiy sug'urta	Ixtiyoriy pensiya sug'urtasi	Ixtiyoriy tibbiy sug'urta	
Sug'urtali ijtimoiy xatarlar			
Baxtsiz hodisalardan jarohatlar va kasalliklar	Pensiya yoshiga yetish		Tibbiy xizmatga harajatlari
Sug'urtalovchilar			
Sug'urta kompaniyalari	Nodaviat pensiya jamg'armasi, sug'urta kompaniyalari		Tibbiy sug'urta kompaniyalari
Sug'urtalanuvchilar			
Jismoniy va yuridik shaxslar	Jismoniy va yuridik shaxslar		Jismoniy va yuridik shaxslar
Sug'urta qilinganlar			
Jami aholi	Ishlovchi aholi		Jami aholi

Korporativ sug'urta – ish beruvchilarning daromadlari hisobidan shakllantiriladigan ijtimoiy muhofaza tizimi bo'lib, u xodimlarning ijtimoiy ehtiyojlarini (tibbiy yordam, sog'lomlashtirish, turar-joy, transport va o'quv harajatlarini, madaniyat sohasidagi xizmatlar, pensiya to'lovlarini) qondirishga yo'naltiriladi.

Endi ijtimoiy sug'urtaning turlariga to'xtalib o'tsak.

Tibbiy sug'urta. Fuqarolar sog'ligini saqlash – bu siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy, tibbiy, sanitar-gigiyenik va epidemiyaga qarshi tavsifdagi chora-tadbirlarning majmuasi bo'lib, ular har bir insonning ruhiy va jismoniy salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan, uning uzoq muddatli faol hayotini ushlab turishga, sog'ligini yo'qotgan vaziyatda unga tibbiy

yordam ko'rsatishni ta'minlashga qaratilgandir.

Bizning mamlakatda fuqarolar sog'ligini saqlashning asosiy tamoyillari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- insonlarning sog'liqni saqlash sohasidagi huquqlariga rioya qilish va ushbu huquqlar bilan bog'liq bo'lgan davlat kafolatini ta'minlash;
- fuqarolar sog'ligini saqlash sohasidagi profilaktika tadbirlarining ustuvorligi;
- tibbiy-ijtimoiy yordamning barchaga barobarligi;
- fuqarolarni sog'ligini yo'qotgan vaziyatda ijtimoiy himoyalanganligi;
- davlat boshqaruv organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxonalar, tashkilot va muassasalarning, mansabdor shaxslarning sog'liqni saqlash sohasidagi fuqarolik huquqlarini ta'minlashi bo'yicha javobgarligi.

Sog'liqni, mehnat layoqatini yo'qotganda va boshqa hollarda fuqarolar tibbiy-ijtimoiy yordam olish huquqiga egadir, u profilaktika, davolanish-diagnostika, reabilitatsiya, protez-ortopedik va tish protezlash yordamini, shu jumladan, kasalliklar, mehnatga layoqatsizlar va nogironlarni parvarishlash bo'yicha ijtimoiy tavsifdagi chora-tadbirlarni, vaqtinchalik mehnat layoqatini yo'qotganlik bo'yicha to'lovlarni berilishini ham o'z ichiga oladi.

Sug'urta badallari tibbiy yordamni moliyalashtirishning manbai sifatida tibbiy sug'urta doirasida amalga oshiriladi, u sog'liqni saqlash sohasida aholi manfaatlarini ijtimoiy himoya qilishning shakli bo'lib, fuqarolarni tibbiy yordamga muhtoj bo'lgan vaqtda yig'ilib qolgan mablag'lar hisobiga va profilaktika chora-tadbirlarini moliyalashtirishning kafolatini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Tibbiy sug'urta ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: majburiy va ixtiyoriy.

Majburiy tibbiy sug'urta davlat ijtimoiy sug'urtasining tarkibiy qismi hisoblanadi va barcha fuqarolarga majburiy sug'urta dasturlaridagi shartlarda va miqdorlarda majburiy tibbiy sug'urta mablag'lari hisobiga beriladigan tibbiy va dori-darmon yordamini olishdagi teng imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Ixtiyoriy tibbiy sug'urta ixtiyoriy tibbiy sug'urta dasturlari asosida amalga oshiriladi va fuqarolarga majburiy tibbiy sug'urta dasturlarida belgilanidan ortiqroq qo'shimcha tibbiy va boshqa xizmatlarni berilishini ta'minlaydi. Ixtiyoriy tibbiy sug'urta jamoaviy va individual bo'lishi mumkin.

Tibbiy sug'urta subyektlari sifatida quyidagilar yuzaga chiqishi mumkin: fuqaro, sug'urtachi, tibbiy sug'urta tashkiloti, tibbiyot muassasasi.

Majburiy tibbiy sug'urtada sug'urtachilar bo'lib quyidagilar hisoblanadi: ishlamaydigan aholi uchun - hukumat organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari; ishlaydigan aholi uchun - tashkilotlar, individual tadbirkorlar sifatida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslar, xususiy notariuslar, advokatlar, ishchilar bilan mehnat shartnomalarini tuzgan jismoniy shaxslar, shuningdek, fuqarolik-huquqiy tavsifdagi mukofot shartnomalari bo'yicha bitimlar tuzgan shaxslar, ular qonunchilikka mos ravishda majburiy tibbiy sug'urta fondlariga tegishli bo'lgan soliq qismidan mablag'lar o'tkazadi.

Ixtiyoriy tibbiy sug'urtada sug'urtachilar bo'lib fuqarolar manfaatlarini ifoda etuvchi fuqarolik layoqatligiga ega bo'lgan ayrim fuqarolar yoki (va) tashkilotlar yuzaga chiqishi mumkin.

Tibbiy sug'urta tashkilotlari sifatida tibbiy sug'urtani amalga oshiruvchi va tibbiy sug'urta bilan shug'ullanish huquqiga ega davlat ruxsatnomasi bo'lgan yuridik shaxslar yuzaga chiqishi mumkin.

Tibbiy sug'urta tizimida tibbiyot muassasalari bo'lib litsenziyaga ega davolash-profilaktika muassasalari, ilmiy-tadqiqot va tibbiyot institutlari, tibbiy yordam ko'rsatadigan boshqa muassasalar, shu jumladan, nafaqat individual, balki jamoaviy tibbiy faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslar hisoblanadi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan sug'urta. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklar bilan bog'liq ta'minot ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urta qilish tizimi doirasida amalga oshirilib, uning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslari "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonun doirasida belgilanadi. Ushbu qonunda mehnat shartnomasi bo'yicha ishchi tomonidan majburiyatlarini bajarayotgan vaqtida yoki qonunda belgilangan boshqa holatlardagi ishchining sog'ligi va hayotiga keltirilgan zararni qoplashning tartibi keltirilgan.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urta qilish ijtimoiy sug'urtalashning turlaridan biri hisoblanadi va sug'urta qilingan shaxslarning ijtimoiy himoyasini va iqtisodiy manfaatdor sub'yektlarni kasbiy xatarlarning kamaytirilishini ta'minlaydi; mehnat shartnomasi bo'yicha ishchi tomonidan majburiyatlarini bajarayotgan vaqtida yoki qonunda belgilangan boshqa holatlardagi ishchining sog'ligi va hayotiga keltirilgan zararni sug'urta qilingan shaxsga sug'urta bo'yicha kerakli bo'lgan barcha turdagi ta'minotni to'liq qoplanishini ta'minlash yo'li bilan qoplaydi, shu jumladan, tibbiy, ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiya bo'yicha harajatlar to'lanishini; ishlab chiqarishdagi jarohatlar va kasbiy kasalliklarni qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlarini ta'minlaydi.

Qonun ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urta qilishning ob'yekti bo'lib ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklar oqibatida jismoniy shaxslar tomonidan sog'ligi, kasbiy mehnatga layoqatligi yoki vafot etishi bilan bog'liq bo'lgan jismoniy shaxslarning moddiy manfaatlari hisoblanishini nazarda tutadi.

Davlat majburiy ijtimoiy sug'urtasining ushbu turi bo'yicha huquqiy munosabatlarning sub'yektlari bo'lib sug'urtalangan shaxs, sug'urta qiluvchi va sug'urtachi hisoblanadi.

Sug'urtalangan shaxs - bu ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urta qilinishga tortiladigan jismoniy shaxs, shuningdek, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklar oqibatida, belgilangan tartibda va kasbiy mehnatga layoqatligini yo'qotilishi keltirilib

Ixtiyoriy tibbiy sug'urtada sug'urtachilar bo'lib fuqarolar manfaatlarini ifoda etuvchi fuqarolik layoqatligiga ega bo'lgan ayrim fuqarolar yoki (va) tashkilotlar yuzaga chiqishi mumkin.

Tibbiy sug'urta tashkilotlari sifatida tibbiy sug'urtani amalga oshiruvchi va tibbiy sug'urta bilan shug'ullanish huquqiga ega davlat ruxsatnomasi bo'lgan yuridik shaxslar yuzaga chiqishi mumkin.

Tibbiy sug'urta tizimida tibbiyot muassasalari bo'lib litsenziyaga ega davolash-profilaktika muassasalari, ilmiy-tadqiqot va tibbiyot institutlari, tibbiy yordam ko'rsatadigan boshqa muassasalar, shu jumladan, nafaqat individual, balki jamoaviy tibbiy faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslar hisoblanadi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan sug'urta. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklar bilan bog'liq ta'minot ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urta qilish tizimi doirasida amalga oshirilib, uning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslari "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonun doirasida belgilanadi. Ushbu qonunda mehnat shartnomasi bo'yicha ishchi tomonidan majburiyatlarini bajarayotgan vaqtida yoki qonunda belgilangan boshqa holatlardagi ishchining sog'ligi va hayotiga keltirilgan zararni qoplashning tartibi keltirilgan.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urta qilish ijtimoiy sug'urtalashning turlaridan biri hisoblanadi va sug'urta qilingan shaxslarning ijtimoiy himoyasini va iqtisodiy manfaatdor sub'yektlarni kasbiy xatarlarning kamaytirilishini ta'minlaydi; mehnat shartnomasi bo'yicha ishchi tomonidan majburiyatlarini bajarayotgan vaqtida yoki qonunda belgilangan boshqa holatlardagi ishchining sog'ligi va hayotiga keltirilgan zararni sug'urta qilingan shaxsga sug'urta bo'yicha kerakli bo'lgan barcha turdagi ta'minotni to'liq qoplanishini ta'minlash yo'li bilan qoplaydi, shu jumladan, tibbiy, ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiya bo'yicha harajatlar to'lanishini; ishlab chiqarishdagi jarohatlar va kasbiy kasalliklarni qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlarini ta'minlaydi.

Qonun ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urta qilishning ob'yekti bo'lib ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklar oqibatida jismoniy shaxslar tomonidan sog'ligi, kasbiy mehnatga layoqatliligi yoki vafot etishi bilan bog'liq bo'lgan jismoniy shaxslarning moddiy manfaatlari hisoblanishini nazarda tutadi.

Davlat majburiy ijtimoiy sug'urtasining ushbu turi bo'yicha huquqiy munosabatlarning sub'yektlari bo'lib sug'urtalangan shaxs, sug'urta qiluvchi va sug'urtachi hisoblanadi.

Sug'urtalangan shaxs - bu ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urta qilinishga tortiladigan jismoniy shaxs, shuningdek, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklar oqibatida, belgilangan tartibda va kasbiy mehnatga layoqatliligini yo'qotilishi keltirilib

chiqarilganligi tasdiqlangan, sog'ligiga zarar yetgan jismoniy shaxs.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urta qilinishga quyidagilar tortiladi:

- sug'urta qiluvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ishlarni bajaruvchi jismoniy shaxslar;
- ozodlikdan mahrum etilgan va sug'urtachi tomonidan mehnatga yollangan jismoniy shaxslar;
- fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida ishlarni bajaruvchi jismoniy shaxslar, agar mos ravishda ko'rsatilgan shartnoma bo'yicha sug'urta qiluvchi sug'urtachiga sug'urta badallarini to'lash majburiyatini olgan bo'lsa.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan davlatning majburiy ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha sug'urta qiluvchi bo'lib istalgan tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxs, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urtaga tortiluvchi shaxslarni yollab ishlatayotgan jismoniy shaxs hisoblanadi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa – bu sug'urta qilingan shaxsning mehnat shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotgan vaqtida sog'lig'iga zarar yetgani yoki boshqa turdagi zarar ko'rishi oqibatida va qonunda belgilangan boshqa holatlar bo'yicha nafaqat sug'urta qiluvchining hududida, balki undan tashqarida sug'urta qiluvchi bergan transportda ish joyiga kelayotgan vaqtida yoki ish joyini tark etayotgan vaqtida va buning oqibatida sug'urta qilingan shaxsni boshqa ishga o'tkazish zaruratini tug'ilishi, uning tomonidan vaqtinchalik yoki doimiy tarzda mehnatga layoqatini yo'qotilishini keltirib chiqargan yoki uning vafot etishiga olib keluvchi hodisadir.

Kasbiy kasallik – bu sug'urta qilingan shaxsning ishlab chiqarish omilining zararli ta'siri oqibatidagi va uning tomonidan kasbiy mehnatga layoqatlikning qisman yoki doimiy tarzda yo'qotilishiga olib kelgan o'tkir yoki surunkali kasallikdir.

Kasbiy mehnatga layoqatlilik – bu insonning ma'lum bir malakadagi, hajm va sifatidagi ishlarni bajara olish qobiliyatidir. Kasbiy mehnatga layoqatlikning yo'qotilishi darajasi deganda sug'urta qilingan shaxs tomonidan sug'urta holati yuzaga kelgunga qadar kasbiy foyiatini amalga oshirish qobiliyatini doimiy tarzda pasayishining foizlardagi ifodasidir.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urtaning asosiy tamoyillari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- sug'urta bo'yicha sug'urta qilingan shaxslarni ta'minotining kafolatlanganligi;
- mehnat sharoitlarining yaxshilanishi va mehnat xavfsizligini yuksalishida, ishlab chiqarishdagi jarohatlar va kasbiy kasalliklarni pasayishida sug'urtalash sub'yektlarining iqtisodiy manfaatdorligi;
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urtalashga tortiluvchi ishchilarni ishga yollovchi barcha shaxslarni sug'urta qiluvchilar sifatida ro'yxatdan o'tkazilishining majburiyiligi;

– sug’urta qiluvchilar tomonidan sug’urta badallari to’lanishining majburiyligi;

– kasbiy xatar turiga bog’liq holda sug’urta tariflarining differentsiatsiyasi.

Sug’urta qilinganlarning sug’urtalash bo’yicha ta’minot huquqi sug’urta holati yuzaga kelgan kundan boshlab vujudga keladi.

Sug’urta holati yuzaga kelganligi natijasida sug’urta qilingan shaxsning vafot etishi holatida sug’urta to’lovlarini olish huquqiga quyidagilar ega bo’ladilar:

– vafot etgan shaxsning qaramog’ida bo’lgan yoki uning o’lishi kunigacha undan tirikchilik o’tkazish uchun mablag’lar olishga huquqi bo’lgan mehnatga layoqatsiz shaxslar;

– o’lgan shaxsning uning o’limidan keyin tug’ilgan farzandi;

– ota-onalardan biri, turmush o’rtog’i yoki mehnatga layoqatligidan qat’iy nazar 14 yoshga yetmagan shaxslar yoki ushbu yoshga yetgan, lekin davlatning tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati xulosasiga ko’ra yoki davlatning sog’liqni saqlash tizimining davolash-profilaktika muassasasi tomonidan sog’ligi holati bo’yicha boshqa shaxslar parvarishiga muhtoj deb tan olinadigan o’lgan shaxsning qaramog’ida bo’lgan bolalari, nevaralari, aka-ukalari va opa-singillarini parvarishlash bilan band bo’lgan va ishlamaydigan oilaning boshqa a’zolari;

– o’lgan shaxsning qaramog’ida bo’lgan, uning o’lgan kunidan boshlab besh yil davomida mehnatga layoqatsiz bo’lib qolgan shaxslar.

Sug’urta qilingan shaxsning vafot etishi holatida ota-onalardan biri, turmush o’rtog’i yoki o’lgan shaxsning qaramog’ida bo’lgan bolalari, nevaralari, aka-ukalari va opa-singillarini parvarishlash bilan band bo’lgan va ishlamaydigan hamda ularni parvarishlash vaqtida mehnatga layoqatsiz bo’lib qolgan oilaning boshqa a’zolari, ushbu shaxslarni parvarishlash ishlari tugaganidan s’ng su’urta to’lovlarini olish huquqini saqlab qoladi. Balog’atga yetmagan bolalarni birovning qaramog’ida ekanligi hech qanday dalil-isbotni talab qilmaydi.

Sug’urta holati yuzaga kelishi natijasida sug’urta qilingan shaxsning vafot etishi holatida sug’urta qilingan shaxsning tiriklik vaqtida daromadga ega bo’lgan, agarda sug’urta qilingan shaxsni daromadining bir qismi ularning tirikchilik qilishi uchun kerak mablag’larining asosiy va doimiy manbai bo’ladigan bo’lsa sudning qarori bo’yicha mehnatga layoqatsiz shaxslar sug’urta to’lovlarini olish huquqiga ega bo’ladi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklar bo’yicha sug’urta qilgan shaxs yoki uning qaramog’ida bo’lgan shaxslarning (sug’urta qilinuvchi vafot etgan holatda) sug’urta bo’yicha ta’minoti sug’urta hodisasi yuzaga kelganidan so’ng vujudga keladi va quyidagi ko’rinishlarda amalga oshiriladi:

– vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo’yicha nafaqalar;

– sug’urta qilingan shaxslarga yoki sug’urta qilingan shaxsning vafot etishi holatida bunday turdagi to’lovlarni olishga huquqi bo’lgan shaxslarga bir vaqtning o’zida va oylik sug’urta to’lovlarini amalga oshirilishi;

– sug’urta qilingan shaxsning tibbiy, ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiya qilinishi bo’yicha qo’shimcha mablag’larni qoplanishi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklar bilan bog'liq bo'lgan vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalar sug'urta qilingan shaxsning uning sog'ayishigacha vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligining barcha muddati uchun yoki doimiy tarzda kasbiy mehnatga layoqatini yo'qotilishi o'rnatilishigacha qadar to'lanadi. Nafaqalar ijtimoiy sug'urtalash fondi mablag'lari hisobidan jabr ko'rganing vaqtinchalik mehnat layoqatini yo'qotilishining birinchi kunidan qonunda ko'rsatilgan miqdorda to'lanadi.

Bir vaqtning o'zidagi va oylik sug'urta to'lovlari quyidagicha belgilanadi va to'lanadi:

- sug'urta qilingan shaxsga - agar tibbiy-ijtimoiy ekspertiza qarori bo'yicha ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasbiy kasallik natijasida uning tomonidan kasbiy mehnatga layoqatligining yo'qotilishi sabab bo'lgan holda;
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasbiy kasallik natijasida sug'urta qilingan shaxsning qaramog'ida bo'lgan shaxslarga.

Kasbiy mehnatga layoqatlikni yo'qotish darajasi jabr ko'rganing avvalgi mutaxassisligi bo'yicha ishlarni bajarilishiga imkon beruvchi mavjud kasbiy imkoniyatlari va kasbiy ahamiyatga molik sifatlarini baholashdan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Qoidalar 10% dan 100%gacha kasbiy mehnatga layoqatlikning yo'qotilishini belgilash imkoniyatlarini nazarda tutadi. Bir vaqtning o'zidagi sug'urta to'lovlari sug'urtalanganlarga, agar sug'urtalangan shaxs vafot etgan hollarda uning qaramog'ida bo'lgan shaxslarga bir vaqtning o'zida birinchi oylik sug'urta to'lovlarini belgilash va to'lash bilan amalga oshiriladi.

Oylik sug'urta to'lovlari sug'urta qilingan shaxslarga doimiy tarzda kasbiy mehnatga layoqatlikning barcha davri uchun to'lanadi, sug'urta qilingan shaxsning vafot etishi holatida esa:

- balog'atga yetmaganlarga – ularning 18 yoshga yetguniga qadar;
- 18 yoshdan katta o'quvchilarga – o'quv muassasalarida kunduzgi shaklda ta'lim oluvchilarga o'qishning tugashiga qadar, lekin 23 yoshdan katta bo'lmaganlarga;
- 55 yoshga yetgan ayollarga va 60 yoshga chiqqan erkaklarga – umrbod;
- nogironlarga – nogironlik davri davomida;
- ota-onalardan biriga, umr yo'ldoshiga yoki ishlamaydigan va vafot etgan shaxsning qaramog'ida bo'lgan bolalarni, nevaralarni, aka-ukalarni, opa-singillarni parvarishlash bilan band bo'lgan oilaning boshqa a'zosisiga – ularning yoshi 14 yoshga kirgunigacha yoki ularning sog'ligi holatining o'zgarishiga qarab.

Oylik sug'urta to'lovining miqdori sug'urta qilinuvchi shaxsning o'rtacha oylik ish haqining hissasi sifatida, uning kasbiy mehnatga layoqatligini yo'qotilishining darajasiga muvofiq tarzda hisoblanib belgilanadi. Agar oylik sug'urta to'lovlari sug'urtalangan shaxsning qaramog'ida bo'lganlarga kelib tushadigan bo'lsa, bunday to'lovning umumiy miqdori sug'urta qilingan shaxsni o'zining hissasi kamayadi, qolgan miqdor esa qaramoqdagilarning barchasiga bo'linadi va teng miqdordalarda to'lanadi. Jabrlanuvchining tibbiy, ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiyasi bo'yicha harajatlar agar tibbiy-ijtimoiy ekspertiza

muassasasi jabr ko'ruvchini mos ravishdagi yordam, ta'minot va parvarishlash turlariga muhtoj deb topsa to'lanadi. Bu holat jabrlanuvchini rehabilitatsiya qilish dasturi tomonidan tasdiqlanadi, uning tarkibiga rehabilitatsiyaning quyidagi turlari kiritiladi:

- sug'urtalangan shaxsning bevosita ishlab chiqarishdagi og'ir baxsiz hodisadan so'ng uning sohayishiga qadar yoki kasbiy mehnatga layoqatlilikni yo'qotish darajasi o'rgatilgunga qadar davolash;
- individual parvarishlash, tibbiy maqsadlar uchun buyumlar va dori-darmon bilan ta'minlash;
- jabr ko'rganning boshqa shaxslar (maxsus tibbiy va maishiy) tomonidan parvarishlanishini ta'minlash;
- sug'urta qilingan shaxsni tibbiy va ijtimoiy rehabilitatsiyaning ma'lum bir turlaridan bahramand bo'lishi uchun harakatlanishini (kerak bo'lgan hollarda kuzatuvchi shaxs bilan birgalikda) ta'minlash, shuningdek, sug'urta qiluvchining yo'llanmasi bo'yicha tibbiy-ijtimoiy ekspertiza muassasasida qaytadan ko'zdan kechirilishi uchun va kasbiy patologiya markaziga harakatlanishini ta'minlash;
- sanatoriya-kurorlarda davolanish;
- protez va protez-ortopedik buyumlarni tayyorlash va ta'mirlash;
- rehabilitatsiyaning texnik vositalari, transport vositalari bilan ta'minlash, shuningdek, ularni ta'mirlash va yonilg'i-moylash materiallari haqini to'lash;
- kasbiy ta'lim (qayta o'qitish).

Shunday qilib, sanab o'tilgan sug'urta turlari orasida moliyaviy mablag'lar hajmiga, qamrovining ommaviyligiga va xizmatlarining rang-barangligiga ko'ra asosiysi majburiy ijtimoiy sug'urta hisoblanadi (eng avvalo, pensiya, tibbiy sug'urta, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan, ishsizlik va boshqa ijtimoiy xatarlardan sug'urtalashdir). Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy sug'urtaning bu turi odatda ijtimoiy himoya maqsadlaridagi harajatlarining 60-70 foizini, YAIMning taxminan 15-20 foizni tashkil etadi.

9.3. Ijtimoiy sug'urta tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari

Milliy ijtimoiy sug'urta tizimini shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, u tabiiy ravishda ish haqi, soliq tizimi, siyosat va mehnat bozori holati, hozirgi demografik vaziyat va uning istiqboli bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy sug'urta tizimining shakllanishi qator omillar, ya'ni pensiya va boshqa sug'urta to'lovlari darajasi, xodimlarni davolash va sog'lomlashtirish bo'yicha xizmatlar sifati va hajmi bilan bog'lanmas ekan, mamlakatda samarali ijtimoiy himoya tizimini qaror toptirib bo'lmaydi.

Yangi iqtisodiy tizimga o'tish ijtimoiy sug'urta sohasidagi asosiy huquqiy sub'yektlar: davlat, korxonalar (ish beruvchilar), ishchilar va sug'urta tashkilotlarining rolini tubdan o'zgartiradi.

Ijtimoiy sug'urta tizimini tashkillashtirishda davlat alohida rol o'ynaydi. Agar ilgari davlat ishlab chiqarish vositalari egasi bo'lib, ayni paytda ishchilarning

manfaatlarini himoya qilishi lozim deb hisoblangan bo'lsa, endi uning roli mutlaqo o'zgacha bo'lishi lozim:

- ishchilarning ham, ish beruvchilarning ham manfaatlarini hisobga oluvchi qonunlarni o'rnatish orqali mehnat munosabatlarida vositachi sifatida ish yuritish, ijtimoiy sug'urtalash va ta'minot tizimi mexanizmlarini shakllantirish;
- qonunlarning bajarilishini va ishchilarning ijtimoiy himoyalanihini nazorat qilishga yo'naltirilgan ijroiya hokimiyati yordamida ishchilar ijtimoiy himoya qilishning kafali bo'lish, aholining ijtimoiy nochor qatlamlariga maqsadli yordam ko'rsatish;
- mehnatni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash sohasida, tibbiy, kasbiy va ijtimoiy rehabilitatsiya tizimlarida, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash sohasida ijtimoiy soha va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha iqtisodiy-huquqiy asoslar yaratish.

Shu tarzda, ijtimoiy sug'urtada davlatning ishtiroki, eng avvalo, ijtimoiy sug'urtaning ma'lum qonuniy bazasini, huquqiy muhitini yaratish, qonuniy tarzda sug'urtaning u yoki bu turining, sug'urta badallari va nafaqalar miqdorining majburiy tavsifini belgilab qo'yishda namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga davlat, odatda sug'urtalashning ayrim turlarini, ayniqsa, inqiroz sharoitida qo'llab-quvvatlaydi. Davlat mablag'lari dastlabki ikki sug'urtalash sub'yektining sug'urta badallari hajmi yetarli bo'lmagan taqdirda umumiy tavsifdagi to'lovlarni to'lash va sug'urta nafaqalarning minimal darajasini ta'minlash uchun qo'llaniladi.

Korxonalar (ish beruvchi) ijtimoiy sug'urtaning haqiqiy sub'yektlariga aylanishi va quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- qayta tiklash jarayonining butun sikli mobaynida: ishga qabul qilish, ish jarayoni, mehnatga layoqatning yo'qotilishi va ishchi o'rnlarni qisqarishi jarayonida yollanma ishchilarning ijtimoiy himoyalanihini;
- inson hayotining ishlash jarayoni va undan keyingi davrni qamrab oluvchi sug'urta himoyasiga doir moliyaviy harajatlarning asosiy qismini qoplash.

Ijtimoiy himoya sub'yekti sifatida ishchilar uchun, ayniqsa ularning moddiy farvonligi uchun shaxsiy mas'uliyat muammosi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu muammoni ijtimoiy sug'urtalash tizimi yordamida hal qilish mumkin. Ishchilarning sug'urta badallarini to'lashda, shuningdek, ijtimoiy sug'urtani boshqarish organlarining barcha darajalarida faol ishtirok etishi ularga ijtimoiy sug'urta tizimida zarur o'rinni egallash imkonini berdi.

Bundan kelib chiqqan holda, sug'urta tashkilotini boshqarish uning barcha ishtirokchilari – ishchilar, korxonalar (ish beruvchilar) va davlat manfaatlarini vakilligida amalga oshirilishi lozim.

Sug'urta tashkilotlari ish beruvchi bilan ishchilar o'rtasida asosiy vositachiga aylanishi va ijtimoiy sug'urta sohasida barcha masalalar majmasini hal qilishi kerak, bularga: ishchilarning mehnatga layoqati yo'qolishi, tibbiy xizmatni tashkillashtirish, shu jumladan, ishlab chiqarishda jabrlanganlarga tibbiy xizmat ko'rsatish, ularning tibbiy, ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiyasi, munosib

ijtimoiy himoyani ta'minlovchi ijtimoiy infratuzilmani shakllantirish kiradi.

Ijtimoiy sug'urtalashni takshillashirishga xos xususiyat o'zini o'zi boshqarish bo'lib, bu bir tomondan, ijtimoiy sug'urtani davlat sug'urtasidan, ikkinchi tomondan, xususiy sug'urtalashdan ajratib turadi (u shuningdek ijtimoiy xatarlardan himoyalash funksiyasini ham bajarishi mumkin). O'z-o'zini boshqarish sug'urta hamjamiyatlarining birdamligini kuchaytiradi, ijtimoiy sug'urtalash tizimining jamoatchilik uchun oshkora bo'lishini ta'minlaydi va ijtimoiy barqarorlikka ko'maklashadi, hokimiyat va nazorat funksiyalari taqsimlanishini ta'minlaydi, boshqarishni markazlashtirishdan uzoqlashishiga va qarorlar qabul qilish jarayoniga ishchilar va ish beruvchilarning keng qatlamlarini jalb etish imkonini beradi, aholining demokratik ongini mustahkamlaydi, ijtimoiy tinchlikni saqlashga xizmat qiladi.

Mehnat va tabiiy-iqlim sharoitlarining turli-tumanligi ijtimoiy sug'urtaning uchta majburiy shakli – umumiy, kasbiy va hududiy turlarini shakllantirishni taqozo qiladi.

Majburiy kasbiy va hududiy sug'urta salomatligiga xavf soluvchi yuqori darajali xatar mavjud yollanma ishchilar guruhlarini (jarohatlanish darajasi, kasb kasalliklari darajasi yuqori va og'ir bo'lgan), shuningdek, muddatidan oldin kasbiy pensiyalar berilishi ko'zda tutilgan shaxslar doirasini qamrab oladi.

Xo'jalik yuritishning yangi sharoitlarida ishlovchilar daromadlarining yuqori darajada farqlanishi majburiy sug'urta bilan birgalikda ixtiyoriy sug'urtani ham ko'zda tutishi kerak, bunda ish beruvchilar ham, xodimlar ham sug'urtalovchi bo'lishi mumkin.

9.2-jadval

Ijtimoiy sug'urta tizimining taxminiy modeli

Umumiy	Majburiy ijtimoiy sug'urta		Ixtiyoriy (qo'shimcha) ijtimoiy sug'urta (jamoaviy va shaxsiy)
	Kasbiy (qo'shimcha, majburiy)	Hududiy (qo'shimcha, majburiy)	
pensiyalar kasalligiga ko'ra	kasbiy (muddatidan oldin) pensiya	hududiy (muddatidan avval) pensiyalar	pensiya ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar
tibbiy	ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar	keksalar va nogironlarni parvarishlash	tibbiy

Sug'urtaanuvchilar manfaatlarining bir xilligi va umumiyliigi – umumiy qayta taqsimlashga erishishning asosiy shartidir. Shu sababli keng tarqalgan tizim aholining ko'magi va roziligiga tayanadi, ijtimoiy boqimandalikning vujudga kelishiga yo'l qo'ymaydi, bu esa, jamiyatda iqtisodiy barqarorlik va hamjihatlikka erishishga asoslanadi.

Ijtimoiy sug'urta tizimini isloh qilishning yo'nalishlaridan biri boshqaruvning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish bilan bog'liq. Ijtimoiy sug'urta sohasida xo'jalik yuritishning yangi sharoitlarida me'yoriy, muvofiqlashtirish, metodologik va qayta sug'urtalash funksiyalarini mustahkamlash, shuningdek, noyob diagnostik va tibbiy-reabilitatsiya xizmatlarini ko'rsatish maqsadga muvofiq.

Hududiy boshqaruv organlari vazifalari – bu ijtimoiy sug'urta faoliyatining tezkor faoliyati uchun shart-sharoit yaratishdir, bunga sug'urta badallarini to'plash, sug'urtalanuvchilarga to'lov va kompensatsiyalar berish, ijtimoiy va kasbiy xatar darajasini baholash, sug'urtalash tariflariga qo'shimcha va chegirmalar belgilash, tibbiy va reabilitatsiya xizmatlari ko'rsatilishini ta'minlash kabilar kiradi.

Moliya sohasida markaz va hududlar vazifalarini muvofiqlashtirish quyidagi mexanizmlar yordamida ta'minlanishi mumkin: sug'urta tariflari va qayta sug'urtalashning bazaviy darajalarini belgilash, soliq chegirmalari nisbatlarini aniqlashtirish.

Ishchilar va ish beruvchilarning sug'urta badallari (ish haqidan mahsulot tannarxiga kiritilgan ishchi kuchi haqining bir qismini to'lash) zaruriy mahsulotning bir qismini tashkil etadi. Ya'ni, sug'urta badallari soliq bo'lmagan to'lov turi bo'lib, davlat budjeti hisobidan moliyalanmaydi, muayyan ijtimoiy xatarlardan himoyalash maqsadlarigagina yo'naltiriladi (ishsizlik, kasallik, keksalik, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa) va amalda bunday xatarlar kelib chiqqanda xodimlar uchun o'zgarang ish haqi vazifasini o'taydi.

Ijtimoiy sug'urtaning bunday ma'nosini qonunchilik orqali belgilab qo'yilishi asosiy ijtimoiy sub'yektlar (ish beruvchilar va ishchilar)ning ijtimoiy sug'urtalashning tegishli fondlarini shakllantirishdan manfaatdorligini keskin oshirish imkonini beradi. Va, aksincha, ijtimoiy sug'urtalash fondlari moliyaviy manbalarining o'z xususiyatlarga ega emasligi, davlat budjeti hisobidan shakllantirilishi (fondlarni shakllantirishga soliq yondashuvi) ijtimoiy sug'urtaning tabiatiga zarar yetkazadi, mehnatga layoqatli aholini boqimandalarga aylantiradi, davlat esa "homiy"ga aylandi. Bundan tashqari, davlat ijtimoiy maqsadlarga mo'ljallangan mablag'larni boshqa maqsadlarga yo'naltirish imkoniga ega bo'ladi.

Bozor munosabatlariga o'tish bilan ishlovchilarning ijtimoiy sug'urta fondlarini moliyalashda bevosita ishtirok etishi zarurligi ayon bo'lib bormoqda. Bunda ishlovchilar va ish beruvchilarning ulushbay haq to'lash tajribasi diqqatga loyiq. Mamlakatimiz va xorijiy mutaxassislar fikriga ko'ra, bu chora jamoatchilik ongidagi ijtimoiy himoyaga "bepul" tizim degan qarashlarni jiddiy ravishda o'zgartirish imkonini beradi. Bozor iqtisodiyotida ijtimoiy himoya mexanizmlarida faol shaxsiy ishtirok etish psixologiyasini shakllantirish va ijtimoiy sug'urtalash fondlari mablag'laridan foydalanish samaradorligini nazorat qilish zarurligi nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizning demografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos jihatlari pensiya sug'urtasining aralash turidan foydalanish, bunda mablag'larni qayta taqsimlash va kapitalizatsiya qilish usullaridan, shuningdek

aralash – imtiyozli pensiya ta'minoti (ish beruvchilar va davlat mablag'lari hisobidan) foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy sug'urtaning muhim elementi ijtimoiy sug'urtaning asosiy ob'yektlari mas'uliyatini qayta taqsimlash hisoblanadi. Shuni e'tiborga olish kerakki, 70 yil davomida biz to'plagan davlatning ijtimoiy sug'urtalash sohasidagi barqaror an'analar, aholining aksariyat qismi ish haqining past darajasi va odamlarning ijtimoiy adolat haqidagi tushunchasi moliyaviy taqsimlashning yangi nisbatlari qo'llaniladigan ijtimoiy sug'urtaning yangi modeliga o'tishni taqozo qiladi.

Qisqacha xulosalar

Ijtimoiy sug'urta aholini mehnatga layoqatlilik va daromadlarni yo'qotish bilan bog'liq turli xatarlardan ijtimoiy himoyalash shaklidir. Ijtimoiy sug'urtaga xos xususiyat uning davlat ko'magida ish beruvchilar va ishchilarning maqsadli badallari, maxsus budjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan moliyalanishi hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urta ikkita asosiy vazifani hal qilishga, birinchidan, xodimlarning mehnatga layoqatini tiklash va saqlash, shu jumladan, mehnatni muhofaza qilish va uning xavfsiz shart-sharoitlarini ta'minlash bo'yicha profilaktika va rehabilitatsiya choralari amalga oshirishga, ikkinchidan, mehnatga layoqatligini yo'qotgan yoki unga ega bo'lmagan shaxslarning moddiy ta'minlanganligini kafolatlovchi chora-tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan. Majburiy ijtimoiy sug'urta mehnatga layoqatlilikni yoki ish joyini yo'qotish tufayli daromaddan mahrum bo'lish hollarida qo'llaniladigan amaldagi qonunchilikda belgilangan ijtimoiy kafolatdir. Ixtiyoriy sug'urta davlatning sug'urta yordami mavjud bo'lmagan hollarda jamoaviy javobgarlik va o'z-o'ziga yordam tamoyiliga asoslangan. Sug'urtaning korporativ tizimi ish beruvchilarning daromadi hisobidan shakllantiriladigan ijtimoiy himoya tizimidir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ijtimoiy sug'urta deganda nimani tushunasiz?
2. Ijtimoiy sug'urtaning asosiy vazifalarini tushuntirib bering.
3. Ijtimoiy sug'urtani tashkillashtirishning qanday modellarini bilasiz?
4. Ijtimoiy sug'urtaning qanday turlari mavjud?
5. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa deganda nimani tushunasiz?
6. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklar bo'yicha sug'urtaning amalga oshirilish tartibini tushuntirib bering.
7. Sug'urtaning qanday milliy modellarini bilasiz?
8. Majburiy ijtimoiy sug'urtaga misollar keltiring.
9. Sug'urta tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari aytib bering?

Adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватаннимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. // Халқ сўзи, 2010 йил 30 январь.

2. Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш бўйича меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Адолат, 2008.
3. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. Дарслик. - Т.: Меҳнат, 2009.
4. Агапцов С.А., Романов Е.Ю. Доходы социальных фондов. – М.: Экономика, 2008.
5. Буянова М.О., Кобзева С.И., Кондратьева З.А. Право социального обеспечения. – Москва, 2007.
6. Кричевский Н.А. Социальное страхование. – М.: Дашков и К, 2008.
7. Усмонова М.А., Муродова Г. Ижтимоий ҳимоя нима? – Т.: ТДЮИ, 2009.
8. Маждов Н. Ўзбекистон Республикасида ижтимоий сугурта тизимини ислох қилиш. – Т.: ЎзМУ, 2003.
9. Павлюченко В.Г. Социальное страхование. – М.: Дашков и К, 2007.
10. Социальная политика. Учебник / И.П.Денисова, П.Р.Клинавенко. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2007.
11. Римашевская Н.М. Социальная защита населения. – М.: РИЦ ИСЭП РАН, 2005.

X BOB. IJTIMOY TA'MINOT TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

10.1. Ijtimoiy ta'minot tizimining mohiyati va uning shakllanishi

Bozor munosabatlariga o'tish va ijtimoiy-iqtisodiy tizimni isloh qilish sharoitida aholini, ayniqsa uning nochor guruhlarini aniq manzili va maqsadli ijtimoiy himoya qilish tizimi barpo etildi. Bu tizimning asosini ijtimoiy ta'minot tashkil etadi.

"Ijtimoiy ta'minot" tushunchasi maxsus adabiyotlarda turlicha ma'nolarda ishlatiladi:

- taqsimot munosabatlarning o'ziga xos bir shakli sifatida;
- davlat funksiyasi sifatida;
- huquqiy kategoriya sifatida, u o'z navbatida fuqarolarning sub'yektiv huquqi ma'nosida yuzaga chiqishi mumkin;
- odamlarni qariganda, boquvchisini va mehnatga layoqatini yo'qotganda va boshqa hollarda fuqarolarni moddiy ta'minlashning shakli va davlat tizimi sifatida;
- huquqning bir tarmog'i sifatida va h.k.

Ijtimoiy ta'minot davlat tomonidan yaratiladigan huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy chora-tadbirlarning tizimi hisoblanib, u fuqarolarni ijtimoiy va (yoki) ularning moddiy holatining o'zgarishi natijalarini minimallashtirish yoki kompensatsiya qilishga yo'naltirilgan, qonunchilikda belgilangan ayrim holatlarda esa boshqa jismoniy shaxslar toifalari uchun davlat tomonidan ijtimoiy ahamiyatga molik (sug'urta xatarlari) deb tan olinadigan vaziyatlarni yuzaga kelishi oqibatida vujudga keladigan holatlarni minimallashtirish yoki kompensatsiya qilishga yo'naltirilgan. Ijtimoiy ta'minot aynan ushbu maqsadlar uchun mo'ljallangan maxsus mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi. Pul mablag'lari manbaiga bog'liq holda ijtimoiy ta'minotni ikki turga ajratish kerak:

- budjetning barcha darajalaridagi mablag'lari hisobiga, shu jumladan, davlatning nobudjet ijtimoiy fondlari hisobiga amalga oshiriladigan davlatning ijtimoiy ta'minoti;
- jismoniy shaxslar va (yoki) ayrim yuridik shaxslar mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan nodavlat ijtimoiy ta'minoti.

Pul mablag'larining shakllanishi tartibiga bog'liq holda davlatning ijtimoiy ta'minoti turli tashkiliy-huquqiy shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- qonunchilik tomonidan belgilangan tartiblarda va miqdorlarda, sug'urta badallari hisobiga amalga oshiriladigan davlatning ijtimoiy ta'minoti;
- byudjet mablag'lari hisobiga beriladigan davlatning ijtimoiy ta'minoti, shu jumladan, kam ta'minlangan fuqarolarga beriladigan davlatning ijtimoiy ta'minoti.

Pul mablag'lari manбайдan qat'iy nazar davlatning ijtimoiy ta'minoti turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- pul to'lovlari (nafaqalar, kompensatsiyalar, moddiy yordam va h.k.);
- moddiy yordam (kiyim, poyabzal, dori-darmonlar, oziq-ovqat mahsulotlari,

nogironlar uchun texnik moslamalar – eshitish apparatlari, qo'ltiqayoqlar, xodunoklar va h.k.);

– xizmatlar va imtiyozlar (nogironlar va qariyalar uchun internet-uylarda, bolalar uylarida shaxslarni ta'minlash, uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish va h.k.).

Ijtimoiy muhofaza tizimida ijtimoiy ta'minotning shakllanishida ijtimoiy sug'urtaning ham o'rni katta, ammo ularning elementlari o'rtasida ba'zi tafovutlar mavjud (10.1-jadval).

10.1-jadval

Ijtimoiy muhofaza tizimidagi ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta elementlarining qiyosiy jadvali

Mezonlar	Ijtimoiy ta'minot	Ijtimoiy sug'urta
Ob'yekt	Minimal davlat kafolatlaridan past bo'lmagan, maqbul turmush darajasini saqlash bilan bog'liq inson manfaatlari	Mehnat daromadi va mehnatga layoqatligini saqlash bilan bog'liq inson manfaatlari
Predmet	Maqbul turmush darajasi, ijtimoiy kafolatlar	Mehnat daromadi, mehnatga layoqatligi, hayot va salomatlik
Moliyaviy mexanizm	Byudjetdan moliyalashtirish	Sug'urta
Moliyalashtirish manbalari	Soliqlar, boj to'lovlari, budjetning boshqa tushumlari	Xodimlar, ish beruvchilarning sug'urta badallari, budjet subsidiyalari
Boshqaruv	Davlat hokimiyati va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari	Davlat, jamoatchilik, xususiy tashkilotlar
Ijtimoiy ta'minot tamoyillari	Muhtojlikka bog'liq birdamlik	Umumiylik, moliyalashtirishda ishtirokiga bog'liq birdamlik
Ijtimoiy ta'minot huquqi	Muhtojlikni tekshirish natijalari bo'yicha	Ijtimoiy sug'urtali xatarlarni qoplash bo'yicha sug'urtali holatlarning mavjudligi bo'yicha

Ijtimoiy ta'minot aholining muhtoj qatlamlariga asosan ijtimoiy transfertlar orqali yetib boradi. Ijtimoiy transfertlar deganda, aholiga davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan beg'araz tarzda pul va natural shakldagi resurslarning berilishi tushuniladi. Ijtimoiy transfertlarga fuqarolar yalpi daromadining bir qismini tashkil etuvchi pensiya, nafaqa, moddiy yordam, stipendiya va boshqa ijtimoiy to'lov, shuningdek, oilalarga natural shaklda beriladigan tovar va xizmatlar kiradi.

Ijtimoiy transfertlar vositasida hal qilinadigan maqsad va vazifalarga quyidagilar kiradi:

- aholini ijtimoiy yordam va xizmatlar bilan ta'minlash;
- jamiyatning ishlaydigan va ob'ektiv sabablarga ko'ra ish jarayoniga jalb qilinmagan ishlamaydigan a'zolari o'rtasidagi moddiy ta'minot darajasidagi farqni qisqartirish;
- insonning bozor sharoitiga moslashish davridagi salbiy omillarini qisqartirish (ishsizlik, kambag'allik va qashshoqlikning o'sishi);
- mehnat resurslarini qayta tiklashning zarur miqdori va tarkibini ta'minlash.

Ijtimoiy transfertlar tizimi davlat ijtimoiy siyosatining ajralmas qismi bo'lgani holda ijtimoiy adolat va fuqarolarning himoyalanganligini ta'minlash, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Ijtimoiy transfertlar turli shakllar va ko'rinishlarda amalga oshiriladi. Ular orasida: ijtimoiy yordam (qo'shimcha yordam); davlatning ijtimoiy kafolatlari, shu jumladan: aholining ayrim toifalariga ijtimoiy nafaqalar; ijtimoiy sug'urta (davlat sug'urtasi, majburiy va ixtiyoriy sug'urta).

Ijtimoiy yordam – davlat va notijorat tashkilotlari tomonidan aholining kam ta'minlangan qatlamlariga ularning muhtojligini tekshirish asosida ne'matlar va xizmatlarning berilishidir. Ijtimoiy yordam ob'yektiga daromadi tirikchilik minimumi chegarasidan past bo'lgan aholining kam ta'minlangan qatlamlari, shuningdek, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan odamlar kiradi. Aholining ushbu guruhlariga oilaviy daromadlarning minimal turmush standartlariga mosligini tekshirish asosida davlat o'z yordamini kafolatlaydi. Ijtimoiy yordam taqsimoti mexanizmi, mohiyatan barcha soliq to'lovchilaridan olingan budjet daromadlarining aholining muayyan qatlamlari orasida qayta taqsimlanishini anglatadi, bu esa ma'lum darajada jamiyatdagi tengsizlikni yengib o'tishga imkon beradi. Ijtimoiy yordam shaklidagi ijtimoiy transfertlar tizimi orqali aholining barcha guruhlari orasida minimal daromadning kafolatlanishi ta'minlanadi.

Davlat tomonidan ko'rsatiladigan moddiy yordamdan tashqari ijtimoiy yordam tizimiga kasaba uyushmalari, jamoat, diniy va boshqa tashkilotlar hisobidan ixtiyoriy-ijtimoiy xayriyaning turli shakllari ham kiradi. Masalan, "Nuroniy" jamg'armasi urush faxriylari va nogironlariga, yakka-yolg'iz qariyalarga yordam ko'rsatishga doir maxsus dasturlarni amalga oshiradi, faxriylarga yordam ko'rsatadi.

Davlatning ijtimoiy yordami kam ta'minlangan oilalarga, yakka yashovchi fuqarolarga, shu jumladan, boshqa toifadagi fuqarolarga ijtimoiy nafaqalar, subsidiyalar, ijtimoiy xizmatlar va hayotiy zarur tovarlarni berilishidir.

Davlatning ijtimoiy yordami quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- kishi boshiga to'g'ri keladigan daromadlari yashash minimumi miqdoridan kam bo'lgan kam ta'minlangan oilalar, shu jumladan, yakka yashovchi fuqarolarni hayot darajasini ushlab turish;
- byudjet mablag'laridan manzilli foydalanish;

- muhtoj fuqarolarni manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish;
- ijtimoiy xizmatlarning barchaga barobarligini va ijtimoiy me'yorlardagi sifatini ta'minlash uchun kerakli sharoitlarni yaratish;
- ijtimoiy tengsizlik darajasini kamaytirish;
- aholi daromadlarini ko'tarish maqsadlarida beriladi.

Moliyalashtirish manbaiga bog'liq holda davlatning ijtimoiy yordami davlat yoki mahalliy budjet mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi mumkin.

Qonun davlat ijtimoiy yordamining turli shakllari bo'lishini nazarda tutadi:

- ijtimoiy nafaqalar – budjet tizimining mos ravishdagi budjet mablag'lari hisobiga ma'lum bir miqdordagi pul mablag'larining fuqarolarga berilishi.
- subsidiya – fuqarolarga ijtimoiy xizmatlarni to'liq yoki qisman berilishini nazarda tutuvchi maqsadli to'lovlar.
- ijtimoiy xizmatlar majmui – ayrim toifadagi fuqarolarga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar ro'yxati.

Imtiyoz – bu jamiyat tomonidan o'ziga xos himoyaga muhtojligi bilan bog'liq bo'lgan, noqulay vaziyatlar va oqibatlarni qandaydir darajada bartaraf etilishiga imkon beruvchi va bularning hisobiga o'ziga xos ijtimoiy himoyaga muhtoj deb topilishi mumkin bo'lgan ayrim toifadagi fuqarolarga yoki oilalarga o'ziga xos ustunlik yoki afzalliklar berilishidir.

Amaldagi qonunchilik aholining turli toifalari uchun juda ko'plab imtiyozlar berilishini nazarda tutadi, ular turli shakllarda va turli asoslar bo'yicha beriladi. Avvalambor ijtimoiy imtiyozlarni, ular ijtimoiy asoslar bo'yicha beriladi (kam ta'minlanganlik, qarilik, kasallik, ko'p bolalilik, nogironlik va h.k.) va imtiyozlarni, ular boshqa turli vaziyatlar bo'yicha beriladi (faoliyat turi, xizmat vazifasi – sud'yalar, deputatlar, harbiy xizmatchilar va h.k.) farqlash zarur.

Ijtimoiy imtiyozlar o'z navbatida ikkita asos bo'yicha berilishi mumkin:

- kam ta'minlanganlik (nafaqaxo'rlar, pensionerlar, ko'p bolalilar, nogironlar) asosida;
- o'ziga xos xizmatlar (qahramonlar, shuhrat ordenining to'liq kavalerlari, nogironlar va h.k.). Ba'zida imtiyoz olinishida ushbu ikkita asoslar bir vaqtning o'zida imtiyoz oluvchida mavjud bo'lishi mumkin.

Imtiyozlarni turlari bo'yicha ikkita shaklga bo'lish qabul qilingan: moddiy va nomoddiy. Moddiy tavsifdagi imtiyozlarning mohiyati shundan iboratki, bunda imtiyoz oluvchi u yoki bu tovar yoki xizmatga umume'tirof etilgan shaklda pul to'lashdan ozod etiladi yoki uni maxsus, imtiyozli narxda (50%) sotib oladi. Nomoddiy tavsifdagi imtiyoz u yoki bu huquqdan ma'lum bir navbat mavjudligi hollarida boshqalarga nisbatan oldiroq olish foydalanish imkoniyatida (bunday imtiyozga ega bo'lmagan boshqa odamlarga nisbatan) yoki birinchi navbatda yoki navbatsiz xizmat ko'rsatilishi huquqini o'zida mujassam etadi.

Mazmuniga ko'ra quyidagi imtiyoz turlarini keltirish mumkin:

- jamoat transportida, shahar atrofi transportida, shu jumladan, temir yo'l, havo va suv transportlarida, shaharlararo avtomobil transportida (tekin yoki imtiyozli narxlarda) harakatlanish bo'yicha imtiyozlar;

- uy-joy, kommunal xizmatlar va yonilg'i uchun pul to'lash bo'yicha imtiyozlar;
- telefonni o'rnatish (navbatdan tashqari, birinchi navbatda, tekin, imtiyozli narxlarda) va foydalanish (tekin, imtiyozli narxlarda) bo'yicha imtiyozlar;
- soliq bo'yicha imtiyozlar;
- uy-joy qurilishi uchun ssudalarning berilishidagi imtiyozlar;
- uy-joy berilishi (navbatdan tashqari, birinchi navbatda, tekinga) bo'yicha imtiyozlar;
- sanatoriy-kurortlarda davolashga yo'llanmalarni berilishi bo'yicha imtiyozlar;
- tibbiy-ijtimoiy yordam va dori-darmonlarni (tekinga, imtiyozli narxlarda) berilishi bo'yicha imtiyozlar;
- transport vositalari bilan ta'minlash, ularni tutib turish va xizmat ko'rsatilishi bo'yicha imtiyozlar;
- turli kooperativlarga (uy-joy, dala hovli, bog'cha-hovli, garaj va h.k.) kirishidagi ustuvorlik huquqini berilishi bo'yicha imtiyozlar;
- savdo, maishiy xizmat ko'rsatish, aloqa, madaniy-ma'rifiy va sport-sog'lomlashtirish muassasalarida navbatdan tashqari (birinchi navbatda) xizmat ko'rsatilishi bo'yicha imtiyozlar;
- boshqa imtiyozlar.

Ijtimoiy kafolatlar tizimi barcha fuqarolarga, ularning mehnat ulushi va muhtojligini tekshirmagan holda ijtimoiy ahamiyatli ne'matlar va xizmatlar ko'rsatilishini nazarda tutadi. Bunda jamiyatning resurs imkoniyatlari hisobga olingan holda ehtiyojga ko'ra taqsimlash tamoyili amal qiladi. Resursni hisobga olish esa ushbu kafolatlar miqdorini belgilaydi. Bunday kafolatlarning minimal to'plami va darajasi har bir mamlakatning muayyan tarixiy shart-sharoitiga qarab o'zgarib turadi. Ijtimoiy transfertlarning mazkur shakli umumiy soliqqa tortish va ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilgan harajatlarning budjet hisobidan moliyalanishiga asoslanadi. Hozirgi sharoitda sanab o'tilgan budjet harajatlari hajmi birmuncha cheklangan bo'lib, budjetning daromad qismini va ijtimoiy kafolatlarga yo'naltiriladigan harajatlarni qismini oshirish hisobiga ko'paytirilishi mumkin.

Ijtimoiy sug'urta tizimi orqali amalga oshiriladigan transfertlar aholining mehnatga layoqatsizligini, daromaddan mahrum bo'lishni keltirib chiqaruvchi turli ijtimoiy xatarlardan himoyalashga qaratilgan. Bular orasida kasallik, baxtsiz hodisa, onalik va bolalik, ihsiz qolish, qarilik, boquvchisini yo'qotish kabilarni sanab o'tish mumkin. Transfertlarning ushbu toifasi uchun mablag'larni, shu jumladan, shaxsiy mablag'larni o'ziga xos tarzda oldindan to'plash xos bo'lib, sug'urta holati ro'y berganda sug'urtalovchiga hagg to'lanadi.

Ijtimoiy to'lovlarning eng keng qo'llaniladigan turlari bu nafaqa, pensiya va stipendiyalardir.

Nafaqa – fuqarolarga qonunchilikda ko'zda tutilgan hollarda qisman yoki to'liq mehnatga layoqatsizlik, og'ir moddiy sharoit, bolali oilalarni qo'llab-

quvvatlash, shuningdek, qarindoshlardan biri vafot etgan taqdirda muntazam yoki bir marta beriladigan pul to'lovlaridir. Shuningdek, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik, oilaviy va bolalik nafaqalari, ishsizlik bo'yicha nafaqalar ko'zda tutilgan.

Oilalar daromadining shakllanishiga bolalar tug'ilishi va ularni tarbiyalash bilan bog'liq ijtimoiy to'lovlar: homiladorlik va tug'ruq bilan bog'liq to'lovlar; homiladorlikning boshlang'ich davrida tibbiyot muassasalarida ro'yxatdan o'tgan ayollarga bir marta to'lanadigan yordam puli; bola ikki yoshga to'lguncha uni parvarishlash uchun to'lanadigan oylik nafaqalar; bolaga to'lanadigan oylik nafaqa puli; uch yoshgacha bo'lgan farzandi bor fuqarolarga kompensatsiya to'lovlari jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Sanab o'tilgan nafaqalar va to'lovlar orasida onalik va bolalikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoyalash choralariga quyidagilar kiradi: maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan imtiyozlar, boshlang'ich, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan yoshlarga davlat kafolatlari, yolg'iz onalarga, ko'p bolali oilalarga qo'shimcha imtiyozlar, soliq imtiyozlari.

Ishsiz qolgan kishilarni ijtimoiy himoyalash choralari yashash uchun zarur bo'lgan minimal shart-sharoitlarni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, eng avvalo, ishsizlik bo'yicha nafaqada jamlangan. Ishsizlik bo'yicha nafaqa puli – mehnat staji bor, tegishli badallar to'langan, muayyan davr mobaynida bandlikka ko'maklashish markazida muntazam ro'yxatdan o'tgan shaxsga beriladigan yordam pulidir.

Ish beruvchi tashabbusiga ko'ra mehnat shartnomasi bekor qilinsa davlat kasbiy tayyorgarlikdan o'tish davrida, qayta tayyorlanish yoki malaka oshirish davrida stipendiya to'lanishini, haq to'lanadigan jamoat ishlaridan qatnashish imkoniyatini, bandlik xizmati taklifiga ko'ra boshqa joyga ko'chish bilan bog'liq harajatlar to'lanishini kafolatlaydi.


Stipendiya – bu ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiydigan oliy o'quv yurtlari talabalariga to'lanadigan muntazam pullik to'lovdur. Ushbu to'lovlar miqdori nisbatan yirik bo'lmasa-da, ular fuqarolarning oilaviy daromadlarini shakllantirishda o'z vazifasini bajaradi.

Pul shaklidagi to'g'ridan-to'g'ri to'lovlar (nafaqalar, pensiyalar, stipendiyalar)dan tashqari bevosita ijtimoiy transfertlar oluvchi fuqarolarga keng ma'noda davlatning boshqa harajatlari ham, masalan, mahsulot ishlab chiqaruvchi va aholiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilot va korxonalariga subsidiya berish (uy-joy kommunal xo'jalik va jamoat transportiga yordam puli) ham kiritiladi. Ko'pincha ijtimoiy yordam ko'rsatish shakllari bir-birini to'ldiradi yoki bir paytda qo'llaniladi. Masalan, nogironlarga ijtimoiy imtiyozlar va kompensatsiyalar turlicha to'lovlardan tashkil topishi mumkin. Nogironlarga to'lanadigan pensiyalardan tashqari davlat harajatlarning tasdiqlangan me'yorlaridan kelib chiqqan holda yoki amaliy harajatlarni qoplash tartibida nogironlar uylarini saqlash harajatlarini amalga oshiradi. Nogironlar uchun protezlar, dori-darmon va transport harajatlariga, shuningdek, xususiy nogironlar uyi tomonidan

ko'rsatiladigan xizmatlarning haqi qisman to'lanadi. Qonunchilikda nogironlar mehnatidan foydalanadigan va nogironlarga zarur bo'lgan tovarlar ishlat chiqaruvchi korxonalariga subsidiya va soliq imtiyozlari berilishi ko'zda tutilgan.

10.2. Ijtimoiy nafaqalar va ularning turlari

Nafaqa tegishli budjet mablag'lari hisobidan pul mablag'larini beg'araz tarzda to'lash, aniq maqsadga yo'naltirilgan pul mablag'laridir. Ularning ayrimlarini ob'yektiv sabablarga ko'ra ish haqi yo'qotilgani tufayli belgilansa, boshqalari aholining ayrim guruhlarini ijtimoiy himoyalash maqsadida tayinlanadi. Birinchi holdagi nafaqalarga vaqtinchalik ishga layoqatsizlik, homiladorlik va tug'ruq bo'yicha, ishsizlik va boshqa shu kabi holatlar bo'yicha to'lanadigan nafaqalar kiradi. Ikkinchi turiga ayollar va bolalarga bir martalik to'lovlar, bolalarni parvarishlash bilan band bo'lgan oilalarga to'lanadigan nafaqa, dafn marosimi uchun to'lanadigan nafaqa va maqsadiga ko'ra boshqa to'lovlar kiradi.



10.1-rasm. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqa turlari

Yoshi bo'yicha nafaqalar. Yoshi bo'yicha nafaqa ish stajiga, ularni boqishga bo'lgan qarindoshlari bo'lmagan shaxslar: erkaklarga 65 yoshga, ayollarga 60 yoshga yetganlarida tayinlanadi. Ijtimoiy ta'minot bo'limlari tekshiruviga ko'ra, nafaqa so'rab murojaat etgan shaxs qarindoshlarining moddiy nochorligi aniqlangan hollarda nafaqa o'zlarining keksa qarindoshlariga moddiy yordam ko'rsata olmaydigan qarindoshlar bor bo'lgan taqdirda ham tayinlanishi mumkin. Yoshi bo'yicha nafaqa tayinlash to'g'risida murojaat etgan shaxs tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limiga ariza, ariza beruvchining yoshini tasdiqlovchi hujjat, yashash joyidan ma'lumotnoma, ariza beruvchi oilasining umumiy daromadi to'g'risida ma'lumotnoma taqdim etilishi lozim. Fuqaroning holati o'rganilib chiqqandan so'ng unga ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan nafaqa tayinlanadi.

Nogironlik bo'yicha nafaqalar. Nogironlik sodir bo'lgan hollarda, ya'ni mehnat qobiliyati doimiy yoki uzoq muddatga yo'qotilganda, faqat I- va II-guruh

nogironlarga tayinlanadi va to'lanadi. Fuqarolarning mehnat qobiliyatlarini yo'qotganlik darajasini aniqlash uchun tibbiy tekshirishni faqat tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari o'zlarini tasdiqlagan Nizom asosida shahar yoki tuman ijtimoiy ta'minot bo'limlari yo'llanmasi bo'yicha amalga oshiradi. Ishlab turgan yoki yashashning boshqa manbalariga ega bo'lgan I- va II-guruh nogironlarga nafaqa to'lanmaydi.

Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqa. Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan shaxs vafot etgan taqdirda uning qaramog'ida bo'lgan oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqa olish huquqiga ega. Vafot etganing oila a'zolariga nafaqalar miqdori quyidagicha belgilanadi:

- oilaning uch va undan ortiq mehnatga layoqatsiz a'zosiga – vafot etgan fuqaro olgan yoki olish huquqiga ega bo'lgan nafaqaning 100 foizi;
- oilaning mehnatga layoqatsiz ikki a'zosiga nafaqaning 75 foizi;
- oilaning mehnatga layoqatsiz bir a'zosiga nafaqaning 50 foizi.

Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqa tayinlashda tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limiga boquvchisining vafot etganligi to'g'risida guvohnoma va bolalarning tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnomalar nusxasi taqdim etiladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi. Nafaqaning bu turi quyidagi hollarda beriladi:

- vaqtincha mehnatga qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq kasallikda;
- sanatoriy-kurortlarda davolanganda;
- kasallanganda oila a'zosini parvarishlash zarur bo'lganda;
- karantinda;
- sil yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o'tkazilganda;
- mehnat qobiliyatini tiklash yoki yasama a'zo (protez) qo'ydirish uchun reabilitatsiya muassasalariga yotqazilganda.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini tayinlash uchun faqat belgilangan tartibda berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik (kasallik) varaqasi asos bo'ladi. Nafaqaning bu turi mehnat qobiliyati yo'qotilgan birinchi kundan to u tiklanguncha qadar yoki tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi tomonidan nogironlik belgilangunga qadar beriladi.

Ishlayotgan nogironlarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqa mehnatda mayiblanish hodisalari yoki kasb kasalligidan tashqari ketma-ket ikki oydan va kalendar yilda uch oydan oshmagan muddatga beriladi. Ishlayotgan imtiyozli jihatdan ikkinchi jahon urushi nogironlariga tenglashtirilgan nogironlarga, Chernobil AESdagi falokat yoki uning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha ishlarni bajarish bilan bog'liq sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan shaxslarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi ketma-ket to'rt oygacha yoki kalendar yilda besh oygacha beriladi. Agar ishlayotgan nogironning vaqtincha mehnatga layoqatsizligi mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi tufayli yuz bersa, nafaqa u to'la sog'ayguncha yoki mehnatda mayiblanish yoxud kasb kasalligi bilan nogironlik guruhi qayta ko'rib chiqilgunga qadar to'lanadi. Sil kasalligi oqibatida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqa shaxs to'la

sog'aygunga qadar, lekin ko'pi bilan 10 oyga beriladi. Xodim sil kasalligi bilan qayta kasallanganda yoki sil kasalligi oqibatida nogiron deb topilganda nafaqa ko'pi bilan 6 oyga beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik quyidagi davrlarga to'g'ri kelganda nafaqa to'lanmaydi:

- ish haqi saqlanmagan ta'til;
- bolani parvarishlash bo'yicha ta'til;
- ish vaqtincha to'xtatilganda;
- xodim ish (lavozim)dan chetlashtirib, mehnat haqi to'lash to'xtatib qo'yilganligi sababli ishlamaganda;
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'quv yurtlarida tahsil olish munosabati bilan berilgan qo'shimcha ta'tilda.

Bulardan tashqari, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ishdan yoki boshqa vazifalardan bo'yin tovlash maqsadida o'z salomatligiga ataylab ziyon yetkazgan yoxud o'zini kasallikka solganda; giyohvandlik yoki mastlik bilan bog'liq harakatlar oqibatida, shuningdek, spirtli va giyohvandlik moddalarni iste'mol qilish natijasida kasallikka chalinganda; jinoyat sodir qilish vaqtida jarohatlanganda; sud qarori asosida majburiy davolanishga yuborilganda; hibsdan bo'lgan davrda; sud-tibbiyot ekspertizasidan o'tish davrida berilmaydi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ish stajining davomiyligidan qat'iy nazar ish haqining 100 foizi miqdorida ishlayotgan ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga; baynalminal janchilarga va ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga; qaramog'ida 16 yoshga (o'quvchilar 18 yoshga) yetmagan uch yoki undan ortiq bolalari bo'lgan xodimlarga; Chernobil AESdagi avariya natijasida radioaktiv ifloslanish zonasidan evakuatsiya qilingan va ko'chirilgan, qon hosil qiluvchi organlar kasalliklari va xavfli o'smalar bilan bog'liq kasalliklarga chalingan xodimlarga; mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi natijasida vaqtincha mehnatda yaroqsiz bo'lgan xodimlarga to'lanadi.

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklar (sil kasalligi, onkologiya kasalliklari, xavfli o'simtalar, jinsiy yo'l bilan o'tadigan kasalliklar, OITS, moxov kasalligi, ruhiy kasalliklar) bo'yicha hisobga turgan xodimlarga ular tomonidan davlat ijtimoiy sug'urta badallari to'lagan davrining (umumiy ish stajining) davomiyligiga bog'liq ravishda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi miqdorda to'lanadi:

- umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga ish haqining 100 foizi miqdorida;
- umumiy ish staji 5 yilda 8 yilgacha bo'lgan xodimlarga ish haqining 80 foizi miqdorida;
- umumiy ish staji 5 yilgacha bo'lgan xodimlarga ish haqining 60 foizi miqdorida.

Yuqorida keltirilgan xodimlardan tashqari qolgan xodimlarga: umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga hamda 21 yoshga yetmagan chin yetimlarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi mehnat haqining 80 foizi

miqdorida; umumiy ish staji 8 yilgacha bo'lgan xodimlarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi mehnat haqining 60 foizi miqdorida to'lanadi.

Umuman, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa barcha hollarda belgilangan eng kam ish haqidani kam bo'lmasligi va nafaqa hisoblab chiqarilgan ish haqidani yuqori bo'lmasligi lozim.

Sanatoriy-kurortlarda davolanganda beriladigan nafaqa. Sanatoriy-kurortlarda davolanishda, agar xodimning ta'til kunlari uning davolanishi uchun yetarli bo'lmasa, u holda unga sanatoriy-kurortda davolangan barcha kunlari uchun, xodimning mehnat ta'til kunlari chiqarib tashlagan holda nafaqa hisoblanadi. Xodim mehnat ta'tilidan sanatoriy-kurortga borishdan avval foydalangan bo'lsa ham nafaqa mehnat ta'tili kunini chiqarib tashlagan holda hisoblanadi. Bunda tashkilot xodimning sanatoriy-kurortda davolanishi uchun ta'tilning yetmaydigan kunlari uchun xodim bilan kelishib, xodimga mehnat haqi saqlanmagan ta'til beradi. Ikkinchi jahon urushi nogironlariga, baynalminal jangchilarga, Chernobil AES falokati oqibatlarini tugatishda qatnashgan shaxslarga, shuningdek, sanatoriyga davolanishni davom ettirish uchun davolash muassasalaridan o'tkir miokard infarkti bilan kasallangan, jarroxlik uslubi bilan yurakni aort-akonorar shuntrovkasi va anevarizmlari, oshqozonning yara kasalliklari, o'n ikki barmoq ichak kasalligidan davolangan va o't pufagi olib tashlashdan keyin bevosita yuborilgan xodimlarga, shuningdek, sil kasalligi bilan og'riqlariga nafaqa sanatoriyda bo'lgan barcha vaqtlar uchun hisoblanadi. 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolani tarbiyalayotgan ota-onalardan biriga, nogiron bolaning sanatoriyda davolangan barcha davri uchun unga yakka tartibda parvarishlash zarurligi to'g'risidagi tibbiy xulosa mavjud bo'lganda nafaqa beriladi.

Kasallangan oila a'zosini parvarishlash zarur bo'lganda beriladigan nafaqa. Uch yoshgacha bo'lgan bolani yoki 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolani parvarishlashda band bo'lgan ona kasal bo'lib, bolani parvarishlashga qurbi yetmay qolgan hollarda, parvarish bilan band bo'lgan ishlayotgan boshqa oila a'zolari yoki qarindoshlariga mehnatga layoqatsizlik varaqasiga asosan nafaqa beriladi. Oilaning kasal bo'lgan a'zosiga qarash bo'yicha vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bemor birovning parvarishiga muhtoj bo'lgan, lekin 7 kalendar kunidan oshmagan davr uchun beriladi. 14 yoshga yetmagan bemor bolaga qarash uchun vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bolaga parvarish kerak bo'lgan, ammo 14 kalendar kunidan oshmagan davr uchun beriladi.

Homiladorlik va tuqqandan keyingi davrlar bo'yicha nafaqa. Homiladorlik va tuqqandan keyingi davrlar ta'tili sifatida ayollarga tuqqaniga qadar 70 kalyendar kun va tuqqanidan keyin 56 kalyendar kun (tug'ish qiyin kechgan yoki ikki va undan ortiq bola tug'ilgan hollarda – 70 kalendar kun) ta'til beriladi. Bu nafaqani tayinlash va to'lash uchun belgilangan tartibda mehnatga layoqatsizlik varaqasi asos bo'ladi hamda ko'rsatilgan barcha davr uchun to'lanadi. Oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarini tamomlagan va belgilangan tartibda ishga yuborilgan ayollarga ishni boshlagunga qadar homiladorlik va

tug'ish bo'yicha berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi asosida nafaqa ayol ishga kelishi lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi. Ishni vaqtinchalik to'xtatish yoki ishlab chiqarish ajralmagan holda o'quv yurtlarida tahsil olish munosabati bilan berilgan qo'shimcha ta'til davrida homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til berilgan holda, nafaqa ko'rsatilgan davr tugagandan keyin ayol chiqishi lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi. Xodim yillik ta'tilda va bolani parvarishlash uchun ta'tilda bo'lgan vaqtda homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til berilganda, nafaqa homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko'rsatilgan barcha kunlari uchun beriladi. Bolani parvarishlash bo'yicha ta'til davri uchun nafaqa ta'rif stavkasidan (lavozim maoshidan) va ta'til boshlanishidan oldingi 12 oy mobaynida olingan mukofotlarning o'rtacha oylik summasidan hisoblab chiqariladi. Bunda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi ochilgan kuniga bo'lgan tarif stavkasi joylarda belgilangan tuman koeffitsiyenti va ustamalarni hisobga olgan holda olinadi.

Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa, shu jumladan, ayrim hollarda, ya'ni mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilingandan keyin bir oy ichida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik yoki homiladorlik va tug'ish ta'tili boshlangan bo'lsa, nafaqa yashash joyidagi tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan ish haqining 100 foizi miqdorida beriladi.

Bola tug'ilganda beriladigan nafaqa. Bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida beriladi. Ish haqiga koeffitsiyent qo'llaniladigan tumanlarda nafaqa ushbu koeffitsiyentlarni hisobga olgan holda belgilanadi. Ishlayotgan ayollarga hamda ishlab chiqarishdan ajralgan holda oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan ayollarga bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa tegishli ish yoki o'qish joyidan to'lanadi. Ishlamaydigan va o'qimaydigan ota-onalarga bola tug'ilganda beriladigan nafaqa ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan tayinlanadi va to'lanadi. Agar ayol homiladorlik bo'yicha ta'til davrida ishdan bo'shab, shu davr mobaynida homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa olgan bo'lsa, bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi. Bola o'lik tug'ilgan hollarda nafaqa to'lanmaydi.

Qo'shimcha dam olish kuni uchun nafaqa. Bu nafaqa nogiron bolasini tarbiyalayotgan ishlovchi ota-onaning biriga bola o'n olti yoshga to'lgunga qadar davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdorida haq to'lagan holda oyiga qo'shimcha bir dam olish kuni beriladi.

Dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa. Dafn etish marosimi uchun nafaqa xodim yoki uning qaramog'ida bo'lgan quyidagi oila a'zolari vafot etganda beriladi:

- turmush o'rtog'i;
- 18 yoshga to'lmagan yoki vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz (yoshidan qat'i nazar) bolalari, aka-ukalari va opa-singillari;
- ota-onasi;
- bobosi yoki buvisi.

Xodim vafot etganda dafn etish marosimi uchun nafaqa oila a'zolariga yoki dafn o'tkazishni o'z zimmasiga olgan shaxslarga tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan eng kam oylik ish haqining uch baravari miqdorida beriladi. Ishlamaydigan pensioner vafot etgan taqdirda dafn etish marosimi uchun nafaqa uning oilasiga yoki pensionerning dafn marosimini o'tkazgan shaxsga ikki oylik pensiya miqdorida, lekin eng kam oylik ish haqining ikki hissasidan kam bo'lmagan miqdorida to'lanadi. Ayolning homilasi tushgan hollarda dafn etish marosimi uchun nafaqa berilmaydi.

Muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan xodim yoki uning oila a'zosi vafot etgan taqdirda dafn etish marosimi uchun nafaqa, agar unga so'nggi ish haqi to'langan kundan bir oydan ko'p vaqt o'tmagan bo'lsa beriladi. Oliy, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan shaxslar, maktablar, malaka oshirish institutlari o'quvchilari yoki ularning oila a'zolari vafot etganda, agar ular kurslarga, maktablarga, institutlarga korxonaga tomonidan yuborilgan bo'lsalar va ularning o'qish davridagi ish haqi to'la yoki qisman saqlanib qolgan bo'lsa, dafn etish marosimi uchun nafaqa eng kam oylik ish haqining uch baravari miqdorida beriladi.

Ishsizlik bo'yicha nafaqa. Qonunda belgilangan tartibda ishsiz deb tan olingan fuqarolarga ishsizlik bo'yicha nafaqa beriladi. Ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan shaxslar uchun ishsizlik nafaqasi oldingi ish joyidagi oxirgi bir yilgi o'rtacha ish haqiga foiz nisbatida belgilanadi. Boshqa hollarda ishsizlik nafaqasi qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdoriga foiz nisbatida belgilanadi. Qaramog'ida 16 yoshga to'lmagan bolalari va boshqa kishilar bo'lgan ishsiz shaxslarga nafaqa miqdori 10 %ga oshiriladi. Ish haqiga koeffitsiyentlar belgilangan joylarda yashovchi shaxslarga tayinlanadigan ishsizlik nafaqasi miqdorlari ularning shu joylarda yashagan davri uchun mazkur joyda noishlab chiqarish tarmoqlarining xodimlariga belgilangan koeffitsiyentni qo'llagan holda aniqlanadi. Ishsizlik nafaqasi davlat bandlikka ko'maklashish jamg'armasi hisobidan tayinlanadi.

Ishsizlik nafaqasining quyidagi turlari farqlanadi:

1. Birinchi marta ish qidirayotganlar shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik nafaqasi;

2. Uzoq tanaffusdan keyin ish qidirayotgan shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik nafaqasi.

Birinchi marta ish qidirayotgan shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik nafaqasi ilgari ishlamagan va ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga mahalliy mehnat organi tomonidan kasbga tayyorlash yoki ishga joylashish imkoniyati berilmagan taqdirda, ularda qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining kamida 75 foizi miqdorida nafaqa to'lash kafolatlanadi.

Uzoq tanaffusdan keyin ish qidirayotgan shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik bo'yicha nafaqa uzoq (bir yildan ortiq) tanaffusdan keyin mehnat faoliyatini qayta boshlashga harakat qilayotgan ishsiz fuqarolarga to'lanadi. Bu quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

– mutaxassisligi bo'lgan shaxslar uchun, shuningdek, 12 oy mobaynida haq to'lanadigan ish bilan bandligi 12 kalendar haftadan kam bo'lmagan shaxslar uchun, agar ularning ishga joylashishi uchun kasbga qayta o'rgatish yoki malakasini oshirish talab qilinmasa, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidani oz bo'lmagan miqdorda;

– boshqa hollarda, shu jumladan, mutaxassisligi bo'lmagan shaxslarga, mahalliy mehnat organi tomonidan kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish imkoniyati berilmagan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining 75 foizi miqdorida.

Ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

– ishsiz shaxs zarur kasb malakasiga ega bo'lmaganligi tufayli unga maqbul keladigan ish tanlash mumkin bo'lmasa;

– ishsiz shaxsning kasb ko'nikmalariga mos keladigan ish yo'qligi sababli uning kasbini o'zgartirish zarur bo'lsa;

– ishsiz fuqaro avvalgi kasbi bo'yicha ish bajarish qobiliyatini yo'qotgan bo'lsa.

Ishsiz fuqarolarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish o'quv yurtlarida mehnat organlarining yo'llanmalari bo'yicha davlat bandlikka ko'maklashish jamg'armasining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Ish beruvchi tomonidan to'lanadigan nafaqa. Nafaqaning mulkchilik shaklidan va xo'jalik yuritish usulidan qat'iy nazar, ish beruvchilar korxonada (tashkilotda) mehnat shartnomasi tuzish asosida yollanib mehnat qiluvchi xodimlariga to'lanadigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, bir yo'la beriladigan nafaqa hisoblanadi. Xodim ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisa yoki boshqa xil shikastlanish tufayli sog'lig'iga zarar yetganda, shuningdek, u kasb kasalligiga chalinish tufayli salomatligi yomonlashganda, ish beruvchi unga bir yillik o'rtacha ish haqidani kam bo'lmagan miqdorda bir yo'la beriladigan nafaqa to'laydi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi tufayli xodim vafot etgan taqdirda ish beruvchi uning qaramog'ida bo'lgan shaxslarga olti yillik o'rtacha ish haqidani kam bo'lmagan miqdorda nafaqa to'laydi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi tufayli sog'lig'iga zarar yetgan yoki vafot etgan xodim qaramog'ida bo'lgan fuqarolarga nafaqa to'lash shartlari va tartibi. nafaqaning aniq miqdori tegishli qonun hujjatlarida, jamoa kelishuvlari va jamoa shartnomalarida, boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilanadi.

10.3. Minimal ijtimoiy standartlar va me'yorlar

Minimal ijtimoiy standartlar – bu davlat qonunlari va hukumat qarorlari asosida muayyan davrga nisbatan ijtimoiy kafolatlarning minimal darajasidir. Bunda ijtimoiy me'yorlar va insonning moddiy ne'matlari, umumfoydalanish va bepul xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini aks ettiradi, iste'molning tegishli darajasini

kafolatlaydi va u shu maqsadlarga qaratilgan budget harajatlarining majburiy minimumini belgilash uchun mo'ljallangan. Shuningdek, ijtimoiy standartlar tizimi davlat tomonidan tarkibiga ko'ra xilma xil bo'lgan ijtimoiy sohaning me'yoriy-huquqiy mexanizmini yaratishga yo'naltirilgan bo'lib, u davlat budgeti hisobidan ijtimoiy harajatlarni ko'paytirish asosida fuqarolarga asosiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash maqsadiga qaratilgan. Hozirgi paytda turli darajalardagi budgetlarni shakllantirishda bir qator ko'rsatkichlar bo'yicha ijtimoiy me'yorlardan foydalaniladi. Ularning qonunlar yoki boshqa huquqiy hujjatlar bilan belgilab qo'yilgan asosiy qismi mehnat, unga haq to'lash, bandlik va ijtimoiy ta'minot borasidagi minimal davlat kafolatlarni belgilab beradi. Shu bilan birga, ko'p hollarda ushbu me'yorlar inflyatsiya sur'ati va mavjud moliyaviy imkoniyatlarga ko'ra belgilanadi. Mahalliy hokimiyat organlari hududiy xususiyatlardan va mavjud moliyaviy resurslardan kelib chiqqan holda ijtimoiy me'yorlarga tuzatishlar kiritishlari mumkin.

Tirikchilik uchun zarur minimumdan tashqari insonning asosiy ehtiyojlarini qondirishning minimal zaruriy darajasini ta'minlovchi minimal standartlar ham mavjud bo'lib, ular qonun orqali belgilanadigan turar-joy bilan ta'minlanganlik, sog'liqni saqlash va ta'lim, madaniyat, mehnat sharoiti va muhofazasi, atrof-muhit holati me'yorlaridir.

Konstitusiyada har bir fuqaroning turar joyga bo'lgan huquqi ko'zda tutilgan. Davlat hokimiyati organlari va mahalliy hokimiyat organlari qonunchilikka muvofiq turar-joy qurilishini rag'batlantirishi va turar-joy huquqini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratishi zarur. Kam ta'minlangan kishilar va turar-joyga muhtoj boshqa odamlarga qonunchilikda ko'zda tutilgan me'yorlar asosida davlat uy-joy fondi hisobidan uy-joy beriladi.

Uy-joy bilan ta'minlanganlikning me'yori sifatida islohotlargacha bo'lgan davrda davlat tomonidan aholiga jamoatchilik turar-joy fondidan uy-joy berishda asos hisoblangan tegishli turar-joy sanitariya me'yori qabul qilingan. Sobiq Ittifoqda uy-joy sanitariya me'yori bir kishiga 9 kv.m hisoblangan, taqiqotlar natijalariga ko'ra, bu miqdor insonning fiziologik funksiyalari normal kechishi uchun yetarli bo'lgan. Bunda insonga nisbatan havu kubi asos qilib olingan. Jahon fani va amaliyoti shuni ko'rsatdiki, insonga zarur havoning eng quyi chegarasi 25-30 kv.m ni tashkil etadi, uy-joyning minimal balandligi 2,8 kv.m bo'lgani holda bir insonga 8,93 kv.m to'g'ri keladi. Aynan shundan kelib chiqqan holda 9 kv.m (minimal) belgilangan. Kelgusida bu me'yor yanada ko'paytirilishi, ayni paytda mahalliy tabiiy-iqlim sharoitlariga ko'ra moslashtirilishi kerak.

Sog'liqni saqlash sohasida aholining tibbiy yordamga va tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishning minimal darajasini baholash uchun shifokorlar, bemor o'rinlari, poliklinika va ambulatoriya muassasalari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. 1996 yilda ijtimoiy sohada, xususan, tibbiy sohada amal qiluvchi ijtimoiy me'yorlar tasdiqlangan. Ular ijroiya hokimiyat organlari tomonidan moliyaviy va budget rejalashtirishda foydalanish uchun tayyorlangan.

Sug'urta tibbiyoti va pullik tibbiyot xizmatlariga o'tish sharoitida mamlakat fuqarolariga davlat sog'liqni saqlash muassasalarida tegishli budget mablag'lari, sug'urta badallari va boshqa tushumlar hisobidan qoplanadigan bepul tibbiy yordam kafolatlangan. Shu bilan birga, hozirgi kunda aholi sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash bo'yicha davlat dasturlari moliyalanmoqda, tibbiyotning davlat va xususiy sektorlarini rivojlantirish choralari ko'rilmogda, aholi salomatligini mustahkamlashga, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga, iqtisodiy va sanitariya-epidemiologik ko'maklashuvchi faoliyat rag'batlantirilmogda.

Maorif sohasida davlat ta'lim muassasalarida maktabgacha ta'lim, asosiy umumiy ta'lim va o'rta kasb-hunar ta'limi kafolatlanadi. Bunda asosiy umumiy ma'lumotning majburiyiligi belgilangan. Har bir fuqaro tanlov asosida davlat muassasida oliy ta'lim olishga haqli. Bu ta'lim muassasalarida davlat ta'lim standartlari belgilanadi, ta'lim olish va mustaqil ta'lim olishning turli shakllari qo'llab-quvvatlanadi. Ta'lim muassasalari bilan ta'minlanganlik standartlari sifatida quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi: maktabgacha ta'lim muassasalaridagi o'rinlar soni, turli tipdagi umumta'lim maktablaridagi sinflarning to'ldirilishi darajasi va h.z.

Madaniyat sohasidagi ijtimoiy me'yorlarni belgilashga bo'lgan yondashuvlar ham shunga o'xshash. Bu yerda standartlar rolini shahar va qishloq joylarida ommaviy kutubxonalar, kionoteatrlar, madaniyat uylari tarmog'ini rivojlantirish va h.z.lar bajaradi. Mehnatni va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida minimal davlat standartlari sifatida qonunchilik tomonidan belgilangan havo, suv va ish joyida fuqarolarning mehnatga layoqatiligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi kimyoviy va boshqa birikmalarning nihoyaviy yo'l qo'yiladigan konsentratsiyasi qabul qilingan. Ushbu maqsadda yuklarni ko'chirish, ularni ma'lum balandlikka ko'tarish me'yorlari va ishlab chiqarish muhitining yo'l qo'yiladigan boshqa og'irlik va zararlilik me'yorlaridan foydalaniladi.

Mehnat va ishlab chiqarish sharoitini yaxshilash sohasidagi qonunchilik mehnat yanada insonparvar bo'lishi uchun profilaktik choralarni amalga oshirishga yo'naltirilgan. Bu o'rinda, eng avvalo, xodimlarning jismoniy va professional imkoniyatlariga maksimal darajada mos bo'lgan, xavfsizlik va sog'lom ishlab chiqarish muhitini talablariga mos shart-sharoitlarni yaratishga ko'maklashish ko'zda tutiladi. Ayni paytda, bu o'rinda mehnat quollarini loyihalashtirish va mehnatni tashkil qilish bo'yicha ergonomik tamoyillar e'tiborga olinishi lozim. Tadqiqotlar va umumjahon tajribasini umumlashtirish asosida ushbu muammolar bo'yicha namunaviy yo'riqnomalar ishlab chiqilgan. Ular yoki alohida sohaga (tog'-kon sanoati, o'rmon xo'jaligi, transport) yoki alohida xavf-xatar sohasiga (radiatsiya, shovqinlar, vibratsiya) taalluqlidir. Hozirgi kunda mehnat sharoiti va atrof-muhit sharoitining inson mehnati va mehnatga layoqatiga kelgusida ta'sir ko'rsatishi sohasidagi tadqiqotlarga jiddiy e'tibor qaratilmogda. Ushbu tadqiqotlar natijalari mehnatni muhofaza qilish sohasida ijtimoiy me'yorlarni ishlab chiqishda qo'llaniladi.

Aholi ish bilan bandligining kafolatlari va me'yorlarini yaratish muhim

iqtisodiy ahamiyatga ega, chunki mehnat bozoridagi holat har doim ham barqaror xarakterga ega bo'lmaydi. Fanda ishsizlikka yo'l qo'yilishining nihoyaviy chegarasini ishlab chiqish bo'yicha harakat qonunchilik maqomiga ega bo'lmadi. Shu munosabat bilan aytilish mumkinki, hozirgacha bandlik sohasida minimal standartlar mavjud emas. Shu bilan birga, mehnat bozoridagi holat murakkabligini va uning aholi turmush darajasiga ta'sirini baholash mushkul.

Turmush darajasi sohasida qonunchilik orqali belgilangan ijtimoiy standartlarga tayangan holda davlat hududiy boshqaruv organlari nomidan aholini ijtimoiy muhofaza qilish choralarini ishlab chiqadi, nafaqa, yordam puli, imtiyozlar va badal to'lash shakldagi ijtimoiy yordam olish huquqini tartibga soluvchi zarur qonunchilik qarorlarini qabul qiladi.

Bugungi kunda qaror topgan ijtimoiy me'yorlar va standartlar tizimi yetarlicha tizimlashtirilmagan. Chunki, ularda eng zarur hayotiy ehtiyojlar va muammolarni hal qilish bilan bog'liq bo'lgan turmushning ustuvor ko'rsatkichlari ajratib ko'rsatilmagan. Belgilangan ijtimoiy me'yorlar va standartlar sifat tavsifiga ega emas, ularning miqdor kattaligi esa odatda yetarli darajada asoslanmagan, chunki me'yorlar asosida moddiy ne'matlar va xizmatlar iste'molining muayyan standartini qo'llab-quvvatlash ko'zda tutilmagan. Buning oqibatida davlat kafolatlari darajasining barqarorligi har doim ham ta'minlanmaydi, chunki me'yorlar mavjud tovarlar va xizmatlarning qiymatini arzonlashtirgan holatlar kam uchraydi. Ijtimoiy me'yorlash sohasidagi salbiy, oxirigacha yechilmagan muammolarning yengib o'tilishi mavjud tizimni takomillashtirishning eng muhim vazifalaridan biridir.

10.4. Ijtimoiy transfertlarni tayinlash va moliyalash tartibi

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ijtimoiy yordam ko'rsatish masalasi, ya'ni ijtimoiy transfertlarga yo'naltiriladigan mablag'larni shakllantirish va ulardan foydalanish ancha jiddiy tus oldi. Bu o'rinda ikki xil yondashuv bo'lishi mumkin: ijtimoiy kafolatlarning umumiyliigi va mehnatga layoqatsiz, kam ta'minlangan shaxslarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, yuqori daromadli shaxslar (oilalar) uchun ijtimoiy imtiyozlar va kompensatsiyalardan foydalanish imkoniyatini cheklash.

Daromadlarning muayyan darajasi va ijtimoiy xizmatlardan umumiy foydalanish davlat kafolatlarining yuqoriroq darajasini aks ettiradi, ammo jamiyatdan ushbu maqsadlar uchun ko'proq harajat qilishni talab etadi. Ikkinchi model nisbatan arzon, chunki uni qo'llash sharoitida fuqarolarning aksariyat qismi o'z ehtiyojlarini bozor tamoyillari asosida shaxsiy mablag'lari va o'zlariga tegishli bo'lgan korxonalarda (tashkilot, muassasada) ish bilan band bo'lgan xodimlarga ijtimoiy tavsifdagi to'lovlarning amalga oshirilishidan manfaatdor bo'lgan ish beruvchilarning mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Mutaxassislar yaqin kelajakda ijtimoiy to'lov va xizmatlarni ularga bo'lgan ob'yektiv talabdan kelib chiqqan holda to'lashni maqsadga muvofiq deb

hisoblamoqda. Shu munosabat bilan hukumat tomonidan qabul qilingan yaqin kelajakka mo'ljallangan ijtimoiy islohotlar dasturi aholiga yordam ko'rsatish tizimiga o'zgartirishlar kiritilishini ko'zda tutadi. Bunda eng avvalo aholining muhtoj qatlamlariga yordam ko'rsatish ko'zda tutilgan.

Respublika va mahalliy darajada ijtimoiy transfertlar tizimini shakllantirish, uning huquq va mas'uliyati, resurs ta'minoti manbalarini belgilashni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyotiga xos xususiyatlardan biri aholining ijtimoiy muammolarini hal qilish mas'uliyatining ko'p qismini hududlarga berish bilan bog'liq. Shu munosabat bilan islohotlar davomida daromadlar manbalariga va ulardan foydalanish yo'nalishlariga (harajatlarga) nisbatan hududlarning budjet huquqlari kengayib borayotganligi kuzatilmoqda. Ayni paytda shuni ham e'tiborga olish lozimki, budjetdan uzoqlashish asta-sekin rivojlanadi, chunki bu qonunchilikdagi o'zgarishlarga emas, joylardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga bog'liq.

Mamlakatning iqtisodiy, tabiiy-iqlim va demografik o'ziga xosligi ijtimoiy transfertlarning yaxlit va moslashuvchan tizimini shakllantirishda barcha darajadagi budjetlarning faol o'zaro hamkorligini taqozo etadi. Bunda davlat budjeti umumdavlat ijtimoiy kafolatlarni subsidiya, subvensiya, o'zaro hisob-kitoblar, transfertlar va hududlarga beriladigan soliq imtiyozlari orqali moliyaviy ta'minlash vazifalarini bajarishga yo'naltirilgan.

Moliyaviy tizimni boshqarish organlari, shuningdek, ijtimoiy transfertlar resurs asoslarini shakllantirishdagi ishtiroki butun mamlakat aholisiga pul daromadlari va ijtimoiy ne'matlar minimumi va ijtimoiy adolat tamoyiliga rioya qilish zarurati bilan bog'liq.

Ijtimoiy transfertlarning asosiy kafolatlari qonunchilikda o'z ifodasini topadi. Fuqarolarning ijtimoiy ta'minot, bepul tibbiy yordam va ta'limga bo'lgan huquqi Konstitusiyada qayd etilgan. Demak, shubhasiz, ular davlat budjeti hisobidan ta'minlanadi.

Ayni paytda o'ziga xoslik shunda namoyon bo'ladiki, hududlarning resurs imkoniyatlari bir xil emas. Shu bois, mablag'larni hududlarni ijtimoiy rivojlantirishga qayta taqsimlamasdan turib aholi uchun ijtimoiy kafolatlardan foydalanishdagi tafovutlarni bartaraf etib bo'lmaydi. Zamonaviy iqtisodiyotda o'tmishdan meros bo'lib qolgan va olis hududlarning ob'yektiv iqtisodiy rivojlanish sharoitlariga bog'liq bo'lgan hududlarning bozor o'zgarishlariga turlicha moslashish darajasi, hududiy bujetlar daromad qismidagi amaliy farqlar tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Adolat tamoyillari shuni taqozo etmoqdaki, ko'p yillik iqtisodiy siyosat qoloqlikka sabab bo'lgan hududlar boshqa hududlar hisobidan yordam olishi kerak. Moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash zaruratini yo'lga qo'yish ehtiyoji quyidagilarga bog'liq: bir tomondan ijtimoiy transfertlar markazdan hududlarga o'tkazilishi, ikkinchi tomondan, soliqlar hududlardan markazga oqib kelishi kerak.

Bunday yondashuvda hududlardagi ijtimoiy tavsifdagi to'lovlar va harajatlarning resurs bazasi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadigan va yig'iladigan soliqlar; hududlarning soliqlar hisobidan

budgetga to'laydigan va budget tizimining yuqoriroq darajasiga kelib tushadigan ulushi; budget tizimining yuqori bo'g'inlaridan uning quyi bo'g'inlariga kelib tushadigan turli subsidiyalar, dotatsiyalar, subvensiyalar hisobidan shakllanadi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, respublika tarkibidagi hududlar o'z imkoniyatlari va shart-sharoitining o'ziga xos jihatlardan kelib chiqqan holda kam ta'minlangan va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan ijtimoiy yordamning turli shakllari bo'yicha qo'shimcha dasturlar ishlab chiqishi mumkin. Bunda pul to'lovlari, soliqqa tortish bo'yicha imtiyozlar, ayrim tovarlar va xizmatlar bo'yicha yordam puli to'lash, kredit kartochkalari va kupon daftarchalari, ne'matlarni natural shaklda berish kabilardan foydalanish mumkin.

Qisqacha xulosalar

Ijtimoiy ta'minot aholiga ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy yordam ko'rsatish, bepul ta'lim olish kabilarni o'z ichiga olib, insonlarning farovon hayot kechirishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy ta'minot aholining muhtoj qatlamlariga asosan ijtimoiy transfertlar orqali yetib boradi. Ijtimoiy transfertlar deganda, aholiga davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan beg'arz tarzda pul va natural shakldagi resurslarning berilishi tushuniladi.

Nafaqa tegishli budget mablag'lari hisobidan pul mablag'larini beg'araz tarzda to'lash, aniq maqsadga yo'naltirilgan pul mablag'laridir. Ularning ayrimlarini ob'yektiv sabablarga ko'ra ish haqi yo'qotilgani tufayli belgilansa, boshqalari aholining ayrim gurhlarini ijtimoiy himoyalash maqsadida tayinlanadi.

Minimal ijtimoiy standartlar davlat qonunlari va hukumat qarorlari asosida muayyan davrga nisbatan ijtimoiy kafolatlarining minimal darajasidir. Bunda ular ijtimoiy me'yorlar va insonning moddiy ne'matlar, umumfoydalanish va bepul xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini aks ettirib, iste'molning tegishli darajasini kafolatlaydi va shu maqsadlarga qaratilgan budget harajatlarining majburiy minimumini belgilash uchun mo'ljallangan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ijtimoiy ta'minot deganda nimani tushunasiz?
2. Davlat ijtimoiy ta'minotining mohiyatini tushuntirib bering.
3. O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini aytib bering.
4. Ijtimoiy transfertlar qanday shakl va ko'rinishlarda amalga oshiriladi?
5. Ijtimoiy nafaqa bilan pensiyaning farqli jihatini aytib bering.
6. Ijtimoiy transfertlarni berish va moliyalash tartibini tushuntirib bering.
7. Ijtimoiy nafaqalarning qanday turlarini bilasiz?
8. Minimal ijtimoiy standartlar va me'yorlarga misollar keltiring.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. // Халқ сўзи, 2010 йил 30 январь.

2. Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш бўйича меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Адолат, 2008.
3. Абдурахмонов Қ.Х. Мехнат иқтисодиёти. Дарслик. - Т.: Мехнат, 2009.
4. Абдурахмонов Қ.Х., Тохирова Х.Т., Шарипов Б.М. Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш. – Тошкент, 2006.
5. Аверин А.Н. Государственная система социальной защиты населения. – М.: РАГС, 2007.
6. Буянова М.О., Кобзева С.И., Кондратьева З.А. Право социального обеспечения. – Москва, 2007.
7. Ижтимоий ҳимоя йили: мазмун ва моҳият / М.Ҳожиматов, Ш.Жумаев, У.Олтинов. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.
8. Римашевская Н.М. Социальная защита населения. – М.: РИЦ ИСЭП РАН, 2005.
9. Удалова А.А. Право социального обеспечения. – М.: Омега-Л, 2006.

XI BOB. PENSIYA TIZIMINING MOHIYATI VA UNI ISLOH QILISH

11.1. Pensiya tizimining mohiyati, tamoyillari va mexanizmlari

Pensiya lotincha “pensio” soʻzidan olingan boʻlib, “toʻlov” maʼnosini anglatadi. Pensiya – qonun tomonidan kafolatlangan va fuqarolarni keksaligida, qisman yoki toʻliq mehnatga layoqatsizligi, boquvchisini yoʻqotganda hamda mehnat faoliyatining muayyan sohasida maʼlum ish stajiga erishgan paytida taʼminlashga qaratilgan pullik toʻlovidir.

Pensiyalar iqtisodiy tabiati va maqsadiga koʻra ijtimoiy sugʻurta elementi sifatida ish haqi yoki oilaviy daromaddan mahrum boʻlgan hollarda ularning oʻmini qolashga qaratilgan. Pensiyalarning mohiyati muhim nazariy muammo boʻlib, uning u yoki bu tarzda hal qilinishi pensiya qonunchiligi meʼyorlarining tabiatini belgilab beradi. Pensiyalarni mehnatga layoqatsiz kishilarni jamiyat tomonidan boqish yoki qilgan mehnatlari uchun haq toʻlashing oʻziga xos shakli deb baholash mumkin. Pensiyaning u yoki bu tarzda sharhlash uning miqdorini differensiyalashga turlicha yondashuvlarni keltirib chiqaradi. Birinchi holatda pensiyalar differensiyatsiyasi faqat mehnatga layoqatning yoʻqotilish darajasiga bogʻliq boʻladi, ikkinchi holatda esa pensionerlarning avvalgi avlodining pensiya taʼminoti harajatlaridagi moliyaviy ishtiroki eʼtiborga olinadi.

Pensiya tizimi sugʻurta asosida shakllantiriladigan va aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish hamda konstitutsion huquqlarini amalga oshirish uchun yoʻnaltiriladigan pul mablagʻlari jamgʻarmasidan foydalanishga asoslanadi. Pensiya tizimiga xizmat qiluvchi pensiya jamgʻarmasi uchun daromad manbalarining aniq belgilanganligi, mablagʻlarning qatʼiy maqsadli ishlatilishi, mablagʻlarning shakllanishi va ishlatilish muddatlarining mos kelmasligi, mustaqil, budjetdan tashqari moliya-kredit tashkiloti ekanligi hamda ijtimoiy sugʻurtaning muhim elementi ekanligi kabi xususiyatlar xosdir (11.1-jadval).

11.1-jadval

Pensiya tizimining asosiy xususiyatlari

Asosiy xususiyatlar	Sugʻurta tizimi	Universal tizim
Taʼminot darajasi	Standart	Minimal
Pensiya taʼminoti turi	Oldingi daromadlariga bogʻliq boʻlgan pensiya	Oldingi daromadlariga bogʻliq boʻlmagan pensiya
Moliyalashtirish	Sugʻurta badallari	Soliqlar
Pensiya taʼminotini olish huquqi uchun shartlar	Sugʻurta tashkilotiga aʼzolik	Mamlakatda yashash yoki fuqarolik
Tashkilot	Oʻzini-oʻzi boshqaruvchi sugʻurta jamgʻarmalari	Davlat muassasalari

Pensiya jamgʻarmasining mohiyatini belgilashda uch nuqtai nazardan foydalaniladi, yaʼni uning ijtimoiy taʼminot uchun moʻljallangan mablagʻlar ekanligi; mustaqil moliya-kredit tashkiloti; ijtimoiy yoʻnalishdagi budjetdan

tashqari jamg'arma ekanligi e'tirof etiladi. Bu jamg'armaning ijtimoiy sug'urtaning tarkibiy elementi ekanligi e'tibordan chetda qolib kelmoqda. Bu jihat, pensiya jamg'armasini fuqarolar va xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning majburiy va ixtiyoriy sug'urta badallari, davlatning moliyaviy ishtiroki asosida shakllanuvchi va muayyan ijtimoiy xavf-xatarlarga muvofiq sug'urtalangan aholi toifalariga to'lovlarni amalga oshirish va ijtimoiy himoyalash uchun mo'ljallangan mustaqil pul jamg'armalari sifatida ta'riflash imkonini beradi.

Milliy iqtisodiyotdagi pensiya tizimi taqsimot munosabatlarining mahsuli bo'lib, u katta ijtimoiy yukni ko'taradi. Uning mablag'lari firmalar, korxonalar, uy xo'jaliklari va davlat singari iqtisodiyot sub'yektlari daromadlarini qayta taqsimlash jarayonida shakllanadi. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar o'tish iqtisodiyotining ko'p ukladli xususiyatiga muvofiq mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalaridan iborat bo'ladi.

Pensiya ta'minoti moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashning yirik oqimi bo'lib, iqtisodiyotda mahsulotlar, resurslar va daromadlarning makroiqtisodiy doiraviy aylanishiga, aholining iqtisodiy faolligini rag'batlantirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Pensiya tizimi bilan iqtisodiyotning boshqa qismlari uzviy bog'liq bo'lib, to'g'ri tashkil etilgan pensiya tizimi iqtisodiyotni investitsiyalashning moliyaviy manbai bo'lib xizmat qiladi.

Pensiya tizimi oldida uchta muhim maqsadlar turadi:

- fuqarolarni keksalik davrida kambag'allikdan himoyalash;
- mehnat faoliyatining tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan to'lanadigan ish haqi miqdoriga mutanosib tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolangan daromadni ta'minlash;
- bu daromadni kelajakda turmush darajasining pasayishidan himoyalash.

Pensiya tizimini moliyaviy ta'minlash usullari, fond tarkibi, xususiy, kasbiy tizimlar va davlatning roli, sug'urta badallari va pensiya to'lovlarining o'zaro aloqasi pensiya tizimi amal qilishining samaradorlik darajasini belgilovchi muhim jihatlar hisoblanadi.

Pensiya tizimining samaradorligini aniqlashda pensiya tizimini amal qilishining alohida jihatlarini aks ettiruvchi – makroiqtisodiy, moliyaviy, tashkiliy va funksional samaradorlik ko'rsatkichlariga asoslangan to'rt yondoshuv ajratiladi. Pensiya tizimining samaradorligi makrodarajada tizimni amal qilishining ijtimoiy-iqtisodiy maqsadga muvofiqligini va inson omilini takror ishlab chiqarish jarayonining davlat tomonidan tartibga solinish darajasini aks ettiradi. Moliyaviy nuqtai nazardan pensiya tizimining samaradorligi mablag'larni jalb qilish va aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida ishlatilish darajasini ifoda etadi. Pensiya tizimining tashkiliy samaradorligi aholini ijtimoiy himoyalashda qo'llanilayotgan tashkiliy usullarning natijaviyligini aks ettiradi. Pensiya tizimining funksional samaradorligi esa ijtimoiy zararlarni qoplash darajasini aks ettirib, qoplash koeffitsiyenti, to'lovlar darajasi va uning qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlarga mos kelishi hamda ijtimoiy me'yorlar darajasiga mosligi ko'rsatkichlari orqali ifodalanaadi.

Pensiyalar miqdori, bir tomondan, jamiyatda eng kam daromadlarni himoyasini ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikka erishish imkonini beradi, ikkinchi tomondan, ijtimoiy adolatlikni ta'minlash imkonini beruvchi pensiyaga chiqish oldidagi ish haqi darajasi bilan bog'liq. **Birdamlik tamoyiliga asoslangan pensiya tizimida joriy pensiya majburiyatlarini qoplash uchun zaruriy badal turlarini yig'ish amalga oshiriladi.** Pensiya miqdori esa pensiya jamg'armasining faoliyat natijasiga, moliya bozoriga, mablag'larni samarali investitsiyalash darajasiga bog'liq bo'lmay, investitsion moyillikning susayishi kabi qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Jamg'arish tamoyiliga asoslangan xususiy pensiya tizimi badallarni kapitallashtirish va pensiya hisobini individuallashtirish tamoyili asosida shakllanib, shaxsiy hisoblarda jamg'ariluvchi sug'urta badallari pensiya darajasini belgilaydi.

Xususiy pensiya tizimlari xukumatning moliyaviy kafolatlaridan foydalanmaydi, ular daromadni ta'minlash imkonini beruvchi moliyaviy bozorlarning ishtirokchilariga aylanadi. Buning natijasida pensiya to'lovlari ishtirokchilarning nafaqat pensiyaga chiqqunga qadar bo'lgan ish haqidan, balki mehnat faoliyati mobaynida to'lagan badallari miqdoriga foizni ifoda etadi.

Birdamlik, qayta taqsimlash tamoyiliga asoslangan pensiya tizimidan farqli o'laroq, xususiy pensiya tizimida sug'urta badallari nisbatan yuqori darajada belgilanadi va tegishli zahira jamg'armasi shakllantiriladi.

Pensiya tizimining bu ikki bir-biridan prinsipial farq qiluvchi modellari o'rtasida ko'pgina oraliq variantlar mavjud bo'lib, ulardan har biri tizimdagi kamchiliklarni kamaytirish va ularning ustunligini kuchaytirishga yo'naltirilgan. Bu tegishli tashkiliy-huquqiy tarkibni yaratishga urinishda o'z ifodasini topadi. Bunday tarkibni quyidagi umumlashgan uch darajali tizim shaklida tasavvur qilish mumkin:

- davlat nazorati ostida amalga oshiriluvchi umumiy va majburiy pensiya tizimi. Mazkur modelda pensiya miqdori ish haqi miqdoriga bog'liq bo'ladi, ish beruvchi va yollanma ishlovchidan olinadigan badallarni qayta taqsimlash tamoyili asosida moliyalashtiriladi;
- majburiy ijtimoiy sug'urta tizimi orqali beriladigan va minimal sug'urta stajini to'plagan kishilar uchun davlat budjeti dotatsiyasidan foydalanuvchi ijtimoiy pensiya tizimi;
- to'la kapitallashtirish va jamg'arish tamoyiliga asoslangan individual hisoblarni yuritish orqali amalga oshiriladigan xususiy pensiya tizimi.

Pensiya ta'minotining mazkur modeli quyidagi yondoshuvlarga asoslanadi: mamlakatning barcha fuqarolarini kambag'allikdan ijtimoiy himoyalash uning vazifasidir; umumiy sug'urta tizimi uch darajali tizimning muhim elementi hisoblanadi hamda barcha iqtisodiy faol aholiga keksalik bo'yicha pensiyani ishlab topishni ta'minlaydi; qo'shimcha ixtiyoriy sug'urta tizimi har bir ishlovchi fuqaroga xususiy jamg'armalar to'plash imkonini beradi.

Xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan **pensiya ta'minotining**

asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- pensiya sug'urtasining umumiy va majburiy xususiyati;
- ijtimoiy kafolatlarni ro'yogba chiqarishda ommaboplik;
- pensiya sug'urtasi huquqini ta'minlash;
- pensiya sug'urtasining majburiy va ixtiyoriy turini birlashtirish;
- teng huquqlilik va shakllarning xilma-xilligi;
- pensiya sug'urtasining zarur darajasini ta'minlash;
- xodimlarga pensiya sug'urtasi darajasiga ta'sir ko'rsatish huquqini berish;
- turli moliya manbalarini keng jalb qilishda ehtiyojlarni amalga oshirish;
- pensiya sug'urtasi barqarorligining davlat kafolatlarini ta'minlash;
- sug'urta qilingan shaxs va ish beruvchilar moliyaviy ishtirokining majburiyligi;
- zarur hollarda davlat subsidiyalarini jalb qilish;
- sug'urta qilingan shaxslarga turli pensiyalar berishni ta'minlash;
- jami iqtisodiy faol aholini pensiya sug'urtasida ishtirok etish uchun jalb qilishdan manfaatdorlik;
- barcha sug'urta qilinganlarning pensiya to'lovlarini moliyalash bo'yicha majburiyatlarni va buning natijasida egalik qilinadigan huquq hamda kafolatlarni bajarish nuqtai nazaridan tengligi;
- barcha xodimlar va ularning oila a'zolari uchun salomatlik yoki daromadni yo'qotishga xavf soladigan kutilmagan holatlarda pensiya sug'urtasining huquqiy va tashkiliy imkoniyatlarini yaratish;
- pensiya to'lovi uchun mablag' bilan ta'minlashning alohida tartibi, davlat budgetidan mustaqilligi;
- pensiya to'lash uchun sug'urta qiluvchilar va sug'urta qilinganlar vakillari orqali mablag'dan foydalanishni nazorat qilish.

Iqtisodiy faol aholining ish haqidani (mehnat daromadi) maqsadli ajratmalar majburiyligini (sug'urta badallari) ko'zda tutuvchi majburiy sug'urtalash pensiya sug'urtasining asosiy turi sifatida e'tirof etilgan. Bunday badallarni majburiy to'lashni faqat davlat qonun asosida ta'minlashi va pensiyalar darajasini hamda ularni muntazam to'lashni ham faqat davlat kafolatlashi mumkin. Biroq, bunda sug'urta badallari davlat daromadi hisoblanmaydi. Ushbu badallar aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, faqat pensiyalarni to'lash uchun mo'ljallangan.

Ish beruvchilar (tadbirkorlar) va ishchilarning sug'urta badallari pensiya sug'urtasini moliyalash manbalari hisoblanadi. Bu badallar miqdorini tabaqalashtirish turlicha bo'lishi mumkin va bunda eng asosiy maqsad pensiya sug'urtasi tizimining o'z-o'zini ta'minlashiga erishishdan iborat. Ayni paytda davlat odatda, uni moliyalashda u yoki bu darajada ishtirok etadi. Bunday ishtirok shakllari turli xil bo'lishi mumkin, ya'ni:

- mablag'larning bir qismini davlat budgetidagi taqdim etish;
- ayrim toifadagi pensionerlarga (masalan, urush nogironlari) pensiya to'lovlarini moliyalash;
- pensiya jamg'armasi taqchilligini qoplash uchun subsidiya to'lash;

– ayrim toifadagi shaxslar yoki ijtimoiy-foydali faoliyatning ma'lum bir davri uchun sug'urta badallarini to'lash (davlat budjeti mablag'lari hisobidan).

Sug'urta badallarini o'z vaqtida va to'liq yig'ishni ta'minlash uchun qonun asosida quyidagilarni belgilash zarur:

- sug'urta badallari solinadigan jismoniy va yuridik shaxslar ro'yxatini;
- sug'urta badallarini to'lash muddatini;
- ulami to'lamaganlik yoki o'z vaqtida to'lamaganlik uchun javobgarlikni;
- sug'urta badallarini to'lash bo'yicha qarz olishning avvalo, iqtisodiy xususiyatga ega uslublarini;
- to'lovga layoqatsizlik holatlarida odob-axloq uslublarini.

Zamonaviy pensiya tizimining muvaffaqiyatli ishlashi uchun sug'urta badallari to'lovchilarini (ish beruvchilar va ishchilar) hisobga olish, shuningdek, doimiy faoliyat ko'rsatadigan axborot markazida pensiya tayinlash uchun mehnat yoki boshqa faoliyat to'g'risida zarur ma'lumotlarni to'plashga qaratilgan axborot bazasini tashkil etish kerak.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat pensiya sug'urtasi tizimi mamlakat hududida bajarish uchun majburiy hisoblangan pensiya to'g'risidagi umumdavlat qonuni mavjud bo'lsa, markazlashtirilgan, yetarli darajada mablag' bilan ta'minlangan va ma'muriy mustaqil bo'lishi lozim. Pensiya sug'urtasida pensiyalarning nisbiy darajasini saqlash tizimi, ularni inflyatsiya jarayonlaridan himoya qilish muhim ahamiyatga egadir. Bunday himoyaning asosiy uslubi esa pensiyalarni indeksatsiyalash hisoblanadi. Bu borada tizimli (avtomatik) indeksatsiya, prinsipli indeksatsiya, bir martalik indeksatsiyadan foydalaniladi.

Tizimli indeksatsiya narxlar oshishi yoki mehnatga haq to'lashning o'рта miqdorining o'zgarishi yoki har ikki omil dinamikasi bilan bog'liqdir. Prinsipli indeksatsiya davlat pensiyalarni indeksatsiya qilish zarurligini tan olishini, biroq uni amalga oshirish muddati va mezonlarini belgilamasligini anglatadi. Bir martalik indeksatsiya pensiyalarning xarid qilish qobiliyati ancha pasaygan sharoitda zarur chora hisoblanadi.

Sug'urta badallari miqdorini oshirish, maxsus badallarni joriy etish, soliq tushumlari, pensiya jamg'armalarining bo'sh mablag'lari sarflashdan tushadigan daromadlar, maxsus hukumat subsidiyalari, ish haqi miqdorining oshishi natijasida sug'urta badallari pensiyalarni indeksatsiya qilishni ta'minlash manbai bo'lishi darkor.

Pensiya tayinlashda ish haqini "zamonga moslashtirish" muammosi paydo bo'ladi. Bu muammoni ikki yo'l – avvalgi ish haqini mamlakatdagi o'рта ish haqi o'zgarishlari va yashash uchun zarur mablag' miqdoriga muvofiqlashtirish orqali hal etish mumkin. U yoki bu yo'lni tanlash inflyatsiya jarayonlari darajasi bilan bog'liq: inflyatsiya yuqori bo'lgan sharoitda ikkinchi uslubni tanlagan ma'qul.

Davlat pensiya sug'urtasi hisobidan pensiya olish huquqi ma'lum bir yoshga (pensiya yoshi) va sug'urta to'lovlarini to'lashning muayyan muddati (sug'urta staji) yetganda paydo bo'ladi. Pensiya miqdori esa ish haqi (daromad) yoki to'langan sug'urta badallari miqdori va sug'urta staji davomiyligiga bog'liq.

Pensiya yoshga doir pensionerlar soni va yig'iladigan sug'urta badallari miqdoriga ta'sir ko'rsatadi. Bunda pensiya yoshidagi har qanday o'zgarish bo'lajak pensionerlar uchun ham, ishlayotganlar uchun ham og'ir masala hisoblanadi. Bunda tashqari, ushbu masalada jamiyatni bugun va kelajakda rivojlantirishning ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy omillarini hisobga olish zarur. Masalan, ishsizlik pensiya yoshini oshirishning to'xtatib turuvchi omil sanaladi. Aholining keksayishi va buning natijasida pensionerlarni ta'minlash uchun ishlayotganlarga og'irlik tushishi pensiya yoshini oshirishni taqozo etadi. Pensiya yoshini o'zgartirish to'g'risidagi masalani hal etishda o'rtacha umr ko'rishdagi o'zgarishlarni ham e'tiborga olish darkor. Barcha hollarda pensiya yoshini o'zgartirish nihoyatda puxta o'ylangan bo'lishi kerak.

Xalqaro hamjamiyat tomonidan taklif etilayotgan pensiyadan avvalgi daromadning o'rmini qoplash darajasi kamida 60 foizni tashkil etishi lozim. Pensiyalarning maksimal miqdori bo'yicha ham bir qancha yondashuvlar mavjud: u cheklanishi yoki cheklanmasligi, bunday cheklanish bevosita yoxud bilvosita bo'lishi mumkin.

Majburiy pensiya sug'urtasi tizimi odatda, mablag'larni avlodlar o'rtasida qayta taqsimlash orqali moliyalanadi. Bugungi kunda ishlayotgan avlodlarning sug'urta badallarini to'lashi hisobidan pensiya yoshidagilarga pensiya to'lash uchun mablag' to'planadi. Mablag'larni qayta taqsimlash tamoyilidan foydalanishda ular unchalik ko'p to'planmaydi. Ushbu holatda korxonalar (ish beruvchilar) muhim o'rin tutadi. Ular sug'urta badallarini markazlashtirilgan pensiya jamg'armasiga o'tkazish orqali pensiyalarni to'lash uchun mablag'lar to'plash bosqichida boshlang'ich bo'g'in hisoblanadi. Korxonalarda pensiyalarni tayinlash uchun zarur barcha axborot to'planadi. Ish beruvchilar har bir ishchisi haqidagi axborotning ishonchliligi uchun javobgar hisoblanadi.

Ixtiyoriy pensiya sug'urtasi ikki xil – guruhlariga bo'lingan qo'shimcha pensiya dasturlari (kasb bilan bog'liq yoki ishlab chiqarish) va alohida bo'lishi mumkin. Ixtiyoriy pensiya sug'urtasini tayinlash – bu majburiy pensiya sug'urtasi tomonidan qoplanmaydigan ish haqining (pensiyadan oldingi daromad) ma'lum bir qismini berish degani. Odatda, majburiy pensiya sug'urtasi miqdori qanchalik kam bo'lsa, qo'shimcha pensiya sug'urtasi miqdori shunchalik yuqori bo'ladi. Ixtiyoriy pensiya dasturlarining asosiy ulushi – bu kasb bilan bog'liq (ishlab chiqarish) dasturlaridir. Ushbu dasturlarda ish haqi o'rmini qoplash miqdori o'rtacha 25 foizni tashkil qiladi. Shuningdek, ixtiyoriy pensiya ta'minoti xususiyatlariga quyidagilar ham kiradi:

- pensiya sxemalari turini, sug'urta badallari, pensiya to'lovlari miqdorini belgilashda ixtiyoriy tanlash;
- uning paydo bo'lish tashabbusi ish beruvchilar, kasaba uyushmalari va hokazolarga tegishlidir;
- boshqaruv xususiy institutlar tomonidan amalga oshiriladi;
- ixtiyoriy professional tizimlarni aksariyat ish bilan band aholi uchun majburiyga aylantirish istisno etilmaydi;

- qo‘shimcha pensiya sug‘urtasi odatda, sug‘urta badallarini kapitallashtirish tamoyillari asosida moliyalanadi;
- qo‘shimcha pensiya jamg‘armalarining aktivlari iqtisodiyotga investitsiya kiritish manbai sanaladi;
- qo‘shimcha pensiya sug‘urtasining qo‘llanilishi minimal davlat qonunchilik doirasida tartibga solinadi;
- ixtiyoriy pensiya sug‘urtasining fiksal samaradorligi;
- aktuar hisob-kitoblardan foydalanishning zarurligi.

Ixtiyoriy pensiya sug‘urtasida ikkita sxemadan – badallar va to‘lovlar miqdorini belgilashdan foydalaniladi. Badallar miqdorini belgilashda ish beruvchi jamg‘arma aktivlarini sarflash uchun javobgar hisoblanadi. To‘lovlar miqdorini belgilashda jamg‘arma faoliyatining yaxshi natijalari pensionerlarga to‘lanadigan to‘lovlar miqdorini ko‘paytirishga olib kelmaydi. Bu to‘lovlar har qanday holatda shartnomada ko‘zda tutilgan mablag‘ miqdoridan oshmaydi. Shartnomada ko‘zda tutilgan mablag‘ miqdori esa turlicha belgilanadi: qat‘iy miqdorda – muayyan shartlarni bajarganda yoki kompaniyada ishlagan har bir yilni ko‘paytirgan holda, ish haqidan (daromad)dan) foiz hisobida va kompaniyada ishlagan yillar hisobga olingan holda belgilanadi.

Qo‘shimcha sug‘urtalashda majburiy pensiya sug‘urtasidan farqli o‘laroq, ishchi qo‘shimcha pensiya miqdorini oldindan bilmaydi. Bu miqdor pensiyaga chiqishda to‘plangan sug‘urta badallari miqdori va kapital foiziga bog‘liq. Ushbu holatda investitsiyalarning moliyaviy xatarini ishchi o‘z zimmasiga oladi.

11.2. Pensiya ta‘minoti va uning turlari

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, pensiyaning quyidagi uch turi mavjud:

- yoshga doir pensiya;
- nogironlik pensiyasi;
- boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga erkaklar 60 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda, ayollar 55 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda ega bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ro‘yxatlarga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar. Chunonchi:

- yoshidan qat‘iy nazar pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar va lavozimlarning 1-sonli ro‘yxati (kon sanoatidagi yetakchi kasb egalari, bevosita yerosti va ochiq kon ishlarida to‘liq ish kuni davomida band bo‘lgan xodimlar, uchuvchilar va uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlarning xizmat muddati – erkaklarda 20 yil, ayollarda 15 yil bo‘lganda);
- umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish

huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 2-sonli ro'yxati (yerosti ishlarida, mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xodimlar, sirkalar va konsert tashkilotlari artistlarining ayrim toifalari ijodiy ishdagi staji kami 20 yil bo'lgan taqdirda);

– umumiy belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, vazifalar va ko'rsatkichlarning 3-sonli ro'yxati (urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar, qishloq xo'jaligi xodimlarining ayrim toifalari, aviatsiya muhandis texniklari tarkibining xodimlari, shahar yo'lovchilar tashish transporti haydovchilari, besh va undan ortiq farzand tuqqan hamda ularni sakkiz yoshgacha tarbiyalagan ayollar, ekologiya falokati mintaqasida ishlagan fuqarolar, ijtimoiy ta'minot tizimining qariyalar, nogironlar va yolg'iz fuqarolarga xizmat ko'rsatishda bevosita band bo'lgan xodimlar).

Shular bilan birga, belgilangan yoshni 15 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga pipofizar mittilik kasaliga chalinganlar (liliputlar) va gavda tuzilishida mutanosiblik buzilgan pakanalar – erkaklarga ish staji kamida 20 yil bo'lganda, ayollarga 15 yil bo'lganda ega bo'ladilar.

Odatda, fuqarolar yoshga doir pensiyaga chiqqandan keyin mehnat faoliyatini davom ettirsa pensiyaning ma'lum miqdorini oladi. Lekin, ayrim ayol mutaxassislar yoshga doir pensiyaning to'liq miqdorini olish huquqi ega (11.2-jadval).

11.2-jadval

Yoshga doir pensiyaning to'liq miqdorini olish huquqiga ega mutaxassisliklar

O'rta va kichik tibbiyot xodimlari	<ul style="list-style-type: none"> – tibbiy registrator, dezinfektor; – barcha turdagi tibbiy hamshiralar, mehribonlik tibbiy hamshirasi, feldsher, doya, rentgenolaborant, tibbiy-ijtimoiy xodim; – operatsion tibbiy hamshira, tug'ruq uyining doyasi; – sanitar-shifokor, epidimolog-shifokor, parazitolog-shifokor, entomologning yordamchilari; – katta tibbiy hamshira, feldsher, doya; – hamshira ishi mutaxassisi; – sanitarka, enaga, enaga-sanitarka, ovqatlantiruvchi; – bemorlarga qarovchi kichik tibbiy hamshira; – xo'jalik bekasi va boshqa o'rta va kichik tibbiy xodim lavozimlari.
"Mehribonlik" uylari va nogiron bolalar internat uylari tarbiyachilari	– ko'rsatilgan uylardagi hamda go'daklar uylaridagi katta tarbiyachilar va tarbiyachilar.
Kutubxonachi	– bosh kutubxonachi, yetakchi kutubxonachi, kutubxonachi, bosh bibliograf, yetakchi bibliograf, bibliograf.

11.2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'rta va kichik tibbiyot xodimlari, provizorlar, nogiron bolalarning internat uylarida, "Mehribonlik" uylaridagi tarbiyachi va kutubxonachi ayollarga yoshga doir pensiyaga chiqqandan keyin pensiyaning to'liq miqdorini olish huquqi berilgan. Agar ayol yuqorida nomi ko'rsatilgan mutaxassislik bo'yicha kamida 10 yil stajga ega bo'lsa, yoshga doir pensiyaga chiqqandan so'ng shu mehnat faoliyatida ishlashni davom ettirishga pensiyani to'liq olish huquqi beriladi.

Yoshga doir pensiya olish uchun muayyan sug'urta stajiga ega bo'lish va qonunda ko'rsatilgan pensiya yoshiga erishish zarur. Sug'urta staji deganda, pensiya sug'urtasi jamg'armasiga badal to'lovlari to'langan davr tushuniladi. Sug'urta stajiga qonun bo'yicha ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lovlari davri kiritiladi. Yevropa Ittifoqining ko'pgina mamlakatlarida pensiya yoshi qilib erkaklarga ham, ayollarga ham 65 yosh belgilangan. Pensiyaga chiqish uchun eng katta yosh Daniyada – erkak va ayollar uchun 67 yosh, eng kami 60 yosh – Fransiya va Italiyada belgilangan.

Sanoatning qand-shakar va konserva ishlab chiqarish tarmoqlari, paxta tozalash sanoati korxonalaridagi mavsumiy ishlarda (paxtani quritish, tozalash, yuklash, tushirish) to'liq bir mavsum ishlash pensiya tayinlash uchun bir yil mehnat stajiga o'tadi.

Shuningdek, xodimlar alohida toifalariga yoshga doir pensiya tayinlashda mehnat staji bir yarim baravar ko'paytiriladi (11.3-jadval).

11.3-jadval

Yoshga doir pensiya tayinlashda mehnat staji bir yarim baravar ko'paytiriladigan xodimlar toifalari

Ishlar nomi	Lavozimlar nomi
Patologoanomiya byurolarining umumiy, bolalar va yuqumli kasalliklar patologiyasi bo'limlari	
Murdani patologoanatomik yorish hamda operatsiyalar paytida olib tashlangan murda materialini, organlar va to'qimalarni gistologik tadqiq etish	Patologoanatom vrachlar
Murdani patologoanatomik yorishda ishtirok etish, namuna uchun olingan materiallarga va murdaga ishlov berish	O'rta va kichik tibbiy xodimlar
Sud-tibbiyot ekspertizasi byurosi bo'limlari	
Murdani sud-tibbiyot maqsadlarida yorib ko'rish va uni tadqiq etish	Sud-tibbiyot ekspertizasi vrachlari
Murdani sud-tibbiyot maqsadlarida yorishda ishtirok etish va murda materiallariga ishlov berish	O'rta va kichik tibbiy xodimlar, vrach-laborant

Pensiya ta'minoti tizimi keksalik bo'yicha asosiy va qo'shimcha pensiya hamda nafaqa shaklida quriladi. Keksalik bo'yicha asosiy pensiyalar qator Niderlandiya, Lyuksemburg, Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya kabi mamlakatlarda oldingi ish haqi miqdoridan qat'iy nazar barcha kishilar uchun bir xil pul summalari to'lovlari orqali beriladi. Yevropa Ittifoqining qolgan

mamlakatlarida asosiy pensiya belgilangan vaqt mobaynidagi o'rtacha ish haqi bilan belgilanadi va pensiyaning eng kam va eng yuqori miqdori chegaralangan bo'ladi.

Qo'shimcha pensiyalar tarmoqlar yoki firmalar bo'yicha to'lanadi. Ular asosiy pensiyaning o'rtacha 10-12 foizini tashkil etadi va u nafaqat pensiyaga chiquvchilarning daromadlarini qo'llab-quvvatlash, to'ldirish usuli, balki ushbu korxonada kadrlarni mustahkamlash vositasi hisoblanadi.

Nogironlik pensiyalari mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotilgan quyidagi hollarda tayinlanadi:

- mehnatda mayiblaganda yoki kasb kasalligiga uchraganda;
- umumiy kasallik (ish bilan bog'liq bo'lmagan shikastlanish, mayiblik, bolalikdan nogironlik) tufayli.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat'iy nazar tayinlanadi. Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar ish stajiga ega bo'lgan taqdirda tayinlanadi (11.4-jadval).

11.4-jadval

Nogironlik boshlangan paytga qadar talab qilinadigan ish staji (yil)

Yosh	Ish staji (yil hisobida)
23 yoshga qadar	2
23 yoshdan 26 yoshga qadar	3
26 yoshdan 31 yoshga qadar	5
31 yoshdan 36 yoshga qadar	7
36 yoshdan 41 yoshga qadar	9
41 yoshdan 46 yoshga qadar	11
46 yoshdan 51 yoshga qadar	14
51 yoshdan 56 yoshga qadar	17
56 yosh va undan oshganda	20

20 yoshga to'lgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishlash to'xtatilganidan keyin nogiron bo'lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish stajidan qat'iy nazar tayinlanadi.

Shuni alohida qayd qilish kerakki, nogironlik pensiyalari 11.5-jadvalda aks etgan kasb kasalliklariga uchraganda tayinlanadi.

Agar nogironlik keltirib chiqaruvchi jarohatlanish, zaharlanish, issiq urishi, kuyish, sovuq urishi, cho'kish, elektr toki yoki yashin urishi, shuningdek, tabiiy ofatlar yoki avariylar tufayli salomatlikning boshqacha shikastlanishi mehnat vazifasini bajarishda, korxonada, tashkilot hududida sodir bo'lsa, nogironlik mehnatda mayiblanish tufayli sodir bo'lgan deb hisoblanadi.

Kasb kasalliklari ro'yxati

Kasb kasalliklari ro'yxati	Kasallik turlari
1	2
<p>Zaharli kimyoviy moddalar ta'sirida paydo bo'ladigan kasalliklar</p>	<ul style="list-style-type: none"> - nafas olish a'zolarining zahar ta'sirida zararlanishi (rinofaringolaringit, burun parda devorining teshilishi, traxeit, bronxit, pnevmoskleroz); - zaharli anemiya; - zaharli hepatit; - gastrit, kolit, zaharli etiologiya gastroduodeniti; - zaharli nefropatiya; - asab tizimining zararlanishi (asten-nevrotik sindrom, polinevropatiya, entsefalopatiya); - ko'zlamning zahar ta'sirida zararlanishi (katarakta, kon'yuktivit, glaukoma); - suyaklarning zahar ta'sirida zararlanishi (osteoporoz, osteoskleroz, jag' suyaklarining nekrozi); - terining zahar ta'sirida zararlanishi (epidermit, kontaktli dermatit, fotodermatit, onixiya, paranixiya, zaharli malanodermiya, yog'li follikulit, ekzema); - metall va florooplastli bezgak (allergiya kasalliklari).
<p>Sanoat aerosollari va changlari ta'siridan paydo bo'ladigan kasalliklar</p>	<ul style="list-style-type: none"> - pnevmokoniozlar (silikoz, silikatoz, silikotuberkulyoz, metallokoniozlar, pnevmokoniozlar); - biosinoz; - surunkali bronxit; - yangidan paydo bo'lgan o'simtlar.
<p>Fizik ta'sirlar natijasida paydo bo'ladigan kasalliklar</p>	<ul style="list-style-type: none"> - ionlovchi nurlarning ta'sirida paydo bo'ladigan kasalliklar (nur kasalligi, mahalliy nurlanish); - noionlovchi nurlarning ta'siridan paydo bo'ladigan kasalliklar (vegeto-qon tomirlari distoniyasi krizlari, asteno-nevrotik sindrom krizlari, gipotalamiya sindromi); - lazer nuri bilan to'qimalarning mahalliy shikastlanishi (terining kuyishi, ko'z muguz va ko'z to'r pardasining shikastlanishi); - umumiy va lokal silkinish ta'sirida kelib chiqadigan kasalliklar (qaltirash kasalligi); - koxlear nevrit; - qo'lning vegetativ-sensor, sensomotor polinevropatiyasi; - elektrooftalmiya; - katarakta; - dekompression kasalligi; - qizib ketish (oftob urushi, tomir tortishish sindromi); - past harorat ta'sirida paydo bo'ladigan kasalliklar (oblitirillovchi endeaakterit, vegetativ-sensor polinevropatiyasi, poliradikulonevropatiya, poliradikulopatiya); - onixodistrofiya, mexanik epidermitlar.
<p>Alohida a'zolar va tizimlarning jismoniy zo'riqishi va toliqishi tufayli kelib chiqadigan kasalliklar</p>	<ul style="list-style-type: none"> - koordinatori nevroz; - periferik asab tizimi kasalliklari (teri va polinevropatiyasi, kompression nevropatiyasi, vegetativ-sensor nevropatiyalar, bo'yin va bel-dumg'aza radikulitlari, radikulonevropatiya); - tana harakati a'zolari kasalligi (surunkali miofibrozlar, yelka epikondilozlari, yelka-kurak periartrozlari, bursitlar, deformatsiyalovchi osteoartrroz, spondiloartroz, aseptiya osteonekrozi);

	<ul style="list-style-type: none"> - bachadon, moyliq devorlarining tuban siljishi va tushishi; - oyoqlardagi tomirlarning varikonoz kengayishi, tromboflebit yoki trofik o'zgarishlar asorati; - ovoz apparatlarining zo'riqishidan paydo bo'ladigan kasalliklar (surunkali laringit, vazomotorli monoxordit, ovoz burmalari tugunlari, fonasteniya); - uzoqni yaxshi ko'rmaslikning kuchayishi; - o'pka emfizemasi; - nevrozlar.
Biologik omillar natijasida kelib chiqadigan kasalliklar	<ul style="list-style-type: none"> - xodimlar ish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan yuqumli va parazit kasalliklar (sil, brutsellyoz, manqa, kuydirgi, kana entsefaliti, ornitoz, sut sog'uvchilar tuguni, toksoplazmos, virusli gepatit, teri mikozi, qichitma, qo'tir, sifilis-zaxm, OTS, leptospiroz), - disbakterioz, teri va shilliq pardalar kandidamikozi, vistseral kandidoz.
Kimyoviy sintetik moddalar, dori-darmonlar, vaksinalar, biologiya tabiati moddalari, o'simlik va hayvonot changlari ta'sirida paydo bo'ladigan allergik kasalliklar	
Ish joyida kantserogen moddalar ta'sirida paydo bo'ladigan yangi o'simtlar	<ul style="list-style-type: none"> - teri shishi; - og'iz bo'shlig'i va nafas olish a'zolarining shishi; - jigar shishi; - oshqozon raki; - leykozlar; - qovuq shishi; - suyak shishi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari. Vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi. Mahrumning qaramog'ida turmagan otasonasi va eri (xotini) ham, keyinchalik kun kechirish uchun zarur mablag' manbaidan mahrum bo'lib qolsalar, pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, o'quvchilar 18 yoshga to'lgunga qadar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga egadirlar.

Pensiyalar tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan tayinlanib, uning miqdori ish stajining muddatiga bog'liq bo'lib, pensiyaning tayanch miqdori, ish staji uchun pensiyaning oshirilishi va pensiyaga qo'shiladigan ustama haqlardan tarkib topadi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni bilan pensiyalarning quyidagi tayanch miqdorlari belgilangan:

- yoshga doir to'liq pensiya uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin rasmiy belgilangan eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida;
- I- va II-guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida;
- III-guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 50 foizi miqdorida;

- oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosiga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 50 foizi miqdorida;
- ota-onasidan judo bo'lgan bolalarga yoki vafot etgan yolg'iz onaning bolalariga, har bir bolaga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida.

Ta'kidlash joizki, to'liq davlat ta'minotida turgan chin yetim bolalarga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi eng kam oylik ish haqining 100 foizi, ota-onasining biridan ajralgan va to'liq davlat ta'minotida turgan bolalarga eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida pensiya to'lanadi.

Sahovat uylarida yashovchi yolg'iz qariyalar va nogironlarga pensiya bilan ular ta'minoti uchun sarf-harajat o'rtasidagi farq, lekin tayinlangan pensiyaning kamida 10 foizi, urush nogironlariga esa kamida 20 foizi to'lanadi. Internat uylarida yashovchi ruhiy bemor pensionerlarga pensiya to'lanmaydi.

11.3. Pensiya tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari

1991 yili O'zbekistonda tashkil etilgan pensiya jamg'armasi moliyaviy jihatdan qashshoq bo'lgan, chunki uning daromadlari harajatlarini qoplay olmasdi. Lekin, hukumat tomonidan 1997 yilda ko'rilgan chora-tadbirlar yordamida pensiya tizimining moliyaviy holatini barqarorlashtirishga va o'sha paytdagi pensiya to'lovlari bo'yicha qarzlarni bartaraf etishga erishildi.

Hozirgi vaqtda budjetdan tashqari pensiya jamg'armasining o'z majburiyatlarini o'tash bo'yicha qarzlari yo'q, biroq ushbu pensiya tizimini moliyaviy jihatdan to'liq ishonchli deyishga hali erta. Bunga sabab kamida 3 oylik pensiya to'lovlari bilan ta'minlab turuvchi zahira jamg'armasining yo'qligi, majburiy pensiya badallari miqdorining nisbatan yuqoriligi, kishilarning bu badallarini to'lashdan qochishi va buning iqtisodiy raqobatbardoshlikka salbiy ta'siridir.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarning ko'pchiligi pensiyalarni belgilash va to'lashni boshqaruvchi qonunlarning mukammal emasligi bilan bog'liqdir. Bu eng avvalo, pensiya jamg'armasiga to'lanadigan majburiy badallar miqdori va pensiya miqdorining bir-biriga mos kelmasligida ko'rinadi va ularning sabablari quyidagilar hisoblanadi:

Birinchidan, jinsi bo'yicha fuqarolarning pensiya jamg'armasining daromadlar va harajatlari qismlarining tashkil topishidagi ishtiroki bo'yicha tafvut: ayollarga pensiya olish huquqini qo'lga kiritish uchun 20 yil mobaynida pensiya jamg'armasiga badallarni o'tkazib turish kifoya bo'lsa, erkaklar uchun bu muddat 25 yilni tashkil etadi. Ayollar 55 yoshdan pensiyaga chiqish huquqiga egalar, erkaklar esa 60 yoshdan. Ayollar o'rtacha 72 yil umr ko'radilar, erkaklar esa 67 yil. Demak, shuni aytish mumkinki, ayollarning pensiya jamg'armasining harajatlari qismidagi ulushi erkaklarikiga qaraganda ikki barobar ko'proq, ammo

ularning daromadlar qismidagi ulushi erkaklaridan sezilarli darajada kamroqdir.

Ikkinchidan, erkaklar va ayollarni pensiya bilan ta'minlashdagi tafovut sababli ularning pensiya jamg'armasining daromadlar qismidagi ishtirokining har yilgi ko'rsatkichi ham keskin farq qiladi: ayollar uchun bu ko'rsatkich asosiy pensiyaning 2,75 foizini tashkil etsa, erkaklar uchun 2,2 foizini tashkil etadi. Hamma gap shundaki, o'rtacha ish haqining 55 foiziga teng bo'lgan asosiy pensiyani ko'lga kiritish uchun ayollar pensiya jamg'armasida 20 yil mobaynida ishtirok etishlari kerak 55:20-2,75, erkaklar esa 25 yil (55%:25-2,2%).

Uchinchidan, respublikaning qonunlaridan ma'lumki, aholining bir qismiga guruhlar uchun pensiya jamg'armasining daromadlar qismida ishtirok etmaslik huquqi berilgan (masalan, harbiy xizmatchilarga).

To'rtinchidan, qonunlar aholining ko'pgina guruhlariga bir qator imkoniyatlar yaratadi: ish stajini ikki barobar ko'paytirilishi (masalan, harbiylarning 1 yillik xizmati 2 yil ish staji deb sanaladi), ishchilarning turli sabablarga ko'ra ishlamagan davri ham ish stajiga qo'shilishi (I-guruh nogironni parvarish qilish bilan band bo'lsa, 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bola, 3 yoshgacha bo'lgan bola tarbiyasi bilan shug'ullansa), pensiya jamg'armasiga badal to'lash bilan o'z hissasini qo'shmagan davri ham ish stajiga qo'shilishi (ta'lim olsa, harbiy xizmatda bo'lsa, farzandlariga qarasa), pensiyaga turli qo'shimcha to'lovlarning qo'shib borilishi va h.k.

Pensiya tizimini isloh qilishda shu narsani hisobga olish kerakki, respublikada mehnatga layoqatli aholining atigi 42 foizi pensiya jamg'armasiga to'lovlar o'tkazadi, qolgan 48 foizi esa qonunlarga muvofiq ushbu to'lovlarni o'tkazmaslikka ruxsat berilgan. Ko'rinib turibdiki, agar pensiya jamg'armasining daromadlari qismida ishtirok etuvchi mehnatga layoqatli aholining ulushini ko'taradigan bo'lsak, (imtiyozlarni bekor qilish, ish haqini butunlay qonuniy bo'lishini ta'minlash va hokazo orqali) pensiya jamg'armasining moliyaviy ahvolini yaxshilash, balki majburiy pensiya to'lovlari miqdorini kamaytirish ham mumkin bo'ladi.

Pensiya tizimini takomillashtirishning yana bir yo'li – bu imtiyozlarni bekor qilishdan iborat. Dunyodagi har qanday rivojlangan mamlakatda ham bizdagi kabi imtiyozlar mavjud emas. Rejali iqtisodiyot tizimida bunday imtiyozlar ma'lum bir zararli, sog'liq uchun xavfli mehnat sharoitida ishlaydigan va ish haqi kam bo'lgan xodimlarga ovunchoq vazifasini o'tagan. Ammo, bugungi kunda bozor iqtisodiyoti tizimi hukm surayotgan davrda korxonalar o'z xodimlari uchun mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda o'zlari ish haqi hajmini belgilab turgan paytda, bunday imtiyozlar o'z mohiyatini yo'qotadi. Bundan tashqari, avval zararli hisoblangan ishlab chiqarishlar yangi texnologiyalarning tadbiiq etilishi hisobiga hozir zararli hisoblanmaydi. Agar korxonada bunday texnologiyalarni tadbiiq qilmas ekan, u o'z ishchilarining tezroq pensiyaga chiqish ketishini o'zi ta'minlashi shart.

Pensiya tizimini isloh qilishda demograf olimlarning prognozlarini hisobga olish lozim. Ularning prognozlariga qaraganda, 2020 yilga kelib O'zbekistonda pensiya yoshidagi aholi sonining o'sish sur'ati mehnatga layoqatli aholining

sonining o'sishi sur'atidan oshib ketadi. Buning natijasida 2025 yilga kelib pensionerlarning soni 2005 yildagiga nisbatan ikki barobar ko'p bo'ladi va bu ko'rsatkich mehnatga layoqatli aholidan ko'ra tezroq o'sadi. Ma'lumki, bu pensiya jamg'armasining moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki, pensiya jamg'armasining harajat qismini o'sish darajasi daromadlar qismining o'sish darajasidan yuqori bo'ladi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun hozirdan pensiya tizimini isloh qilishni boshlash kerak.

Rivojlangan mamlakatlar pensiya jamg'armasining moliyaviy holatini barqarorlashtirishga xodimlarning pensiyaga chiqish yoshlarini ko'tarish yo'li bilan erishgan. Masalan, MDH tarkibiga kiruvchi Rossiya, Belarusiya, Ukraina va O'zbekistondan tashqari aksariyat mamlakatlar pensiyaga chiqish yoshini qonun yo'li bilan ko'tardi. Jumladan, Ozarbayjon, Moldova va Turkmanistonda pensiyaga chiqish yoshi erkaklar uchun – 62 yoshga, ayollar uchun – 57 yoshga, Armanistonda erkaklar uchun – 63 yoshga, ayollar uchun – 60 yoshga, Qozog'istonda erkaklar uchun – 63 yoshga, ayollar uchun – 58 yoshga ko'tarilgan.

O'zbekistonda pensiya jamg'armasi moliyaviy holatini yaxshilashning qator imkoniyatlari mavjud. Ulardan biri pensiya jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalanishdir. Ta'kidlash lozimki, respublikada pensiya jamg'armasi mablag'larining 87,5%ini haqiqiy pensiya to'lovlari, qolgan 12,5%ini moliyalash bilan qoplanmaydigan qo'shimcha harajatlari (pensiyaga ustamalar, ijtimoiy nafaqalar, harbiy xizmatchilarga pensiya to'lovlari) tashkil etgan. Bizningcha, moliyalash bilan qoplanmaydigan qo'shimcha harajatlari davlat budjetining boshqa manbalaridan moliyalashtirilsa, birinchidan, pensiya jamg'armasi mablag'larining maqsadliliigi oshardi, ikkinchidan, pensiya jamg'armasining moliyaviy ahvoli yaxshilanardi.

Respublikada pensiya jamg'armasi moliyaviy holatini yaxshilash yo'llaridan biri imtiyozli pensiya tayinlanishini kamaytirishdir. Fikrimizcha, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashishi sharoitida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishida kuzatilayotgan quyidagi xususiyatlar imtiyozli asosda tayinlanadigan pensiyadan butunlay voz kechishga imkon beradi. Jumladan:

- oilada beshinchi va undan keyingi bo'lib tug'ilayotgan bolalar sonining kamayishi;
- ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarning kiritilishiga katta e'tibor qaratilayotganligi sababli, iqtisodiyotning aksariyat tarmoqlaridagi mehnat sharoiti avvalgidek zararli va og'ir hisoblanmasligi.

Yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlar respublikada imtiyozli pensiyadan butunlay voz kechishga imkon beradi. Bu esa, pensiyaga chiqish o'rtacha yoshini erkaklar uchun 1,5 yilga, ayollar uchun 2 yilga ko'tarish imkonini beradi.

O'zbekistonda pensiya jamg'armasining moliyaviy holatini yaxshilash yo'llaridan yana biri erkaklar va ayollar uchun pensiyaga chiqish yoshini tenglashtirishdir. Yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida O'zbekiston aholisining jinsiy tarkibida bevosita ayollarga xos ijtimoiy-demografik xususiyatlar sodir bo'lmoqda. Jumladan:

- ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan ayollar salmog'i ortib bormoqda;
- ayollarda erkaklarga nisbatan tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligining yuqoriligi saqlanmoqda;
- reproduktiv yoshdagi ayollarda tug'ish hollari keskin kamayib bormoqda.

Ko'rib o'tilgan ijtimoiy-demografik xususiyatlar erkaklar va ayollar uchun pensiyaga chiqish yoshini tenglashtirish imkonini yaratadi. Mazkur tadbiri amalga oshirilishi o'rtacha pensiyaga chiqish yoshini 3 yilga ko'tarishga imkon beradi.

Bu mexanizmlarni amalga oshirish natijasida o'rni bosish o'rtacha koeffitsiyentini ko'tarish va yangi to'g'rilash koeffitsiyentlarini joriy qilish yo'li bilan ish haqi va pensiyalar minimal miqdorlarini tenglashtirish mumkin bo'ladi.

Albatta, yuqorida keltirilgan pensiya ta'minotini takomillashtirish mexanizmini to'raligicha va bir vaqtda amalga oshirib bo'lmaydi. Chunki, ularning samarasi 10-12 yildan keyin namoyon bo'ladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, pensiya tizimini takomillashtirishning eng samarali usullaridan biri bu jamg'arishga asoslangan pensiya tizimini shakllantirishdir. Lekin, bu tizim birdamlik pensiya tizimining o'rni bosish kerak emas. Jamg'arishga asoslangan pensiya tizimini qo'shimcha, davlatga aholining yashash sharoitini yaxshilash va davlat pensiya tizimi oldidagi majburiyatlarini bajarishda yordam beradigan tizim sifatida ko'rish lozim. Masalan, jamg'arishga asoslangan pensiya tizimi imtiyozlarni bekor qilish o'rni qoplashi mumkin.

Bundan tashqari, jamg'arishga asoslangan pensiya jamg'armasi mamlakat iqtisodiyoti uchun samarali investitsiya manbaidir. Buni juda ko'p mamlakatlar tajribasi asosida ko'rish mumkin. Masalan, Chilida iqtisodiyotning rivoji uchun sarflanayotgan moliyaviy manbalarning asosiy qismi aynan jamg'arishga asoslangan pensiya jamg'armalari tomonidan ta'minlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, jamg'arishga asoslangan pensiya jamg'armalarini tashkil etish hamda unda ishtirok etish butunlay ixtiyoriy bo'lgan nodavlat pensiya jamg'armalari tarmog'ini yaratish orqali amalga oshirilishi lozim. Albatta, bunday jamg'armalarni tashkil etish qoidalarini ta'minlovchi va faoliyat jarayonini boshqarib turuvchi qonunlar talab qilinadi. Ularning investitsion faoliyatini esa maxsus boshqaruvchi kompaniyalar orqali amalga oshirish mumkin. Bu esa, mablag' qo'yishning samaradorligini va uning saqlanishi kafolatini ta'minlovchi asosiy shart hisoblanadi.

Fikrimizcha, bunday tizimni bosqichma-bosqich yaratish kerak. Bosqichma-bosqich deyilganda, quyidagi choralarning ketma-ket amalga oshirilishi tushuniladi:

- pensiya jamg'armalarining himoyasini ta'minlab beruvchi va nodavlat pensiya tizimi ishtirokchilarining munosabatlarini boshqarib turuvchi qonunlar va me'yoriy hujjatlarni qabul qilish;
- davlat pensiya tizimiga bo'lgan majburiy mexanizmi mukammallashtirish hisobiga ish beruvchilar nodavlat pensiya tizimida ishtirok etishiga shart-sharoitlar yaratib berish;

– yirik korxonalar xodimlari uchun nodavlat pensiya jamg'armalarini shakllantirish.

Davlat ushbu tizimni yaratish bo'yicha tashabbuskor va ular faoliyatining qonuniyligini ta'minlovchi kafil bo'ladi. Masalan, jamg'arishga asoslangan pensiya tizimida juda ko'p moliyaviy mablag'lar yig'iladi va davlat tomonidan belgilanadigan "o'yin koridori" moliyaviy piramidalar paydo bo'lishining oldini olishi va ular faoliyatining aniq qonunlarga asoslanganligini belgilash hamda mablag' qo'yishdagi xavf-xatarlarning minimalligini ta'minlab beradi.

Davlatning xususiy pensiya jamg'armalarini boshqarishdagi asosiy choralarini quyidagilar hisoblanadi:

- jamg'armalar faoliyatini litsenziyalash;
- ularning moliyaviy holatini doimiy monitoring qilish;
- jamg'armalarda majburiy buxgalteriya hisobini olib borishni tekshirish va har yili mustaqil auditni o'tkazish;
- moliyaviy xavf-xatar darajasi katta bo'lgan loyihalarga kapital qo'yishning oldini olish maqsadida pensiya aktivlarini saralash ustidan nazorat qilish.

Nodavlat pensiya jamg'armasi o'z mulki va aktivlari bilan barcha ishtirokchilar oldida ma'suliyatni va javobgarlikni oluvchi mustaqil yuridik shaxs bo'ladi. Davlat bunday pensiya jamg'armalarining qarzlari bo'yicha majburiyatni o'z bo'yniga olmasligi kerak. O'z navbatida, pensiya jamg'armasi ham davlat majburiyati uchun javobgar emas. Pensiya jamg'armasi tomonidan beriladigan pensiya miqdori pensionerning qo'ygan mablag'i miqdori va bu mablag'larni investitsiyalash evaziga olingan daromad miqdori bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim.

O'tish davrining xususiyatlarini hisobga olgan holda nodavlat pensiya jamg'armalari, hech bo'lmaganda birinchi bosqichlarida iqtisodiy va moliyaviy jihatdan qudratli korxonalar yoki tijorat banklari tomonidan tashkil etilishi lozim. Bunda soha hudud jihatdan bir nechta korxonalarning pensiya jamg'armalari korporativ jihatdan birlashishi ham mumkin. Aytish kerakki, nodavlat pensiya jamg'armalarining faoliyati pensiya badallarini yig'ishga, pensiya zahiralari qayta joylashtirishga, pensiya majburiyatlarini hisoblashga va nodavlat pensiya jamg'armasi ishtirokchilariga pensiya to'lashga qaratilishi lozim. Bunday faoliyatni yuritish uchun davlatdan ruxsat olish majburiy bo'lishi kerak.

Nodavlat pensiya jamg'armalariga badallar o'tkazish korporativ shartnomalar asosida ish beruvchi va ishchi tomonidan bajarilishi zarur. Bunday jamg'armalar faoliyatida ishtirok etish uchun fuqarolarni jalb qilishda soliqqa tortishga aloqador usullardan foydalanish lozim.

Nodavlat pensiya jamg'armalarida ishchilar va ish beruvchilar ishtirokining ijobiy tomonlari quyidagilardan iborat:

- keksayganda o'ziga davlat pensiyasidan tashqari yetarli mablag'larni yig'ish imkoniyati;
- yig'ilgan mablag'larning jamg'arma rahbariyati va maxsus boshqaruv kompaniyalari tomonidan sifatli boshqarilishi natijasida ularning ko'paytirilishi;

- qatnashchilar bilan jamg'arma o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar jarayonining qulayligi;
- moliyaviy majburiyatlarning xususiy pensiya jamg'armasi ishtirokchilari o'rtasida tasdiqlanishi;
- daromadlarning soliqqa tortish bazasi qisqarishi hisobidan joriy soliq to'lovlarining kamayishi;

Novdavlrat pensiya jamg'armalarini yaratishning xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, ish beruvchilarning undagi ishtiroki bir qator shart-sharoitlar bilan bog'liqdir:

- korxonaning malakali kadrlar salohiyatini saqlab qolishiga va uni mustahkamlashga urinishi (ba'zi ish beruvchilar o'z ishchilari uchun pensiya jamg'armasiga to'lovni amalga oshirishda ma'lum imtiyozlar yaratadi);
- xususiy pensiya jamg'armalarida ishtirok etayotgan ishchilar uchun badal to'lovini amalga oshirish evaziga firmalarning soliq to'lovlari miqdorining kamayishi (AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya va boshqa G'arbiy Yevropa mamlakatlarida korxonalarining soliqqa tortiladigan badallari ularning o'z xodimlari uchun xususiy pensiya jamg'armalariga o'tkazgan badallarining umumiy miqdoriga kamaytiriladi. Keyinchalik soliqlar pensiya jamg'armasi ishtirokchisi bo'lgan xodim tomonidan qo'shimcha pensiya to'lovlari olinishi paytida ushlab qolinadi).

Shunday qilib, yuqorida ko'rsatilgan ustuvor yo'nalishlarni amaliyotga tadbiiq etish, birinchidan, pensiya jamg'armasi moliyaviy barqarorligini ta'minlashga, ikkinchidan, pensionerlarning iqtisodiy farovonligining oshishiga yordam beradi.

Qisqacha xulosalar

Pensiya qonun tomonidan kafolatlangan va fuqarolarni keksaligida, qisman yoki to'liq mehnatga layoqatsizligi, boquvchisini yo'qotganda hamda mehnat faoliyatining muayyan sohasida ma'lum ish stajiga erishgan paytida ta'minlashga qaratilgan pullik to'lovdur. Pensiya iqtisodiy tabiati va maqsadiga ko'ra ijtimoiy sug'urta elementi sifatida ish haqi yoki oilaviy daromaddan mahrum bo'lgan hollarda ularning o'mini qolashga qaratilgan. Pensiya tizimi sug'urta asosida shakllantiriladigan va aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va konstitutsion huquqlarini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan pul mablag'lari fondidan foydalanishga asoslanadi.

Pensiyaning yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik turlari mavjud. Yoshga doir pensiya olish huquqiga erkaklar 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda, ayollar 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladi. Nogironlik pensiyalari mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotilgan tayinlanadi. Vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Pensiyaning iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering.
2. Pensiya ta'minotining qanday asosiy tamoyil va mexanizmlari mavjud?
3. Jahon amaliyotida pensiya tizimining qanday turlari mavjud?
4. "Ish staji" va "sug'urta staji" tushunchalarining farqini tushuntirib bering.
5. Pensiyaning tayinlash shartlarini tushuntirib bering.
6. Qoplash koeffitsiyenti deganda nimani tushunasiz?
7. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining pensiya tizimiga ta'sirini tushuntirib bering.
8. Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning qanday yo'llarini bilasiz?

Adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанамиз тараккиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. // Халқ сўзи, 2010 йил 30 январь.
2. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
3. Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш бўйича меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Адолат, 2008.
4. Абдурахмонов Қ.Х., Тоҳирова Х.Т., Шарипов Б.М. Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш. – Тошкент, 2006.
5. Александров Д.Г. Пенсионная система в России: состояние, проблемы, перспективы. – Москва, 2007.
6. Политика доходов и заработной платы. Учебник /И.М. Алиев, Н.А. Горелов. – Ростов н/Д: Феникс, 2008.
7. Роик В. Пенсионная система России: история, проблемы и пути совершенствования. – Москва, 2007.
8. Умурзаков Б.Х. Проблемы пенсионного обеспечения в условиях рыночных отношений. – Т.: Фан, 2005 – 174 с.
9. Усмонова М.А., Муродова Г. Ижтимоий ҳимоя нима? – Т.: ТДЮИ, 2009.
10. Шевелева О.Б., Михайлов В.В. Направления системного совершенствования социальной защиты населения в регионе. – Кемерово: КузГТУ, 2004.

ATAMALAR LUG'ATI

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish – bu davlat tomonidan munosib turmushni, ya'ni jamiyat rivojining zamonaviy bosqichidagi standartlarga mos moddiy ta'minotni va insonning erkin rivojlanishini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan kafolatlanadigan va amalga oshiriladigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy tavsifdagi chora-tadbirlar majmuasi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi – bu moddiy yordam ko'rsatish maqsadida aholining turli ijtimoiy-demografik va kasb guruhleri, shuningdek, davlat uchun alohida xizmat ko'rsatgan fuqarolarga taqdim etiladigan ijtimoiy pensiya, nafaqa, kompensatsiya, subsidiya va imtiyozlar tizimidir.

Aholini manzilli ijtimoiy muhofaza qilish – bu aholining, asosan, muhtoj va nochor qatlamlarini ijtimoiy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimdir.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi – bu me'yoriy hujjatlar asosida aholini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashni tashkil etishda qo'llaniladigan usullar majmuidir.

Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish – bu ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-tibbiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy moslashtirishni o'tkazish, og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan fuqarolarni tiklash va qayta tiklash bo'yicha ijtimoiy xizmat faoliyatidir.

Aholi daromadlari indeksatsiyasi – bu olingan mehnat va boshqa daromadlarning harid qobiliyatini saqlash va tiklashga qaratilgan davlat mexanizmi.

Aholining natural daromadlari – qishloq xo'jaligi mahsulotlarining barcha tushumlari: dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik mahsulotlari, bog'dorchilik, sabzavot-poliz ekinlari, shaxsiy tomorqa, tabiat in'omlaridan shaxsiy, oilaviy ehtiyojlar uchun tayyorlanadigan mahsulotlar kabi tushumlar.

Aholining pul daromadlari – bu aholining barcha pul mablag'lari tushumi: pensiya, stipendiya, nafaqa; mulkdan foiz, dividend, renta, aksiya, qimmatbaho qog'ozlar, ko'chmas mulk, chorva mollari, tomorqa mahsulotlari, turli buyumlar va boshqa tovarlarni sotishdan tushadigan, turli xizmatlar ko'rsatishdan keladigan pul tushumlaridir.

Aholining turmush darajasi – bu aholi farovonligi, ne'matlar va xizmatlar iste'molining darajasi, insonlarning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish me'yorini tavsiflovchi sharoitlar va ko'rsatkichlar majmuidir.

Aholining yashash qobiliyati koeffitsiyenti – aholi genofondini, aqliy rivojlanishini saqlab qolish imkoniyatlarini tavsiflaydi. Bu koeffitsiyent besh balli shkala bo'yicha o'lchanadi.

Bepul ijtimoiy xizmat – keksa yoshdaligi, kasalligi, nogironligi, qarindoshlari yo'qligi tufayli o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatishga noqobil fuqarolarga, agar shunday fuqarolarning daromadi yashash minimumidan past bo'lsa; qiyin hayot vaziyatiga tushgan shaxslarga; ishsizlik, tabiiy ofat, halokatdan jabr

ko'rganlarga; qiyin hayot vaziyatiga tushib qolgan balog'atga yetmagan bolalarga ko'rsatiladi.

Birdamlik tamoyiliga asoslangan pensiya tizimi – joriy pensiya majburiyatlarini qoplash uchun zarur badal turlarini yig'ish orqali amalga oshiriladigan pensiya tizimi.

Bola tug'ilganda beriladigan nafaqa – nafaqaning bu turi bola tug'ilgan paytida eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida bir yo'la beriladi.

Bolalar uyi – ota-onasidan ajralgan, yolg'iz ota-onalar bolasini, shuningdek, davlat yordamiga muhtoj (ota-onasi kasal, ota-onalik huquqidan muhrum etilganlar bolasi) bolalar uchun mo'ljallangan davlat tarbiya muassasasi.

Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha beriladigan nafaqa – pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan shaxs vafot etgan taqdirda uning qaramog'ida bo'lgan oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqa olish huquqiga ega.

Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiya – pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lgan shaxs vafot etgan taqdirda uning qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega.

Geriatrik yordam – keksa yoshdagi kishilarga ko'rsatiladigan tibbiy yordamning maxsus shakli hisoblanadi.

Geriatrik markazlar – ambulatoriya-poliklinika muassasalarining yangi shakli hisoblanib, ular keksalarga tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha faoliyat ko'rsatadi, davolash-maslahat yordami va tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshiradi, geriatriya bo'yicha uchastka vrachi va boshqa mutaxassislarining malakasini tizimli turda oshiradi, geriatrik bemorlarni davolash bo'yicha ilmiy-nazariy anjumanlar o'tkazadi, qarish profilaktikasi va davolashning zamonaviy geriatrik usulini, geroformokologiyaning so'nggi yutuqlarini amaliyotga tadbiiq qiladi.

Davlat daromadi – milliy mahsulot va milliy boylikning pul shaklida davlatga tekkan va uning mulkiga aylangan qismi. Davlat daromadi quyidagi asosiy shakllarga ega: soliqlar, soliqdan tashqari to'lovlar, davlat korxonalaridan tushgan pul, davlatga tekkan dividend, davlat mulkini sotishdan kelgan pul tushumi.

Davlat zayomlari – davlatning qarz majburiyatlari. Hukumat va mahalliy xokimiyat zayomlar chiqarib, uni korxonalar, tashkilotlar va aholiga sotadi. Zayom chiqarish qarz ko'tarib, xarajatlarni qoplashni bildiradi.

Davlat ijtimoiy kafolatlari – bu qonun bilan tasdiqlangan va fuqarolarning konstitutsiyaviy majburiyatlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan davlat majburiyatlaridir.

Davlat ijtimoiy yordami – mehnatga layoqatligining yo'qligi, ishsizligi, daromad manbai mavjud bo'lmaganligi sababli mustaqil ravishda o'zini moddiy ta'minlay olmagan shaxslarga davlat tomonidan beriladigan yordam.

Davlat ijtimoiy sug'urta nafaqalari – mehnat faoliyati bilan

shug'ullanayotgan (shug'ullangan) va belgilangan tartibda ijtimoiy sug'urtalangan shaxslarga (ularning oila a'zolariga) ular vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo'lganlari, homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqqanlari hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy sug'urtasi (pensiya jamg'armasi) mablag'lari hisobidan nafaqalar tayinlanadi.

Davlat ijtimoiy ta'minoti – shaxslarning moddiy holati e'tiborga olinmagan holda davlat tomonidan beriladigan ta'minot.

Daromad – bu ishlab chiqarilgan mahsulot narxining mahsulotni ishlab chiqarish sarf-harajatlaridan oshishi, shuningdek, har bir sinf, ijtimoiy guruh yoki alohida shaxsning yangi yaratilgan qiymatda mavjud bo'lgan va uning tomonidan o'zlashtirilgan ulushi.

Daromad samarasi – daromadning xarid qobiliyatiga ta'siridir. Masalan, narxning ortishi daromad samarasini pasaytiradi va aksincha, tovarlarning arzonlashuvi uning samarasini oshiradi.

Dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa – nafaqaning bu turi xodim yoki uning qaramog'ida bo'lgan turmush o'rtog'i, 18 yoshga to'lmagan yoki vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz (yoshidan qat'i nazar) bolalari, aka-ukalari va opa-singillari, ota-onasi, bobosi yoki buvisi vafot etganda bir yo'la beriladi.

Dividend – aksiyadorlik jamiyati olgan foydaning aksiya egasiga ulush bo'lib tegadigan qismi. Dividend aksiya chiqargan korxonaning rentabel ishlashiga bog'liq.

Yoshi bo'yicha nafaqa – ish stajiga, ulami boqishga bo'lgan qarindoshlari bo'lmagan shaxslar: erkaklarga 65 yoshga, ayollarga 60 yoshga yetganlarida tayinlanadi.

Yoshga doir pensiya – pensiyaning bu turini olish huquqiga erkaklar 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda, ayollar 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar.

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti bo'yicha davlat kafolatlari – davlat jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolarga jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqalarida jamg'arilgan mablag'lari saqlanishi hamda to'planishini kafolatlaydi.

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti olish huquqi – O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, respublika hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti olish huquqiga ega.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etish – ish beruvchilarning, shuningdek, mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshiruvchi fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etishi majburiydir. Yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dehqon xo'jaliklarining a'zolari, shuningdek, boshqa fuqarolar jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etadilar.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini shakllantirish – jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari Xalq bankida shaxsiy jamg'arib

boriladigan pensiya hisob varaqalarida mablag'larni jamlash yo'li bila shakllantiriladi. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqalarida mablag'larni shakllantirish manblari quyidagilardan iborat: jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari; jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallar shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqalari mablag'lariga hisobla chiqarilgan foizlar.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan foydalanish jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini to'lash uchun foydalaniladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizim mablag'laridan jamg'arib boriladigan pensiya tizimi bilan bog'liq bo'lmaga majburiyatlarini bajarish uchun foydalanish mumkin emas. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan investitsiya va kredit resurslari sifatida foydalanish Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi.

Jamg'arish tamoyiliga asoslangan xususiy pensiya tizimi – badallan kapitallashtirish va pensiya hisobini individuallashtirish tamoyili asosida shakllanib, shaxsiy hisoblarda jamg'ariluvchi sug'urta badallari pensiya darajasi belgilaydi.

Jamiyatning intellektual salohiyat indeksi – turmush sifatining muhim indikatorini hisoblanib, aholining bilim saviyasini hamda mamlakatdagi fannir ahvolini aks ettiradi. Intellektual salohiyat indeksini hisoblashda katta yosh aholining bilim darajasi, talabalarning aholi umumiy sonidagi ulushi, YalMda ta'limga harajatlar ulushi, iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlarning umum sonida fanda hamda ilmiy xizmat ko'rsatishda bandlarning ulushi, YalMda fan harajatlarining ulushi hisobga olinadi.

Jamoatchilik iste'mol jamg'armalari – iste'molning jamoaviy shakllaridan biri bo'lib, aholiga bepul xizmat ko'rsatish sohasining amal qilish uchun moddiy asosni tashkil qiladi. Mazkur jamg'armalar hisobiga aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha davlat muassasalari: kasalxonalar, poliklinikalar, boshqa sog'liqni saqlash muassasalari, maktablar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari va boshqa o'quv muassasalari, bolalar bog'chalari, ko'pgina madaniy muassasalari ta'minlanadi.

Kunduzgi geriatrik shifoxonalar – keksa bemorlarga kunduzi tibbiy ijtimoiy yordam ko'rsatadigan shifoxonalardir. Keksalar bu tipda shifoxonaga ehtiyojiga qarab har kuni yoki belgilangan kunlari kelib ko'rinadi.

Ijtimoiy ish – kasbiy faoliyat, kishilarga, ijtimoiy guruhlariga, shaxsiy ijtimoiy qiyinchiliklarni qo'llab-quvvatlash, himoyalash, to'g'rilash va qay moslashtirish vositasida bartaraf etishga ko'maklashish asosiy maqsad hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda kishilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash institutlari yaratilgan va ancha muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda "ijtimoiy xodim" kasbi keng tarqalgan kasblardan sanaladi. Ijtimoiy ish ikki bosqichli bo'lishi mumkin: turar joyi bo'yicha ijtimoiy oldini olish ixtisoslashtirilgan ijtimoiy yordam: oilaga xizmat ko'rsatish, aholi bandlik xizmati, "ishonch telefoni" va hok.

Ijtimoiy ishlar – hamma uchun mumkin bo'lgan ishlar. Bular odatda xodimlarning kasbiy malakasini talab etmaydi va ijtimoiy foydali hisoblanadi. Mahalliy boshqaruv idoralari, bandlik xizmatining taklifi va ishtirokida aholining vaqtinchalik bandligini ta'minlash maqsadida haq to'lanadigan ijtimoiy ishlarni korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda, xususiy korxonalarda tashkillashtiriladi. Ijtimoiy ishlarda ishtirok etish istagini bildirgan shaxslar bilan muddatli mehnat shartnomasi tuziladi, bunday bitim tuzishga ustuvor huquqdan ishsizlik bo'yicha moddiy yordam olmaydigan ishsiz fuqarolar foydalanadi hamda ijtimoiy ishlarda band fuqarolar amalda bajaradigan ishlariga haq oladi.

Ijtimoiy muhofaza – davlatning inson hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoit yaratishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va huquqiy kafolatlar yig'indisi.

Ijtimoiy muhofaza ob'ektlari – pensionerlar, nogironlar, kam ta'minlangan oilalar, ishsizlar, homilador va yosh bolalarga qarash bilan bandligi tufayli ishlamayotgan ayollar, kasallik tufayli vaqtincha ishlamayotgan fuqarolar, o'quvchi yoshlar, mehnatga layoqatsizlarga qarash bilan band bo'lgan ishlamayotgan mehnatga layoqatli fuqarolar ijtimoiy muhofaza ob'ektlariga kiradi.

Ijtimoiy institut – bu odamlarning birgalikdagi faoliyatini tashkiliy tuzilma tarzida tashkil etishning barqaror shakli yoki me'yoriy jihatdan tartibga solinadigan qoidalar tizimi.

Ijtimoiy yordam – davlat va notijorat tashkilotlari tomonidan aholining kam ta'minlangan qatlamlariga ularning muhtojligini tekshirish asosida ne'matlar va xizmatlarning berilishi.

Ijtimoiy yordamning amalga oshirilish shakllari – ijtimoiy yordam nogiron bo'lib qolgan shaxslarga turli tibbiy xizmatlar ko'rsatish, harakatlanish va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash, kasallikdan keyingi sanatoriy-kurort reabilitatsiyasi va boshqa shakllarda; ota-ona tarbiyasi va parvarishdan mahrum bo'lib qolgan voyaga yetmagan bolalarga homiylik hamda vasiylik qilish, mehribonlik uylariga joylashtirish, ularni moddiy qo'llab-quvvatlash yo'li bilan; keksa yoshdagi fuqarolarga turli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, tegishli hollarda sahovat uylariga joylashtirish kabi shakllarda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslar – o'zining salomatligi, yoshi, daromad olish imkoniyatining cheklanganligi tufayli o'zgalarning ko'magiga muhtoj shaxslar hamda oilalar. Ular o'zlarining yozma arizalariga ko'ra ijtimoiy yordamning bir yoki bir necha turlaridan foydalanishga haqli bo'ladi.

Ijtimoiy parametrlar – ijtimoiy sohani, uning tarkibini, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni, ularning ehtiyojlari va manfaatlarini, ularni qondirish shakllari va usullarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar, aholi daromadlari, iste'moli darajasi va dinamikasini, ularning taqabalanishini, ularni belgilovchi omillarini o'lchovchi va baholovchi ko'rsatkichlar.

Ijtimoiy siyosat – bu jamiyatning faqat barcha ne'matlardan mahrum qilingan qismininggina emas, balki uning hamma fuqarolarining daromadlari va

turmush darajasini tartibga solishga, tuzatishga qaratilgan siyosatdir.

Ijtimoiy siyosat sub'yektlari – bu ijtimoiy guruhlarning jamiyatdagi oʻmi borasidagi oʻzaro birgalikdagi harakatlarining haqiqiy ishtirokchilari, yaʼni ijtimoiy siyosat ishtirokchilaridir.

Ijtimoiy sugʻurta – aholini mehnatga layoqatlilik va daromadlarni yoʻqotishi bilan bogʻliq turli xatarlardan ijtimoiy muhofaza qilish shaklidir.

Ijtimoiy taʼminot – bu aholiga ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy yordam koʻrsatish, byepul taʼlim olish kabilarni oʻz ichiga olib, insonlarning farovon hayot kyechirishiga xizmat qiladi hamda aholining muhtoj qatlamlariga asosan ijtimoiy transfyertlar orqali yetib boradi.

Ijtimoiy texnologiyalar – muhtoj aholining ijtimoiy himoyasiga ustuvor eʼtibor berish, koʻrsatilayotgan ijtimoiy xizmat sifat va saviyasini koʻtarish, bu yoʻnalishda yangi uslub va mexanizmlar joriy etish maqsadida qoʻllaniladigan texnologiyalar. Masalan, bunday texnologiyalarga “tez ijtimoiy xizmat”ni tashkillashtirish, kunduzgi ijtimoiy xizmat koʻrsatish markazlarini yaratish, harakat vositalari, xizmat koʻrsatish prokat punktlarini ochish kiradi.

Ijtimoiy transfertlar – aholiga davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan begʻaraz tarzda pul va natural shakldagi resurslarning berilishidir.

Ijtimoiy xatar – kasallik, baxtsiz hodisa, farzand tugʻilishi va uni parvarishlash, keksalik oqibatida mehnatga layoqatning yoʻqolishi, shuningdek, mehnatga talabning yoʻqligi tufayli moddiy jihatdan taʼminlanmaganlikning yuz berish holati.

Ijtimoiy xodim – keksalar, mehnatga yaroqsiz fuqarolarga qarovchi mutaxassis hisoblanib, ular uyiga tushliklarni, oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlarni, sanoat mollari va boshqa tovarlarni yetkazib beradi, xonani yigʻishtirish, yuvishga, yuviladigan roʻzgʻor buyumlari, usti-boshlarini kirxonalarga, kimyoviy tozalashga topshirishga koʻmaklashadi, uy-roʻzgʻor anjomlarini taʼmirlashda, maishiy xizmat va boshqa xizmatlarga haq toʻlashda koʻmaklashadi, shifokorga borgungacha xizmatlarni (harorat oʻlchashni, gorchitsa qoʻyishni, istitgich tayyorlashni, uyga shifokor chaqirishni) amalga oshiradi, turarjoyini taʼmirlashni, hovli-bogʻga ishlov berishni, yoqilgʻi bilan taʼminlashni va boshqalarni tashkillashtiradi.

Ijtimoiy xodimning odob meʼyorlari – xodimning xulqi va qiyofasi, oʻz mijozlariga, hamkasblariga, hamkorlik qiladigan tashkilotlariga, oʻz kasbiga, jamiyatga boʻlgan munosabatidir.

Ijtimoiy hayot sifati – ijtimoiy sohani (sogʻliqni saqlash, taʼlim, ijtimoiy taʼminot, fan, madaniyat va sanʼat) rivojlantirishning yuksak darajasini; koʻrsatiladigan xizmatlarning ommabopligini; aholini ijtimoiy himoya qilishni, sogʻlomlashtirish, rehabilitatsiya, sport bilan shugʻullanish va madaniy qadriyatlariga qoʻshilish imkoniyatlarini anglatadi.

Imtiyoz – qonunda belgilangan umumiy qoidalarni bajarishdan toʻliq yoki qisman ozod qilish, qandaydir majburiyatlarni bajarish; biror afzalliklarni taqdim qilish. Imtiyozda qandaydir ijtimoiy kafolat, moddiy yordam yoki nafaqa

berishning o'ziga xos tartibi mavjud.

Internat uyi – bu parvarishga, maishiy va tibbiy xizmatga muhtoj qariya va nogironlarning doimiy yashashi uchun mo'ljallangan muassasadir. Internat uylari yashovchilarning turiga qarab: qariyalar va nogironlar internat uyi, 18 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan nogironlar internat uyi va "Mehnat faxriylari pansionati" kabi turlarga bo'linadi.

Iste'mol fondi – bu insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini va umuman jamiyat ehtiyojlarini (ishlab chiqarish sohasiga, mudofaga harajatlari) qondirishni ta'minlovchi milliy daromadning bir qismidir. Ushbu fond miqdori ehtiyojlarni qondirishning imkoniyatlarini belgilaydi.

Ixtiyoriy ijtimoiy sug'urta – bu iqtisodiyotning alohida tarmoqlari doirasida yollanma ishchilar uchun uzoq muddatli tarmoqli va jamoa shartnomalari asosida tashkil etiladigan sug'urta.

Ixtiyoriy tibbiy sug'urta – ixtiyoriy tibbiy sug'urta dasturlari asosida amalga oshiriladigan ijtimoiy sug'urtaning tarkibiy qismidir. Ixtiyoriy tibbiy sug'urta jamoaviy va yakka tartibda bo'lishi mumkin. Uning asosiy maqsadi sug'urta qilingan shaxslarni majburiy tibbiy sug'urta dasturlaridan ortiqcha sifatli tibbiy xizmatlar bilan kafolatli ta'minlashdir.

Ishsizlik bo'yicha nafaqa – qonunda belgilangan tartibda ishsiz deb tan olingan fuqarolarga beriladigan nafaqa.

Ish haqi – ishchi kuchi bahosining pul ifodasidagi aniq shakli hisoblanadi. Shuningdek, ish haqi ishchilar o'rtasida sarflangan mehnat miqdori va sifatiga qo'yilgan haqiqiy hissaga muvofiq taqsimlanadigan hamda korxonada ishining pirovard natijalari foydani asosiy qismidir.

Iqtisodiy o'sish – iqtisodiy ravnaq, ya'ni iqtisodiyotning ilgari lab rivojlanishi bo'lib, yaratilgan tovarlar va xizmatlarning ko'payib borishini bildiradi.

Kam ta'minlanganlik – jamiyatning katta qismi uchun xos bo'lgan mo'tadil turmush tarzini olib borish uchun moddiy boyliklarning yetishmasligi sababli yuzaga keladigan holat.

Kam ta'minlangan oilalar – daromadi yashash minimumidan past bo'lgan oilalar.

Kambag'allikning jiddiyligi – kambag'al aholi daromadlari tirikchilik minimumi darajasiga yetishi uchun qancha mablag' zarurligini, kambag'allikning keskinligi "kambag'al aholi" toifasi daromadlarining tabaqalanishini ifodalaydi.

Kasallangan oila a'zosini parvarishlash zarur bo'lganda beriladigan nafaqa – uch yoshgacha bo'lgan bolani yoki 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolani parvarishlashda band bo'lgan ona kasal bo'lib, bolani parvarishlashga qurba yetmay qolgan hollarda, parvarish bilan band bo'lgan ishlayotgan boshqa oila a'zolari yoki qarindoshlariga mehnatga layoqatsizlik varaqasiga asosan nafaqaning bu turi beriladi.

Kvalimetriya – turmush sifatini baholashning miqdoriy usullarini birlashtiruvchi ilmiy soha.

Keksalar – 75 yoshdan 90 yoshgacha bo'lgan aholi qatlami keksalar guruhiga kiritiladi.

Kompensatsiya – bu aniq shaxs yoki shaxslar guruhiga qonunchilikda qayd etilgan maqsadlarga sarflagan harajatlarni to'liq yoki qisman qoplashdir.

Korporativ sug'urta $\frac{1}{2}$ ish beruvchilarning daromadlari hisobidan shakllantiriladigan ijtimoiy muhofaza tizimi bo'lib, u xodimlarning ijtimoiy ehtiyojlarini (tibbiy yordam, sog'lomlashtirish, turar-joy, transport va o'quv harajatlarini, madaniyat sohasidagi xizmatlar, pensiya to'lovlari) qondirishga yo'naltiriladi.

Majburiy ijtimoiy sug'urta – mehnatga layoqatlikni (kasallik, baxtsiz hodisa, qarilik) yoki ish joyini yo'qotish tufayli daromaddan (ish haqi) mahrum bo'lish hollarida qo'llaniladigan amaldagi qonunchilikda belgilangan ijtimoiy kafolatdir.

Majburiy kasbiy sug'urta – salomatligiga xavf soluvchi yuqori darajali xatar mavjud, ya'ni jarohatlanish darajasi, kasb kasalliklari darajasi yuqori va og'ir bo'lgan yollanma ishchilar guruhlarini, shuningdek, muddatidan oldin kasbiy pensiyalar berilishi ko'zda tutilgan shaxslar doirasini qamrab oladigan sug'urta.

Majburiy tibbiy sug'urta – majburiy tibbiy sug'urta mablag'lari hisobiga tibbiyot muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan berul tibbiy xizmatlardan foydalanishda jismoniy shaxslarga teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan davlat ijtimoiy sug'urtasining tarkibiy qismi.

Maslahat geriatric markazlar – keksalarga tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha faoliyat ko'rsatadigan markaz hisoblanib, unda vrachlar keksalar uchun rejali turda maslahat o'tkazadi va tashkil qiladi, tuman (shahar)da yashovchi keksalar ro'yxatini tuzadi, surunkali keksa bemorlarni davolaydi va doimiy kuzatishda bo'ladi.

Me'yoriy daromad – qo'shimcha ravishda sotilgan tovardan tushadigan qo'shimcha pul. Uni aniqlash uchun tushgan umumiy pul (daromad) o'simi qo'shimcha sotilgan tovarlar miqdoriga bo'linadi.

Mehnat kooperatsiyasi – ixtisoslashgan mehnat turlarining bir-biriga bog'lanib, muayyan turdagi mahsulot yaratishda ishtirok etishidir.

Mehnat taqsimoti – yagona mehnatning mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan mehnat turlariga ajralib borishi, mehnat turlarining to'xtovsiz ravishda yangidan paydo bo'lishidir.

Mehnatga haq to'lash tizimi – mehnat me'yorlari doirasida unga haq to'lash me'yorini bildiradigan ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro aloqalardir. Mehnatga haq to'lash tizimi xodimning amalda erishilgan mehnat natijalariga hamda xodim bilan ish beruvchi o'rtasida kelishilgan ishchi kuchining bahosiga muvofiq ish haqi olishini kafolatlaydi.

Mehnat hayoti sifati – bu xodimlarning shaxsiy ehtiyojlarini tashkilot (korxon) doiralaridagi faoliyat orqali qondirish darajasidir. Mehnat hayoti sifatining mehnatning mazmuni; mehnatni tashkil qilish; mehnatning adolatli taqdirlanishi va e'tirof etilishi; mehnatning havfsiz va sog'lom sharoitlari;

qo'shimcha ijtimoiy imtiyozlar imkoniyati; huquqiy himoyalanganlik; mahoratni o'stirish va o'z kuchlarini rivojlantirish imkoniyatlari; hamkasblar bilan do'stona munosabatlarga yordam beruvchi tashkiliy madaniyat kabi asosiy elementlardan iborat.

Mehnat staji - xodimning mehnat shartnomasi asosida korxonaga, muassasaga, tashkilotlarda yollanib ishlagan, ish haqi olgan davri (boshqa ish vaqti, dam olish vaqtlarini ham uzluksiz o'z ichiga qamrab olgani holda) nazarda tutiladi va u yuridik fakt sifatida ijtimoiy ta'minot masalalarida muayyan huquqlar hamda majburiyatlarni keltirib chiqaradi.

Milliy boylik – jamiyat tasarrufida bo'lgan moddiy zahiralalar, to'plangan mahsulotlar, iqtisodiy oborotga kirgan yoki jalb etilgan tabiiy zahiralarning yig'indisidir.

Milliy daromad – bu ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan mehnat vositalari va moddiy harajatlardan istisno umumiy ijtimoiy mahsulotning bir qismi bo'lib, u yangidan yaratilgan qiymat, ya'ni ushbu yildagi ishlab chiqarishning jamiyat farovonligi uchun qo'shilganidir.

Milliy mulk – milliy boylikning asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, jamiyatning moddiy farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan mol-mulkni o'z ichiga oladi. Uning salmog'i va tarkibi yalpi ichki mahsulot va aholi farovonligini oshirish uchun katta imkoniyat yaratadi.

Minimal ijtimoiy standartlar – bu davlat qonunlari va hukumat qarorlari asosida muayyan davrga nisbatan ijtimoiy kafolatlarning minimal darajasidir.

Minimal iste'mol budjeti – shaxsning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ma'naviy ehtiyojlar iste'molining ijtimoiy asoslangan minimal darajasini ta'minlaydigan iste'mol tovarlari va xizmatlari turlarining qiymati.

Mulkdan keladigan daromad – xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga moliyaviy va nomoliyaviy resurslarni foydalanishga berib qo'yishdan olinadigan daromadlardir.

Mutlaq kambag'allik konsepsiyasi – shaxs yoki oilona minimal hayotiy ehtiyojlarni ta'minlash uchun zarur bo'lgan daromadni ta'riflashga asoslanadi. O'zbekistonda insonning minimal ehtiyojlarini ta'riflash uchun shunday tirikchilik minimumi belgilanganki, uni hisoblab chiqishda kaloriyalar, oqsillar, yog'lar va uglevodlar zaruriy iste'molining fiziologik me'yorlaridan foydalaniladi.

Mutlaq qashshoqlik – bu daromadlarning umuman yo'qligi yoki shaxsning (oilaning) minimal turmush ehtiyojlarini qondirish uchun zarur daromadning yo'qligidir. Qashshoqlikning bu turi ko'pincha daydilar, boshpanasizlar orasida uchraydi.

Nafaqa – fuqarolarga qonunchilikda ko'zda tutilgan hollarda qisman yoki to'liq mehnatga layoqatsizlik, og'ir moddiy sharoit, bolali oilalarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, qarindoshlardan biri vafot etgan taqdirda muntazam yoki bir marta beriladigan pul to'lovlaridir.

Nisbiy kambag'allik konsepsiyasi asosiy mezon sifatida insonning minimal ehtiyojlaridan emas, balki uning farovonligi ko'rsatkichlarining u yoki bu

mamlakatda ustunroq keluvchi moddiy ta'minlanganlik darajasi bilan bo'ladigan nisbatidan foydalanadi. Bunday yondoshuvda daromadlari mamlakat bo'yicha o'rtacha daromadning muayyan ulushidan oshmaydiganlar kambag'al hisoblanadi.

Nisbiy qashshoqlik yashash minimumi budjetidan kam bo'lgan daromadlari miqdori bilan aniqlanadi. Jahon amaliyotida bu ko'rsatkich mamlakat bo'yicha o'rtacha daromadlarning 40-60 %dan kam bo'lmagan daromadlarga nisbatan qo'llaniladi.

Nogironlar – jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar.

Nogiron bolalar - jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sezgi nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan hamda ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar.

Nogironlik bo'yicha nafaqalar – nogironlik sodir bo'lgan hollarda, ya'ni mehnat qobiliyati doimiy yoki uzoq muddatga yo'qotilganda, faqat I- va II-guruh nogironlarga tayinlanadi va to'lanadi.

Nogironlik guruhlari – sog'lig'ini yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasi. Nogironlikning uch guruhi, sabablari, shuningdek, nogironlik boshlangan vaqt va qancha muddatga belgilanishi tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi tomonidan aniqlanadi.

Nogironlarga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish – o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz nogironlarga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish, shu jumladan, ularni bepul oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa iste'mol mollari bilan ta'minlash Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari tomonidan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari ishtirokida amalga oshiriladi.

Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish – nogironlarga turmush faoliyati cheklanganligini bartaraf etishi, qoplashi uchun shart-sharoitlarni ta'minlovchi hamda ularga jamiyat hayotida fuqarolar bilan teng ishtirok etish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan, davlat tomonidan kafolatlangan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi.

Nogironlarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi – shaxsni rehabilitatsiyaning zarur texnik va boshqa vositalari bilan ta'minlash ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy-maishiy ko'nikma hosil qilish va ijtimoiy muhitda yo'lni topa olish orqali jamiyat va oilaviy-maishiy hayotda mustaqil faoliyat yuritishga bo'lgan qobiliyatli va ijtimoiy mavqegini qayta tiklashga, hayotda faol ishtirok etishga qaytish uchun shart-sharoitlarni yaratish va ta'minlab berishga qaratilgan tadbirlar tizimi.

Nogironlarning kasbiy rehabilitatsiyasi – shaxsning xohish va intilishlarini inobatga olgan holda uni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ko'nikma hosil qilish, qayta ko'nikma hosil qilish, o'qitish, qayta o'qitish yoki kelgusida ishga joylash va zarur ijtimoiy ta'minot imkoniyatlari bo'lgan holda qayta kasbga o'rgatishga qaratilgan tadbirlar tizimi.

Nogironlarning tibbiy reabilitatsiyasi – bu tiklash terapiyasi, rekonstruktiv jarrohlik, protezlash va ortezlashdan iborat bo'ladi.

Nogironlarni reabilitatsiya qilish – nogironlarga organizmining izdan chiqqan yoki yo'qolgan funksiyalarini tiklashiga va ularni kompensatsiya qilishiga, turmush faoliyati cheklanganligini bartaraf etishi uchun yordam berishga qaratilgan tibbiy, ijtimoiy, psixologik, pedagogik, jismoniy, kasbga, mehnatga doir chora-tadbirlar tizimi.

Nogironlik pensiyalari – mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotilgan hollarda tayinlanadigan pensiya.

Nominal daromadlar – ishlovchining muayyan turdagi ish (xizmat)larni bajargandan so'ng uning mehnatining natijasiga qarab beriladigan pul ko'rinishidagi daromadlar.

Onalik va bolalik muhofazasi – davlat va jamoatchilik tadbirlari tizimi. Ona va bola sog'lig'ini himoya qilishga qaratiladi. Ona va bola muhofazasining tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati ayollar sog'ig'ini saqlash, onalar va go'daklar o'limini kamaytirish, ularning kasallanishini pasaytirish, ilk bolalikdan jismoniy va ruhiy sog'lom avlodni tarbiyalashni ta'minlash.

Ona va bola hayoti, sog'ligiga tahdid soluvchi xavflar ichki xavflar – turli kasalliklar va holat buzilishlari munosabati bilan onalar va chaqaloqlar o'limi; homiladorlik, tug'ish va tug'ishdan keyingi surunkali kasalliklar, homiladorming noqulay mehnat sharoitlari yoki korxonada sanitariya me'yorlariga amal qilmaslik, tug'ish jarohatlari va boshqa sabablar tufayli yuzaga kelgan asoratlar va patologiyalar.

Ona va bola hayoti, sog'ligiga tahdid soluvchi xavflar tashqi xavflar – baxtsiz hodisalar (kuyish, xizmatdan boshqa joydagi lat yeyishlar, avariya, halokatlari) va tibbiy aralashuvlar (anesteziya asoratlari, akusherlik yordami) natijasida shikastlanish va halok bo'lish.

Onalik sarmoyasi (oilaviy sarmoya) – bu onalarga budget mablag'laridan ikkinchi va undan keyingi bolalar tug'ilgandan keyin ajratiluvchi sarmoyadir. Ayollar va bolali oilalar bu sarmoyadan turar joy sotib olish yoki ta'lim sohasida xizmatlar olish, ayollarning nafaqa ta'minotini yaxshilash uchun foydalanishlari mumkin.

Pensiya – qonun tomonidan kafolatlangan va fuqarolarni keksaligida, qisman yoki to'liq mehnatga layoqatsizligi, boquvchisini yo'qotganda hamda mehnat faoliyatining muayyan sohasida ma'lum ish stajiga erishgan paytda ta'minlashga qaratilgan pullik to'lovdur.

Pensiya tizimi – sug'urta asosida shakllantiriladigan va aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish hamda konstitutsion huquqlarini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan pul mablag'lari jamg'armasidan foydalanishga asoslangan tizim.

Pul emissiyasi – davlat tomonidan qo'shimcha ravishda, ya'ni keragidan ortiqcha chiqarilgan pul bo'lib, bu bilan davlat xarajatlari qoplanadi.

Reabilitatsiya – kasallanish davrida nogironlikning oldini olish va nogironlarga jismoniy, ruhiy, kasbiy mukammallikka erishishga yordamlashishga

yo'naltirilgan tiklash terapiyasi.

Real daromadlar – aholining pul daromadlaridan turli to'lovlar (soliqlar, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar) ajratib tashlangandan so'nggi qolgan pul daromadini iste'mol narxlar indeksiga bo'lish orqali aniqlanadigan pullik daromadlar.

Salomatlik zonalari – keksalar va nogironlarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatishda davolash-sog'lomlashtirish majmuasining yangi shakli bo'lib, uning asosiy vazifasi keksa yoshdagi aholini va nogironlarni sog'lomlashtirish, sog'lig'ini tiklash va hayotining faollik davrini uzaytirishdir. "Salomatlik zona"ning asosiy omillari iqlim bilan davolash, davolash badan tarbiyasi, mehnat terapiyasi, fizik davolash va boshqa davolash usullaridir.

Sanatoriy-kurortlarda davolanganda beriladigan nafaqa – sanatoriy-kurortlarda davolanishda, agar xodimning ta'til kunlari uning davolanishi uchun yetarli bo'lmasa, u holda unga sanatoriy-kurortda davolangan barcha kunlari uchun, xodimning mehnat ta'til kunlari chiqarib tashlagan holda nafaqa hisoblanadi.

Soliqlar – majburiy to'lov shaklida firmalar, tashkilotlar va aholi davlatga to'laydigan pudlir. Soliqlar fiskal, iqtisodiy faollikni rag'batlantirish va ijtimoiy himoya vazifalarini bajaradi.

Subsidiya – davlat tomonidan aniq maqsad yo'lida ishlatish uchun qaytarib olmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'idir. Subsidiyalar iqtisodiyotni tarkiban o'zgartirish, eksport-importni muvozanatlashtirib turish ishlarini yo'lga qo'yish, ayrim hududlarga yordam berish maqsadlarida ajratiladi.

Stipendiya – bu ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiydigan oliy o'quv yurtlari talabalariga to'lanadigan muntazam pullik to'lovdur.

Tibbiy-ijtimoiy markazlar – tibbiy-ijtimoiy ta'minot xizmatining faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida tashkil qilingan markazlar bo'lib, ularning asosiy vazifasi keksa yoshdagi kishilar va nogironlarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatishni nazorat qilish va muvofiqlashtirish, keksalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'ini mustahkamlash, ishlab chiqarish va ijtimoiy faolligini oshirish, ijtimoiy-huquqiy, kasbiy-gigienik masalalar bo'yicha maslahatlar tashkil qilishdir.

Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza – muayyan shaxs organizmining barcha tizimlarini kompleks tekshirish asosida uning sog'lig'ini yo'qotganlik darajasini, organizmi funksiyalari turg'un buzilishi oqibatida turmush faoliyatining cheklanganlik darajasini, nogironlik guruhini, nogironlikning yuz berganligi sabablari hamda vaqtini aniqlash, shuningdek, shaxs uchun sog'lig'ining holatiga ko'ra amalga oshirishi mumkin bo'lgan mehnat faoliyati turlari va mehnat sharoitlari, o'zgalarning parvarishiga, sanatoriy-kurortda davolanishning tegishli turlariga hamda ijtimoiy himoyaga bo'lgan ehtiyojlari haqida tavsiyalar tayyorlash.

Tirikchilik minimumi – inson salomatligini saqlash va uning hayotiy faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar va xizmatlar iste'molining minimal ko'rsatkichidir.

Tibbiy sug'urta – sog'liqni muhofaza qilishda aholi manfaatlarini ijtimoiy

himoya qilish shakli. Tibbiy sug'urtadan maqsad sug'urta hodisasi yuz berganda jamg'arilgan vositalar hisobidan tibbiy yordam olishda fuqarolarni kafolatlash va oldini olish tadbirlarini moliyalash hisoblanadi.

Turmush sifati – shaxsning, uning faoliyat turlarini, ehtiyojlari tarkibini va ularni qondirish darajasini, insonning (aholi, ijtimoiy guruhlarning) jamiyatdagi turmush sharoitlarini va tabiat muhiti bilan uyg'un munosabatlarini tavsiflovchi, turmushdan qanoatlanish hissini yaratuvchi hayotiy qadriyatlari majmui hisoblanadi.

Turmush qiymati - bu pul shaklida ifodalangan aholi (uning turli qatlamlari va guruhlari) tomonidan iste'mol qilinadigan me'yorlar yoki amalda iste'mol qilinishi zarur bo'lgan moddiy ne'mat va xizmatlar miqdoridir.

Uzoq umr ko'ruvchilar – 90 yoshdan yuqori aholi qatlami uzoq umr ko'ruvchilar guruhiga kiritiladi.

Uy xo'jaligi – bitta xonadonda yashaydigan, o'zining barcha daromadlari va boyliklarini birlashtirgan, tovarlar hamda xizmatlar iste'moliga, asosan turar joy va oziq-ovqat mahsulotlariga sarf-harajatlarni birgalikda amalga oshiradigan shaxslar guruhidir.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti – ijtimoiy tinchlikni qaror toptirish va saqlash, inson huquqlarini muhofaza qilish, ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish va mehnat sohasidagi bir qator o'ziga xos masalalarni hal qilish maqsadida tashkil etilgan tashkilot hisoblanadi.

Shaxsiy yordamchi xo'jalik – tomorqa, bog'dorchilik yoki poliz ekin maydonlaridagi shaxsiy mehnatga asoslangan iste'molchilik xo'jaligidir. Shaxsiy yordamchi xo'jalikda mevalar, reza mevalar, sabzavotlar, kartoshka yetishtiriladi, chorva mollari, parranda boqiladi, ya'ni bu xo'jalikdan o'z daromadlari natural shaklda to'ldirila borib, oziq-ovqat tovarlarini oladi. Aholining ayrim guruhlari uchun shaxsiy yordamchi xo'jalik mahsulotini sotish natijasida pul daromadlari manbai shakllanadi.

Shaxsiy tomorqa xo'jaliklaridan olinadigan daromadlar – daromadni shakllantirishda muhim rol o'ynab, ularning hajmi Milliy hisoblar tizimida umumqabul qilingan tamoyil bo'yicha, ya'ni mahsulotni ishlab chiqarilgan qiymatidan uni ishlab chiqarishga ishlatilgan mahsulot va xizmatlar qiymatini ayirish orqali hisoblab chiqiladi.

Shaxsning turmush faoliyati cheklanganligi – shaxsning o'ziga o'zi xizmat qilish, harakatlanish, yo'lni topa olish, muloqot qilish, o'z xatti-harakatini nazorat etish, shuningdek, o'qish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanish qobiliyatini yoki imkoniyatini to'la yoxud qisman yo'qotganligi.

Foiz – pul egasi o'z pulini o'zgalarga qarzga bergani uchun oladigan daromadi. Foiz darajasi kreditga bo'lgan talabga va uning taklifiga bog'liq bo'ladi.

Foyda – ishbilarmonlik qobiliyatini ishga solib, xatarli ishga qo'l urgani uchun tadbirkorlarga tegadigan mukofotdir. Foyda miqdori narxga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda, xarajatlarga nisbatan teskari mutanosiblikda o'zgaradi.

Fuqarolarning shaxsiy sug'urtasi – bu shartnoma asosida tuziladigan,

uning doiralari hamda amal qilinishi vaqt davrlari, ma'lum jismoniy shaxslarning moliyaviy imkoniyatlari, xatar turlari bilan cheklangan institut.

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi – bu xodim hayotidagi zarur manfaatlar sohasi bo'lib, uning miqdoriy va sifatiy tavsiflari davlat va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va madaniy taraqqiyoti darajasini ifodalovchi tizimdir.

Shaxsiy hayot sifati – insonning dunyo miqyosidagi rivojlanishining bugungi kundagi yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, oiladagi uyg'un munosabatlar va shaxslarning o'zaro hurmatiga, uy xo'jaligini va bolalar tarbiyasini birgalikda olib borishga, ishdan bo'sh vaqtlarni o'tkazish va o'z shaxsini rivojlantirish uchun bo'sh vaqtning mavjudligiga, qadriyatlarini va dunyoqarashni shakllantirishga asoslanadi.

Yalpi daromad – bu shaxsiy iste'molga shaxsiy yordamchi xo'jalikdan natural tushumlar qiymatini va aholiga ijtimoiy fondlar hisobiga bepul va imtiyozli xizmatlar qiymatini hisobga olgan holda kirimning barcha manbalari bo'yicha pul daromadlarining umumiy yig'indisidir.

Yalpi milliy mahsulot – bir yil davomida pirovard natijada yaratilgan va bozor narxida hisoblangan barcha mahsulot va xizmatlardir. Aholi jon boshiga yaratilgan yalpi milliy mahsulot miqdori iqtisodiyotning naqadar rivojlanganligini bildiradi.

O'z ixtiyoridagi daromadlar – soliqlarni to'lash va majburiy to'lovlardan keyingi, aholi ixtiyorida haqiqatdan ham qoladigan, oxirgi iste'mol uchun sarf qilish mumkin bo'lgan daromad hisoblanadi.

O'rtacha daromad – tovar birligini sotishdan tushgan daromad. Uni topish uchun umumiy daromad sotilgan tovarlar miqdoriga bo'linadi.

Qariyalar – 60-74 yoshdagi erkaklar, 55-74 yoshdagi ayollar qariyalar guruhiga kiritiladi.

Qariyalar uyi – bu oilada yashash imkoniyatiga ega bo'lmagan va muntazam parvarishga muhtoj keksayib qolgan fuqarolar uchun ijtimoiy rivojlantirish muassasasidir.

Qashshoqlik – iste'mol qilinishi insonning yashash qobiliyatini saqlash imkoniyatining beradigan ne'matlar va xizmatlarning biologik mezonlar bo'yicha yo'l qo'yiladigan minimal turlarini iste'mol qilish holati.

Qiyin hayotiy vaziyat – fuqaro hayot faoliyatini ob'ektiv izdan chiqaruvchi vaziyat (nogironlik, qarilik tufayli o'ziga o'zi xizmat ko'rsata olmaslik, kasallik, yetimlik, boqimsizlik, kam ta'minlanganlik, ishsizlik, turar joyga ega bo'lmaslik, oiladagi kelishmovchiliklar va keskin munosabatlar, yolg'izlik), bularni mustaqil bartaraf etish mumkin emas, shunga ko'ra, uni qo'llab-quvvatlovchi va unga yordam beruvchi ijtimoiy xizmat zarur.

Qo'shimcha dam olish kuni uchun beriladigan nafaqa – bu nafaqa nogiron bolasini tarbiyalayotgan ishlovchi ota-onaning biriga bola 16 yoshga to'lgunga qadar davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdorida haq to'lagan holda oyiga qo'shimcha bir dam olish kuni beriladi.

Qo'shimcha daromad – mablag'larning asosiy manbasidan tashqari

olinadigan daromaddir. Masalan, o'rindoshlik bo'yicha ishlash, qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar.

.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

- ✓ 1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2008.
2. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. – Тошкент, 2007.
- ✓ 3. Ўзбекистон Республикасида ногиронларни ижтимоий химоя қилиш тўғрисидаги қонуни (янги таҳрири). – Тошкент, 2008.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

- ✓ 1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1991 йил 27 майдаги “Ўзгалар парваришига муҳтож ёлғиз пенсионерларни ижтимоий химоялаш юзасидан қўшимча чора-тадбирлар ҳақида”ги 212-сонли фармони.
- ✓ 2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1999 йил 13 январдаги “Аҳолини аниқ йўналтирилган ижтимоий қўллаб-қувватлашни таъминлашда фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органларининг ролини ошириш тўғрисида”ги ПФ-2177-сонли фармони.
- ✓ 3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2002 йил 25 январдаги “Аҳолининг ижтимоий химояга муҳтож қатламларини аниқ йўналтирилган тарзда қўллаб-қувватлашни кучайтириш тўғрисида”ги ПФ-3017-сон фармони.
- ✓ 4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ижтимоий химоя йили” давлат Дастурини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисидаги фармойиши // Халқ сўзи. №242, 2006 йил 13 декабрь.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 7 декабрдаги “2000-2005 йилларда ёлғиз кексаларни, пенсионер ва ногиронларни ижтимоий химоя қилишни кучайтиришга қаратилган чора-тадбирлар дастури тўғрисида”ги 520-сонли қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 24 январдаги “Қарияларни кадрлаш йили давлат дастури тўғрисида”ги 30-сонли қарори.
- ✓ 3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2007-2010 йилларда ёлғиз кексалар, пенсионер ва ногиронларни аниқ ижтимоий муҳофаза қилиш ва уларга ижтимоий хизмат кўрсатишни янада кучайтириш чора-тадбирлари давлат дастури тўғрисида”ги ПК-459-сонли қарори // Халқ сўзи. 2006 йил 7 сентябрь.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

- ✓ 1. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. // Халқ сўзи, 2010 йил 30 январь.

- ✓ 2. Каримов И.А. Жахон молиявий-иқтисодий инкирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
3. Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашни изчил давом эттириш – давр талаби. // Халқ сўзи, 2009 йил 14 февраль.
4. Каримов И.А. Тарихи бой, бугуни гўзал, келажаги буюк шаҳар // Халқ сўзи, 2009 йил 2 сентябрь.
- ✓ 5. Каримов И.А. Инсон манфаатлари устуворлигини таъминлаш – барча ислохот ва ўзгаришларимизнинг бош мақсадидир. // Халқ сўзи, 2008 йил 9 февраль.
6. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. – Т.: Ўзбекистон, 2005.

V. O'zbekiston Respublikasi Vazirligidan huquqiy-me'yoriy hujjatlari

- ✓ 1. Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш бўйича меъриий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Адолат, 2008.
2. Мехнат қонунчилиги бўйича меъриий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Ўзбекистон, 2006.
3. Мехнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги “Мехнат ресурслари балансини тузиш ва ишга жойлаштиришга муҳтож шахсларни аниқлаш услубияти”. Ўқув-услубий қўлланма. – Тошкент, 2006 йил.

VI. Darsliklar

- ✓ 1. Абдурахмонов Қ.Х. Мехнат иқтисодиёти. Дарслик. – Т.: МЕННАТ, 2009.
2. Аверин А.Н. Государственная система социальной защиты населения. – М.: РАГС, 2007.
3. Кричевский Н.А. Социальное страхование. – М.: Дашков и К, 2008.
4. Кукушина В.С. Социальная защита населения: опыт организационно-административной работы. – Москва, 2007.
5. Лига М.Б. Качество жизни как основа социальной безопасности. – М.: Гардарики, 2006.
6. Медведова Г.П. Этика социальной работы. – М.: Гуманит, Владос, 2002.
7. Политика доходов и заработной платы: учебник /И.М. Алиев, Н.А. Горелов. – Ростов н/Д: Феникс, 2008.
8. Римашевская Н.М. Социальная защита населения. – М.: РИЦ ИСЭП РАН, 2005.
9. Удалова А.А. Право социального обеспечения. – М.: Омега-Л, 2006.
10. Человеческое развитие. Учебник. – Т.: Университет мировой экономики и дипломатии, 2008.

VII. O'quv qo'llanmalar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг “Жахон молиявий-иқтисодий инкирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари” номли асарини ўрганиш бўйича ўқув

- қўлланма. Тузувчилар: Б.Ю.Ходиев, А.Ш.Бекмуродов, У.В.Ғафуров, Б.К. Тўхлиев. – Т.: Иктисодиёт, 2009.
2. Абдурахмонов Қ.Х., Тохирова Х.Т., Шарипов Б.М. Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш. – Тошкент, 2006.
 3. Буянова М.О., Кобзева С.И., Кондратьева З.А. Право социального обеспечения. – Москва, 2007.
 4. Возраст мудрости – возраст создания / Программа развития ООН. – М: Экзамен, 2004.
 5. Гейц И.В. Новые условия назначения и выплаты пособий по социальному страхованию. – Москва: Дело и сервис, 2007. – 240 с.
 6. Дулясова М.В., Ханнанова Т.Р. Социальная защита работника: жизнь, здоровья, деловая репутация. – М.: Экономика, 2008.
 7. Зайнышев И.Г., Ерохин Ю.С., Золотарева Т.Ф., Кононова Л.И. Технологии социальной работы. – М.: Владос, 2000 – 240 с.
 8. Медведова Г.П. Этика социальной работы. – М.: Гуманит, Владос, 2002.
 9. Оценка эффективности деятельности учреждений социальной поддержки населения. – Москва, 2007.
 10. Политика доходов и качество жизни населения / Под ред. Н.А.Горелова. – СПб.: Питер, 2003.
 11. Реабилитация детей в домах ребенка. – М.: Владос-Пресс, 2007.
 12. Рынок труда: учебное пособие. Под общей редакцией д.э.н., проф. Абдурахманова Қ.Х., д.э.н., проф. Одегов Ю.Г. – ТФ РЭА, 2009.
 13. Саидов К.С., Сеймуратов Р.А., Асломова Д.Х. Социал иктисодиёт. Ўқув қўлланма. – Т: Ўзбекистон, 2006.
 14. Стоимость жизни и ее измерение / Под ред. В.М.Рутгайзера., П.Шпилько. – М.: Финансы и статистика, 2000
 15. Храпылина Л.П. Реабилитация инвалидов. – Москва, 2007.
 16. Шевелева О.Б., Михайлов В.В. Направления системного совершенствования социальной защиты населения в регионе. – Кемерово: КузГТУ, 2004.- 161 с.

VIII. Ilmiy monografiyalar va maqolalar

1. Абдурахмонов Қ.Х., Имомов В. Ўзбекистонда меҳнат потенциалдан самарали фойдаланиш ва уни бошқариш. – Т.: Akademiya, 2008.
2. Александров Д.Г. Пенсионная система в России: состояние, проблемы, перспективы. – Москва, 2007.
3. Вахобов А.В. Бозор муносабатлари тизимидаги ижтимоий фондлар. – Т.: Шарқ, 2003.
4. Зокирова Н.Қ., Абдурахмонов О.Қ. Инкироз: оқибатлар, бартараф этиш, меҳнат муаммолари ва янги марраларга чиқиш. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2009.
5. Калинин И.В. Возрастная структура населения. – М: Статистика, 1975.

6. Кукушина В.С. Социальная защита населения: опыт организационно-административной работы. – Москва, 2007.
7. Ижтимоий ҳимоя йили: мазмун ва моҳият / М.Ҳожиматов, Ш.Жумаев, У.Олтинов. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.
8. Лига М.Б. Качество жизни как основа социальной безопасности. – Москва: Гардарики, 2006.
9. Павлюченко В.Г. Социальное страхование. – М.: Дашков и К, 2007.
10. Социальная защита населения в Республике Узбекистан. – Т.: Top Image Media, 2007.
11. Тишин Е.В. Социальное обеспечение нетрудоспособного населения: направления и формы совершенствования. – СПб.: ИСЭП РАН, 2006.
12. Умурзаков Б.Х. Проблемы пенсионного обеспечения в условиях рыночных отношений. – Т.: Фан, 2005.
13. Усмонова М.А., Муродова Г. Ижтимоий ҳимоя нима? – Т.: ТДЮИ, 2009.
14. Цимбалист А.В. Социальная защита населения региона в условиях демографического кризиса. – М.: Палеотип, 2005.
15. Гойибназаров Б.К. Аҳоли турмуш даражасини статистик баҳолаш. – Т.: Фан, 2005.

IX. Doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari

1. Абдураманов Х.Х. Ўзбекистонда қарияларни ижтимоий ҳимоя қилишнинг демографик асослари. – Т.: ЎзР ФА Иқт. инст, 2007.
2. Зокирова Н. Совершенствование системы социальной защиты населения в условиях социально-ориентированной рыночной экономики (на примере семей Республики Узбекистан) – Т.: ИЭ АН РУз, 2001.
3. Мажидов Н. Ўзбекистон Республикасида ижтимоий сугурта тизимини ислох қилиш. – Т.: ЎзМУ, 2003.

X. Statistik ma'lumotlar to'plami

1. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari
2. Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari
3. “Основные показатели развития социального обеспечения” yillik statistik to'plami
4. “Социальное развитие и уровень жизни населения в Узбекистане” yillik statistik to'plami

XI. Internet saytlari

1. <http://www.economyfaculty.uz>
2. <http://www.epoisk.ru>
3. <http://www.economics.com.ua>
4. <http://www.hse.ru>

5. <http://www.humanities.edu.ru>.
6. <http://www.belpages.com>
7. <http://www.boltalka.com.ua>.
8. <http://www.segodnya.ru>.

MUNDARIJA

	KIRISH	7
I BOB	“AHOLINI IJTIMOY MUHOFAZA QILISH” FANINING PREDMETI VA MAZMUNI	9
1.1	“Aholini ijtimoiy muhofaza qilish” tushunchasining mohiyati.....	9
1.2.	Aholini ijtimoiy muhofaza qilish ob’yektlari va tamoyillari.....	12
1.3.	Aholini ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi va yo’nalishlari.....	14
	Qisqacha xulosalar.....	21
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	21
	Adabiyotlar ro’yxati.....	21
II-BOB	AHOLINI IJTIMOY MUHOFAZA QILISH DAVLAT IJTIMOIY SIYOSATINING ASOSIY YO’NALISHI SIFATIDA..	23
2.1./	Davlat ijtimoiy siyosatining mohiyati, mazmuni va maqsadlari.....	23
2.2. z	Aholini ijtimoiy muhofaza qilishda davlatning o’rni.....	32
2.3. b	Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidagi institutlar.....	40
2.4. v	Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidagi jamg’armalar faoliyati.....	46
	Qisqacha xulosalar.....	54
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	54
	Adabiyotlar ro’yxati.....	55
III BOB	KAM TA’MINLANGAN OILALARNI IJTIMOY MUHOFAZA QILISH TIZIMI	56
3.1.	Kam ta’minlanganlik: tushunchasi, mezoni va shakllari.....	56
3.2.	Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to’lash tartibi.....	59
3.3	Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi va uning moliyaviy ta’minlash shakllari.....	64
	Qisqacha xulosalar.....	72
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	73
	Adabiyotlar ro’yxati.....	73
IV BOB	XODIMLARNI IJTIMOY MUHOFAZA QILISH MEXANIZMI	74
4.1.	Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishning mohiyati.....	74
4.2.	Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish shakllari va mexanizmlari.....	79
4.3.	Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishda Xalqaro Mehnat Tashkilotining o’rni.....	83
	Qisqacha xulosalar.....	91
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	91
	Adabiyotlar ro’yxati.....	92
V BOB	ISHSIZLARNI IJTIMOY MUHOFAZA QILISH TIZIMI	93
5.1.	Ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy yo’nalishlari.....	93
5.2.	Ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilishning xorijiy tajribalari.....	99
	Qisqacha xulosalar.....	103
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	103

	Adabiyotlar ro'yxati.....	104
VI BOB	YOLG'IZ KEKSALAR VA NOGIRONLARNI IJTIMOY MUHOFAZA QILISH TIZIMI.....	105
6.1.	Keksalarga nisbatan olib boriladigan ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari.....	105
6.2.	Yolg'iz keksalar va nogironlarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatishning xususiyatlari.....	108
6.3.	Nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining amal qilishi.....	110
6.4.	Yolg'iz keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish borasidagi xorijiy mamlakatlar tajribasi va ularning O'zbekiston sharoitida qo'llanilish imkoniyatlari.....	122
	Qisqacha xulosalar.....	127
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	127
	Adabiyotlar ro'yxati.....	128
VII BOB	AHOLIGA IJTIMOY XIZMAT KO'RSATISHNING XUSUSIYATLARI VA MEXANIZMLARI.....	129
7.1.	Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning mohiyati va tamoyillari.....	129
7.2.	Ijtimoiy xizmat ko'rsatish turlari va ularning tasnifi.....	131
7.3.	Ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va ularning vazifalari.....	146
7.4.	Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish yo'llari.....	149
	Qisqacha xulosalar.....	151
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	152
	Adabiyotlar ro'yxati.....	152
VIII BOB	AHOLI TURMUSH DARAJASI VA DAROMADLARI.....	153
8.1.	Aholining turmush darajasi – ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida.....	153
8.2.	Aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlari.....	156
8.3.	Aholi daromadlari va ularning shakllanish manbalari.....	165
8.4.	Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solish shakllari va usullari.....	167
	Qisqacha xulosalar.....	172
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	172
	Adabiyotlar ro'yxati.....	172
IX BOB	IJTIMOY SUG'URTANING MAZMUNI VA MOHIYATI.....	174
9.1.	Ijtimoiy sug'urta: tushunchasi, mohiyati va shakllari.....	174
9.2.	Ijtimoiy sug'urtaning milliy tizimlari.....	182
9.3.	Ijtimoiy sug'urta tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari.....	193
	Qisqacha xulosalar.....	197
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	197
	Adabiyotlar ro'yxati.....	197
X BOB	IJTIMOY TA'MINOT TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.....	199
10.1.	Ijtimoiy ta'minot tizimining mohiyati va uning shakllanishi.....	199
10.2.	Ijtimoiy nafaqalar va ularning turlari.....	205

10.3.	Minimal ijtimoiy standartlar va me'yorlar.....	211
10.4.	Ijtimoiy transfertlarni tayinlash va moliyalash tartibi.....	214
	Qisqacha xulosalar.....	216
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	216
	Adabiyotlar ro'yxati.....	216
XI BOB	PENSIYA TIZIMINING MOHIYATI VA UNI ISLOH QILISH...	218
11.1.	Pensiya tizimining mohiyati, tamoyillari va mexanizmlari.....	218
11.2.	Pensiya ta'minoti va uning turlari.....	224
11.3.	Pensiya tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari.....	230
	Qisqacha xulosalar.....	235
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	236
	Adabiyotlar ro'yxati.....	236
	ATAMALAR LUG'ATI.....	237
	ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	252

СОДЕРЖАНИЕ

	Введение.....	7
ГЛАВА 1	ПРЕДМЕТ И СОДЕРЖАНИЕ ДИСЦИПЛИНЫ «СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА НАСЕЛЕНИЯ».....	9
1.1.	Суть и содержание понятия «социальная защита населения»..	9
1.2.	Объекты и принципы социальной защиты населения.....	12
1.3.	Механизм и направления социальной защиты населения.....	14
	Краткие выводы.....	21
	Вопросы для контроля и обсуждения.....	21
	Список литературы.....	21
ГЛАВА 2	СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА НАСЕЛЕНИЯ, КАК ПРИОРИТЕТНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ ГОСУДАРСТВА.....	23
2.1.	Суть, содержание и цели социальной политики.....	23
2.2.	Роль государства в социальной защиты населения.....	32
2.3.	Институты системы социальной защите населения.....	40
2.4.	Деятельность фондов системы социальной защиты населения..	46
	Краткие выводы.....	54
	Вопросы для контроля и обсуждения.....	54
	Список литературы.....	55
ГЛАВА 3	СИСТЕМА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ МАЛООБЕСПЕЧЕННЫХ СЕМЕЙ.....	56
3.1.	Малообеспеченность: понятие, критерии и формы.....	56
3.2.	Порядок назначения и выплаты материальной помощи малообеспеченным семьям.....	59
3.3.	Механизм социальной защиты материнства и детства и формы ее финансового обеспечения.....	64
	Краткие выводы.....	72
	Вопросы для контроля и обсуждения.....	73
	Список литературы.....	73
ГЛАВА 4	МЕХАНИЗМ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ РАБОТНИКОВ..	74
4.1.	Суть социальной защиты работников.....	74
4.2.	Формы и механизмы социальной защиты работников.....	79
4.3.	Роль Международной Организации Труда в социальной защите работников.....	83
	Краткие выводы.....	91
	Вопросы для контроля и обсуждения.....	91
	Список литературы.....	92
ГЛАВА 5	СИСТЕМА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ БЕЗРАБОТНЫХ...	93
5.1.	Основные направления социальной защиты безработных.....	93
5.2.	Зарубежный опыт социальной защита безработных.....	99
	Краткие выводы.....	103
	Вопросы для контроля и обсуждения.....	103

	Список литературы.....	104
ГЛАВА 6	СИСТЕМА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ОДИНОКИХ ПРЕСТАРЕЛЫХ И ИНВАЛИДОВ.....	105
6.1.	Основные направления социальной политики государства в отношении престарелых.....	105
6.2.	Особенности медико-социального обслуживания одиноких престарелых и инвалидов.....	108
6.3.	Действия системы социальной защиты инвалидов.....	110
6.4.	Опыт зарубежных стран в сфере социальной защиты одиноких престарелых и инвалидов и возможности его применения в условиях Узбекистана.....	122
	Краткие выводы.....	127
	Вопросы для контроля и обсуждения.....	127
	Список литературы.....	128
ГЛАВА 7	ОСОБЕННОСТИ И МЕХАНИЗМЫ СОЦИАЛЬНОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ НАСЕЛЕНИЯ.....	129
7.1.	Суть и принципы социального обслуживания населения.....	129
7.2.	Виды и формы социального обслуживания и их классификация.....	131
7.3.	Работники, осуществляющие социальное обслуживание и их функции.....	146
7.4.	Пути совершенствования социального обслуживания населения.....	149
	Краткие выводы.....	151
	Вопросы для контроля и обсуждения.....	152
	Список литературы.....	152
ГЛАВА 8	УРОВЕНЬ ЖИЗНИ И ДОХОДЫ НАСЕЛЕНИЯ.....	153
8.1.	Уровень жизни населения как социально-экономическая категория.....	153
8.2.	Основные показатели уровня жизни населения.....	156
8.3.	Доходы населения и источники их формирования.....	165
8.4.	Формы и методы государственного регулирования доходов населения.....	167
	Краткие выводы.....	172
	Вопросы для контроля и обсуждения.....	172
	Список литературы.....	172
ГЛАВА 9	СУТЬ И СОДЕРЖАНИЕ СОЦИАЛЬНОГО СТРАХОВАНИЯ.....	174
9.1.	Социальное страхование: понятие, суть и формы.....	174
9.2.	Национальные системы социального страхования.....	182
9.3.	Основные направления реформирования системы социального страхования.....	193
	Краткие выводы.....	197

	Вопросы для контроля и обсуждения.....	197
	Список литературы.....	197
ГЛАВА	ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ	
10	СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ.....	199
10.1.	Суть системы социального обеспечения и ее формирование....	199
10.2.	Социальные пособия и их виды.....	205
10.3.	Минимальные социальные стандарты и нормативы.....	211
10.4.	Порядок назначения и финансирования социальных трансфертов.....	214
	Краткие выводы.....	216
	Вопросы для контроля и обсуждения.....	216
	Список литературы.....	216
ГЛАВА	СУТЬ ПЕНСИОННОЙ СИСТЕМЫ И ЕЕ	218
11	РЕФОРМИРОВАНИЕ.....	
11.1.	Суть, принципы и механизмы пенсионной системы.....	218
11.2.	Пенсионное обеспечение и ее виды.....	224
11.3.	Основные направления реформирования пенсионной системы Краткие выводы.....	230 235
	Вопросы для контроля и обсуждения.....	236
	Список литературы.....	236
	ГЛОССАРИЙ.....	237
	СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ.....	252

CONTENTS

	Introduction	7
CHAPTER 1	SUBJECT AND CONTENTS OF THE “SOCIAL PROTECTION OF POPULATION” DISCIPLINE	9
	1.1. Essence and contents of the “Social Protection of Population” notion.....	9
	1.2. Objects and principles of the social protection of population.....	12
	1.3. Mechanism and directions of the social protection of population. Brief conclusions.....	14 21
	Questions for control and discussion.....	21
	List of literature.....	21
CHAPTER 2	SOCIAL PROTECTION OF POPULATION, AS A PRIORITY DIRECTION OF THE STATE SOCIAL POLICY	23
	2.1. Essence, contents and purposes of the social policy.....	23
	2.2. Role of the state in the social protection of population.....	32
	2.3. Institutions of the system of the social protection of population.....	40
	2.4. Activity of funds of system of the social protection of population. Brief conclusions.....	46 54
	Questions for control and discussion.....	54
	List of literature.....	55
CHAPTER 3	SYSTEM OF THE SOCIAL PROTECTION OF NEEDY FAMILIES	56
	3.1. Neediness: notion, criteria and forms.....	56
	3.2. Order of allocation and payment of material assistance for needy families.....	59
	3.3. Mechanism of the social protection of motherhood and childhood and forms of its financial provision.....	64
	Brief conclusions.....	72
	Questions for control and discussion.....	73
	List of literature.....	73
CHAPTER 4	MECHANISM OF THE SOCIAL PROTECTION OF WORKERS	74
	4.1. Essence of the social protection of workers.....	74
	4.2. Forms and mechanisms of the social protection of workers.....	79
	4.3. Role of International Labor Organization in the social protection of workers.....	83
	Brief conclusions.....	91
	Questions for control and discussion.....	91
	List of literature.....	92
CHAPTER 5	SYSTEM OF THE SOCIAL PROTECTION OF THE UNEMPLOYED	93
	5.1. Basic directions of the social protection of the unemployed.....	93

5.2.	Foreign experience of the social protection of the unemployed.....	99
	Brief conclusions.....	103
	Questions for control and discussion.....	103
	List of literature.....	104
CHAPTER 6	SYSTEM OF THE SOCIAL PROTECTION OF THE LONELY AGED AND DISABLED.....	105
6.1.	Basic directions of the state social policy in regards of the aged.....	105
6.2.	Peculiarities of the medical-social service of the lonely aged and disabled.....	108
6.3.	Effects of the system of social protection of the disabled.....	110
6.4.	Experience of foreign countries in the sphere of the social protection of the lonely aged and disabled and the opportunities of its application in the conditions of Uzbekistan.....	122
	Brief conclusions.....	127
	Questions for control and discussion.....	127
	List of literature.....	128
CHAPTER 7	PECULIARITIES AND MECHANISMS OF THE SOCIAL SERVICE OF POPULATION.....	129
7.1.	Essence and principles of the social service of population.....	129
7.2.	Types and forms of the social service and their classification.....	131
7.3.	Workers bringing the social service into effect and their functions.....	146
7.4.	Ways of perfection of the social service of population.....	149
	Brief conclusions.....	151
	Questions for control and discussion.....	152
	List of literature.....	152
CHAPTER 8	STANDARD OF LIFE AND INCOMES OF POPULATION..	153
8.1.	Standard of life of population as a social and economic category...	153
8.2.	Main indicators of the population standard of life.....	156
8.3.	Incomes of population and sources of their forming.....	165
8.4.	Forms and methods of the state regulation of incomes of population.....	167
	Brief conclusions.....	172
	Questions for control and discussion.....	172
	List of literature.....	172
CHAPTER 9	ESSENCE AND CONTENTS OF SOCIAL INSURANCE.....	174
9.1.	Social insurance: notion, essence and forms.....	174
9.2.	National systems of the social insurance.....	182
9.3.	Basic directions of reforming the system of the social insurance.....	193
	Brief conclusions.....	197
	Questions for control and discussion.....	197
	List of literature.....	197

CHAPTER 10	FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE SYSTEM OF SOCIAL SECURITY	199
10.1.	Essence of the system of social security and its forming.....	199
10.2.	Hardship allowances and their types.....	205
10.3.	Minimal social standards and norms.....	211
10.4.	Order of allocation and financing the social transfers.....	214
	Brief conclusions.....	216
	Questions for control and discussion.....	216
	List of literature.....	216
CHAPTER 11	ESSENCE OF THE PENSION SYSTEM AND ITS REFORMING	218
11.1.	Essence, principles and mechanisms of the pension system.....	218
11.2.	Pension security and its types.....	224
11.3.	Basic directions of reforming the pension system.....	230
	Brief conclusions.....	235
	Questions for control and discussion.....	236
	List of literature.....	236
	GLOSSARU	237
	LIST OF BIBLIOGRAPHY	252

**Q. X. ABDURAHMONOV, X. X. ABDURAMANOV,
I. R. QURBONIYOZOV**

**AHOLINI IJTIMOIIY
MUHOFAZA
QILISH**

O'QUV QO'LLANMA

Muharrir:	Alyoxina Z.
Musahhih:	Oripov I.
Texnik muharrir:	Bekchanov R.A.
Kompyuterda sahifalovchi:	Musayev Sh.

Bosishga ruhsat etildi: 16.03.2010 yil. Qog'oz bichimi 84x108 1/32.
"Times New Roman" garniturasida. Ofset usulida bosildi. Adadi 500.
Shartli bosma tabog'i - 16,8.

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti bosmaxonasida chop etildi.
100003. Toshkent, O'zbekiston shoh ko'chasi, 49-uy.



Abdurahmonov Qalandar Xo'jayevich “Mehnat iqtisodiyoti va aholishunoslik” kafedrası mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi, Oliy ta'lim xodimi, Oliy ta'lim fanlari Xalqaro Akademiyasi akademigi. Bir nechta xalqaro va milliy akademiylarning haqiqiy a'zosi. U 200 dan ortiq ilmiy ishlar, shu jumladan, 50 dan ortiq yirik ilmiy ishlar, qo'llanmalar muallifi. Ilmiy ishlarining asosiy mavzusi mehnat bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, personal menejmenti va boshqa bir qator iqtisodiyot masalalariga bag'ishlangan.



Abduramanov Xamid Xudaybergenovich “Mehnat iqtisodiyoti va aholishunoslik” kafedrası katta o'qituvchisi, iqtisod fanlari nomzodi. U 3 ta o'quv qo'llanma hammuallifi, 40 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi. Ilmiy ishlari aholini ijtimoiy muhofaza qilish va demografiya masalalariga bag'ishlangan.



Qurboniyozov Ikrom Rustamovich “Mehnat Iqtisodiyoti va aholishunoslik” kafedrası assistenti. U 10 taga yaqin ilmiy va o'quv-uslubiy ishlar muallifi. Ilmiy ishlarining asosiy mavzusi mehnat resurslaridan oqilona foydalanish.